

**Abduzohur  
Abduazizov**

**TILSHUNOSLIK  
NAZARIYASIGA  
KIRISH**





Mas'ul muharrir:

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sodiqov A.S.*

Taqrizchilar:

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Alimardonov R. (O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti),*

*M.Abdulhayrov (O'zbekiston Milliy universiteti)*

**Abduazizov, Abduzuhur**

Tilshunoslik nazariyasiga kirish: Oliy o'quv yurtlarining fil. fak. talabalari uchun darslik — T.: "Sharq", 2010. — 176 b.

Mazkur "Tilshunoslikka nazariyasiga kirish" darsligi respublikamiz oliy o'quv yurtlari xorijiy filologiya fakultetlari 1-kurs talabalari uchun mo'ljallangan. U amaldagi o'quv dasturi asosida yozilgan. Darslik tilshunoslik fanining mavzusi, fonetika va fonologiya, leksika, leksikologiya va semasiologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis), jahon tillarining geneologik (kelib chiqishiga ko'ra) va morfologik (tipologik) tasnifi kabi mavzularni qamrab oladi. Hozirgi tilshunoslik nazariyalari va ularda qo'llanayotgan umumiy tushuncha va terminlar, tilni ilmiy tadqiq qilish metodlari haqida ma'lumot berilgan. Darslikka tilshunoslik terminlarining qisqacha izohli lug'ati ilova qilingan.

**BBK.81.2-923**

**ISBN 978-9943-00-540-2**



© "Sharq" NMAK Bosh tahririyati, 2010.

## MUNDARIJA

Soʻz boshi . . . . .	5
Tilshunoslik fanining mavzusi va vazifalari . . . . .	6

### I bob. Fonetika va fonologiya

Fonetikaning oʻrganish sohasi va vazifasi . . . . .	8
Talaffuz aʼzolari. Tovushlarning artikulyatsiyasi . . . . .	10
Akustik fonetika haqida maʼlumot. Tovushlarning akustik belgilari	12
Ekspirimental fonetikaning metodlari . . . . .	14
Nutq tovushlarining tasnifi . . . . .	16
Nutqning fonetik boʻlinishi . . . . .	26
Urgʻu . . . . .	29
Intonatsiya . . . . .	30
Tovushlarning nutqdagi pozitsion oʻzgarishlari. Reduksiya . . . . .	33
Nutqda tovushlarning kombinator oʻzgarishlari . . . . .	35
Akkomodatsiya . . . . .	36
Assimilatsiya . . . . .	37
Fonetik oʻzgarishlarning boshqa turlari . . . . .	39
Tovushlarning almashuvi . . . . .	40
Tovushlarning funksional jihati. Asosiy fonologik tushunchalar . .	42
Fonologiya nazariyalari . . . . .	48
Transkripsiya. Fonetik va fonologik transkripsiya. Transliteratsiya	52
Orfoepiya . . . . .	56
Tildagi tarixiy-fonetik oʻzgarishlar va fonetik-fonologik oʻzgarishlar . . . . .	57

### II bob. Leksika

Leksikologiya va semasiologiya haqida umumiy tushuncha . . . . .	60
Til strukturasi soʻzning oʻrni . . . . .	61
Soʻz va tushuncha . . . . .	63
Soʻzlarning maʼnolari oʻrtasidagi munosabatlar . . . . .	68
Omonimlar, ularning turlari va manbalari . . . . .	72
Sinonimlar va antonimlar . . . . .	73
Tabu va evfemizmlar . . . . .	76
Terminologiya . . . . .	77
Frazeologiya . . . . .	78
Etimologiya . . . . .	81
Tilning lugʻat tarkibi . . . . .	83

Til lugʻat tarkibining oʻzgarishi . . . . .	86
Til lugʻat tarkibi taraqqiyotining asosiy yoʻllari . . . . .	87
Leksikografiya . . . . .	92

### **III bob. Grammatika. Morfologiya va sintaksis**

Grammatikaning taʼrifi . . . . .	97
Grammatik maʼno va grammatik vosita . . . . .	98
Grammatik kategoriya . . . . .	99
Grammatik kategoriyalarning ifodalanish usullari . . . . .	100
Soʻzning morfologik tarkibi. Morfema . . . . .	102
Tilning grammatik vositalari . . . . .	103
Grammatik maʼnolarni ifodalovchi sintetik va analitik vositalar.	
Sintetik va analitik tillar . . . . .	107
Soʻz turkumlarining tasnifi . . . . .	108
Asosiy sintaktik xususiyatlar. Gap . . . . .	110

### **IV bob. Tillarning tasnifi.**

Tillarning geneologik (qarindoshligiga koʻra) tasnifi . . . . .	114
Tillarning morfologik (tipologik) tasnifi . . . . .	125

### **V bob. Tilning tashqi va ichki jihatlari**

Tilning tashqi sharoiti . . . . .	127
Tilning ichki tuzilishi . . . . .	127
Tilning taraqqiyotidagi farqlanish va oʻxshashliklar . . . . .	130
Sheva va lahjalar . . . . .	130
Adabiy til va uning mezoni . . . . .	132
Tillarning oʻzaro taʼsiri . . . . .	133

### **VI bob. Yozuv. Yozuvning rivojlanishidagi asosiy bosqichlar . . . . .**

### **VII bob. Tilshunoslik nazariyalari va tilni ilmiy tadqiq qilish metodlari**

Tilshunoslik nazariyalari uchun zarur tushunchalar . . . . .	141
Tilshunoslik metodlari . . . . .	145
Tilshunoslik terminlarining qisqacha izohli lugati . . . . .	151

<i>Adabiyotlar</i> . . . . .	174
------------------------------	-----

## SO'ZBOSHI

Mazkur darslik mavjud o'quv rejasi va dasturi asosida oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari 1-kurs talabarlari uchun yozildi.

Uni yozishda ko'p yillik tajribamiz asosida mavzularni talabalar o'zlashtirib olishlarining qulay yo'llarini topishga harakat qildik. Til va jamiyat, til va tafakkur, tilning rivojlanishi kabi mavzularni hozirgi davr tilshunosligidagi yangi g'oyalar yordamida izohlandi. Talabalar uchun qulay bo'lsin deb darslikka tilshunoslik terminlarining qisqacha izohli lug'ati ilova qilindi.

Darslikda ko'proq o'zbek tilidan misollar berildi, chunki talabalar o'z ona tilini yaxshi bilmasa, chet tilini o'rganishlari juda qiyin bo'ladi. "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, eng avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatning ruhidir" — deb yozadi O'zbekiston Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" nomli sermazmun kitobida (Toshkent, "Ma'naviyat" 2008, 83-bet.). Talabalarga ma'ruza jarayonida nutq odobi va til madaniyati, adabiy talaffuz mezoniga alohida e'tibor berish lozim. Til ma'naviyatimizning eng zarur murvati ekanligini doim yodda tutish kerak.

Bu darslik boshqa shunday darsliklardan ko'p jihatdan farqlanadi. Unda tilning tafakkur va jamiyat bilan bog'lanishi hamda tilning hosil bo'lishi va rivojlanishiga doir mavzular talabalar uchun qiyinligini nazarda tutib, ularni boshqa boblardagi fikrlar bilan bog'liq ravishda bayon qilindi.

Darslik haqida o'z maslahatlarini bergan mas'ul muharrir, dotsent A.S.Sodiqovga hamda taqrizchilar, dotsentlar R.Alimardonov va M.Abdulhayrovlarga tashakkur aytamiz. Darslik haqidagi fikr va mulohazalar iltifot bilan qabul qilindi.

## TILSHUNOSLIK FANINING MAVZUSI VA VAZIFALARI

Tilshunoslik (grekcha lingua — til, tikos — fan soʻzlaridan “lingvistika”), murakkab va koʻp qirrali, boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bogʻliq boʻlgan tilni ilmiy va amaliy oʻrganuvchi fandır.

Til inson va xalqsiz, binobarin, jamiyatsiz boʻlmaydi. Til jamiyat uchun xizmat qiladi va uning aʼzolari muloqot qilishini taʼminlaydi.

Til jamiyat tarixidan darak beruvchi buyuk vosita boʻlib, insonning maʼnaviy va maʼrifiy shakllanishi va rivojlanishi uchun zarurdir. Til, inson va jamiyat bir-birisiz boʻlmaydi. Til inson tafakkuri, ruhiyati, madaniyati, urf-odati va shaxsiy xususiyatlari bilan bogʻliqdir. Tilshunoslik fani umumiy va xususiy boʻlishi mumkin. Umumiy tilshunoslik jahon tillaridagi fonetik, fonologik, grammatik (morfologik va sintaktik), leksik-semantik, stilistik jihatlarini ilmiy oʻrganadi. Bu alomatlarining aniq bir tildagi izohini xususiy tilshunoslik oʻrganadi (masalan, oʻzbek tili, yoki boshqa tillardagi izohi).

Mazkur kitob umumiy tilshunoslikni oʻrganishdan avval dastlabki til bilimiga tegishli boʻlgan tilshunoslik debochasi, yaʼni tilshunoslikka kirish hisoblanadi. Bu “tilshunoslik fanining alifbosi” turli tillarni amaliy oʻrganuvchi va ilmiy tadqiq etuvchilar uchun zarurdir.

Tilshunoslik fanining mavzusi tildir. Tilni har tomonlama chuqur oʻrganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu sababli tilshunoslikni faqat nazariy fan deb emas, balki tatbiiy (ingliz. applied, rus. прикладная) va amaliyot uchun kerakli, yaʼni insonlar muloqoti uchun zarur fan sifatida qaramoq darkor.

Tilshunoslik fanining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- tilning yozuvi va imlo qoidalarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslarini koʻrsatib berish;
- tilning talaffuz meyorlarini belgilashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish;
- tilning fonetika va fonologiyasi, morfologiya va sintaksisi, leksika va semantikasi (soʻzlarning yasalishi va maʼnolari), stilistikasini oʻrganish asoslarini belgilab berish;

— til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat, til va psixologiya, til va semiotika (ramziy belgilarni o'rganuvchi fan, lotincha *semi* — белги, ишора *tikos* — fan) kabi tilga bog'liq masalalarni tadqiq qilish;

— tilning nutq va nutq faoliyati bilan munosabatini o'rganish;

— tarixiy yozma manbalarni ilmiy o'rganish asoslarini ishlab chiqish;

— eng qadimiy til, proto til (“bobo til”) va uning boshqa tillar va shevalarga munosabatini o'rganish;

— tilning hozirgi (uni “sinxroniya” deyiladi) holati bilan tarixiy rivojlanish bosqichlarini (uni “diaxroniya” deyiladi) ilmiy tadqiq qilish;

— qadimiy yozuvlarni o'rganish yo'li bilan eng qadimiy tillarni tiklash yoki ulardagi turli alomatlarini aniqlash.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, tilshunoslik fani avvalo nazariy va ikkinchi navbatda tatbiiy — amaliy fandir. Bu fanning aniq chegarasi yo'q, u ko'p qamrovli, ko'p qirrali va har tomonlama boshqa fanlar va ularning sohalari bilan bog'liq bo'lgan fandir. Tilning o'zi esa juda murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u belgilar tizimi sifatida insonlarning muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda til va nutqni farqlash zarur bo'ladi. Nutq — bu tilning va undagi belgilarning barcha qo'llanish holatlarini qamrab oladi. Yozma shaklda o'qib berish uchun tayyorlangan roman, qissa, hikoya va h.k. nutqqa tegishlidir. Lekin ulardagi, ya'ni nutqda doimiy qo'llanuvchi va ustuvor bo'lib qolgan jamiyat a'zolari tomonidan e'tirof etilib qabul qilingan nutqdagi unsurlar majmui til deb yuritiladi. Til — jamiyatimiz a'zolarining buyuk vositasi bo'lsa, nutq — bu vositaning qo'llanishidir. Yozilgan yoki aytilgan nutqning bo'lagi matn deb yuritiladi. Yozma nutq va og'zaki nutq farqlanganidek, yozma matn va og'zaki (monolog, dialog kabi) matn ham farqlanadi. Tildagi jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan ustuvor bo'lgan xususiyatlar davr o'tishi bilan turli o'zgarishlarga duchor bo'lishi mumkin. Tildagi o'zgarishlar va tilning rivojlanishi murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Tildagi muammo va masalalarni sinxroniya va diaxroniyada (ya'ni hozirgi va tarixiy holati) ilmiy tadqiq etish zarur.



## I b o b FONETIKA VA FONOLOGIYA.

### FONETIKANING O'RGANISH SOHASI VA VAZIFASI

Fonetika (grekcha *phone* – “tovush”, *-tike* – “fan” soʻzlaridan) inson nutqini ifoda qilish uchun zarur boʻlgan tovushlar va ularning vositalari haqidagi tilshunoslik sohasidir.

Nutq tovushlari va ularning vositalari boʻlgan boʻgʻin, urgʻu, intonatsiya murakkab va koʻpqirrali xususiyatlar hisoblanadi va shu tufayli toʻrt tomonlama oʻrganiladi:

1) **artikulyatsion (fiziologik)** — tovushlarning talaffuzida nutq organlarining xizmati;

2) **akustik (fizik)** — nutq tovushlari va ularning vositalari fizik tebranishlar natijasidir;

3) **eshitib his etish (psixologik)** tomoni, yaʼni nutq tovushlari, boʻgʻin, urgʻu va intonatsiya eshituvchi tomonidan anglab his etiladi;

4) **fonologik** (yoki sotsial, funksional) jihatdan nutq tovushlari va ularning vositalari tildagi soʻzlar, soʻz formalari, iboralar va gaplarni bir-biridan farqlash, ularning maʼnosini kengroq ochish uchun zarurdir.

Yuqoridagi toʻrt tomonlama qarashni baʼzan artikulyatsion fonetika, akustik fonetika (u baʼzan eshitib his etish tomonini ham oʻz ichiga oladi) va fonologiya nomlari bilan ham ataladi. Ular nutq tovushlari, boʻgʻin, urgʻu va intonatsiyani alohida tasnif qilish usullariga ega boʻlib, bir-biri bilan uzviy bogʻliqdir.

Oʻzining oʻrganish sohasi va vazifalariga koʻra, fonetika ikki turli boʻladi:

1) **umumiy fonetika** — jahondagi barcha tillarga xos boʻlgan talaffuz xususiyatlarini oʻrganadi;

2) **tasviriy fonetika** — biror tilga xos boʻlgan talaffuz alomatlarini oʻrganadi. Masalan, rus tili fonetikasi, oʻzbek tili fonetikasi kabi.

Qoʻyilgan maqsadga koʻra fonetika ikki turli boʻladi:

1) **nazariy fonetika** — u biror tilning talaffuz alomatlarini nazariy jihatdan tasnif etadi;

2) **amaliy yoki normativ fonetika** esa, biror tilning talaffuziga o'rgatish maqsadida tuziladi. Masalan, ingliz tilining amaliy fonetikasi rus yoki o'zbek o'rganuvchilari uchun sodda holda mashqlar yordamida izohlab beriladi.

Alohida apparatlar yordamida nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u va intonatsiyadagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarni o'rganish sohasi eksperimental fonetika deb yuritiladi. Yuqorida ko'rsatilgan fonetika turlarining barchasi kuzatishlar yordamida til talaffuzidagi xususiyatlarni ancha aniq tekshirilgan eksperimental fonetika natijalariga asoslanadi.

Agar fonetika tovushlarning hosil bo'lishi va ularning xususiyatlarini o'rgansa, uni segmental fonetika ("segment" so'zi nutq bo'lagi ma'nosini anglatadi) deyiladi. Fonetika nutq tovushlaridan katta birliklarni, ya'ni bo'g'in, so'z va frazalarni o'rganish bilan ish tutsa, uni **supersegmental fonetika** yoki **prosodika** deb ataladi.

Fonetikaning to'rtinchi zaruriy sohasi hisoblangan **fonologiya** alohida fan sifatida ham qaraladi. Bunday qarash fonologiyani ham ikkiga bo'lishni talab qiladi:

1) tovushlarning tildagi funksional tomonlarini o'rganish bo'limi — **segmental fonologiya** yoki **fonemika, fonematika** deb yuritiladi.

2) bo'g'in, urg'u va intonatsiyaning funksional alomatlarini o'rganish sohasi **supersegmental fonologiya** yoki **prosodika** deb ataladi.

Fonetika tilning boshqa bosqichlari va yaruslari bo'lgan morfologiya va sintaksis, leksika va stilistika bilan uzviy bog'liqdir. Chunki tildagi barcha birliklar (so'z, so'z shakli, so'z birikmalari va frazalar) tovushlar yordamida namoyon bo'ladi.

Fonetika nutqdagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarni, ularning hosil bo'lishida nutq organlarining xizmati va fizik tebranishlarni o'rganishi bo'yicha biologiya, fiziologiya, fizika va akustika fanlari bilan bog'lanadi.

Tildagi fonetik xususiyatlarning tarixini o'rganuvchi soha tarixiy (yoki diaxronik) fonetika deb ham ataladi. Bunda tildagi tovushlar sistemasining taraqqiyoti qadimiy obidalar va qo'lyozmalar hamda tarixiy faktlar yordamida tasnif etiladi.


Hozirgi davr tilshunosligida jahon tillarining o'xshash va

farqli alomatlarini o'rganish "tillar tipologiyasi" nomi bilan atalib, bu sohaning fonetikaga doir bo'limi qiyosiy-tipologik fonetika yoki qiyosiy-tipologik fonologiya deb ataladi. Masalan, rus, o'zbek va ingliz tillarining qiyosiy-tipologik fonetikasi yoki fonologiyasi kabi.

Tildagi tovushlarni yozma ravishda ko'rsatish uchun alohida belgilar mavjud bo'lib, uni transkripsiya deyiladi. Ushbu darslikda Xalqaro Fonetika Assotsiatsiyasi taklif etgan transkripsiyaga asoslangan belgilardan foydalanildi.

### TALAFFUZ A'ZOLARI. TOVUSHLARNING ARTIKULYATSIYASI

Nutq tovushlari talaffuz a'zolarining ma'lum xizmati natijasida hosil bo'ladi. Tovushlarning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi nutq mexanizmlari harakatining yig'indisi **artikulyatsiya** deb ataladi. Jahondagi barcha kishilarning nutq a'zolari bir xil tuzilgan bo'lsa ham har bir tildagi tovushlarning talaffuzida ularning harakati o'sha tilga xos va odatiy bo'lishi mumkin. Biror tilning talaffuzida odat bo'lib qolgan nutq a'zolari odatiy harakatlarning yig'indisi o'sha tilning **artikulyatsion bazasi** deyiladi. Har xil tillar bir-biridan artikulyatsion bazalaridagi ba'zi xususiyatlar bilan farq qilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi til oldi undoshlari apikal (lotincha apex — "til uchi") artikulyatsiyaga ega bo'lsa, o'zbek va rus tillaridagi bunday undoshlarning talaffuzida til uchi tishlarga tegib uning o'rta qismi ishtirok etadi,



I-rasm.

ya'ni **dorsal artikulyatsiya** qilinadi. Unli tovushlarning talaffuziga ko'ra ingliz va fransuz tillari bir-biridan katta farq qiladi. Ingliz tilidagi lablangan unllarning talaffuzida lablar juda kuchsiz harakat qiladi. Fransuz tilidagi lablangan unlilar esa, lablarning kuchli harakati bilan ajralib turadi.

Odamning talaffuz apparati to'rt bo'shliqni o'z ichiga oladi:

1) bo'g'iz bo'shlig'i; 2) burun


bo'shlig'i; 3) og'iz bo'shlig'i; 4) lablar bo'shlig'i. O'pkadan chiqqan havo bo'yin bo'shlig'iga keladi. Bo'yinning chetlarida tovush paychalari joylashgan bo'lib, ular bir-biriga to'la yoki deyarli to'la jipslashib tegib turishi mumkin. Bu holatda bo'g'iz undoshlari hosil bo'ladi. Biroq, tovush paychalari bir-birlariga yaqinlashib taranglashishi va titrashi davomiy tebranishlarni va bu esa o'z navbatida asosiy tonni hosil qiladi. Tovushlarning hosil bo'lishida tovush paychalari ko'pincha ishlab turadi. Faqatgina jarangsiz undoshlarning talaffuzida tovush paychalari tebranmaydi.

Bo'yin bo'shlig'idan keyin havo bo'g'iz bo'shlig'iga o'tadi. Havo oqimining bo'g'izdan keyingi yo'nalishi yumshoq tanglayning holatiga bog'liq. Agar yumshoq tanglay tepaga ko'tarilsa, u havoni burun bo'shlig'idan o'tishini to'sadi va havo oqimi to'g'ri og'iz bo'shlig'idan o'tadi. Bunday holatda og'iz undoshlari hosil bo'ladi. Agar yumshoq tanglay pastga tushsa, havo oqimi bir yo'la burun va og'iz bo'shliqlaridan o'tadi. Bu holatda esa, burun undoshlari (m, n, ng) hosil bo'ladi.

Tovushlarning hosil bo'lishidagi farqlarni bilishda, ayniqsa, og'iz bo'shlig'i va undagi zaruriy nutq mexanizmlari bo'lgan til, kichik til, qattiq va yumshoq tanglay, lablarning harakati va holati katta ahamiyatga egadir.

Og'iz bo'shlig'ining katta yoki kichikligi harakat qiluvchi (faol) nutq organlari va talaffuzda bevosita harakat qilmovchi nutq mexanizmlariga (nafaol) bog'liqdir. Barcha talaffuz a'zolari ichida eng faol harakat qiluvchisi tildir. Uning har xil gorizontal va vertikal harakati natijasida turli shovqin hosil bo'ladi va bu tovushlarning, ayniqsa, unli tovushlarning talaffuzi va eshitalishida turli tonni vujudga keltiradi. Pastki va yuqori lablar ham talaffuzda ishtirok etishi va etmasligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Shu tufayli ba'zan ikki lab orasidagi bo'shliqning shaklini ham unlilar talaffuzida hisobga olinadi. Barcha nutq mexanizmlari va ularning ayrim qismlari o'rtasida ma'lum munosabat mavjud bo'lib, odam talaffuzida bir yo'la birqancha a'zolarining harakati vujudga keladi. Pastki va yuqori lablar ham talaffuzda ishtirok etishi va etmasligi bilan alohida ahamiyatga egadir.



2-rasm.

Shu tufayli ba'zan ikki lab orasidagi bo'shliqning shaklini ham unilar talaffuzida hisobga olinadi. Barcha nutq mexanizmlari va ularning ayrim qismlari o'rtasida ma'lum munosabat mavjud bo'lib, odam talaffuzida bir yo'la birqancha a'zolarining harakati vujudga keladi.

Bunday talaffuzning avtomatik ravishda ijro etilishi bosh miyadan boruvchi doimiy nerv impulslari yordamida bajariladi.

Anatomik jihatdan odam va maymunning talaffuz apparati uncha katta farq qilmaydi. Biroq, ular o'rtasidagi asosiy farq fiziologik tomondan, odam nutq mexanizmlarining aniq va differensial harakati bosh miya orqali bajarilishi bilan izohlanadi.

### AKUSTIK FONETIKA HAQIDA MA'LUMOT. TOVUSHLARNING AKUSTIK BELGILARI

Nutq tovushlari sekundiga taxminan 1,100 marta tezlik bilan o'tuvchi havo oqimining mexanik tebranishi natijasidir. O'z navbatida havo tebranishi davomiy va davomsiz hamda sodda va murakkab bo'lishi mumkin.

Tovushlar asosan ikki asosiy akustik belgiga ega: **amplituda** va **chastota**. Amplituda (tebranish to'liqini) eshutilishi jihatdan tovushning kuchiga (ovozning baland yoki pastligiga) to'g'ri keladi. Agar tebranish harakati tez bo'lsa, tovush baland tebranish chastotasiga ega bo'ladi. Aks holda past chastotali tovush hosil bo'ladi. Tebranish chastotasi gers (yoki har sekundda qaytariluvchi sikl) bilan o'lchanadi. Bir gers bir sekundda bo'ladigan tebranish davriga tengdir.

Chastota tovushlarni bir-biridan farqlash uchun zarur bo'lgan akustik belgi hisoblanadi. Odamning tovush chastotasi-

ni eshitib his qila olish qobiliyati chegaralangan. Biz 15 dan to 15000 gersgacha bo'lgan tovushlarni eshitib his qila olamiz. Juda sekin (15 gersdan kam) yoki juda tez (20000 gersdan yuqori) tebranishga ega bo'lgan tovushlarni umuman eshitish mumkin emas.

Shu sababli bunday tebranishga ega bo'lgan tovushlarni eshitish uchun maxsus uskuna va apparatlar zarur bo'ladi. Tovush to'liqini hosil qiluvchi havo tebranishi davomiy bo'lsa, ton va davomsiz bo'lsa, shovqin hosil qiladi. Ton va shovqin tovushlarni farqlash uchun zarur bo'lgan akustik xususiyatlardir.

Masalan, unli tovushlar tonga, jarangsiz undoshlar esa shovqinga egadir. Jarangli undoshlar bir yo'la ton va shovqinga ega bo'lib, keyingisi bosib ketadi. Sonor tovushlarda (l, r, y, m, n, ng kabi) shovqin va ton birlikda bo'lib, ton shovqindan ustun keladi.

Tovushning cho'ziqligi yoki qisqaligi (uni odatda miqdor belgisi deb yuritiladi) tebranish harakatining vaqti bilan aniqlanadi va u milisekund bilan o'lchanadi. Tovushning kuchi, baland yoki pastligi va hokazolar uning *sifat belgilari* deb aytiladi.

Tebranish amplitudasi bilan aniqlanuvchi tovush kuchi dinamik urg'uga ega bo'lgan tillar uchun xarakterlidir. Bunda urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'inga qaraganda katta kuch bilan talaffuz etiladi. Masalan, o'zbek tilidagi olma — “яблоко” — olma — “не бери”, rus tilidagi myká — “un” — мука — “azob”, ingliz tilidagi ‘present — “hozir bo'lmoq” — present — “sovg'a” o'rtasidagi farq urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarda tovushlarning kuchiga asoslangandir.

Tovushning tembri tebranish davomida maxsus tonni hosil qilish bilan belgilanadi. U ba'zan nutqda his-hayajonni ifodalovchi akustik belgi sifatida ham qaraladi. Tovushni hosil qiluvchi bo'shliqlar (og'iz, burun, bo'g'iz va h.k.) ma'lum *akustik rezonatorlar* deb yuritiladi, chunki ular o'z shakli va o'lchovi bilan nutq tovushini hosil qiluvchi akustik kanallar va-zifasini o'taydi.

Tebranish sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Akustikada murakkab tovush tebranishining chastotasi bilan boshqa akustik vositalarni kelishtirib turuvchi mexanizm *filtr* deb ataladi.

Odamning og'iz va burun bo'shliqlari unlilarni hosil qiluvchi akustik filtrni tashkil etadi.

Tovushning tembrini ifodalovchi va uni boshqa tovushlarning tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar formantlar deyiladi. Formantlar nutq tovushlarining akustik xususiyatlarini bilish manbai hisoblanadi. Tovush formantlari maxsus eksperimental apparat-spektograf yordamida aniqlanadi. Har xil unlilarning formantlari (odatda, ular uchta formantga ega bo'lib, F1, F2, F3 deb ko'rsatiladi) vertikal shkala bo'yicha turli holatda bo'ladi.

Tovushlarning akustik belgilari ularning artikulyatsion xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Nutq organlarining turlicha harakati nutq tovushlarining akustik belgilarini, ularning sifat va miqdor belgilarini o'zgartirib yuboradi.


### EKSPERIMENTAL FONETIKANING METODLARI

Hozirgi davr fonetikasida ikki asosiy metod mavjud: *subyektiv* va *obyektiv* metodlar. Subyektiv metod talaffuzni bevosita kuzatishdan (ko'rib yoki eshitib) iborat. U eng qadimiy va doim ham qo'llash mumkin bo'lgan metoddir. Subyektiv bevosita kuzatish natijasida tovushlarning artikulyatsion-akustik xususiyatlari, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning farqi, intonatsiyada ovoz ohangining pastga tushishi yoki yuqoriga ko'tarilishini sezish mumkin.

Texnik apparatura yordamida, ya'ni obyektiv metodlar yordamida aniqlanuvchi barcha artikulyatsion-akustik xususiyatlar eksperimental-fonetik tekshirish yoki nutqni instrumental tasnif etish deb yuritiladi. Ma'lum apparatlar yordamida tilning tovush tarkibi, bo'g'in, urg'u va intonatsiyasini tekshirish ancha aniq va chuqur tasnif qilishiga imkon beradi.

Artikulatsiyani o'rganuvchi metodlar ichida palatografiya va rentgenografiya alohida o'rin tutadi. Palatografiya — sun'iy tanglay yordamida tilning holatini aniqlashdir. Sun'iy tanglay ingichka elastik plastinkadan iborat bo'lib, uning shakli va o'lchovi talaffuz qiluvchining qattiq tanglayiga teng bo'ladi. Talaffuz qiluvchi shaxs informant deb atalib, u o'sha tilning adabiy talaffuzida yoki biror shevada (agar shevaning talaffuzi

tekshirilayotgan bo'lsa) so'zlay olishi lozim. Elastik sun'iy tanglay og'iz bo'shlig'idagi qattiq tanglayga kiydiriladi. Ma'lum tovushning talaffuzida tilning izlari sun'iy tanglayga ko'chiriladi. Natijada tovushning artikulasiya o'rni aniqlanadi. Tilning izlari qolgan sun'iy tanglay **palatogramma** deyiladi.



O'zbekcha [i]

Inglizcha [i]

3-rasm. Rentgenogrammlar


Rentgenografiya va kinorentgenografiya tovushning artikulasiyasini juda aniq ko'rsatib beruvchi metoddir. Oddiy rentgenografiya nutq a'zolarining holatini ma'lum artikulasiya momentida aniqlashga imkon beradi. Kinorentgenografiya tovush artikulasiyasining rivojlanish holatlarini aniqlab beradi.

Nutqning akustik tomonini aniqlash uchun spektral va ossillografik metodlar qo'llanadi. Spektrograf tovush maydonining amplitudasi va chastotasini ko'rsatib beradi va tovushning to'la akustik belgisini aniqlashga yordam beradi. Nutqning akustik tomonini aniqlashda qo'llanuvchi yangi vositalar ichida spektral analiz yetakchi o'rin tutadi. Ikki tipdagi spektrograf mavjud:

- 1) statik tipdagi spektrograf tovushlarning akustik strukturasi ma'lum chegaralangan vaqt ichida o'rganishga imkon beradi;
- 2) dinamik tipdagi spektrograf (yoki sonograf) "ko'rinuvchi



nutq” (visible speech) prinsipida ishlaydi va u yordamida tovushning spektral ko‘rinishini rivojlanish jarayonida aniqlash mumkin bo‘ladi.



4-rasm.

Ossillograf apparati ham eksperimental fonetik kuzatishlarda qo‘llanadi. Ossillografiya tovushning hosil bo‘lishidagi garmonik tebranishlarni, nutq intonatsiyasi va iborani ma‘nodor bo‘laklarga bo‘lishni o‘rganishga imkon beradi. Eksperimental-fonetik tekshirishlar tilning tovush tomonini tilshunoslik jihatdan chuqur va aniqroq tadqiq qilishda katta yordam beradi.

### NUTQ TOVUSHLARINING TASNIFI

Odam nutqi har xil tovushlarga juda boydir. Biroq barcha tovushlarni ularning artikulyatsion-akustik xususiyatlarga ko‘ra har xil turlarga bo‘linadi. Birinchi navbatda, tovushlarni unli va undoshlarga bo‘linadi. Artikulyatsion, akustik va eshitib his etilishi hamda tildagi funksional xizmati jihatdan unli va undosh tovushlar o‘rtasida katta farq bor.

Artikulyatsion jihatdan unli tovushlar o‘pkadan chiqib kelayotgan havoning hech qanday to‘siqqa uchramasdan o‘tishi, aksincha, undoshlar talaffuzida havo oqimining biror to‘siqqa duch kelishi bilan izohlanadi. Akustik xususiyatlariga ko‘ra unli talaffuzida havo oqimi kuchsiz tebranishga, aksincha, undoshlar esa, unli talaffuzida qaraganda kuchli tebranish va shovqin yordamida hosil bo‘ladi. Eshitib his etilishi jihatdan undoshlar kuchli shovqin bilan unli talaffuzdan farq qiladi. Unli talaffuz esa, musiqa

ohangiga jo'ra bo'la oluvchi mayin ohangga egadir. Ko'pincha jahon tillarida undosh tovushlar unilardan ko'proq uchraydi va shu tufayli ularning funksional xizmati ham ko'proqdir. Odatda obyektiv borliqdagi mavjud narsa va hodisalarni har xil guruh va tiplarga tasnif qilingandek, nutq tovushlarini ham artikulyatsion-akustik xususiyatlariga ko'ra bir necha kategoriyalarga bo'linadi.

Yuqorida ko'rsatilgan belgilari asosida nutq tovushlari unli va undoshlarga va o'z navbatida, bular ham ayrim guruhlarga bo'linadi. Quyida unli va undosh tovushlarning tasnifini ko'rib o'tamiz.

**Undosh tovushlarning tasnifi.** Nutq organlarining bir-biriga tegishi natijasida o'pkadan chiquvchi havo oqimi to'siqqa uchrashi undoshlarning hosil bo'lishida xarakterlidir. Undosh tovushlarning sifati nutq organlarining xarakati, og'iz va bo'g'iz bo'shliqlarining shakli va tovush paychalarining holatiga bog'liq. Odatda undosh tovushlarni quyidagicha tasnif qilinadi:


1. Faol nutq a'zolarining ishtiroki va to'siqning hosil bo'lish o'rniga ko'ra: bunday artikulyatsiya belgilari bo'yicha undoshlar lab va til undoshlariga bo'linadi. O'z navbatida lab undoshlari lab-lab (p, b, m) va lab-tish (f, v) tovushlariga bo'linadi. Til undoshlari til oldi (to'siqning o'rniga ko'ra: dorsal, alveolyar, apikal, kakuminal), til o'rta, til orqa, uvulyar (chuqur til orqa), faringal va bo'g'iz tovushlariga bo'linadi. To'siqning hosil bo'lish o'rniga ko'ra til oldi undoshlari dental yoki dorsal (o'zbek tilidagi /t, d, s, z, l/ kabi), tish o'rta (ingliz va turkman tillaridagi /θ, ð/ kabi), alveolyar (inglizcha /t, d, l/ kabi), palata-alveolyar (ruscha /t, d, l/ kabi) va chuqur alveolyar (inglizcha /r/ kabi) bo'ladi. Til o'rta undoshlari to'siqning hosil bo'lish o'rniga ko'ra palatal bo'ladi.

2. Shovqin hosil bo'lish usuliga yoki to'siqning qanday hosil bo'lish turiga ko'ra quyidagi undosh tovushlar farqlanadi:

a) portlovchilar — ularning talaffuzida havo oqimi kuchli to'siqqa uchraydi: /p, b, t, d, k, g/ kabi;

b) sirg'aluvchilar yoki frikativ undoshlar — ular havo oqimining kuchli to'siqqa uchramay, nutq organlari orasidan sirg'alib o'tishi bilan hosil bo'ladi: /s, z, sh, j, f, v/ kabi;

d) affrikatlar — ularning talaffuzi portlovchi elementidan




/t, d/ boshlanib, sirg'aluvchi tovush bilan tugallanadi: /tsh (ch), dj/ kabi. Biroq affrikatlarining har ikki elementi hech vaqt ikki bo'g'in va morfemaga ajralib ketmaydi. Artikulatsion-akustik jihatdan affrikatlar go'yo bir tovushdek talaffuz etiladi.

Portlovchi, sirg'aluvchi va affrikatlar shovqinli tovushlar hisoblanadi. Sirg'aluvchi undoshlar ikki xil talaffuz qilinishi mumkin. Masalan, rus tilidagi sirg'aluvchi qattiq undoshlar /f, v, s, z/ bir o'rinda yoki bir fokusli talaffuz etiladi. Sirg'aluvchi yumshoq /f', v', s', z'/ undoshlari esa ikki o'rinda yoki ikki fokusli atrikulyatsiyaga ega. O'zbek tilida bunday xususiyat yo'q. Undoshlar ichida shovqindan ovoz toni ustun keluvchi tovushlar ham borki, ular sonor yoki sonant (lotincha sonorous — ovozli) tovushlar deyiladi. Hosil bo'lishiga ko'ra sonorlar bir yo'la unli va undoshlik xususiyatga ega. Sonorlar tonning ishtirokiga ko'ra unli'larga yaqin turadi. Sonorlarning hosil bo'lishida havo oqimining to'siqqa uchrashi jihatdan ular undoshlarga yaqin talaffuz etiladi. O'zbek, rus, ingliz tillaridagi /l/, /l'/, /y/, /j/, /r/, /r'/ sonor tovushlardir. Bu sonorlar og'iz bo'shlig'ida hosil bo'ladi. Ba'zi sonor tovushlarning talaffuzida yumshoq tanglay pastga tushib, havo burun bo'shlig'i orqali o'tadi (m, n, ng). Bunday tovushlar burun sonorlari deb ataladi. Sonor tovushlar bo'g'in hosil qilishda katta xizmat qiladi.

/l/ sonor tovushining talaffuzida havo oqimi tilning yonidan sirg'alib o'tadi va shu tufayli /l/ yon sonori deb ataladi.

/r/ tovushining talaffuzida havo oqimi til uchini titratadi va shu tufayli u titroq sonor tovushi deyiladi.

3. Undosh tovushlarning talaffuzida tovush paychalari titrasa, ular jarangli deyiladi. Artikulatsiya davomida tovush paychalari yaxshi titramasa, jarangsiz undoshlar hosil bo'ladi. Odatda, jarangli va jarangsiz undoshlar o'z juftlariga ega: /p — b/, /f — v/, /t — d/, /s — z/, /sh — j/, /x — g'/, /tsh — dj/, /k — g/. O'zbek tilida bu sakkiz juft jarangli-jarangsiz undoshlarning jarangsizlari kuchli va jaranglilari kuchsiz talaffuz qilinadi. Ba'zi undosh tovushlarning talaffuzida til pushtining o'rta qismi qattiq tanglayga (lotincha palatum) tomon ko'tariladi. Bu xususiyat **palatalizatsiya** (yumshatish) deyiladi. Rus tilida bunday palatalizatsiya kuchli bo'lib, yumshoq undoshlar mavjud. Eshitilishi jihatdan u /y/ tovushini eslatadi. Shu



sababli, rus tilida undoshlar yumshoq va qattiq kategoriyaga bo'linadi. Masalan, пил — “ichdim”, пьль — “chang” so'zlaridagi /l — l'/ undoshlari qattiq va yumshoqligi bilan farqlanadi.

Nutq a'zolarining kuchsiz harakati bilan havo oqimining tovush paychalari bir-biriga yaqinlashtirib, sirg'alib o'tishi natijasida aspiratsiya (lotincha aspirare — nafas olmoq so'zidan) hosil bo'ladi. Aspiratsiya juda kuchsiz /h/ nafas tovushini eslatadi. Aspiratsiyalashgan undosh tovushlar odatda unli tovushlardan oldin keladi. Masalan, ingliz tilida pool /phu:l/ basseyn, take /theik/ olmoq, coat /khout/ palto kabi.

O'pkadan chiqqan havoning bo'g'iz bo'shlig'idan sirg'alib o'tishi natijasida hosil bo'lgan /h/ undoshi bo'g'iz tovushi deyiladi. Til orqa undoshlari ikki xil hosil bo'lishi mumkin. Sayoz til orqa undoshlari: (k, g, ng) va chuqur til orqa: (q, g', x) tovushlari. Sayoz til orqa undoshlari til orqa qismining yumshoq tanglayga tegishi natijasida hosil bo'ladi. Chuqur til orqa undoshlari (q, g', x) esa, yumshoq tanglayning pastga tushishi bilan kichik til va til orqa qismlarining bir-biriga tegishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday tovushlarni uvulyar (lotincha uvula — kichik til) undoshlar deb ham ataladi. Uvulyar undoshlar G'arbiy Yevropa va rus tillarida uchramaydi. Ular ko'proq Sharqiy Osiyo, Kavkaz va turkiy tillarda uchraydi.

Jahon tillarida boshqa xil undosh tovushlar ham mavjud bo'lib, ular yuqorida berilgan tasnifdan chetga chiqishi mumkin. Biroq keltirilgan tasnif o'zbek, rus va ingliz tillaridagi undoshlarni tasnif qilish uchun yetarlidir.

**Unli tovushlarning tasnifi.** Unli tovushlarning hosil bo'lishida havo oqimi to'siqqa uchramaydi va tovush paychalari titraydi. Har bir unli tovush o'zining ovoz toni bilan farq qiladi. Unlilarning talaffuzida tilning harakati, labning holati, og'izning ochilishi va hokazolar ahamiyatlidir. Nutq organlarining holatiga ko'ra unlilarning sifati (tembri) va miqdor belgilari (cho'ziqlik va qisqaligi) o'zgaradi. Shu sababli unlilarni artikulyatsion va akustik xususiyatlari, sifat va miqdor belgilariga ko'ra tasnif qilinadi. Unlilarning artikulyatsion tasnifi chet tilining talaffuziga o'rganishda amaliy ahamiyatga egadir. Bunday tasnif tilning harakati, lab va yumshoq tanglayning holatiga asoslana-

di. Yumshoq tanglayning pastga tushishi natijasida havo burun bo'shlig'i orqali o'tadi va bu holatda burun unlilari yoki nazalizatsiyalashgan (lotincha nasalus — burun bo'shlig'i) unlilar hosil bo'ladi. Bunday nazalizatsiyalashgan unlilar fransuz tilida uchraydi.

Til eng faol nutq a'zosi bo'lib, og'iz bo'shlig'ining shakli va katta kichikligi, tilning holatiga bog'liq. Til gorizontal va vertikal harakat qiladi va shunga ko'ra unlilar qator va tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra tasnif qilinadi.

1. Tilning gorizontal harakatiga ko'ra unlilar til oldi, til o'rta yoki aralash va til orqa qator tovushlarga bo'linadi.

Til oldi unlilarining talaffuzida til oldinga harakat qiladi: uning uchi pastki tishlarga taqaladi va tilning o'rta qismi qattiq tanglayga tomon yo'naladi. Ba'zi til oldi unlilarining talaffuzida til sal orqaga yo'naladi va shu tufayli bunday unlilarni orqa yo'nalishdagi **til oldi unlisi** deb ataladi. Bunday unliga ingliz tilidagi /I/ unlisi misol bo'la oladi (Uning rentgenogrammasi 3-rasmda berilgan. O'zbek tilidagi til oldi (i) unlisi ham o'sha rasmda berilgan). O'zbek tilidagi /i/, /e/, a/ rus tilidagi /i/, /e/, ingliz tilidagi /i/, /e/, /æ/ va fransuz tilidagi /i/, /e/, /ɛ/, /a/ unlilari til oldi unlilaridir. Til oldi unlilarini haqiqiy til oldi va orqa yo'nalishdagi til oldi qatorlariga bo'linishi ma'lum tilda, xususan ingliz tilida unli tovushlarning soni ko'pligi va ularning farqlarini aniqlash uchun hamda ikki va undan ortiq (masalan, o'zbek, rus, ingliz tillari) tillardagi unlilarni qiyoslash uchun zarurdir.

Aralash qator unlilarning talaffuzida tilning beli va uchi biroz yuqoriga ko'tariladi va tilning o'zi yassi holatda bo'ladi. Tilning uchi pastki tishlardan uzoqlashadi. Bunday aralash qator unlilari ingliz tilida mavjud: /ə:/, /ɜ:/. Rus tilidagi (ы) va (а) unlilarining talaffuzi aralash qator unlilariga yaqinroqdir. Biroq ularning talaffuzida til yassi holatda bo'lmaydi. Undan tashqari til o'rta qator unlilarining talaffuzida tilning o'rta qismi qattiq va yumshoq tanglay o'rtasida biroz qayrilgan bo'ladi. Til orqa qator unlilarining artikulyatsiyasida til orqaga harakat qiladi; uning orqa qismi yumshoq tanglayga tomon yo'naladi; til uchi pastki tishlardan uzoqlashadi. Til orqa qismining harakati labning holatiga ham ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, til orqa

unlilari lablangan bo'radi. Til orqa unlilarini sayoz va chuqur til orqa unlilariga bo'lish mumkin. Ularni ko'pincha oldi yo'nalishdagi til orqa va chuqur til orqa unlilari deb ham ataladi. Bunday farq bir tilda soni ko'p bo'lgan unlilarni farqlash va bir necha tillardagi unlilar sistemalarini qiyoslash uchun qulaylik tug'diradi. O'zbek va rus tillarida oldi yo'nalishdagi til orqa va chuqur til orqa unlilarini farqlash uncha zarur emas. Biroq ular ingliz va fransuz tillaridagi unlilarni o'zbek va rus tillaridagi unlilar bilan qiyoslash uchun zarur. O'zbek tilidagi (o), (u), (o') va rus tilidagi (o), (u) til orqa unlilaridir. Ingliz tilidagi /u/, /ʌ/ til oldi yo'nalishdagi orqa qator unlilari, /u:/, /ɔ/, /ɔ:/, /a:/ esa, chuqur til orqa unlilaridir. Fransuz tilidagi /u:/, /o:/, /õ:/, /o/, /a/ oldi yo'nalishdagi til orqa va /u:/, /uo:/, /ã:/ chuqur til orqa qator unlilaridir.

Tilning yassi holati yoki til o'rta qismining bukilishi aralash yoki o'rta qator unlilarini yuqoridagidek ikki guruhga bo'lishga imkon bermaydi.

2. Tilning vertikal harakati, ya'ni uning ko'tarilish darajasiga ko'ra unlilar yuqori, o'rta va quyi ko'tarilish (yoki yopiq, yarim yopiq, yarim ochiq, ochiq) unlilari farqlanadi. Tilda unlilar soni ko'p bo'lsa va ularni tilning ko'tarilishi bo'yicha farqlash maqsadida hamda bir necha tillardagi unlilarni tilning ko'tarilishiga ko'ra farqlash zarur bo'lsa, har bir ko'tarilish belgisini tor va keng shakllarga bo'linadi. Masalan, ingliz tilidagi cho'ziq /i:/, /u:/ unlilari yuqori ko'tarilishning tor shakliga va qisqa /ɜ, u/ unlilari keng shakliga kiradi. Bunday keng va tor shaklga bo'lish o'zbek va rus tilidagi unlilarning tilning ko'tarilish belgisiga ko'ra alohida qaraganda zarur bo'lmaydi. Biroq ularni ingliz tili unlilari bilan qiyoslaganda foydalidir.

3. Unlilarning talaffuzida lablar ishtirok etsa — **lablangan**, ishtirok etmasa — **lablanmagan unlilar** deyiladi. Unlilarning talaffuzida lablar ishtirok etib, ular ilgariga cho'chchayib chiqsa, kuchli **lablangan unlilar** deb yuritiladi. O'zbek tilidagi (u), (o') va rus tilidagi (o), (u) tovushlari kuchli lablangan unlilardir. Unlilarning talaffuzida lablar ishtirok etib, ular ilgari cho'chchayib chiqmasligi mumkin. Bunday unlilar **kuchsiz lablangan** hisoblanadi. Ingliz tilidagi /ɔ/, /ɔ:/, /u/, /u:/ tovushlari ana shunday kuchsiz lablangan unlilardir. Ko'pincha til

orqa unilari lablangan bo‘ladi. Biroq, ba’zi tillarda, xususan fransuz tilida til oldi unilari ichida ham lablangan tovushlar mavjud.

Lablanmagan unilarning talaffuzida lablar faol ishtirok etmay, ular chekkaga tortilgan (masalan, ingliz tilida /i:/, /a:/, /æ/ unilari) yoki bevosita (neytral) holatda bo‘ladi (o‘zbekcha (i), (e), ruscha (i), (e) va inglizcha /i/, /e/, /ʌ/ kabi).

4. Yuqorida ko‘rsatilgan unilarning artikulyatsion xususiyatlari ularning sifat belgilari deb yuritiladi. Unli tovushlarning cho‘ziq va qisqaligi esa **miqdor belgisi** deb ataladi va bu belgi talaffuz vaqti bilan o‘lchanadi. Akustik jihatdan cho‘ziq, yarim cho‘ziq, qisqa va juda qisqa unilarni farqlash mumkin. Cho‘ziq va qisqa unilar ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillarda bor. (Cho‘ziqlik belgisi tovushning transkripsiya belgisidan keyin (:)) bilan beriladi.) O‘zbek va rus tillarida tovushlarning cho‘ziq va qisqa talaffuzi so‘zlarning ma’nolarini o‘zgartir-maydi. Biroq tovushlarni cho‘ziq talaffuz qilish gapiruvchining ekspressiv (his-hayajon) vositasi sifatida ishlatiladi. Odatda cho‘ziq unilar kuchli va qisqa unilar kuchsiz talaffuz qilinadi.

Unli tovushlarning monoftonglar, diftongoidlar (yoki diftonglashgan unilar) va diftonglarga bo‘linadi. Turg‘un talaffuzga ega bo‘lgan unilar **monoftonglar** (lotincha *monophthong* — “bir tovush” ma’nosida) deyiladi. Artikulyatsiyasi davomida turg‘un talaffuzga ega bo‘lmagan nutq organlari, ayniqsa, til va lab bir holatdan ikkinchi holatga ko‘chuvchi, lekin talaffuzi yaxlit tovushlar **diftongoidlar** deb ataladi. Masalan, ingliz tilidagi /i:/, /u:/ unilari diftongoidlardir. Ikki unli tovushdan tashkil topgan va har ikki elementi bir bo‘g‘inda yoki bir morfemada bo‘luvchi, talaffuzi davomida nutq organlari bir holatdan ikkinchi holatga ko‘chuvchi tovushlar **diftonglar** deyiladi. Diftonglar ingliz, nemis, fransuz, latish va boshqa tillarda mavjud. Diftongning birinchi elementi — uning **yadrosi**, ikkinchi elementi — **glaydi** deb yuritiladi. Odatda diftongning yadrosi — aniq, glaydi esa — kuchsiz talaffuz etiladi. Diftonglarni ularning yadrosini tashkil etgan unlining fonetik xususiyatiga ko‘ra tasnif qilinadi. Ingliz tilidagi /ei/, /ai/ til oldi diftonglari, /ou/, /oi/ esa, til orqa diftonglaridir. Diftonglarning har ikki elementi ham unli tovushdan iborat bo‘lsa, **sof diftong**

deb yuritiladi. Agar diftongning ikkinchi elementi — y (j) — v (w) kabi yarim unli yoki undosh tovushdan iborat bo'lsa, aldamchi diftong deyiladi.

Yuqorida berilgan unilarning artikulyatsion tasnifidan tashqari, ularning akustik tasnifi ham mavjud bo'lib, bu unilarning maxsus apparatlar yordamida spektral yoki ossillografik tahlil qilishga asoslanadi. Quyida unilarning artikulyatsion belgilari asosidagi tasniflarni keltiramiz:

1-jadval

**O'zbek adabiy tili unilari tasnifi**

Tilning vertikal holatiga ko'ra	Tilning gorizontal holatiga ko'ra	
	til oldi	til orqa
	lablanmagan	lablangan
Yuqori (yopiq)	i	u
O'rta (yarim yopiq yoki ochiq)	e	o'
Quyi (ochiq)	a	o

2-jadval

**Rus adabiy tili unilari tasnifi**

Tilning vertikal holatiga ko'ra	Tilning gorizontal holatiga ko'ra		
	til oldi	o'rta qator	til orqa
	lablanmagan	lablangan	
Yuqori (yopiq)	и	ы	у
O'rta (yarim yopiq yoki ochiq)	е		о
Quyi (ochiq)		а	



## O'zbek, rus va ingliz tillari unlilarining tasnifi

Tilning vertikal holatiga ko'ra ko'tarilish belgilari	Tilning gorizontal holatiga ko'ra qator belgilari	Oldi qator		Aralash va o'rta qator	Orqa qator	
		Til-oldi	Orqa yo'nalishidagi til oldi		Oldi yo'nalishdagi til orqa	Chukur til orqa
Yuqori ko'tarilish	Tor shakli	$\begin{matrix} \triangle \\ i: j \end{matrix}$		$\triangle$		u: $\triangle$
	Keng shakli		I		U	$\square$
O'rta ko'tarilish	Tor shakli	$\begin{matrix} e \\ \triangle \end{matrix} \square$		ə:		$\square \triangle$
	Keng shakli			ə	Λ	
Quyida ko'tarilish	Tor shakli					$\square \rho \rho:$
	Keng shakli	$\begin{matrix} \text{æ} \\ \square \\ a \end{matrix}$		$\triangle$		a: o

Shartli belgilar:  $\square$  — o'zbek tili unlilari;

$\triangle$  — rus tili unlilari;

— ingliz tili unlilari;

Eslatma: 1) til orqa qator unlilari, /Λ/, /a:/ dan tashqari, qolganlari — lablangan. Til oldi, aralash va o'rta qator unlilari — lablanmagan.

2) rus tilidagi (ы), (а) unlilari — o'rta qatorga, ingliz tilidagi /ə:/, /ə/ — aralash qatorga kiradi.

3) ko'rsatilgan shartli belgilar shu til unlilar sistemasining geometrik tabiatini hisobga oladi. Masalan, o'zbek tilining unlilar sistemasi to'rtburchak shakliga ega. Rus tili vokalizmi uchburchak shakliga ega. Ingliz tilidagi unlilar (diftonglar ko'rsatilmagan) har ikki shaklga ham zid keladi. Ularni ko'pincha Xalqaro Fonetik Assotsiatsiyasining jadvaliga asosan trapeptsiya shaklida ko'rsatiladi va bu shakl boshqa tillardagi unlilarni ko'rsatish uchun ham keng qo'llanadi.

**O'zbek va ingliz tillaridagi undosh tovushlarning artikulasiya o'rniga  
(to'siqning hosil bo'lish o'rniga) ko'ra tasnifi**

Lab undoshlari		Til undoshlari							Bo'g'iz yoki faringal
		til oldi			til o'rta		til orqa		
lab-lab	lab-tish	dorsal	alveolyar	tish o'rta	palatal	sayoz	chuqur (uvulyar)		
b b	v v	s s	t		y j	k k	q	h h	
p p	f f	z z	d			g g	g'		
m m		d	l	θ — ð			x		
	w	t	n						
		s							
		n							
		l							
o'z/ing									

**O'zbek va ingliz tillaridagi undosh tovushlarning artikulasiya usuliga ko'ra tasnifi**

Sirg'aluvchilar (frikativlar) (to'siq, kuchsiz, nutq organlari jipslashmaydi, shovqin hosil bo'ladi)		f, v, z, j, x, f, s, sh, y, h, g' f, v, s, z, ʒ, θ, ð, h	
Jipslashuvchilar (nutq organlari jipslashadi, zich, kuchli to'siq hosil bo'ladi)	Portlovchilar (shovqin kuchli)		p, b, t, d, k, g, q p, b, t, d, k, g, .
	Affrikatlar (shovqin kuchli, portlovchidan boshlanib sirg'aluvchi tovush bilan tamomlanadi)		tsh (ch), dj (j), ts (s) tʃ dʒ
	Sonorlar (sonantlar) (shovqinga qaraganda ton ustun keladi)	burun	m, n, ng, m, n, η
		yon	l
		titroq	r
o'rta		w, r, j	

Eslatma: jadvallar rus tilidagi undoshlarning tasnifini ham ko'rsata oladi. Ular deyarli o'zbek tili undoshlarining jadvallarda ko'rsatilgan belgilariga o'xshaydi. Biroq rus tili undoshlarining tasnifida yumshoq va qattiq, bir fokusli va ikki fokusli undoshlarni alohida ko'rsatmoq kerak.

## Undoshlarning tovush paychalarining holatiga ko'ra tasnifi

Jarangli (tovush pay- chalari titraydi)	<i>o'zbek tili:</i>	b, d, g, v, z, j, y, g', dj, (j)
	<i>rus tili:</i>	б, бь, д, дь, в, вь, з, зь, ж, жь
	<i>Ingliz tili:</i>	b, d, g, v, z, j, ɒ
Jarangsiz (tovush pay- chalari titra- maydi)	<i>o'zbek tili:</i>	p, t, k, q, tsh(ch), ts(ш), x, f, s, sh /h/
	<i>rus tili:</i>	п, пь, т, ть, к, кь, ч, ц, х, ф, фь, с, сь, ш, шь
	<i>ingliz tili:</i>	p, t, k, f, θ, s, ʃ, tʃ, /h/

*Eslatma:* /h/, /h/ undoshlari ko'proq jarangsiz va ba'zan jarangli holatda uchraydi. Shu sababli ularni qavs ichida keltirildi. Undoshlar doim jarangli va jarangsiz juftlariga ega bo'lavermaydi. Masalan, o'zbek tilidagi (q), rus tilidagi (ch), (x) o'z juftlariga ega emas. O'zbek tilidagi (x) ning jufti (g') hisoblanadi.

### NUTQNING FONETIK BO'LINISHI

Nutqda tovushlar alohida holda talaffuz etilmaydi. Ular ma'lum tartibda ketma-ket birikkan holatda bo'ladi. Demak, nutq ketma-ket kelgan tovushlarning yig'indisi yoki zanjirsimon ulanishidan iborat bo'lib, u talaffuz davriga ko'ra oldinma keyin kelgan fonetik birliklarga bo'linadi. Nutqning ana shunday katta va kichik birliklarga bo'linishi uning fonetik bo'linishi deb ataladi. Bunday bo'linishni, ba'zan **segmentatsiya** (lotincha *segmentus* — bo'lak ma'nosida) deb ham yuritiladi. Segmentatsiya tushunchasi nutqni tashkil etuvchi bo'laklarga bo'lishni bildiradi. Har bir bo'lak segment deb yuritiladi. Nutqning bunday bo'linishi katta va kichik segmentlarni aniqlashga va ular o'rtasidagi ulanish tartibini bilishga imkon beradi. Har bir fonetik birlik o'zining artikulyatsion-akustik va eshinish xususiyatlariga egadir. Fonetik birliklar til strukturasi material tomonini tashkil etuvchilar bo'lib, ular o'z navbatida o'xshashlik va farqlarini aniqlash va tildagi xizmatni bilish yordamida tilning asosiy birliklariga (fonema, morfema, so'z va gaplar) birlashadi.

Nutq quyidagi tartibda fonetik birliklarga bo‘linadi: 1) fraza; 2) taktlar; 3) bo‘g‘inlar va 4) tovushlar<sup>1</sup>.

Har ikki tomondan pauza bilan bo‘lingan eng katta fonetik birlik **fraza** deb ataladi. Pauza davrida so‘zlovchi kelgusi frazaning talaffuzi uchun zarur nafas oladi. Bir fraza bir qancha gaplarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bir gap ham birqancha frazalarga bo‘linishi mumkin. Shu tufayli fraza va gaplar bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Gap — gramatik (sintaktik) birlik, fraza esa, fonetik birlik hisoblanadi. Frazalar intonatsiya yordamida bir-biriga ulanadi.

Fraza taktlarga bo‘linadi. **Takt** — frazaning bir bo‘lagi hisoblanib, bir urg‘u yordamida bir yoki bir necha bo‘g‘inlarning ulanishidan tashkil topgan. Urg‘uli bo‘g‘in yordamida ulangan taktlarning eng yuqori qismi kuchli talaffuzi bilan farqlanadi. Taktlar ma‘nodor so‘zlarni mustaqqil urg‘uga ega bo‘lmagan so‘zlarga ulash uchun xizmat qiladi. Yordamchi so‘zlar ma‘nodor so‘zlarning oldi va orqa tomonidan ulanadi. Ularning oldi tomonidan ulanishi **prokliza** deyiladi. Oldi tomonidan ulangan so‘z **proklitika** deb ataladi.

Masalan: Beshta kam bir, beshta kampir; mana senga olam olam gul (Hamid Olimjon), allaqayerda kabi. Orqa tomondan ulanish **enkliza** va ulangan urg‘usiz so‘z **enklitika** deb ataladi. Masalan, siz ham, senga deb oldim, bir bor ekan, bir yo‘q ekan kabi.

Ma‘nodor so‘zlar ham proklitika va enklitika vazifalarni bajara oladi. Bunday xususiyat o‘zbek tilida mavjud bo‘lib, u ma‘nosi jihatdan ulangan (ya‘ni leksikalizatsiya qilingan) so‘z birikmalariga xos. Masalan, oq ilon, oppoq ilon, oydinga yotganing qani? (qo‘shiqdan.) Bu o‘rinda “**oq, oppoq**” so‘zlari proklitika bo‘lib keladi. Ishlar yaxshi, do‘stim, yaxshi — bunda do‘stim so‘zi kirish so‘zi funksiyasida enklitika vazifasini bajardi.

Taktlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi. Bir yoki bir necha tovushlardan tashkil topgan takt bo‘lagi **bo‘g‘in** hisoblanadi. Bo‘g‘in hosil qiluvchi tovushlar ovozining darajasiga ko‘ra unililar, sonor

---

<sup>1</sup> Реформатский А.А. Введение в языковедение. М., 1967, с. 187–192. Nutqning fonetik bo‘linishi tilshunoslikda har xil qaraladi. Biz bu masalada A.A.Reformatskiyning fikrlariga asoslanamiz.

undoshlar (m, n, l, r) va sirg'aluvchi jarangli undoshlardan iborat. Daniyalik tilshunos O. Yespersen ovozning darajasiga ko'ra tovushlarni tasnif qilgan. Biroq uning **sonorlik nazariyasi** (*sonorous* — lotincha ovozli ma'nosida) bo'g'in hosil bo'lishini yetarli yoritib bermaydi. Amerikalik tilshunos R. Stetson taklif etgan bo'g'inning **ekspirator nazariyasi** (*experation* — lotincha "nafas olish" ma'nosida) tovushning yoki tovushlar birikmasining nafas kuchi bilan talaffuziga asoslangan. Bo'g'in umumiy talaffuz kuchining halqasi bo'lib, unda ovozning darajasi ya'ni sonorlik, nafas kuchi, kuchli va baland talaffuz mujassamlashgan. Odatda so'zdagi bo'g'inlar soni undagi unli tovushlar soniga qarab belgilanadi. Bunday qarash doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Undosh tovushlar ham bo'g'in hosil qiluvchilik vazifasini bajara oladi. Chunki nutqda unlilar qo'shni holatda kelgan undoshlar yordamida bo'g'in hosil qiladi.

Masalan: bo-la-lar-i-miz-ga so'zida olti unli tovush qo'shni undoshlar yordamida olti bo'g'in hosil qiladi. Ingliz tilida esa, bir undosh tovush ham bo'g'in hosil qila oladi: little /lit-l/ — kichik, cattle /kæt-l/ — qozon kabi.

Tillar bo'g'inning tuzilishi strukturasi ko'ra farq qiladi. Jahon tillarida eng ko'p uchraydigan — bo'g'in turi "undosh-unli" bo'lib, u qulay talaffuzi bilan ajralib turadi (lo-la, qo-ra, so'-na kabi). Bo'g'inlarni ulardagi oxirgi va boshidagi tovushlariga qarab turlarga bo'linadi: ochiq (unliga tugagan), yopiq (undoshga tugagan), yarim ochiq (sonor undoshga tugagan) va berkitilgan (undosh bilan boshlangan).

So'zlar bir yoki undan ortiq bo'g'inlardan tashkil topgan. Bo'g'inlar bo'g'in chizig'i bilan chegaralanadi. Bo'g'in hosil qilish va bo'g'inga bo'lishda nutq tovushlari ishtirok etadi. Bo'g'inga bo'lishning qoida va tartiblari tillarda turlicha bo'ladi.

Bo'g'inlar tovushlarga bo'linadi. **Tovushlarning artikulyatsiyasi uch fazadan iborat**: Boshlang'ich fazasi — ekskursiya, o'rta fazasi va oxirgi fazasi — rekursiya. Boshqacha aytganda tovushlarning talaffuzida nutq a'zolarining talaffuzga tayyorlanish fazasi (ekskursiya), aytilish fazasi va nutq organlarining avvalgi holatiga qisman qaytarish (rekursiya) fazasi mavjud. Artikulyatsiya fazalarining qaytarilishi va rekursiya fazasining qisman qisqarishi tovush birikmalarining talaffuzi uchun xarak-

terlidir. Xususan, affrikatlar ana shunday bo‘linmas artikulasiyaga ega bo‘lib, ular portlovchi tovushlarning talaffuzidan boshlanadi va sirg‘aluvchi tovush bilan tugallanadi. Affrikatlarining talaffuzida bir ekskursiya va bir rekursiya mavjud. Boshqa undoshlar birikmalarning (masalan: kr, pl, tr, st, el kabi) talaffuzida ikki ekskursiya va ikki rekursiya fazalari mavjud va shu sababli ularni tovush birikmalari deb hisoblanadi.

## URG‘U

Talaffuzda bir yoki bir necha bo‘g‘inlarni ajratib aytish *urg‘u* deyiladi. So‘z va fraza *urg‘usi* farqlanadi. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda bir yoki undan ortiq bo‘g‘inlarni ajratib aytish so‘z *urg‘usi* deyiladi. Agar so‘z bir bo‘g‘indan iborat bo‘lsa, so‘z *urg‘usi* bo‘g‘in cho‘qqisini hosil qiluvchi unli tovushga tushadi. Fraza va gaplardagi so‘zlarning biror bo‘g‘inini ajratib talaffuz qilish fraza *urg‘usi* deyiladi. Fraza *urg‘usi* intonatsiyaning eng asosiy komponentlaridan biridir.

So‘z *urg‘usi* ma‘nodor mustaqil so‘zlarning zaruriy belgisi hisoblanadi. O‘zbek, rus, ingliz va nemis tillarida ma‘nodor so‘zlardagi *urg‘u* nutqda (frazalarda) ham saqlanib qolishi mumkin. So‘zlardagi bir yoki undan ortiq bo‘g‘inlarni ajratib talaffuz qilish turli artikulyatsion — akustik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Artikulyatsion jihatdan nafas kuchi, kuchli talaffuz va nutq paychalarining tebranishi so‘zga *urg‘u* qo‘yishning asosiy vositalaridir. Akustik jihatdan so‘z *urg‘usi* intensivlik (tovushni baland ovoz bilan aytish), cho‘ziqlik va tovushning asosiy toni yordamida amalga oshiriladi.

Tovushning balandligi va cho‘ziqlik *urg‘uning* eshutilishidagi asosiy vositadir. Ko‘rsatilgan vositalardan qaysilari bo‘g‘inni ajratib talaffuz qilishda asosiy ekanligiga ko‘ra *urg‘u* turlari farqlanadi. Agar talaffuz kuchi yoki intensivlik asosiy xizmatni bajarsa, dinamik, (kuch yoki ekspirator) *urg‘u* deyiladi. Asosiy tonning harakati (tushuvchi, ko‘tariluvchi va ko‘tarilib tushuvchi tonlar) yordamida amalga oshiriluvchi *urg‘u musiqiy urg‘u* (yoki melodik) deb ataladi. Bo‘g‘inning cho‘ziq talaffuzi *urg‘uda* asosiy bo‘lsa, *miqdoriy urg‘u* (cho‘ziqlik yoki kvantitativ) deyiladi. Ba‘zan tillarda *urg‘uning* ko‘rsatilgan vositalari

birgalikda harakat qiladi va bir yo'la kuch va ton urg'usi mavjud bo'ladi. Masalan, norvej, dat, island, shved tillari shunday urg'uga ega. Rus, o'zbek, ingliz, nemis tillarida dinamik urg'u, grek tilida — miqdoriy urg'u, yapon, dungon, koreys, xitoy, serb tillarida musiqiy ( ton ) urg'u bor.

Urg'uning o'rniga ko'ra turg'un va turg'un bo'lmagan urg'u farqlanadi. Masalan, fin va chex tillarida urg'u doim so'zning birinchi bo'g'iniga, fransuz va ko'pgina turkiy tillarda so'zning oxirgi bo'g'iniga, polyak tilida esa, orqadan ikkinchi bo'g'inga urg'u tushadi. Turg'un, lekin har xil bo'g'inlarga tushuvchi urg'u rus, ingliz va itolyan tillarida mavjud. Biroq rus tilida urg'u ko'chma va erkin bo'lib, so'z formasining o'zgarishi bilan urg'u o'z o'rnini o'zgartiradi: вода́, во́д, водо́ной va h.k.

Har bir tilda chet tillardan kirgan so'zlar o'z urg'usini saqlab qolishi yoki shu qabul qilgan tilning qoidalariga asosan talaffuz etilishi mumkin. Odatda urg'uli va ochiq bo'g'inlardagi tovushlar urg'usiz va yopiq bo'g'inlardagi tovushlarga qaraganda cho'ziqroq talaffuz qilinadi. So'zning fonetik alohidaligi urg'uli va urg'usiz qismlarning, xususan bo'g'in hosil qiluvchi elementlarning ulanishi yordamida amalga oshiriladi. Urg'u yordamida so'zning biror bo'g'ini faqat ajratib aytilmay, balki uning boshqa qismlari va urg'usiz bo'g'inlari urg'uli bo'g'in atrofiga birlashtiriladi. Urg'u prosodika yoki supersegmental fonetikaning asosiy elementlaridan biridir.

## INTONATSIYA

Fraza urg'usi, melodiya, ritm, pauza, temp, tembr kabi prosodik elementlarning birligidan iborat bo'lib, tilda har xil sintaktik, ekspressiv va emotsional ma'nolarni ifodalovchi murakkab hodisa *intonatsiya* deyiladi. Prosodik elementlarning har birini intonatsiyaning komponenti yoki parametri deb yuritiladi. Melodiya va fraza urg'usi intonatsiyaning birlamchi, qolgan elementlar — ikkilamchi komponentlari hisoblanadi. Intonatsiyaning har bir komponentini alohida izohlab o'tamiz.

1. *Melodiya* — ovoz asosiy tonning harakatini (nutq ohangining tushishi yoki ko'tarilishini) ko'rsatadi. Frazalarga bo'lingan nutqda har bir fraza o'z melodiyasiga ega'. Odatda

darak ma'nosini ifodalovchi fraza ovozning tushish ohangi va so'roq ma'nosini bildiruvchi fraza ko'tarilish ohangi bilan talaffuz etiladi. Har ikki ma'nodan chetga chiquvchi frazalar ancha tekis ohangda aytiladi.

Ba'zan ohirgi frazaning melodiyasi intonatsiyasiga tenglashtiriladi. Bunday qarash noto'g'ri bo'lib, intonatsiyaning boshqa komponentlarini inkor etishga olib keladi. Nutqimizda ishlatiluvchi "tushuvchi intonatsiya", "ko'tariluvchi intonatsiya" kabilar melodiyaga tegishlidir. Melodiya intonatsiyaning eng zarur komponentlaridan biri bo'lib, frazalarni ulash va nutqni ifodali qilish vazifalarini bajaradi.

2. Intonatsiyaning eng asosiy komponentlaridan ikkinchisi *fraza urg'usi* bo'lib, nutqdagi biror elementni (so'z, bo'g'in yoki so'z birikmasini) alohida ajratib talaffuz etish bilan izohlanadi. *Fraza urg'usi frazalarni* ulashning fonetik vositasi hisoblanadi. Nutqning fonetik bo'linishida, ko'rsatib o'tilganidek, fraza bir urg'uga ega bo'lgan boshqa mayda bo'laklarga bo'linadi. Bu bo'laklarni taktlar deb atagan edik. Odatda o'zbek va rus tillarida fraza urg'usi nutq taktlarining oxirgi qismiga tushadi. Uch turdagi fraza urg'usi farqlanadi: odatiy *fraza urg'usi*,  *mantiqiy* va *emfatik urg'u*. Nutqning mazmuni jihatdan frazaning biror qismini alohida ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi prosodik vosita *mantiqiy urg'u* deyiladi. Masalan: U — *vrach*, rafiqasi esa, *o'qituvchi*. Bu — juda *qiziq* kitob.

Frazadagi biror so'zni emotsional — ekspressiv jihatdan ajratib ko'rsatuvchi prosodik vosita *emotsional urg'u* deyiladi. Masalan: Eh, qanday *go'zal* manzara! *Seni* qara-yu.

Ajratilgan so'zlarda emotsional urg'u unli tovushlarni ancha cho'ziq talaffuz etish orqali amalga oshiriladi.

3. Kuchli va kuchsiz talaffuz va nafas kuchi intensivlikni bildiradi.

4. Fraza va taktlarda urg'uli va urg'usiz hamda cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning almashib turishi *ritm* deb ataladi. Frazaning ritmik strukturasi nutqning asosiy fonetik belgilaridan biri

---

<sup>1</sup> Nutq melodiyasi bilan musiqa melodiyasi o'rtasida ma'lum munosabat mavjud. Ashulada ular bir-biriga jo'r bo'ladi. "Melodiya" tushunchasi o'zbekcha "ohang" tushunchasiga to'g'ri keladi.



bo'lib, u frazani pauza yordamida kichik bo'laklarga bo'lish uchun xizmat qiladi.

5. Talaffuzning vaqti, uning tezligi (sekin, o'rta tezlik va tez) *nutq tempi* deyiladi. Nutq tempi frazani bo'laklarga bo'lish va uni ma'no jihatdan shakllantirish uchun xizmat qiladi.

6. Nutqda ovozning har xil o'zgarishlari va u orqali nutqning turli emotsional-ekspressiv ifodalanishi *ovoz tembr* deb yuritiladi. Ovoz tembr bir kishining ovozini ikkinchi kishining ovozidan farqlash uchun ham xizmat qiladi. Nutq tembr ikki turli bo'ladi. U ovozning turli o'zgarishlarini ko'rsatish uchun xizmat qilsa, *neytral tembr* (bevosita oddiy) deb yuritiladi. Nutqni ifodali, ya'ni emotsional-ekspressiv qilishda ishtirok etuvchi tembr *emotsional* deyiladi. Yuqorida ko'rsatilgan nutqning fonetik jihatdan fraza, takt, bo'g'in va tovushlarga bo'linishi so'zlovchining odat bo'yicha uzun nutqni bo'laklarga bo'lib talaffuz etishiga asoslanadi. Talaffuzi va eshitilishi jihatdan nutqdagi *psixologik aniq birliklar sifatida bo'g'in, so'z, sintagma va frazalarni* atash mumkin<sup>1</sup>. Ularni nutqda ajratib ko'rsatish aniqdir. Biroq so'z nutqda eng aniq birlik sifatida namoyon bo'ladi. Chunki so'z ifoda planidan (tovush tomonidan) tashqari, mazmun planiga (ma'no jihatiga) ham egadir. So'zning fonetik belgilari uni tashkil etuvchi ma'lum tovushlarning birikmalari va ularning tartibi, ya'ni fonetik strukturalari va urg'uning turli darajalari, ya'ni *aksent* (lotincha accent — urg'u) strukturasida namoyon bo'ladi. Ana shu ikki jihatni o'zida mujassamlashtirgan nutqning har ikki tomonidan qisqa pauza bilan chegaralangan minimal bo'lakni *fonetik so'z* deb ataladi.

So'zga nisbatan yuqori birlik sifatida nutq jarayonida so'zlovchi tomonidan biror ma'noni bildirish maqsadida bo'linuvchi qism *sintagma* deyiladi. Sintagmaning fonetik belgisi deb *sintagmatik urg'u* tushuniladi. Bunday urg'u odatda sintagmadan oxirgi elementga tushadi va u sintagma birlashgan so'zlarning ma'no munosabatlari bilan bog'lanadi. Misol: Katta akam /traktor ishlab chiqaradigan zavodda/ yetti yildan beri/ yaxshi

---

<sup>1</sup> Бондарко Л.Б., Зиндер Л.Р. Исследование фонетики. Основы теории речевой деятельности. М., Наука, 1974, с. 145—160.

mehnat qilmoqda. Bu fraza to'rt sintagmaga bo'linadi (/ — belgisi sintagmaning chegarasini ko'rsatadi) va u har ikki tomondan katta pauzaga // — belgisi) ega.

Nutqning tovush jihatdan shakllanishida barcha fonetik va leksik-grammatik vositalar xizmat qiladi. Fonetik vositalar ichida intonatsiya alohida o'rin tutadi. Intonatsiya so'zlovchining nutq mazmuniga bo'lgan munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Mashhur rus qo'shiqchisi F.A. Shalyapinning obrazli aytishicha, "Intonatsiya — fikrni go'yo temiryo'l poyezdini ko'tarib turgandek ushlab turadi". Intonatsiya tufayli nutqning fonetik bo'linishida hosil bo'lgan birliklar (frazalar, takt, bo'g'in va tovushlar) bir qatorda bir-birlari bilan ulanadi. Nazariy ahamiyatidan tashqari, intonatsiya chet tillarning namunali talaffuziga o'rgatishda amaliy jihatdan ham juda zarur hisoblanadi.

### TOVUSHLARNING NUTQDAGI POZITSION O'ZGARISHLARI. REDUKSIYA

Nutqdagi turli faktorlar natijasida tovushlar bir-biriga ta'sir qiladi. Bunday faktorlardan biri tovushning o'rnini, uning boshqa tovushga qo'shni holatda bo'lishi, tovushlarning birikuvini va urg'uning tabiatiga bog'liq. Tovushlarning pozitsion va kombinator o'zgarishlari farqlanadi. (Kombinator o'zgarishlar keyingi bo'limda beriladi).

Ma'lum holatda ro'y beruvchi tovushlarning o'zgarishi *pozitsion o'zgarishlar* deb ataladi. Pozitsion o'zgarishlar uch turga ega: 1) urg'uga nisbatan urg'uli va urg'usiz unlilar farqlanadi; 2) bo'g'in va uning tabiatiga ko'ra ochiq va yopiq hamda berkitilgan va berkitilmagan bo'g'inlar farqlanadi; 3) so'zdagi o'rniga ko'ra so'z boshi, o'rtasi va oxiridagi tovushlar va ularning birikmalari farqlanadi.

Unli tovushlarning urg'usiz bo'g'inlarda kuchsizlanishi yoki o'zgarishi *reduksiya* deyiladi. Odatda sifat va miqdor reduksiyasi farqlanadi. Urg'usiz yopiq bo'g'inlarda unlilar cho'ziqligining qisqarishi va kuchli artikulyatsiya qilinishining yo'qolishi *miqdor reduksiya* deb ataladi. Masalan, *sanash* so'zining boshidagi urg'usiz /a/, oxiridagi /a/ ga qaraganda ancha kuchsiz va qisqa talaffuz etiladi. Rus tilidagi *зопод, зоподá* so'zlarida urg'usiz unlilar kuchsiz va qisqaroq talaffuz etiladi.

Tovushlarning urg'uga nisbatan o'rniga ko'ra ikki xil pozitsiya farqlanadi: urg'uli bo'g'indagi holati — *kuchli pozitsiya* deb, urg'usiz bo'g'indagi holati — *kuchsiz pozitsiya* deb ataladi. Kuchli pozitsiyada unlilar o'z artikulyatsion-akustik xususiyatlarini saqlab qoladi. Kuchsiz pozitsiyada unlilar miqdor va sifat belgilarini yo'qotadi, ya'ni reduksiyaga uchraydi.

Yuqorida ko'rsatilgan miqdor reduksiyasidan tashqari sifat reduksiyasi ham bor. Sifat reduksiyasida bir yo'la tovushning artikulyatsiyasi kuchsizlashadi va tovushning sifati o'zgaradi. Masalan, rus tilidagi *водá, воды, водяной, водаво́з* so'zlaridagi urg'usiz unlilar (o, a) tovushlari doirasida o'zgaradi. O'zbek tilida bunday xususiyat yetarli darajada ko'zga tashlanmaydi. Reduksiyaga uchragan tovushlar urg'uli tovushlarga qaraganda aniq bo'lmagan kuchsiz va qisqaroq talaffuzga ega.

Reduksiyaning darajasi faqat tovushning holatiga emas, balki talaffuz stiliga ham bog'liq. Odatda to'liq talaffuz stilida reduksiya minimal darajada bo'lib, og'zaki nutq stilida esa, u maksimal darajada ro'y beradi. Undan tashqari reduksiyaning darajasi unlilarning tilning ko'tarilishiga ko'ra belgilariga (yuqori, o'rta, quyi) ham bog'liq.

Undosh tovushlar ham pozitsion o'zgarishlarga uchrashi mumkin. O'zbek tilida so'z oxiridagi jarangli undoshlar jarangsizlashishi bunga misol bo'la oladi (kitob /kitop/, qand /qant/ kabi). Ba'zan ko'p bo'g'inli so'zlarda so'z oxiridagi jarangsiz undoshlar jarangli bo'lib talaffuz etiladi (bilak-bilagi, kurak-kuragi, tilak-tilagi kabi).

Turli holatlarda tovushlarning talaffuzi har xil o'zgarishlarga uchraydi. N.S. Trubetskoy ko'rsatishicha "... amaliy jihatdan aynan bir tovushni bir pozitsiyada ham bir necha marta aniq va bir turda talaffuz etish mumkin emas"<sup>1</sup>. Nutqda tovushlarning turli pozitsion o'zgarishlarini qancha chuqur o'rganilsa, shunchalik ko'p tovushlarning turlari aniqlanishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Трубецкой Н.С. Основы фонологии. М., 1960, с. 48–49.

## NUTQDA TOVUSHLARNING KOMBINATOR O'ZGARISHLARI

Nutqda tovushlarning qo'shni tovushlar ta'sirida miqdor va sifat belgilarining o'zgarishi *kombinator o'zgarishlar* deyiladi. Nutqda tovushlarning kombinator o'zgarishlariga akkomodatsiya, assimilatsiya, dissimilatsiya, diereza, epenteza, gaplologiya, proteza, metateza kabi fonetik hodisalar kiradi. Ba'zan bu hodisalarni o'rganuvchi bo'lim *kombinator fonetika* deb ham yuritiladi. Odatda tovushlarning birikuvni nutq organlarining turli harakatlariga bog'liq bo'ladi. Tovushlar qo'shni holatda kelganda, oldingi tovushlarning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasi bilan bog'lanishi natijasida ularning artikulyatsiya fazalari to'la amalga oshirilmasligi mumkin. Turli artikulyatsion-akustik xususiyatlar tovushlar birikmasida bir-biriga ta'sir qilishi natijasida artikulyatsiya qisqarishi, tovush ba'zan tushib qolishi va boshqa o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Bunday o'zgarishlar ba'zan nutqda talaffuzni iqtisod qilish hisobiga bo'ladi, chunki "... odam o'zining nutqi eshituvchiga qanchalik tushunarli bo'lsa, o'shancha talab etilgan nutq kuchini (ya'ni talaffuzini, A.A.) sarf qiladi"<sup>1</sup>.

Nutqda talaffuzni iqtisod qilish artikulyatsiyasi qiyin bo'lgan bir necha undoshlar birikmasini qisqartirib oson talaffuz etishda kuzatilishi mumkin. Nutqda ro'y beruvchi bunday iqtisod qilish tendensiyasi kelgusida til doirasiga ham ko'chadi. Masalan, (str) undoshlar birikmasining talaffuzi qiyinchilik tug'diradi va shu tufayli uni osonlashtirish turli tillarda bo'lgan undoshlar birikmasini umumiy qisqartirish tendensiyasiga bo'ysunadi.

Qiyoslang: "rus og'zaki nutqida "stram" so'zi "sram" yoki nemis tilidagi strom so'zi srom — "yo'nalish" kabi talaffuz etiladi<sup>2</sup>.

Quyida har bir kombinator o'zgarishni alohida ko'rib o'tamiz.

---

<sup>1</sup> Мартине А. Основы общей лингвистики. Новое в лингвистике. Вып. III. М., 1963, стр. 536.

<sup>2</sup> Серебренников Б.А. Вероятностные обоснования в компаративистике. М., Наука, 1974, с. 62.

*Akkomodatsiya* (lotincha *accomadatio* — moslashuv) keng tarqalgan fonetik hodisalardan biri bo‘lib, talaffuz iqtisodi bilan uzviy bog‘liqdir. Akkomodatsiya uch turli bo‘ladi. Keyingi tovushning ekskursiyasi o‘zidan oldin kelgan tovushning rekursiyasiga moslashsa, *progressiv akkomodatsiya* deyiladi. Aksincha, agar oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashsa, *regressiv assimilatsiya* deb ataladi. Qo‘shni kelgan tovushlarning bir-biriga ta’siri natijasida ularning artikulyatsiyasi moslashuvi *o‘zaro akkomodatsiya* deyiladi. Akkomodatsiya unlilarning undoshlarga va undoshlarning unlilarga moslashuvida ro‘y berishi mumkin. O‘zbek tilida chuqur til orqa (uvulyar) undoshlardan (x, g‘, q) keyin til oldi unlilari /i, e, a/ til orqa unlilari bo‘lib talaffuz etiladi, ya’ni ularning talaffuzi moslashadi. Aksincha, til orqa unlilari (u, o‘, o) til oldi undoshlaridan keyin til oldi unlilari bo‘lib artikulyatsiya qilinadi. O‘zbek tilidagi bu xususiyat progressiv akkomodatsiyaga misol bo‘la oladi. Unli tovushlar burun undoshlaridan oldin nazalizatsiya qilinishi regressiv akkomodatsiyaga misoldir: *kon, tong, tom* kabi. Non, nom, ming so‘zlarida bir yo‘la progressiv va regressiv akkomodatsiya kuzatiladi, chunki ikki burun undoshi orasidagi unli nazalizatsiya qilinadi.

Rus, mordva, chuvash, nenes va fransuz tillarida til oldi unlilaridan oldin undoshlar palatalizatsiya qilinadi<sup>1</sup>, ya’ni regressiv akkomodatsiyaga uchraydi. Ba’zi tillarda esa, til orqa unlilaridan keyin undoshlar velyarizatsiya qilinadi, ya’ni tilning orqa qismi orqaga yoki yumshoq tanglayga tomon yo‘naladi va undoshning ton va shovqini pasayib qattiq talaffuz etiladi. Undoshlarning lablangan unlilar bilan birikuv natijasida labializatsiya hodisasi ro‘y beradi. Ba’zan esa, velyar va lab undoshlari til orqa lablangan unlilari bilan birikishi natijasida labio-velyarizatsiya hosil bo‘ladi. Bu hodisalar ham akkomodatsiyaning turlari hisoblanadi. O‘zbek tilidagi qurt, bolta, qarta, mingta, kamchil so‘zlaridagi undosh birikmalarning har ikki elementi bir-biriga ta’sir qilib, jarangsiz undoshlar sonorlarni qisman

<sup>1</sup> *Серебрянников Б.А.* Вероятностные обоснования в компаративистике. М., Наука, 1974, с. 142.

jarangsizlashtiradi va o‘z navbatida, sonorlar ham jarangsiz undoshlarda ovoz tonini kuchaytirib, shovqinni pasaytiradi. Bu hodisa o‘zaro akkomodatsiyaga misoldir.

Akkomodatsiya tovushlarning hosil bo‘lishi o‘rni va usuli, labning holati va tovush paychalarining tebranishi va yaxshi tebranmasligiga ko‘ra moslashuv orqali amalga oshiriladi. Nutqdagi barcha tovushlar bir-biri bilan artikulasiya fazalari orqali bog‘lanadi va bu artikulasiya strukturasi tashkil etadi. Tovushlar o‘rtasidagi bog‘lanishning artikulasiya strukturasi chuqur o‘rganish yordamida fonetik hodisalar oydinlashadi.

## ASSIMILATSIYA

*Assimilatsiya* (lotincha *assimilatio* — “o‘xshash bo‘lish”) deb tovushlarning bir-biriga ta‘siri natijasida ulardan birining ikkinchisiga o‘xshash bo‘lish hodisasiga aytiladi. Odatda unlilar unlilarga, undoshlar undoshlarga assimilatsiya qilinadi. Agar o‘zaro ta‘sir natijasida tovushlar bir-biriga butunlay o‘xshash bo‘lib qolsa, *to‘liq assimilatsiya* deyiladi. Agar tovushlarning biror artikulyatsion — akustik belgisi o‘xshash bo‘lib qolsa, *to‘liq bo‘lmagan (qisman) assimilatsiya* deb ataladi. (Masalan, ketdi (ketti) so‘zida (t) va (d) oldingi (t) jarangsiz undosh ta‘sirida o‘xshash bo‘lib qoladi).

Tovushlar bir-biriga ta‘sirining yo‘nalishiga ko‘ra progressiv va regressiv assimilatsiya farqlanadi. Oldin kelgan tovush keyingi tovushga ta‘sir qilib, o‘ziga o‘xshatsa — *progressiv assimilatsiya*, aksincha, keyingi tovush oldingisiga ta‘sir qilsa — *regressiv assimilatsiya* deyiladi. Tovushlar artikulasiya o‘rni, usuli, jarangli-jarangsizligi va yumshoq-qattiqligi (bu hodisa rus tilida bor) bo‘yicha assimilatsiya qilinadi. O‘xshash bo‘luvchi tovushlar yonma-yon bo‘lsa — *kontakt assimilatsiya*, ular o‘rtasida boshqa tovushlar bo‘lib, o‘xshash bo‘luvchi tovushlar bir-biridan uzoq bo‘lsa — *distant assimilatsiya* deyiladi. Assimilatsiya bir so‘z ichida va so‘z birikmalari oralig‘ida ro‘y berishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi sotdi, otgan, rus tilidagi лодка, каробка, inglizcha goods /gudz/ — “narsalar”, cats /kæts/ — “mushuklar”, nemischa gibr /gi:pt/ — “olmoq”, legti

/lekt/ — “yotmoq” soʻzlarida progressiv kontakt assimilatsiya jarangsizlanish boʻyicha amalga oshiriladi. Taqsimot (taxsimot), ulugʻsifat (uluxsifat), oʻtaketgan (oʻtaketgan), oʻqchi (oʻxchi), tanbur (tambur) soʻzlarida regressiv assimilatsiya uchraydi. Surnay (sunnay), karnay (kannay), tipirlatmoq (tipillatmoq), mahkam (makkam) (Toshkent shevasida) kabilar toʻla regressiv kontakt assimilatsiyaga misoldir. Qantak (oʻrik), qoʻltiqtayogʻ (qoʻltigʻtayogʻ), toʻgʻnagʻich (toʻnagʻich) kabilar toʻla distant assimilatsiya uchraydi. Rus tilida distant assimilyasiya koʻproq uchraydi: *здравствуйте /здрасти/, пятнадцать /пятнацатʼ/ kabi.*

Assimilatsiya hodisasi ham talaffuzini iqtisod qilishning bir turi hisoblanadi. Assimilatsiya natijasida soʻzlar qisqarishi, undagi tovushlarning artikulyatsiyasi oʻxshash boʻlib qolishi talaffuzni osonlashtirishga yordam beradi. Turli tillarda assimilatsiyaning tabiati oʻziga xos xususiyatlariga ega. Xususan, nemis tilida jaranglilik belgisi boʻyicha assimilatsiya uchramaydi. Bunday assimilatsiya rus va oʻzbek tillariga xosdir.

Distant assimilatsiya koʻproq unilarning oʻzaro taʼsiri natijasida roʻy beradi va turkiy, fin-ugor, baʼzi german tillarida uchraydi. Masalan, nemis tilida otlarning koʻplik qoʻshimchasidagi unli soʻz oʻzagidagi unliga oʻxshash belgilariga ega boʻladi. Bu hodisani *umlaut* deyiladi: Buch “kitob” — Bücher “kitoblar”, Sohn “oʻgʻil” — Söhne “oʻgʻillar” kabi.

Progressiv assimilatsiyaning yana bir turi *singarmonizm* yoki *unilarning uygʻunlashuvi* deb atalib, u soʻzlarda (oʻzak va affiksda) unilarning oʻxshash artikulyasion-akustik belgilarga ega boʻlishi bilan izohlanadi. Baʼzi afrika tillarida unililar bir soʻz yoki soʻzlar birikmasi doirasida uygʻunlashadi. Koʻpgina urol va oltoy tillarida unililar til oldi va til orqa, hamda lablanganlablanmagan belgilari boʻyicha uygʻunlashadi. Masalan, turkiy tillarida, xususan, turkman, qozoq, qirgʻiz, turk, qoraqalpoq tillaridagi soʻzlarda til oldi yoki til orqa, lablangan yoki lablanmagan unililar oʻxshash holatda uchraydi. Bunda soʻz oʻzagidagi unli bilan uning affiksidagi unli uygʻunlashadi. Masalan, turkman tilida: galamlar — “qalamlar”, gelinlar — “kelinlar” qozoq tilida: bashtar — “boshlar”, koldor — “qoʻllar”, turk tilida: gollar — “qoʻllar”, gözlär — “koʻzlar” kabi.

Singarmonizm urg'u bilan ham bog'liq bo'lib, ularning har ikkisi so'zning fonetik belgisi hisoblanadi. Nihoyat, assimilatsiya sinxronik (yangi paydo bo'lgan) va diaxronik (tarixiy shakllangan) bo'lishi mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan umlaut va singarmonizm hodisalari tovushlarning tarixiy assimilatsiyasi natijasida kelib chiqqan.

### FONETIK O'ZGARISHLARNING BOSHQA TURLARI

Assimilatsiya natijasida nutq tovushlari o'rtasidagi farqlar yo'qolib, ular bir yoki bir necha belgilari bilan o'xshash bo'ladi yoki uyg'unlashadi. Biroq bu hodisaga aksincha bo'lgan tovushlarning o'zaro ta'siri ham borki, bunda tovushlarning o'xshashlik xususiyati yo'qoladi. Agar so'zdagi ikki bir-biriga o'xshash tovushlardan biri o'zgarib, natijada ular biror artikulyatsion-akustik belgisi yoki bir necha belgilari bilan farqlanib qolsa, *dissimilatsiya* (lotincha *dissimilatio* — "o'xshamaslik") deyiladi. Masalan, rus va o'zbek og'zaki nutqida dissimilatsiya ko'p uchraydi: tumba (tunba), Tambov (tanbov), tramvay (tranvay), kombayn (konbayn), djemper (djenper), ambar (anbar)<sup>1</sup>. Ingliz tilida marble — "mramor" so'zi fransuz tilidagi marbre — so'zidan kelib chiqqan bo'lib, so'z oxiridagi (r) tovushi dissimilatsiya natijasida (l) ga ko'chgan.

*Metateza* (yoki inversiya) hodisasi tovushlar yoki bo'g'inlarning so'z tarkibida o'zaro o'rin almashishi bilan izohlanadi. Ba'zan so'zda yonma-yon kelgan tovushlarning o'zaro o'rin almashinuvi *inversiya* deb, aksincha, bir-biridan uzoq bo'lgan tovushlarning o'zaro almashinuvi *metateza* deb yuritiladi. Bu hodisa ko'proq og'zaki nutqda uchraydi: mramor (marmor), tuproq (turpoq), yomg'ir (yog'mir), tuxfa (tufxa), surpa (surpa) kabi.

*Diereza* (yoki tushurib qoldirmoq) hodisasi undosh tovushlarni talaffuzdan tushurib qoldirish bilan izohlanadi: (Toshkent shevasida) go'sht (go'sh), rost (ros), surtmoq (surmoq), tandir (tanir) kabi.

<sup>1</sup> *Аванесов Р.И.* Русская литературная и диалектная фонетика. М., 1974, с. 194—198.



Agar bir xil yoki o'xshash bo'g'inlardan biri tushirib qoldirilsa, *gaplogiya* deyiladi. Masalan, *morfofonologiya* so'zi o'rnida morfonologiya, sarig' yog' o'rnida saryog' kabi.

So'zga tovushni qo'shib aytish *epenteza* deyiladi: nonko'r (nonga ko'r), ishqiboz kabi.

So'zning boshlang'ich qismiga tovushlarni qo'shib aytilsa, *proteza* deyiladi. Turkiy tillarda, xususan o'zbek tilida (og'zaki nutqda) rus tilidan kirgan so'z boshida kelgan undosh tovushlar birikmasi oldidan (i), (u) unlilarini qo'shib aytish protezaga misoldir: станция (istansa, istansiya), стол (ustol), стул (ustul), справка (ispravka) kabi.

Chet tilidan kirgan so'zlardagi tovushlarni ona tilidagi tovushlar bilan almashtirib talaffuz qilish *substitutsiya* deyiladi. Odatda, ona tilida bo'lmagan chet tilidagi tovushni ko'proq almashtiriladi. Biroq chet tilidagi tovushga o'xshashroq tovush ona tilida bo'lishiga qaramay, uni almashtirish hollari ko'p uchraydi. Chunki har bir til o'zining alohida tovush sistemasiga ega va undagi tovushlar boshqa tilda qaytarilishi mumkin emas. Bunday tovushlar substitutsiyasi hodisasi atoqli otlarda juda ko'p uchraydi: *nemischa*: Webster — Uebster, Isaak — Isaak, *lotincha*: Theodor — Feodor (Fyodr), *inglizcha*: Thomas — Tomas<sup>1</sup> kabilar.

## TOVUSHLARNING ALMASHUVI

Yuqoridagi tovushlar almashuvi ikki yoki undan ortiq tillarda uchraydi. Bir tildagi so'zlarning har xil formalarida ham tovushlar almashuvi ro'y beradi. Bunday tovushlar almashuvi *alternatsiya* deb ham yuritiladi. Almashinuvchi tovushlarni esa, *alternantlar* deyiladi. Tovushlar almashinuvining turli morfemalardagi xususiyatlarini **morfonologiya** o'rganadi. Tovushlarning almashinuvi ikki xil bo'ladi: *fonetik* (pozitsion) va *taxixiy*.

**Fonetik almashuv** deb tilning hozirgi talaffuz normasiga asosan ro'y beruvchi alternatsiyaga aytiladi. Bunday almashuv tovushlarning o'rniga bog'liq bo'lib, ma'lum holatda uchraydi.

---

<sup>1</sup> Chet tilidan o'tgan so'zlarning bunday berilishi transliteratsiya deyiladi. Bu haqda keyinroq to'xtaladi.

Masalan: sez — seskanmoq, uyqu — uygʻonmoq, sariq — sargʻaymoq, bilak — bilagi kabi.

Tovushlar almashuvi slavyan tillarida, ayniqsa rus tilida juda koʻp uchraydi. Masalan, rus tilidagi от — prefiksi sakkiz xil talaffuz qilinadi: отпуск (otpusk), отзов (odzoʻf), отход (atxot), отгадать (adgadət), оттеснить (attʻisnit), отцепить (atssepʻit), оттепель (otʻtepʻel), отделить (adʻdyelʻit). Ularning har biri fonetik holatiga bogʻliq: yumshoq undosh (tʻ), (dʻ) undoshlaridan oldin keladi: affrikatlar (s) dan oldin, (o) urgʻuli holatda, (a) urgʻusiz holatda va hokazoʻl.

Ingliz tilida ham yuqoridagiga oʻxshash tovushlar almashuvi kuzatiladi. Masalan, otlardagi koʻplik qoʻshimchasi -s otning birlik shaklida u tamomlangan undosh yoki unli tovushning artikulyatsion-akustik xususiyatiga koʻra har xil talaffuz etiladi: jarangsiz undoshdan keyin /s/, sirgʻaluvchi undoshlardan keyin /-iz/ va jarangli tovushga tugagan soʻzlarda /z/ talaffuz etiladi maps /mæps/ — “xaritalar”, box /bɒksiz/ — “qutilar”, beds /bedz/ “krovatlar” kabi. Bu tovush almashinuvlarida assimila-tsiya muhim ahamiyatga ega.

Baʼzi tovushlar almashinuvi tarixiy faktlar asosida tasdiqla-nishi mumkin. Shu sababli ularni *tarixiy tovush almashinuvlari* deyiladi. Oʻzbek tilidagi baʼzi affikslar tarixiy jihatdan har xil boʻlgan: -gil, -gʻil, -qil, -kil, -gali, -gʻali, -kali, -qali shaklida yozilgan va shunday talaffuz etilgan g-k-q tovushlari almashi-nuvi ana shunday tarixiy jihatdan shakllangan alternatsiyaga kiradi.

Rus tilidagi к-ч tovush almashinuvi (masalan, рука-ручка soʻzlarida) undoshlardan keyin kelgan til oldi unlisining taʼsiri-da boʻlgan. Aslida sifatlarning suffiksi -ьн boʻlgan. Руч- fonetik holatiga bogʻliq boʻlmay qolgan va к-ч almashinuvi pozitsion bogʻliqlikdan chiqib, tarixiy boʻlib qolgan. Shu sababli uni hozirgi rus adabiy tili talaffuz normasi yordamida tushuntirish mumkin emas<sup>2</sup>.

Ingliz tilida soʻzlarning oʻzagida kelgan unilarning almashuvi birqancha feʼl shakllarini yasashda qoʻllanadi va ta-rixiy assimilatsiyaga misol boʻla oladi:

<sup>1</sup> Буланин Л. Л. Фонетика современного русского языка. М., 1970, с. 129.

<sup>2</sup> Буланин Л. Л. Фонетика современного русского языка. М., 1970, с. 132–133.

/i: /e/ e/ — feed, fed, fed — “boqmoq”,

/i: /ʌ/ /ʌ/ — win, won, won — “yutmoq (o’yinni)” kabi.

Tovushlar almashuvi natijasida soʻz turkumlari, soʻzlarning grammatik shakllari va boshqalarni farqlash mumkin. Tovushlar almashuvi faqat adabiy tilga xos boʻlmay, balki shevalarda juda koʻp uchraydi. Xususan, a/ e, i /e tovushlar almashuvi turkiy tillari shevalarida otlarning koʻplik affiksalarida uchraydi. Oʻzbek tili va uning shevalarida bunday tovush almashuvi quyidagicha boʻladi: adabiy tilda: otlar — itlar; oʻzbek shevalarida: atlar — iytlar / iytlər, atlar — itlar /itler, etler; qozoq tilida: attar — iyter.

Fonetik va tarixiy almashuvlari oʻrtasidagi oʻxshashlik ularning har ikkisi ham morfologik funksiyani bajarishida koʻrinadi. Biroq fonetik tovush almashuvi tilning hozirgi talaf-fuz normasi bilan bogʻliq boʻlsa, tarixiy tovush almashuvi bunday xususiyatga ega emas.

#### TOVUSHLARNING FUNKSIONAL JIHATI. ASOSIY FONOLOGIK TUSHUNCHALAR

Yuqorida nutq tovushlari va ularning vositalari turli aspektda oʻrganilishini aytib, ularning toʻrtinchisini *fonologik (sotsial yoki funksional) aspekt* deb atagan edik. Nutq tovushlari, boʻgʻin, urgʻu va intonatsiya jamiyat tilining tushunarli va aniq boʻlishi uchun muhim xizmat qiladi. Ular tildagi soʻz, soʻz shakllari, soʻz birikmalari, fraza va gaplarni farqlash funksiyasini bajaradi<sup>1</sup>. Shu tufayli bu aspektni sotsial yoki *funksional* deb atab, til bosqichi sifatida “*fonologiya*” termini (grekcha *phone* — tovush, *logos* — taʼlimot) ishlatiladi. Nutq tovushlari ayrim holda /a, o, u/ hech qanday maʼnoga ega emas. Nutq tovushlari maʼlum tartibda birikib soʻz va boshqa yirik til birliklarini hosil qiladi va ularning maʼnolari bilan bogʻlanadi. Soʻz, soʻz formalari va morfemalarni tashkil etuvchi va ularning maʼnolarini farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik boshqa boʻlak-

---

<sup>1</sup> Koʻpincha fonologiyani ikki boʻlimga ajratiladi: 1) tovushlarda namoyon boʻluvchi fonemalarni oʻrganuvchi boʻlimi — *segmental fonologiya* yoki *fonematika* deb; 2) urgʻu, boʻgʻin va intonatsiyaga tegishli vositalar *supersegment fonologiya* yoki *prosodika* deb yuritiladi.

larga bo‘linmovchi til birligi *fonema* (grekcha phone — tovush, ovoz ma’nosida) deyiladi. Masalan, til — tol, kel — kul so‘zlari unli fonemalar yordamida farqlanadi. Kul — qul, bel — sel, pok — tok, nok — nom, g‘or — xor, tur — tuk kabi so‘zlar tarkibidagi undosh fonemalar yordamida farqlanadi. Bunday tarkibidagi bir fonema bilan bir o‘rinda farq qiluvchi so‘zlarni (sel — sal kabi) minimal *juflikdagi so‘zlar* yoki *kvaziomonimlar* deyiladi.

Fonemaga tegishli barcha artikulyatsion-akustik belgilar uning *fonetik xarakteristikasi* deyiladi. Masalan, /p/ — fonemasining fonetik xarakteristikasi uning lab-lab, portlovchi, jarangsiz belgilarini o‘z ichiga oladi. Fonologiya jihatdan fonemalar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi (p-t, s-sh, x-k, a-o, u-i kabi). Bunday fonemalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi *fonologik oppozitsiya* deyiladi. Fonologik oppozitsiya yordamida fonemalarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiluvchi artikulyatsion-akustik belgilar *fonologik* yoki *farqlash alomatlari* deyiladi. Masalan, (p-t) oppozitsiyasida lab-til oldi artikulyatsiyasi fonologik jihatdan ahamiyatlidir. (p-t) oppozitsiyasidagi unilarning har ikki a‘zosi ham portlovchi va jarangsiz ekanligini fonologik bo‘lmagan yoki *farqlamovchi alomatlar* deb yuritiladi. Har bir fonema fonologik oppozitsiyaning a‘zosi hisoblanadi. Tildagi barcha fonemalar o‘zaro oppozitsiyalarni tashkil etadi va bu fonemalarning bog‘lanishi va aloqalari yig‘indisi *fonologik sistema* yoki *fonematik sistema* deb yuritiladi. Fonemalarning o‘zaro bog‘lanish xarakteri, ya’ni ularning qanday ichki aloqada ekanligi *fonologik* yoki *fonematik struktura* deb ataladi. Har bir fonema *fonologik birlik* yoki *element* deyiladi. Har bir til o‘zining fonologik sistemasiga ega bo‘lib, undagi har bir fonemaning o‘z o‘rni va funksiyasi bor. Bir tildagi fonema ikkinchi tilda bo‘lishi mumkin emas. Ikki tildagi fonemalar o‘z artikulyatsion-akustik xususiyatlari bilan o‘xshash bo‘lishi faqat tashqi jihatdan to‘g‘ri kelish hisoblanadi. Ularning ichki bog‘lanishlarini, ya’ni fonologik oppozitsiyalar sistemasini o‘rganish orqali juda ko‘p farqlarni aniqlash mumkin bo‘ladi. Ulardagi ba’zi o‘xshashliklar nutq organlarining barcha odamlarda bir xil tuzilganligi bilan izohlanadi.

Tildagi bir qancha tovushlar (ularning sonini aniqlab

bo'lmaydi) soni va artikulyatsion-akustik xususiyatlari aniq bo'lgan fonemalarga birlashadi. Bir fonema bir qancha tovushlarda namoyon bo'ladi. Ko'pincha bir fonemani ifodalovchi tovushlar artikulyatsion va akustik jihatdan yaqin bo'ladi. Biroq bir fonema bir necha har xil artikulyatsion va akustik xususiyatlarga ega bo'lgan tovushlarda ifodalanishi ham mumkin. Masalan, rus tilida (g) va (g') tovushlari bitta (g) fonemasining vakilidir: город (gorot), (g'orot)<sup>1</sup> kabi.

Tildagi so'z va so'z formalarini tashkil etuvchi fonemalarni go'yo g'ishtlarni yonma-yon qo'ygandek ko'rinishga ega sifatida tasvir qilish mumkin emas. Chunki fonemalar bir-biriga birikish jarayonida har xil o'zgarishlarga uchraydi (ularni yuqorida ko'rib o'tgan edik). Fonemalar tilning eng kichik bo'linmas segment birliklaridir. Masalan, paxta so'zi p-a-x-t-a beshta fonemaga bo'linadi, biroq, undagi har bir fonema o'z navbatida boshqa kichik bo'laklarga bo'linmaydi. Har bir fonema o'zining fonologik (farqlanuvchi) va fonologik bo'lmagan (farqlanmovchi) alomatlariga ega.

Har xil fonemalarni qarama-qarshi qo'yilganda, bu belgilarni aniqlash mumkin. Masalan, (b-p) fonemalari jarangli-jarangsiz belgilari bilan farqlanadi. Ularning qolgan belgilari lab- va portlovchi xususiyatlari har ikkisiga ham xos, ya'ni fonologik emas. /b-d/ oppozitsiyasida artikulyatsiya o'rni, ya'ni lab- va til oldi (dorsal) belgilari fonologik alomatlardir. Ularning har ikkisi jarangli portlovchi ekanligi fonologik alomat emas. Boshqa /b-k/ oppozitsiyasida bir yo'la artikulyatsiya o'rni, ya'ni lab /b/ va til orqa /k/, jarangli va jarangsiz fonologik alomat hisoblanadi. Artikulyatsiya usuliga ko'ra /b-k/ dagi portlovchi belgisi fonologik emas. Ko'rinadiki, har bir fonologik oppozitsiyada fonema o'zining ma'lum farqlovchi va farqlanmovchi belgilari bilan ishtirok etadi. Har xil tillarning fonologik sistemalarini qiyoslaganda, bunday belgilarni aniqlash ayniqsa zarurdir. Xususan, rus tilidagi yumshoq va qattiq undosh fonemalar o'zbek tilidagi bir fonemaga to'g'ri keladi. Chunki o'zbek tilida yumshoq va qattiq fonologik belgilari yo'q.

Tildagi fonologik oppozitsiyalar ikki a'zodan iborat bo'lsa, *binar oppozitsiya* (lotincha *bini* — "ikkitadan") deyiladi: /b-p/,

<sup>1</sup> Реформатский А.А. Введение в языковедение. М., 1967, с. 212.

/t-g/, /i-u/ kabi. Fonologik oppozitsiyalar uch a'zodan iborat bo'lsa, *ternar* (lotincha *terni* — “uchtadan”) *oppozitsiya* deyiladi: /p-t-k/, /i-e-a/ kabi. Uchtadan ortiq a'zoga ega bo'lgan fonologik oppozitsiyalar *ko'p a'zoli oppozitsiyalar* deyiladi: /b-d-g-h/ kabi. Tildagi fonologik oppozitsiyalarni binar, ya'ni ikkitadan a'zoga ega bo'lgan shaklida tasnif etish ancha qulaydir. Shy tufayli ko'p a'zoli oppozitsiyalarni binar yoki dixotomik (lotincha *dixotomiya* — “teng ikkiga bo'lish” ma'nosida) holatga keltiriladi. Masalan, /b-d-g-x/ oppozitsiyasini /b-d/, /b-g/, /b-h/, /d-g/, /d-h/, /g-h/ binar oppozitsiyalariga bo'lish mumkin. Bunda fonemalarning farqlanuvchi va farqlanmovchi belgilarini aniqlash ham osonlik tug'diradi. Ba'zi fonologik oppozitsiyalarda bir qancha fonemalar juft holda binar qilib beriladi. Masalan, o'zbek tilidagi jarangli va jarangsiz belgiga ega bo'lgan undoshlar /p-b/, /t-d/, /f-v/, /s-z/, /sh-j/, /ch-dj/, /x-g'/, /k-g/ ana shunday binar oppozitsiyalardir. Rus tilida jarangsiz va jarangli oppozitsiyadan tashqari, yana qattiq va yumshoq fonemalar oppozitsiyalari ham binar hisoblanadi. Keltirilgan juft oppozitsiyalar yig'indisi *korrelatsiya* deyiladi. Ularni qarama-qarshi qo'yishda asos bo'lgan jarangli-jarangsiz, yumshoq-qattiq, ba'zi tillarda unilarning cho'ziq-qisqa belgilari *korrelyatsion belgi* deb ataladi.

Fonologik oppozitsiyalar doimiy va neytralizatsiyalashuvchi bo'ladi. Ba'zi tillarda jarangli undoshlar so'z oxirida jarangsizlashadi. Masalan, rus tilida *лук* (luk), *град* (grat) kabi, o'zbek tilida kitob (kitop), qand (qant) kabi. Bunday xususiyat *fonologik neytralizatsiya* deyiladi. Bu holatda b/p, t/d undoshlari bir xil artikulyatsion-akustik xususiyatga ega bo'lib, ularning fonologik belgilari o'xshash bo'lib qoladi. Bunday fonologik birlik *arxifonema* (lotincha *archi* — katta, *phoneme* — fonema) deyiladi. Arxifonema ikki va undan ortiq fonemaga tegishli bo'lgan fonologik belgilarning yig'indisidan iborat. Biz yuqoridagi fonologik oppozitsiya a'zolarining soniga ko'ra binar, ternar va ko'p a'zoli oppozitsiyalar turlarini ko'rsatib o'tdik'. Fonologik oppozitsiya a'zolarining farqlanish belgilari o'rtasidagi munosabatga asoslangan boshqa turli tasniflar ham mavjud.

<sup>1</sup> Fonologik oppozitsiyalarning boshqa turli tasniflari, neytralizatsiya va hokozolar N.S. Trubetskoyning “Оснoвы фонологии” (M., 1960) kitobida batafsil berilgan.

Fonologik oppozitsiya tushunchasi tildagi fonemalar sistemasini chuqur tasnif qilish uchun eng zurrur hisoblanadi.

Tildagi fonemalar bir qancha tovushlarda namoyon bo'ladi. Fonemalar bo'g'inlar, so'zlar, so'z birikmalari va frazalarning tarkibida joylashgan. Ular har xil o'rinlarda yoki holatlarda uchraydi. Odatda bu holatlar *pozitsiya* deyiladi. Fonemalarning har xil aytilishi shartlari bo'yicha taqsimlanishi ularning *distributsiyasi* deyiladi.

Fonemalar ochiq yoki yopiq bo'g'inlarda, so'z boshi, o'rtasi va oxirida, urg'uli yoki urg'usiz holatda uchraydi. Bu pozitsiyalarda fonemalar har xil o'zgarishlarga duch keladi. Fonemalarning pozitsiyalari ikki turli bo'ladi: fonemalar deyarli ko'p o'zgarishlarga uchramaydigan holatni *kuchli pozitsiya* deyiladi; fonemalar ko'p o'zgarishlarga uchraydigan holat — *kuchsiz pozitsiya* deb ataladi. Kuchli pozitsiyada fonemaning asosiy vakili namoyon bo'ladi. Kuchsiz pozitsiyada esa, fonemaning ottenkasi yoki variatsiyalari uchraydi. Masalan, o'zbek tilida /i/ fonemasi uchragan pozitsiyasiga ko'ra har xil talaffuz etilishi mumkin: birinchi /birinchə/ so'zida /ə/ /i/ fonemasining varianti yoki allofoni hisoblanadi. Biroq shu /i/ fonemasi doirasida unga artikulyatsion-akustik xususiyatlari bilan o'xshash bo'lgan va so'zlarning ma'nolarini farqlashga xizmat qila olmaydigan aytilishlar *fonemaning variatsiyalari* deb yuritiladi:  $i^1, i^2, i^3, \dots = i$  (i — fonema, qolgan i-lar — variatsiyalardir).

Odatda fonemalarning pozitsion o'zgarishlarga uchragan vakili pozitsion varianti, nutqda kombinator o'zgarishlarga uchragan fonemaning vakili — *kombinator varianti* deb yuritiladi. Fonemaning sifat o'zgarishlariga uchragan vakili — uning varianti yoki allofoni, miqdor o'zgarishiga uchragan (cho'ziq-qisqaligi o'zgargan) fonemaning vakili *alloxon* deb yuritiladi.

Fonemalar har xil o'rinlarda, xususan so'z boshi, o'rtasi va oxirida bir-birlari bilan birikib kelishi mumkin. Fonemalarning birikmalarini (ts, dz, kt, vz, kg, gg kabi) o'rganuvchi fonologiya qismi fonotaktika deyiladi. Har bir tilda fonemalar birikmalari o'ziga xos tartib va xususiyatlarga egadir.

Fonologik birliklar hisoblanuvchi fonema, bo'g'in, urg'u va intonatsiya tilda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) ular tildagi ma'nodor birliklar hisoblanuvchi yirik birlik-

larni tashkil etuvchilik funksiyasini bajaradi. Masalan, soʻzlar boʻgʻinlardan, morfemalar fonemalardan tuzilgan boʻlib, ular oʻz urgʻusiga egadir. Frazalar uchun intonatsiya zarur tashkil etuvchilik vazifasini bajaradi;

2) ular farqlovchilik yoki differensial funksiyani bajaradi. Masalan, tol — qol, bil — bel, soʻz va morfemalari (t-k), (i-e) fonologik oppozitsiyalari yordamida farqlanadi. Shuningdek oʻzbek tilidagi Toʻxta! (odam ismi) va Toʻxta! hamda olma (meva) va Olma! urgʻuning oʻrniga koʻra farqlanadi. Ingliz tilidagi a name /əneim/ — “nom” — an aim /ən'eim/ — “maqsad” soʻzlari boʻgʻinlarning boʻlinishi chegarasi va ularning bogʻlanishi va urgʻuning oʻrni orqali farqlanadi;

3) ular nutqda fonologik birliklar soʻz va morfemalarni hamda frazalarni chegaraga ajratish funksiyasini yoki delimitativ (lotincha *limitus* — chegara) funksiyani bajaradi. Ular soʻz va morfemalarning boshi va oxirini koʻrsatish uchun qoʻllanadi. Masalan, oʻzbek tilidagi soʻzlar /ng/ fonemasi bilan boshlana olmaydi. (tong, bong kabi) va /x/ fonemasi bilan tamomlanmaydi. Demak, bu fonemalar soʻzlar va morfemalarning chegara signallari vazifasini bajaradi. Shuningdek, Komil yota qoldi va Komil yotoq oldi frazalarida Toshkent shevasi talaffuzida /k/ fonemasi chegara signali vazifasini bajarib, ularning maʼnolarini farqlaydi. Shuningdek oʻnta kam bir va oʻnta kam-pir soʻz birikmalari ham /b/p/ fonemalari yordamida chegaraga boʻlinadi.

Tovush vositalarining eshutilish xususiyatlariga koʻra ularni tanib olish funksiyasini ham koʻrsatib oʻtish lozim. Eshitilishi jihatdan fonema, boʻgʻin chizigʻi, urgʻuning oʻrni va frazaning intonatsiyasini tanib olamiz va oʻsha oʻrinda ularni maʼlum qoida asosida talaffuz etamiz. Agar bu oʻrinlarda ularni notoʻgʻri talaffuz etilsa, tanib olish funksiyasi buziladi. Chet tiliga oʻrgatishda tanib olish funksiyasi alohida ahamiyatga egadir.

4) Tildagi barcha tovush vositalari, boʻgʻin, urgʻu va intonatsiya nutqni ifodali qilish uchun ekspressiv funksiyani bajaradi. Bu funksiya tilning stilistika bosqichidagi **fonostilistika** deb ataluvchi qismida oʻrganiladi. Xususan unli va undosh tovushlarni choʻzib aytish, boʻgʻinni orttirish, tovushlarni, intonatsiyaning melodiyasi (ohangi) va urgʻusini odatdagidan koʻra



boshqacha aytish xususiyatlari fonostilistik belgilar hisoblanadi. Masalan, Tu-u-ur! O-o-oh! Ke-ye-yel! X-x-xap sani! Sh-sh-shoshmay tur! kabilar.

Fonetika va fonologiya uzviy bog‘liq bo‘lganidek, yuqorida keltirilgan to‘rtala funksiya ham bir-biri bilan bog‘liqdir. Bu funksiyalardan birortasining talaffuz jarayonida buzilishi (masalan, olma (meva) so‘zining birinchi bo‘g‘inidagi /o/ fonemasiga urg‘u qo‘yilsa, uning ma‘nosi o‘zgaradi) boshqa funksiyalarni o‘zgartirib yuboradi. Bu o‘rinda bir yo‘la farqlanish, tanib olish va tashkil etuvchilik funksiyalari buziladi va ayniqsa, chet tili talaffuzida bunday xatolar nutqning tushunarsiz bo‘lishiga olib keladi.

## FONOLOGIYA NAZARIYALARI

Tilshunoslik tarixida tovush sistemasini o‘rganish ikki davrga bo‘linadi:

1. “Fonema” tushunchasi paydo bo‘lgunga qadar davr. Bu davrda fonema va tovush hamda harflar o‘rtasidagi farq aniq ko‘rsatilmay, tovushlar talaffuzining so‘zlardagi ma‘lum holatlarda etimologik o‘zgarishlariga ko‘proq e‘tibor berilgan.

2. Fonologiya nazariyalarining yuzaga kelish davri. Bu davr XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, XX asrda ham davom etdi. Bu davrda tovush va harf hamda fonema tushunchalari o‘rtasidagi farqlar oydinlashdi va keyinchalik bo‘g‘in, urg‘u hamda intonatsiyaning tildagi funksional tomonlari o‘rganila boshlandi. “Fonema” tushunchasi va terminini birinchi taklif etganlar qatorida fonologiyaning asoschisi, mashhur rus va polyak olimi I.A. Boduen de Kurtene (1845—1929), uning talantli shogirdi N.V. Krushevskiy (1851—1887), fransuz olimi P. Passi, ingliz tilshunosi G. Suit, shveysariyalik taniqli tilshunos Ferdinand de Sossyur, rus olimi I.K. Uslar kabilarning nomlari bor. Shu kungacha “fonema” tushunchasiga bir qancha ta‘riflar berildi, biroq termin o‘zining chuqur negiziga ega bo‘lganligi tufayli saqlanib kelmoqda. Hozirgacha tilshunoslikda quyidagi fonologiya nazariyalari yaratildi:

1. *I.A. Boduen de Kurtenening psixologik fonologiya nazariyasi.* Bu nazariyaga ko‘ra “fonema” tildagi tovushlarning

psixik ekvivalenti yoki tovush tushunchasining kishi ongida his etilgan birligidir. I.A. Boduen de Kurtene ko'rsatishicha, fonema tildagi morfologik, sintaktik va semasiologik (ma'no-mazmun tomoni) tushunchalar bilan bog'langan fonetik birlikdir<sup>1</sup>. U morfemalardagi tovush almashinuvida ayniqsa ahamiyatlidir. I.A. Boduen de Kurtenening fonologiya nazariyasi keyingi tilshunoslikdagi ilmiy qarashlarning kelib chiqishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2. I.A. Boduen de Kurtenening talantli shogirdi akademik L.V. Shcherba (1880—1944) o'z ustozining qarashlarini rivojlantirdi va fizik fonologiya nazariyasini yaratdi. L.V. Shcherba ko'rsatishicha, har bir nutq tovushi umuman boshqa nutq tovushlari kabi qandaydir fizik, mexanik hodisa hisoblanadi. Jonli nutqda juda ko'p turli tovushlar talaffuz etiladi. Bu tovushlar tildagi so'z va so'z shakllarining ma'nolarini farqlay oluvchi soni jihatdan kam bo'lgan tovush tiplariga birlashadi. Bunday tovush tiplari **fonemalar** deyiladi. Umumiy tushuncha hisoblanuvchi fonemaning yakka holda nutqda talaffuz qilinuvchi vakili **fonemaning ottenkasi** deb ataladi<sup>2</sup>. L.V. Shcherba bu ta'rifda materialistik dialektikaning umumiylik, yakkalik va alohidalik kategoriyasini fonologiyada qo'llagan. Uning ilmiy qarashlaridan hozir ham rus tilshunosligida foydalanilmoqda.

3. L.V. Shcherbaning shogirdlari keyinchalik rus tilshunosligida ikki fonologik oqimga bo'lindilar. Bu ikki oqim bir-biriga zid bo'lmagan va faqat ilmiy baxs yordamida rus tilshunosligini rivojlantirishga katta hissa qo'shayotgan Moskva va Peterburg fonologiya maktablari nazariyalarini tashkil etadi. Moskva fonologiya maktabining vakillari mashhur rus tilshunoslari — A.A. Reformatskiy (1900—1978), P.S. Kuznetsov (1899—1968), V.N. Sidorov, R.I. Avanesov, M.V. Panov, A.M. Suxotin va boshqalardir. Peterburg fonologiya maktabining vakillari taniqli rus tilshunoslari — L.V. Zinder, M.I. Matushevich, A.N. Gvozdev, V.I. Litkin, Yu.S. Maslov va boshqalardir.

---

<sup>1</sup> Q a r a n g: Бодуэн де Куртене: Избранные труды по общему языкознанию. Т. I. М., изд. "Наука", 1963, с. 41—46.

<sup>2</sup> Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность, изд. "Наука", 1974, с. 132.

Moskva va Peterburg fonologiya maktablarining ilmiy qarashlaridagi asosiy farqlanishlarni ko'rsatib o'tamiz. Moskva fonologiya maktabi fonemaga ta'rif berishida morfema tushunchasiga, ya'ni tilning eng kichik ma'nodor birligiga suyanadi. Bunda morfemalardagi tovush almashuvida ishtirok etuvchi tovushlar bir fonemaga birlashtiriladi. Masalan, вода (vada), воды (vody), на воду (na v'du) morfemalaridagi /o/a/ъ/ tovush almashuvi bir /o/ fonemasining variantlari hisoblanadi.

Peterburg fonologiya maktabi fonemaga ta'rif berishda so'z shakli tushunchasidan kelib chiqadi va yuqorida keltirilgan misoldagi /o/, /a/, /ъ/ tovushlarining har birini alohida fonemaning vakili sifatida qaraydi. Bu ikki qarash o'rtasidagi tafovutlar yana kuchli va kuchsiz pozitsiyalar munosabatida, fonemalar almashuvi, fonologik neytralizatsiya va boshqa masalalarda ko'rinadi<sup>1</sup>. Har ikki fonologiya maktabining nazariya va metodlari ko'pchilik tillarning fonemalar sistemasini ilmiy tadqiq etishda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelmoqda.

4. Rossiya olimi S.I. Bernshteyn tomonidan taklif etilgan fonologiya nazariyasi alohida qarashlari bilan ajralib turadi va u aniq tillarni tadqiq etishda juda kam qo'llangan. Turkiy tillar fonetika va fonologiyasini yoritishda I.A. Boduen de Kurtene va L.V. Shcherba traditsiyalariga asoslangan nazariya va metodlarni mashhur turkolog olimlar V.V. Radlov (1837—1918), V.A. Bogoroditskiy (1857—1941), Ye.D. Polivanov (1891—1938), N.K. Dmitriyev (1898—1954), S.Ye. Malov (1880—1957) kabilar rivojlantirdilar.

O'zbek tili va shevalarini o'rganishda katta xizmat qilgan yirik rus olimi Ye.D. Polivanov ham Boduen de Kurtenening talantli shogirdlaridan biri edi. Ye.D. Polivanov alohida fonologiya nazariyasini yaratmagan bo'lsa ham ustozining fonemaga psixologik va morfologik qarashlarini ko'proq funksional jihatdan asoslashga urundi va ularni turkiy tillari hamda boshqa ko'pgina tillar misolida izohlab berdi. "Fonema" termini va tushunchasini turkologiyaga birinchi marta 1920-yillarda

---

<sup>1</sup> Moskva fonologiya maktabi nazariyasi A.A. Reformatskiyning "Из истории отечественной фонологии. Очерк, Хрестоматия" kitobida (M., "Наука", 1970), Peterburg fonologiya maktabi nazariyasi L.R. Zinderning "Общая фонетика" (2 издание, M., 1979) va L.L. Bulaninning "Фонетика современного русского языка" (M., 1970) asarlarida batafsil yoritilgan.

taniqli olim N.K. Dmitriyev kiritgan bo'lsa, uni o'zbek tilshunosligida birinchi bor o'sha yillarda prof. Ye.D. Polivanov qo'llagan.

Chet el tilshunosligida keng tarqalgan fonologiya nazariyalari quyidagilardir:

**1. Praga lingvistika maktabining fonologiya nazariyasi** jahonda eng dong chiqargan hisoblanadi. Uning vakillari Praga fonologiya maktabi nazariyasining asoschisi mashhur olim N.S.Trubetskoy (1890—1938), R. Yakobson, V. Matezius, B.Trinka, I. Vaxek va boshqalardir. Bu maktabning xususan, N.S. Trubetskoyning fonologik nazariyasi va metodlari bir necha tillarni ilmiy o'rganishga tatqiq etilgan va hozirgi davrda ham qo'llanib kelinmoqda. Praga fonologiya maktabi fonologik oppozitsiyalar klassifikatsiyasi, fonologik neytralizatsiya, korelyasiya, fonemalarning birikmalari va boshqa qator masalalarni ilmiy tatbiq etish nazariya va metodlarni taklif etgan<sup>1</sup>. Bu maktabning qarashlari jahon tilshunosligida ham keng o'rin olgan. Shu sababli ulardan ba'zilarini yuqorida ko'rsatib o'tildi.

**2. London fonologiya maktabi** va uning yirik namoyandasi D. Jounz tomonidan taklif etilgan fizik (akustik) fonologiya nazariyasi (Angliya). Bu nazariyaga asosan fonema akustik jihatdan bir xil bo'lgan "tovushlar oilasi" hisoblanadi.

**3. Distributiv fonologiya nazariyasi (AQSH).** Bu nazariyaga asosan fonema akustik jihatdan bir xil bo'lgan "tovushlar sinfi" yoki "allofonlar sinfi" deb ta'rif beriladi<sup>2</sup>.

**4. Dixotomik fonologiya nazariyasi (AQSH)** ham keng tarqalgan bo'lib, u jahon tillaridagi fonemalarni o'n ikki juft binar farqlanish belgilari asosida tasnif etish metodini taklif etdi<sup>3</sup>. Biroq nazariyadagi ba'zi kamchiliklar, xususan, barcha farqlanish belgilarining binar, ya'ni ikkitadan qarama-qarshilik asosida berilgani, ularni spektral analiz qilish natijalari barcha tillar uchun bir xil emasligi, terminlarning noqulay va tushunarsizligi kabi qator masalalar tuzatishlarni talab qiladi. Bu kamchiliklarni

---

<sup>1</sup> Q a r a n g : Трубецкой Н.С. Основы фонологии. М., 1960. (Послесловие А.А. Реформатского). Пражский лингвистический кружок. М., изд. "Прогресс". 1975.

<sup>2</sup> Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. М., 1959.

<sup>3</sup> Новое в лингвистике. Вып. II, М., изд. "Прогресс", 1962. Раздел II, Дихотомическая фонология, с. 139—339.

tuzatish natijasida, uni ko'pgina tillarning fonemalar sistemasi-  
ni tadqiq qilishda qo'llanib kelmoqda.

Boshqa keng tarqalmagan fonologik nazariyalar quyidagi-  
lardir:

5. *Makro va mikrofonema nazariyasi*. AQSH tilshunosi U.  
Tuodl tomonidan 1935-yilda taklif etilgan.

6. *Glossematik fonologiya nazariyasi (Daniya)*.

7. *Ikki pog'onali fonologiya nazariyasi*.

8. *Generativ fonologiya nazariyasi (AQSH)*.

Bu fonologiya nazariyalari ichida alohida qarashlar va  
oqimlar ham bor. Ularda tilning fonologik sistemasini juda  
mavhum tadqiq qilish va sxematik ravishda qarash hollari  
mavjud. Bunday kamchiliklar ularni konkret tillarga tatbiq  
etishda qiyinchilik tug'diradi. Haqiqiy fonologiya nazariyalari  
chuqur ilmiy asoslangan va tillarni tadqiq etishda qulay metod-  
larni taklif etgan bo'lmog'i lozim.

#### TRANSKRIPSIYA. FONETIK VA FONOLOGIK TRANSKRIPSIYA. TRANSLITERATSIYA

Til ikki shaklga ega: *og'zaki* va *yozma nutq* shakli. Tovushlar  
og'zaki nutqda, harflar esa yozma nutqda ishlatiladi. Yozma  
nutq shakli ma'lum tilning alfaviti, grafika va orfografiyasidagi  
tartib va qoidalarni o'z ichiga oladi. Og'zaki nutq normasi esa,  
maxsus belgilar yordamida yozib olinadi. Ma'lum til yoki she-  
vadagi tovushlar talaffuzini maxsus belgilar yordamida yozib  
olish *transkripsiya* deyiladi. Transkripsiya til yoki shevaning  
talaffuzini ilmiy tadqiq qilishda va chet tillarning talaffuziga  
o'rgatishda katta ahamiyatga egadir. Transkripsiya ma'lum prin-  
sip yordamida tuziladi. Shu sababli bir tilda bir necha turli tran-  
skripsiya turlari ishlatiladi. Masalan, ingliz tilida D. Jounz tak-  
lif etgan keng shakldagi transkripsiya, uncha ko'p qo'llanilmay-  
digan tor transkripsiya shakli va boshqa turli transkripsiyalar  
ishlatiladi.

Transkripsiya asosan ikki turli bo'ladi: *fonetik* va *fonologik*.  
*Fonetik* transkripsiya har bir tovush uchun maxsus belgi qo'yish-  
ga asoslanadi. Bunda tovushlarning ma'lum holatda artikulyat-  
sion-akustik xususiyatlarini o'zgartirishi hisobga olinadi va

fonemalarning har bir varianti uchun alohida belgi qo'yiladi. Fonetik transkripsiya belgilari kvadrat qavs ichida ko'rsatiladi. Masalan, [p, t, k] fonemalarining unililardan oldin talaffuz qilinuvchi aspiratsiyali variantlari [p<sup>h</sup>, t<sup>h</sup>, k<sup>h</sup>] belgilari bilan beriladi. Fonetik transkripsiya belgilari haqiqatda talaffuz qilinuvchi tovushlarning barcha xususiyatlarini ko'rsata oladi.

**Fonologik** yoki **fonematik transkripsiya** so'z, so'z shakllari va morfemalarni farqlay oluvchi har bir fonema uchun bir belgi qo'yish prinsipiga asoslangan. Bunda fonemaning variantlari, ya'ni tovushlarning talaffuzi hisobga olinmaydi. Fonologik transkripsiya belgilari vertikal chiziqdagi qavs ichida /p/, /t/, /k/ kabi beriladi.

Xalqaro Fonetik Assotsiatsiya taklif etgan transkripsiya sistemasi lotin alfavitidagi harflarni qisman o'zgartirish asosida tuzilgan. Ba'zi tillarda yozuv alfavitidagi harflarni qisman o'zgartirishlar kiritish yordamida tuzilgan: transkripsiya belgilari ham qo'llanadi. Bunday transkripsiya sistemasi o'zbek, rus va boshqa tillarda ham ishlatiladi. Yozuvdagi harflarni ba'zi tuza-tishlar va o'zgartirishlar asosida tuzilgan belgilar **grafematik transkripsiya** deb yuritiladi.

Xalqaro Fonetik Assotsiatsiya tomonidan taklif etilgan va tuzatishlar kiritilgan transkripsiya hozir ham qo'llanib kelmoqda.

Xalqaro Fonetik Assotsiatsiya taklif etgan transkripsiya **Xalqaro Fonetik Alfavit** nomi bilan ataladi (jadvalga qarang). Undagi tovushlarning ayrim xususiyatlarini ko'rsatuvchi belgilar **diakritik belgilar** deyiladi. Bunday diakritik belgilar quyidagilardir:

˜ — tovushning nazalizatsiya qilinish belgisi;

◦ — jarangsiz tovush belgisi /l/:

˘ — jarangli tovush belgisi /S/:

c — qisman aspiratsiya belgisi y /p, t, k/ tovushlaridan keyin bo'ladi;

w — lab undosh belgisi /h/:

n — tish (dorsal) artikulyatsiyasi belgisi /t/:

' — yumshatish (palatilizatsiya) belgisi /ɽ/:

° — unlining maxsus torayishi /e/:

] — unlining maxsus kengayishi /e/:

⊥ — tilning yuqori ko'tarilishi /e/:

(T) — tilning quyi ko'tarilishi /e/:

+ — tilning oldinga harakati i+ yoki é

- - tilning orqaga harakati /L,t/

o — kuchli lablangan belgisi;

s — lablar kuchli darajada chekkaga tortilgan

¨ — til o'rta tovushlar /i, ü/

. — bo'g'in hosil qiluvchi undosh /n/:

˘ — yarim unli.

Cho'ziqlik, urg'u va tonni ko'rsatuvchi diakritik belgilar quyidagilardir:

/ : / — to'la cho'ziqlik;

/ . / — yarim cho'ziqlik;

/ // — birinchi darajali urg'u (tepaga qo'yiladi);

/ \ / — ikkinchi darajali urg'u (pastga qo'yiladi);

/ — / — eng yuqori ton (tepaga qo'yiladi);

/ - / — eng past ton (pastga qo'yiladi);

/ ' / — tonning yuqori ko'tarilishi (yuqoriga yo'naladi);

/ , / — tonning pastga tushishi (pastga yo'naladi);

/ ^ / — tonning juda yuqoridan pastga tushishi;

/ ↓ / — tonning quyiroq darajadan pastga tushishi;

/ ^ / — ko'tarilib tushuvchi ton;

/ v / — tushib ko'tariluvchi ton.

Turli tillar uchun har xil transkripsion va diakritik belgilar qo'llanadi. Ko'pincha ayrim tillar uchun ulardagi tovushlar va urg'uning xususiyatlarini nazarga oluvchi birlashgan transkripsiya qo'llanadi. Masalan, turkiy tillar, german tillari va roman tillari o'zlarining alohida transkripsiya sistemalariga egadir.

Yuqoridagi transkripsiya tovushlar (fonetik) va fonemalarni (fonologik) maxsus belgilar bilan ko'rsatishda qo'llanadi. Nutqdagi intonatsiyani turli maxsus belgilar asosida ilmiy va

amaliy jihatdan ko'rsatish uchun qo'llanuvchi **tonetik transkripsiya** ham mavjud. Frazadagi urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarni, nutq ohangini, ritmik-melodik vositalarni, qisqa va cho'ziq pauzani ko'rsatish uchun qo'llanuvchi maxsus fonetik belgilar **tonogramma** deb yuritiladi. Masalan, urg'uli bo'g'in — (-) belgisi bilan, urg'usiz bo'g'in — (·) bilan, qisqa pauza — (/), fraza boshi va oxiridagi cho'ziq pauza (//) bilan ko'rsatilishi mumkin. Intonatsiyasiga ko'ra bir gap turli tonogramмага ega bo'lishi mumkin.

Tilshunoslar tomonidan fraza va gaplarning intonatsiyasini o'rganish uchun qabul qilingan turli tonetik transkripsiya belgilari mavjud. Yuqorida ko'rsatilgan belgilardan tashqari, ba'zan musiqada qo'llanuvchi nota belgilari ham intonatsiyani ko'rsatishda qo'llanadi.

Tillar o'z yozuvi va tovushlar sistemasi bilan farq qiladi. Bir tildagi so'zlarni boshqa tilda yozish uchun amaliy transkripsiyadan foydalaniladi. Bunday amaliy **transkripsiyani** transliteratsiya deb yuritiladi. Bir tildagi so'zlarni ikkinchi tilda yozish uchun so'zlarning talaffuzini yozuv uchun moslashtirish zarur bo'ladi. Agar har ikki tildagi tovushlar bir-biriga yaqin kelsa, transliteratsiya qilish ancha qulay bo'ladi. Masalan, Волгоград — Volgograd, Киев — Kiyev, Самарканд — Samarqand, Ташкент — Toshkent, Томск — Tomsk kabi. Biroq ikki tildagi yozuv va talaffuzda katta farqlar bo'lgani sababli ulardagi tovushlar va harflar bir-biriga to'g'ri kelmasa, so'zlarni transliteratsiya qilish qiyinchilik tug'diradi. Masalan, Webster — Uebster, Thomas — Tomas, Ealton — Elton, Isaak — Isaak, Martinet — Martine, Thyedor — Teodor, Haus — Xayz kabi. Shu tufayli bunday chet tilidagi so'zlarni boshqa tillardagi yozilishi va talaffuzida ko'pgina noaniqliklar va har xilliklar kelib chiqadi.

Transliteratsiyada bir tovush yozuvda ikki harf bilan (yoki aksincha, talaffuzda bir harf ikki tovush bilan) berilishi mumkin. Umuman, transliteratsiyada har ikki tildagi tovushlarning talaffuzidagi yaqinliklarni hisobga olinadi.

Transliteratsiya bir tildagi kishi nomlarini (ularni "antroponimlar" deyiladi), geografik nomlarni (ularni "toponimlar" deb yuritiladi) va boshqa nomlarni ikkinchi tilda berilishida katta yordam berishi ahamiyatlidir. Chunki bunday nomlar odatda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinmaydi.



Har bir adabiy til unda gapiruvchi barcha kishilar tomonidan ongli ranishda qabul qilingan talaffuz normasiga egadir. Tilning talaffuzi ogʻzaki nutq shakliga, yozuv esa, yozma nutq shakliga xos boʻlib, ular bir-biriga doim toʻgʻri kelavermaydi.

**Orfoepiya** (grekcha *orthos* — “toʻgʻri” va *epos* — “nutq”) maʼlum tilning toʻgʻri talaffuz norma va qoidalari hisoblanib, unda soʻzlovchilarning barchasi uchun tushunarli norma qabul qilingan boʻladi. Orfoepiyaning asosini tilning fonetik sistemasi, yaʼni undagi tovushlar, boʻgʻin, urgʻu va intonatsiya tashkil etadi. Toʻgʻri talaffuz etishni odatda **tilning orfoepik normasi** deb yuritiladi. Albatta orfoepik normadan chetga chiqish hollari ham mavjud. Chunonchi, shevalar talaffuzi, vulgar yoki buzib talaffuz qilish kabilar.

Odatda baʼzi tayanch shevalar talaffuzi adabiy til talaffuz normasiga yaqin turadi. Masalan, rus adabiy tilining talaffuziga Moskva va Peterburg talaffuzi asos qilib olingan. Oʻzbek adabiy tilining talaffuziga Toshkent va Fargʻona vodiysi shevalarining talaffuzi asos qilib olingan.

Har bir til oʻzining maʼlum davrdagi orfoepik normasiga ega boʻlib, davrlar oʻtishi bilan undagi fonetik va boshqa oʻzgarishlar natijasida uning orfoepik normasi ham oʻzgarishi mumkin. Fonetika va fonologiyadagi nazariy prinsiplarga asoslanib, orfoepiya tilning talaffuz normalarini amaliy jihatdan qanday boʻlishini belgilab beradi.

Baʼzan chet tilidan ona tiliga kirgan soʻzlarning talaffuzi ham shu qabul qilgan tilning orfoepik normasiga moslashtirib talaffuz etiladi. (Masalan, vokzal, rels, miniatura, juri kabi).

Haqiqiy turkiy soʻzlarda urgʻu asosan soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi. Biroq rus tili va u orqali chet tillardan kirgan soʻzlarda urgʻu har xil boʻgʻinlarda boʻlishi mumkin. Bu esa, oʻzbek tilining orfoepik normasida urgʻuning koʻchma, yaʼni soʻzlarning har xil boʻgʻinlariga tushish tartibini keltirib chiqardi. Masalan, fizik, Vashington, London kabi.

Qoʻshma soʻzlarning har bir komponenti oʻzining alohida urgʻusi bilan talaffuz etiladi: taomnoma, gultoʻjixoʻroz kabi.

Orfoepiya normasi ogʻzaki soʻzlashuv nutqida va rasmiy

nutqda ba'zi o'zgarishlarga uchraydi. Orfoepiya teatr, kino, radio, televideniye va notiqlik san'ati hamda nutq madaniyatidagi barcha talaffuz xususiyatlarining yig'indisini adabiy normaga solib turuvchi mezon hisoblanadi.

### TILDAGI TARIXIY-FONETIK O'ZGARISHLAR VA FONETIK-FONOLOGIK O'ZGARISHLAR

Til asta-sekin va mustaqil rivojlanib boradi. Tilning takomillashuvi va rivojlanishi ma'lum qonuniyatlar asosida bo'ladi va boshqa ba'zi qonuniyatlardan, xususan tabiat qonunlaridan farq qiladi.

Til murakkab va ko'pqirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, undagi barcha elementlar bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan. Shu sababli tildagi qonuniyatlar ham bir-biri bilan bog'lanadi. Chunonchi, tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlar ma'lum fonetik-fonologik qonuniyatlar asosida ro'y beradi va bu esa o'z navbatida, grammatik va leksik o'zgarishlarga ham ta'sir etadi. Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni qandaydir fiziologik yoki fizik qonunlar asosida tushuntirish mumkin emas. Fonetik-fonologik qonuniyatlar tilning ichki qonunlari hisoblanadi va faqat tilshunoslik jihatdan ilmiy tadqiq qilish borasida izohlanadi. Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning sohasi *qiyosiy-tarixiy fonetika* deb ataladi.

Tillardagi, ko'pincha qarindosh tillardagi (slavyan, german, roman, turkiy tillari kabi) tarixiy-fonetik o'zgarishlar natijasida so'zlardagi etimologik va geneologik, ya'ni kelib chiqishi jihatdan o'xshashlik va farqlarni qiyosiy-tarixiy fonetika aniqlab beradi. Keyinchalik qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni va hozirgi fonetik-fonologik o'xshashlik va farqli alomatlarini o'rganish natijasida tipologik va qiyosiy-tipologik fonetika hamda fonologiya sohalari vujudga keldi. Umuman tildagi rivojlanish qonuniyatlari singari, tarixiy-fonetik va fonologik o'zgarishlarni o'rganishdagi fonetik va fonologik qonuniyatlar ham quyidagicha turlarga bo'linishi mumkin:

1) *Umumiy fonetik qonuniyatlar* — barcha tillarga xos bo'lgan universal holdagi tartib va qoidalarni belgilab beradi va ular tilning boshqa bosqichlarida ro'y beruvchi umumiy hodisalar bilan ham bog'lanadi. Masalan, barcha turkiy tillarida jarangsiz undoshlar ikki unli tovush oralig'ida jaranglilashishi

mumkin. Barcha turkiy tillarda singlarmonizm (unlilarning uyg'unlashuvi yoki unlilar garmoniyasi) qonuniyati mavjud bo'lib (o'zbek tili bundan qisman mustasno hisoblanadi), u so'z o'zagidagi unlining uning affksidagi unli bilan uyg'unlashuvida ko'rinadi. Bunday singlarmonizm hodisasi unlilarning til va labning holatiga ko'ra uyg'unlashuvi bilan izohlanadi. Masalan, qozoq tilida: attar, bashtar; turkman tilida: barar, dashar; qirg'iz tilida: ottuz, moyun, tundu kabilar.

2) **Alohida fonetik qonuniyatlar** — ayrim tillar uchun xos bo'lgan hodisalarni izohlaydi. Masalan, boshqa turkiy tillariga xos bo'lgan singlarmonizm o'zbek tili tarixida ham bor bo'lib, unli fonemalar bu tilda 8—9 ta bo'lgan. Tarixiy-fonetik o'zgarishlar o'zbek tilining ichki alohida fonetik qonuniyatlari va tashqi ta'sir natijasida, ya'ni boshqa tillar bilan aloqasi borasida ko'rsatilgan xususiyatlar o'zgarishlarga uchragan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli fonema bo'lib, ular tilning ko'tarilishi (yuqori, o'rta, quyi) va labning holatiga ko'ra fonologik oppozitsiyani tashkil qiladi:

i — u  
e — o'  
a — o

Bu fonetik va fonologik alomatlar boshqa turkiy tillar uchun xos emas.

Fonetik va fonologik qonuniyatlar tildagi **ichki** va boshqa tillar bilan aloqa natijasida bo'luvchi — **tashqi faktorlar** ta'sirida bo'lishi mumkin. Ba'zan esa har ikki faktor ham bir yo'la ta'sir qilishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida /o/ fonemasining hosil bo'lishida ikki fikr mavjud. O'zbek tilidagi ichki fonetik faktorga asoslangan qarash /o/ fonemasi /a/ fonemasining lab va chuqur til orqa undoshlaridan keyin kelib, /o/ -lashganini ko'rsatadi. Boshqa tashqi faktorga asoslangan qarash o'zbek tilidagi /o/ fonemasi fors-tojik tilining ta'siri ostida hosil bo'lgan deb hisoblaydi. Shevalar orfoepik, grammatik va leksik normalardan tashqarida bo'lgani tufayli ularda turli o'zgarishlar saqlanib qoladi va asta-sekin adabiy tilga ham ko'chadi.

Fonetik qonuniyatlar xronologik (davr) jihatdan ikki turli bo'ladi:

1) **Diaxronik fonetik qonuniyatlar** — bir guruh tillar yoki aynan bir tilning tarixida ro'y bergan tarixiy-fonetik va

fonologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu tarixiy hodisalarni o'rganuvchi til tarixining bir bo'limi **diaxronik** (tarixiy) **fonetika** va **fonologiya** deb yuritiladi, yuqorida ko'rsatilgan tarixiy tovush o'zgarishlari ana shunday diaxronik fonetikaga oid xususiyatlar hisoblanadi.

2) **Sinxronik fonetik qonuniyatlar** — hozirgi davrda bo'layotgan bir qancha tillardagi yoki ma'lum bir tildagi tovush o'zgarishlari va urg'uning tabiatiga oid xususiyatlarni ko'rsatib beradi. Bunda hozirgi tillardagi yangi talaffuz tendensiyalari ham o'rganiladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida unlilar til oldi undoshlaridan keyin til oldi va til orqa undoshlardan keyin til orqa variantlarga ega bo'ladi.

Tarixiy-fonetik va fonologik o'zgarishlar turli hodisa va jarayonlarni o'z ichiga oladi. Masalan, turkiy tillari va shevalariga xos bo'lgan o-lashish, y-lashish, j-lashish, yo-lashish kabi hodisalar, german tillari tarixidagi umlaut, ya'ni til orqa lablangan unlilarning va keyingi bo'g'indagi /j/ tovushi ta'sirida til oldi holatiga o'tishi, **ablaut**, ya'ni ichki fleksiyadagi tovush almashinuvi kabilar ana shunday hodisalarga kiradi.

Fonetik va fonologik o'zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko'payishi mumkin. Bunda ikki hodisa ro'y beradi:

1) Agar tilda bo'lgan ikki fonema bir fonemaga birlashsa, **konvergensiya** deyiladi. O'zbek tili tarixida bo'lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho'ziq unli fonemalar keyinchalik birlashib, o'rta cho'ziqlikka ega bo'lgan olti unli fonemani hosil qilgan.

2) Agar bir fonema ikki fonemaga ajralsa, **divergensiya** deyiladi. Masalan, qadimiy turkiy tillarida bo'lgan /a/ fonemasi keyinchalik ikki fonemaga ajralgan: /a/ va /o/. Bu hodisa divergensiya jarayoni natijasida bo'lgan.

Fonetik qonuniyatlarga tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari ham kiradi. Chunki tovushlar turli holatlarda har xil o'zgarishlarga uchraydi. Chunonchi, unlilar ochiq urg'uli bo'g'inda cho'ziq va yopiq urg'usiz bo'g'inda esa qisqa talaffuz etilishi mumkin. Bunday holat ham ko'pgina tarixiy va hozirgi tovush o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Fonetik va fonologik qonuniyatlarni tilning boshqa bosqichidagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda o'rganish chuqur ilmiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

## II b o b

### LEKSIKA. LEKSIKOLOGIYA VA SEMASIOLOGIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Soʻz tilning eng asosiy va markaziy birligidir. Tildagi barcha soʻzlarning yigʻindisi uning lugʻat tarkibi yoki leksikasi (grekcha *lexis* — “soʻz”) deb ataladi. Tilshunoslik fanining tilning leksikasini oʻrganuvchi boʻlimi leksikologiya (grekcha *lexis* — “soʻz” va *logos* — “taʼlimot”) deyiladi. Tilning leksikasini oʻrganish juda keng soha boʻlib, u soʻzlarning hosil boʻlishi, lugʻat sostavining boyishi va nutqda ishlatilishi, maʼnolarning oʻzgarishi, torayishi va kengayishi, turli terminlarning qoʻllanishi kabi bir qator masalalarni qamrab oladi. Shu tufayli leksikaning turli tomonlarini oʻrganuvchi alohida sohalar mavjud. Masalan, leksikologiyaning maʼno tomonlarini oʻrganuvchi soha mavjud boʻlib, bu semasiologiya (grekcha *sema* — “maʼno” yoki “belgi”, *logos* — “taʼlimot”) deb ataladi.

Soʻzda tilning ifoda (tovush jihati) va mazmun jihatlari (maʼno tomoni) namoyon boʻladi.

Soʻz tilning eng asosiy va markaziy birligi deb qaraladi. Chunki tildagi koʻpgina xususiyat va hodisalarni oʻrganish soʻzni ilmiy tadqiq etish bilan boshlanadi. Tilning tovush strukturasi oʻrganuvchi fonetika va fonologiyadagi birliklar oʻz maʼnolariga ega boʻlmagani sababli bir tomonlama, yaʼni faqat ifoda jihati bilan chegaralangan birliklardir. Boshqa birliklar (soʻz, soʻz birikmasi, gap) esa ikki tomoniga — ifoda va mazmun jihatiga egadir. Binobarin, leksikologiya va semasiologiya koʻp tarmoqli boʻlib, har tomonlama chuqur tekshirishni taqozo qiladi.

Soʻz tilda turli funksiyalarni bajaradi. Soʻzlarning atash, yaʼni nominativ funksiyasi nominatsiya nazariyasi yoki onomasiologiyada oʻrganiladi. Soʻzlarning ekepressiv maʼno berish funksiyasi leksik stilistika yoki soʻz stilistikasida qaraladi. Soʻzlarning kelib chiqishini oʻrganuvchi soha etimologiya (grekcha *etymon* — haqiqat, *logos* — taʼlimot) deb ataladi. Turgʻun soʻz birikmalari va iboralarni frazeologiya ilmiy tadqiq qiladi. Tilning lugʻat sostavidagi kishi nomlarini onomastika

(grekcha *onomastive* — nom qo'yish san'ati), geografik nomlarni toponimika (grekcha *topos* — joy va *onmta* — nom) o'rganadi. Boshqa turli nomlarni o'rganuvchi sohalar ham mavjud.

## TIL STRUKTURASIDA SO'ZNING O'RNI

Til strukturasi so'z alohida o'rin egallaydi. Ko'pchilik tillar uchun so'z mustaqil til birligi hisoblanadi. Ba'zi tillarda, xususan, polisintetik tillarda (eskimos, aleut tillarida) so'z alohida til birligi sifatida qaralmaydi. Bunday tillarda ma'no va mazmun nutq birliklarini birlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Tilshunoslik fanida so'z faqat leksikologiya va semasiologiyada emas, balki boshqa sohalarda ham ilmiy tadqiq etiladi. Biroq so'zni har tomonlama o'rganish uchun unga alohida ta'rif berish talab qilinadi. So'zga berilgan juda ko'p ta'riflar uning barcha jihatlarini qamrab olmagan. Umuman, so'zning til strukturasi tutgan o'rin hech vaqt inkor qilinmaydi. Biroq so'zning ta'rifiga turlicha yondoshiladi. Chunonchi, so'z tovush shaklida ifodalangan bir tushuncha va uning variantlaridir, degan ta'rif tilning og'zaki shakliga asoslangan. Tilning yozma shaklidan kelib chiqib, so'z grafik jihatdan bir yoki bir necha harflar birikmasidir deb izohlanadi. So'zning faqat fonetik tomoniga e'tibor berib, unga har ikki tomondan pauza bilan chegaralangan tovush yoki tovushlar birikmasi sifatida ta'rif beriladi. Bu ta'riflar juda tor bo'lib, so'zning til strukturasi mohiyatini keng ochib bera olmaydi.

So'zga berilgan boshqa ta'riflar ko'proq uning leksik, semantik va grammatik tomonlariga asoslangan. Xususan, so'z minimal chegaralangan gap yoki minimal sintaktik birlik bo'lib, uni gapda boshqa so'zlar yoki bir so'zning boshqa ma'nolari bilan almashtirish mumkin, degan qarash ham mavjud. Boshqa ta'riflarda so'z o'zida fonetik, semantik va grammatik belgilarni mujassamlashtirishi, u borliqdagi elementlarni ifodalashi, uning mustaqil va bir butun nutq elementi ekanligi ko'rsatiladi. Ko'rinadiki, tilshunoslik tarixida so'zga turlicha ta'rif berilgan. Lekin bularning birortasi so'zning asosiy belgilarini o'zida mujassamlashtira olmagan. Ta'rifda so'zning barcha muhim tomonlari o'z ifodasini topishi kerak. Umuman, so'zni

quyidagicha izohlash mumkin: soʻz borliqdagi hodisa va narsalarning maʼnosini ifoda etuvchi, grammatik jihatdan shakllangan va jamiyat aʼzolari tomonidan bir xil tushuniladigan, tovush formasida ifodalangan mustaqil va markaziy til birligidir. Bu taʼrifda soʻzning ikki tomonlama birlik ekanligi, yaʼni uning tovushlar orqali ifodalangan tomoni va maʼno jihati mujassamlashgan.

Til birliklari ichida soʻz alohida oʻrin egallaydi. Uning bu xususiyati, ayniqsa, grammatik jihatdan qaralganda koʻrinadi. Tilning eng kichik maʼnoli birligi hisoblangan morfema oraligʻida soʻzning maʼnoli qismlari: oʻzak, suffiks va hokazolar qaralsa, mustaqil soʻz shaklidagi gaplar (masalan, nominativ gaplar: Qish, Sovuq, Qorongʻi kabi) sintaktik jihatdan alohida gap turlari sifatida izohlanadi. Bu esa soʻzning grammatik (morfologik va sintaktik) xususiyatlarini koʻrsata olsa ham, uning taʼrifida morfema yoki gapga asoslanish mumkin emasligini koʻrsatadi. Chunki soʻz strukturasi semantik jihatdan maʼnoli qismlarga boʻlinish xususiyatiga egadir. Toʻgʻri, bir morfemadan tashkil topgan soʻzlar boshqa qismlarga boʻlinmaydi. Masalan, u, tosh, bosh, yoʻl kabi. Biroq tildagi koʻpgina soʻzlar maʼnoli qismlarga boʻlina oladi va ular bir necha morfemalarning ulanishidan tashkil topadi. Masalan, toshloq, boshliq, boychechak, gulsafsar, qoidali kabilar. Bunday bir morfemali va koʻp morfemali soʻzlarning oʻzagi mustaqil maʼnoga ega boʻladi. Demak, soʻz mustaqil maʼnoga ega boʻlgan birlikdir. Lekin bunday qarash hamma tillarga ham toʻgʻri kelavermasligini yuqorida aytib oʻtdik. Oʻzbek, rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan va boshqa koʻp tillarda soʻz mustaqil birlik hisoblanadi. Uning mustaqilligi alohida olinganda ham, turli maʼnolarni ifodalashida va baʼzan fikr ifodalovchi gap holida kelishida koʻrinadi.

Soʻz butun birlik sifatida soʻz birikmalaridan farq qiladi. Soʻz zanjirsimon ulanib ketgan qismlar — oʻzak, suffiks va hokazolardan tashkil topadi. Soʻz birikmalari esa ayrim komponentlardan tashkil topib, umumiy maʼnoga ega boʻlgan, yaʼni leksik va grammatik jihatdan shakllangan birliklardir. Masalan, kinoga bormoq, dars tayyorlash, kitob oʻqish, yoshlar klubi kabi. Soʻz birikmalarining biror komponentini almashtirish mumkin (Qiyoslang: kinoga/ teatrga/ oʻqishga/ magazinga/ bormoq kabi). Qoʻshma soʻzlar baʼzan tuzilishi jihatdan soʻz

birikmalariga o'xshasa ham, ular yaxlit ma'nosi bilan ajralib turadi: temir yo'l, gultojixo'roz, chinni gul, qo'lyozma kabi. Ba'zan so'zga fonetik jihatdan bir urg'u ostiga birlashgan bir qancha tovushlarning birikmasi deb ta'rif beriladi. Bu tamoman noto'g'ridir. Chunki ba'zi ko'p morfemali uzun so'zlar va qo'shma so'zlar bir necha urg'uga ega bo'lishi mumkin. Masalan, gultojixo'roz.

So'z shakli (tovush formasi) va mazmun birligiga ega bo'lib, semantik va grammatik yaxlitlikni o'zida mujassamlashtiruvchi birlikdir. U til strukturasi formal va ma'no jihati bilan to'rt bosqichda ilmiy tadqiq etiladi:

- 1) fonologik jihatdan so'zning fonemalar tarkibi va uning aksent (urg'u) strukturasi o'rganiladi;
- 2) morfologik jihatdan so'zning morfemik tuzilishi ilmiy tahlil qilinadi;
- 3) leksik jihatdan so'zning atama birlik ekanligi, ya'ni nom qo'yish bilan bog'liq tomoni qaraladi;
- 4) semantik jihatdan so'zning turli ma'no tomonlari tadqiq etiladi.

Bunday o'rganishda so'zning 1- va 2-, ya'ni fonologik va morfologik tomonlari formal jihatini, 3- va 4- leksik va semantik tomonlari mazmun jihatini o'zida aks ettiradi. Biroq ulardan birortasini alohida olib tekshirish so'zning formal va mazmun jihatlarining uzilib qolishiga olib keladi. Shu tufayli ular bir-biri bilan uzviy bog'liq holda tekshirilishi zarur. Demak, so'z til strukturasi barcha sohalar bilan bog'liqdir.

So'zning tashqi, ya'ni shakl tomoni fonetika va fonologiya hamda grammatikada kengroq o'rganiladi. Quyida so'zning ichki, ya'ni mazmun jihatidagi asosiy masalalari ko'rib o'tiladi.


## SO'Z VA TUSHUNCHA

**So'zning leksik ma'nosi.** So'zning leksik-semantik xususiyatlari uning leksik, grammatik va semantik jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Chunki so'zlar tilning lug'at tarkibini shundaygina tashkil etmay, umuman, tilning sistema va strukturasi barcha bog'lanishlarni taqozo etadi.

Ko'pincha so'zning ma'nosi haqida gapirganda, uning narsa va tushuncha bilan aloqasi va tilda qanday ifodalanishi ko'zda



tutiladi. Biroq qadimiy tilshunoslikda soʻz va nom oʻrtasida moslik bor deb qarash ham mavjud edi. Baʼzi tilshunoslar soʻzning faqat aytilish tomoniga eʼtibor bergan edilar. Soʻzning aytilishi uning moddiy tomoni, yaʼni tovushlarning birikuvi yoki bir tovush ekanligini koʻrsatadi. Tinglovchi va soʻzlovchi uchun soʻzning aytilishi obyektiv haqiqatdir. Biroq soʻzning faqat aytilishi uni izohlay olmaydi. Soʻz aytilishi bilan narsa yoki hodisa oʻrtasidagi bogʻlanish uning maʼnosini yuzaga chiqaradi. Bu aloqa, odatda, uchburchak shaklida koʻrsatiladi:



Mazkur qarash albatta barcha soʻzlar uchun shunday tartibda tuzilgan, degan notoʻgʻri xulosaga olib kelishi mumkin. Chunki soʻzning maʼnosi bizga boshqa bir narsa yoki hodisani eslatganidek, oʻz navbatida biror narsa ham boshqa narsani kishi koʻz oldiga keltirishi mumkin. Chunki soʻzning maʼnosi uchun uning aytilishi bilan soʻzdan tashqarida boʻlgan tushuncha oʻrtasidagi bogʻlanish zarur deb hisoblansa, har xil tushunchalar tilda bir xil tuzilgan degan xulosaga kelish mumkin.

Aslida esa soʻzlar turli struktura tuzilishiga egadir. Shu tufayli soʻzning narsa va tushuncha bilan bogʻlanishini shartli ravishda qaramoq zarur. Chunki barcha soʻzlar ham narsa, hodisa yoki belgining nomini atamaydi, yaʼni hamma soʻzlar atama funksiyasiga ega emas. Soʻzlar ichida otlar (narsa), feʼllar (harakat), sifatlar (narsa belgisi) va ravishlar (harakat belgisi) atama funktsiya bajaradi.

Yordamchi soʻzlar ham nominativ funktsiya bajarmaydi. Bir mustaqil soʻzning nominativ funktsiyasi doimo faqat bir narsa yoki tushuncha, harakat yoki belgiga qaratilavermaydi. Baʼzan esa aksincha, bir narsa bir qancha nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan, gul soʻzi gulning barcha turlarini ifodalaydi. Biroq Braziliyadagi oborogenlar tilida toʻtiqushning har bir turi oʻz nomiga ega. Oʻzbek tilidagi “boʻsh vaqt” tushunchasi ingliz tilida *spare time*, *free time*, *leisure* soʻzlari bilan ifoda etiladi. Ingliz tilida bu soʻzlar maʼnosiga koʻra turlicha ishlatiladi.

*Spare time* kechqurun ishdan keyin yoki haftaning dam olish kunlaridagi bo'sh vaqtni ifodalaydi.


*Free time* kun davomida ish yoki o'qishdan xolis bo'lgan bo'sh vaqtni bildiradi.

*Leisure* so'zi dam olish vaqtini ko'rsatadi. Ingliz tilida dam olish, tanaffus qilish, madaniy hordiq chiqarish ma'nolarini ifodalagan yana bir qancha so'zlar, jumladan, *recreation, rest, relaxation, amusement, entertainment* kabilar mavjud. Bu so'zlar ham qo'llanishiga ko'ra farq qiladi.

So'zlarning nutq jarayonida yoki matnda ishlatilish o'zni kontekst deb ataladi. So'zlarning ma'nosi kontekst yordamida oydinlashadi. Tildagi barcha birliklar (fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, gap) umumlashtiruvchilik xarakteriga ega. So'zning mavhum tabiati uning bir qancha narsa, hodisa va belgilarga tegishli ekanligi bilan izohlanadi.

Biroq so'z ma'lum nutq situatsiyasida yoki kontekstda o'zining aniq shaklida namoyon bo'ladi. Har bir so'zning ma'nosi uning material — tovush jihatdan shakllanib, ma'lum ma'noni ifodalashga qaratilgan odam ongidagi harakat rivojlanishining natijasidir.

So'z ifoda va mazmun jihatlariga ega bo'lib, uning alohida ma'nolari nutq situatsiyasida yoki kontekstda aniqroq ochiladi. Bu munosabatni quyidagi uchburchak shaklida ko'rsatish mumkin:



Tilshunoslik nuqtayi nazaridan so'z aytilish va ma'noning birligidan iborat. Biroq so'zning narsa va tushunchalar bilan bog'lanishi hisobga olinsa, u borliqdagi biror narsaning odam ongidagi in'ikosi bo'lib, bu in'ikos tafakkur yordamida til orqali amalga oshiriladi. Shu sababli so'z biror tushuncha, narsa, hodisa yoki belgini ifodalay oladi. Lekin so'z tushuncha va narsaning aynan o'ziga hech vaqt to'g'ri kelmaydi. So'z biror

narsaning nomini atash orqali shu tildagi barcha narsalarga tegishlidir. Masalan, paxta soʻzi uning barcha tur va navlariga tegishlidir, yaʼni umumlashtirish xarakteriga ega. Biroq bu soʻz boshqa soʻzlar bilan birikib yoki maʼlum affiks qoʻshilishi bilan aniq maʼnoni ifodalay oladi. Bu oʻrinda soʻzlarning aniq maʼnoga ega boʻlishida grammatika katta ahamiyatga ega.

Demak, soʻzning leksik maʼnosi bilan grammatik maʼnosini farqlamoq zarur. Ayrim olingan soʻzga tegishli boʻlib, boshqa soʻzlardan farqlay oluvchi maʼno shu soʻzning leksik maʼnosi deb yuritiladi.

Soʻzning leksik maʼnosi birinchi navbatda oʻsha soʻz oʻzining maʼnosi bilan bogʻliq boʻladi va har qanday affiks qoʻshilganda ham saqlanib qoladi. Masalan, yaxshi, yaxshilik, yaxshilikcha kabi soʻz formalarining barchasi “yaxshi” maʼnosini ifoda etgan. Bu oʻrinda yaxshi soʻzining leksik maʼnosi uni boshqa soʻzlardan (masalan, yomon soʻzidan) farqlashga xizmat qiladi.

Nutqda har qanday mustaqil soʻz shakli leksik maʼnodan tashqari, grammatik maʼnoga ega boʻladi. Masalan, ishimizdan, keltirdi soʻzlaridagi ish va kel soʻzlari oʻz leksik maʼnosidan tashqari narsa va harakat maʼnolarini ifoda qiladi. Bu ularning grammatik maʼnosidir. Bu soʻzlardagi -imiz, -dan, -tir, -di affikslari turli grammatik maʼnolarni ifodalaydi. Grammatik maʼno soʻzning leksik maʼnosiga orttirilgan qoʻshimcha maʼnodir. Soʻzning grammatik maʼnolari grammatikada oʻrganiladi.

Soʻzlar oʻzlarining leksik va grammatik maʼnolari bilan farq qiladi. Atoqli va turdosh otlar nutqda qoʻllanishiga koʻra farqlanadi. Turdosh otlar narsa va hodisani atashdan tashqari, ularni biror guruh yoki turga kirishini ham ifodalaydi. Atoqli otlar eca maʼlum shaxs, shahar, qishloq va boshqa narsalarni shu turdagilari ichidan ajratib koʻrsatish, ularni alohida oʻziga xos xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sababli, odatda, ikki bir xil ismli shaxsni aralashtirib yubormaslik uchun katta Mahmud va kichik Mahmud iboralari ham qoʻllaniladi. Bu jihatdan til faqatgina tushunchalarni umumlashtiruvchi vosita boʻlmay, ularni farqlash vositasi sifatida insonning amaliy faoliyatida juda katta ahamiyatga ega.

Barcha soʻzlar oʻz aytilishi, yaʼni tovushlar birikmasi yoki

bir tovushdan iborat bo'lgan material tomoniga ega. So'zning material tomoni u ifoda etgan narsaning belgisi deb ataladi. Til esa shunday belgilarning alohida sistemasi deb qaraladi.

Tildagi belgilar hayotdagi boshqa belgilardan, jumladan, ko'cha qatnoviga oid belgilar va signallardan tubdan farq qiladi. Chunki bu belgilar shartli qabul qilingan bo'lib, tez o'zgarishi mumkin.

So'zning aytilishi esa shartli emas, u odamlarning xohishi bilan paydo bo'lmagan. So'zning talaffuzidagi o'zgarishlar tilning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari va odamlar nutqida ishlatilish xususiyatlari asosida ro'y beradi.

So'z ma'nosining narsaga aloqasi denotativ aloqa, so'z atayotgan narsa *denotat* yoki *referent* deb ataladi (lotincha *denotatum* — ko'rsatuvchi, inglizcha refer — aloqador). So'z ma'nosining tushunchaga munosabati *signifikativ aloqa* (lotincha significatum — “belgi”), tushunchaning o'zi *signifikat* deb yuritiladi. Bir so'z ma'nosining boshqa so'zning ma'nosiga munosabati *struktural aloqa* deyiladi. Bunday aloqa natijasida turli so'zlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi va so'zlar har xil guruh va tiplarga ajratiladi.

So'z ma'nosiga doir yuqoridagi ma'lumotlarni sxemalar yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin<sup>1</sup>.

So'z ma'nosining asosiy funksiyalari. Ma'no<sub>1</sub> — narsa<sub>1</sub> (yoki ma'no<sub>2</sub> — narsa<sub>2</sub>) — denotativ funksiya; ma'no<sub>1</sub> — tushuncha<sub>1</sub> (yoki ma'no<sub>2</sub> — tushuncha<sub>2</sub>) — signifikativ funksiya; ma'no<sub>1</sub> — ma'no<sub>2</sub> (yoki ma'no<sub>2</sub> — ma'no<sub>1</sub>) — struktural funksiya.

Tilning mazmun jihatida so'zning asosiy ma'nosi *semema* termini bilan ataladi, ifoda jihatida esa *leksema* deb yuritiladi. Tilning ifoda va mazmun jihatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq holatda qaraladi. So'zning ma'nosi uning bir qancha aniq ma'nolarining yig'indisidan, ya'ni sememalardan tashkil topadi. Masalan, bormoq, yurmoq, chopmoq, kelmoq, qadam bosmoq so'zlari turli leksemalar bo'lib, “harakat qilmoq”ni ko'rsatuvchi bir sememaga birlashadi. Ammo bu so'zlarning har biri alohida semasiga ega. Semalar bir so'zning ma'nosini boshqa so'zlardan

<sup>1</sup> Головин Б.Н. Введение в языкознание. Изд. “Высшая школа”. М., 1977, с. 72.

farqlash uchun xizmat qiladi. Semalar narsa va hodisalarga tegishli bo'lgan tashqi va ichki belgilar yordamida aniqlanadi va ular nutq situatsiyasida oydinlashadi. Ba'zan bir so'z ma'no jihatidan turlicha variantlarga ega bo'lishi mumkin. Bunda so'zning o'zagi, uning morfemik tarkibi ham variantlashadi va bu leksik-semantik hamda stilistik farqlanishga olib keladi. Masalan, kurs so'zi (I—V kurs talabalari) nazariy yoki amaliy kurs (dars) ma'nolarida variantlashadi va ular ba'zan **allosemalar** deb yuritiladi. Bunday so'z variantlarining ma'nolari nutq situatsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. So'zning leksik ma'nosi doirasiga uning konnotativ (lotincha *con* — “birga”, *notatio* — “ko'rsatish”) ma'nosi, ya'ni qo'shimcha ma'nosi ham kiradi va u so'zga emotsional-ekspressiv bo'yoq va stilistik sifat beruvchi ma'noni anglatadi. Masalan, Chehrasi ochiq. Basharasini ko'rmay. Bu gaplarda chehra va bashara so'zlari o'zlarining leksik ma'nosi (yuz, bet) dan tashqari konnotativ ma'no (ijobiy va salbiy munosabat) ham ifoda qilayapti. Kalla va tabassum so'zlari ham mana shunday xususiyatga ega.

So'zlarning konnotativ ma'nolari tilshunoslikning stilistika bo'limida, aniqrog'i, leksik stilistikada o'rganiladi.

## SO'Z MA'NOLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

So'zlar leksik yoki grammatik ma'nolaridagi umumiy va o'xshash alomatlar bilan ma'lum turlarga bo'linadi. So'zlar o'rtasidagi aloqalar o'xshashlik va tematik asosda bo'ladi. Masalan, gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq kishilarning tushunchasida o'xshashlik aloqasi asosida bir leksik-semantik guruhni tashkil qiladi. Bu leksik-semantik guruhda yaxshi, yomon, tez, sekin, mayin, g'aliz tushunchalari so'zlamoq fe'li bilan bog'lanib, bir tematik guruhni hosil qiladi. Tilning lug'at tarkibi ana shunday bir qancha leksik-semantik va tematik guruhlariga bo'linadi. Ko'p ma'noli so'zlar bir yo'la bir qancha leksik-semantik guruhlariga kirishi mumkin. Qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar, xursandchilik yoki xafachilikni ifodalovchi so'zlar, turli hissiyot va boshqalarga tegishli so'zlar alohida leksik-semantik

guruhlarni tashkil etadi. Ularni tadqiq etishda “semantik yoki tushuncha maydoni” nazariyasidan, kontekstdan va leksemalarning birikuvidan (bu ko‘pincha “valentlik” deyiladi) foydalaniladi.

“Semantik yoki tushuncha maydoni” ma‘nolari bilan bog‘langan so‘zlarni birlashtiradi. Bunday so‘zlar, odatda, bir leksik-semantik guruhni tashkil qiladi. Jumladan, rang-bo‘yoqni bildiruvchi so‘zlar, vaqtni, harakat-holatni ifodalovchi so‘zlar alohida “semantik maydon”ga egadir. So‘zlarning umumlashgan va konkret ma‘nolari kontekst yordamida aniqlanadi. So‘z ma‘nolarini nutq situatsiyasi (og‘zaki nutqda) va kontekst (yozma nutqda) yordamida o‘rganadigan soha kontekstologiya deb yuritiladi.

Tilda leksemalarining birika olishi yoki birika olmasligi masalasi ularning ma‘nolari o‘rtasidagi aloqalarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, qizil va ketmoq leksemalarining birikishi mumkin emas. Chunki ularning leksemalari (ma‘nolari) o‘rtasida hech qanday aloqa yo‘q. Biroq tez ketmoq deyish mumkin, chunki harakatning bajarilish holati bilan munosabati aniq. O‘zbek tilidagi ko‘k va havo rang hamda rus tilidagi синий va голубой so‘zlariga nemis tilida blau, fransuz tilida bleu, ingliz tilida blue so‘zlari to‘g‘ri keladi. Biroq bu tillarda so‘zlarning birikivi bilan kelib chiqqan qo‘shma so‘zlar mavjud. Nemis tilida *hellblau*, *himmelblau*, fransuz tilida *bleu chair*, *bleu de ciel*, ingliz tilida *light blue*, *pale blue*, *sky-blue* so‘zlari “havo rang”, “голубой” ma‘nosida qo‘llaniladi. Nemischa *dunkelblau*, fransuzcha *bleu fonce*, inglizcha *dark blue* so‘zlari “ko‘k, синий” ma‘nosida ishlatiladi. Ko‘rinadiki, turli tillarda narsalarning belgilarini atash (nominatsiya funksiyasi) farq qiladi. Chunki tillarning leksik sistemalari o‘rtasida katta farq mavjud bo‘lib, bu farq so‘zlarning “semantik maydoni” va leksik-semantik guruhlari ichidagi tafovutlarni keltirib chiqaradi.

So‘zlar asosiy (to‘g‘ri) va ko‘chma ma‘noda ishlatilishi mumkin. So‘zning asosiy (to‘g‘ri) ma‘nosi bevosita shu so‘zning atama funksiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, tulki — ayor hayvon, ayiq — kuchli hayvon. So‘zning o‘zi ifoda etayotgan narsa yoki tushuncha bilan bog‘lanmay, shu narsaning biror

belgisi yoki holati bilan boshqa narsaning shunday belgisini ifodalib qilib ko'rsatish uchun qo'llangan ma'nosi **ko'chma ma'no** deyiladi. Masalan: U — tulki (“ayyor odam” ma'nosida). Erkin — xo'roz (“mard odam” ma'nosida). Bu o'rinda tulki va xo'roz so'zlari “ayyor odam”, “mard odam” ma'nolarida qo'llansada, ularning to'g'ri ma'nolari ham ko'zda tutiladi.

So'zlarning ko'p ma'noli bo'lish xususiyati polisemiya (*poly* — ko'p, *sema* — ma'no) deyiladi. Dum so'zi biror jonivor yoki hayvon organizmining bir qismi sifatida to'g'ri ma'noda ishlatiladi. Biroq dum so'zi “ikki baho” ma'nosida ishlatilganda 2 raqamining yozuvdagi “dumi” nazarda tutiladi. Dum so'zi ota-onasiga ergashib yuruvchi bola ma'nosida ham ishlatiladi. Binobarin, dum so'zi ko'p ma'noli hisoblanadi. Ba'zan so'z birikmalarida ishtirok etgan so'z o'zining to'g'ri ma'nosida, ikkinchisi esa ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, tosh yurak so'z birikmasida yurak to'g'ri ma'noda, tosh so'zi esa ko'chma ma'noda ishlatilgan. Biroq bu so'z birikmasi bir butun holda (tosh yurak) ko'chma ma'noli deb hisoblanadi. Chunki uni tashkil etgan so'zlarni uzib olish ma'noga putur yetkazadi. Bunday o'rinlarda so'zlarning birikuvi (valentligi) katta ahamiyatga ega. Demak, so'zlarning leksik ma'nosini shakllantirishda ularning grammatik xususiyatlari xizmat qiladi. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'z ko'pincha boshqa “semantik maydon”ga o'tadi. Yuqoridagi misollarda bu yaqqol ko'rinadi. Ko'p ma'noli so'zning har bir ma'nosi boshqa so'zlarning ma'nolari bilan aloqaga kiradi. So'zlar bir-biriga o'xshashligi, yaqinligi va nutq situatsiyasida (kontekstda) ishlatilishiga ko'ra ma'nolarini o'zgartirishi mumkin. So'zning ko'chma ma'nolarda ishlatilishi barcha tillar uchun xosdir. So'z ma'nosining ko'chish usuli to'rt xil bo'ladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksional ko'chish.

Bir narsa nomining ikkinchi narsaga shakl, rang va boshqa biror jihatdan o'xshashligi asosida ko'chirilishi metafora (grekcha *methaphora* — “ko'chma nom, ko'chirish”) deb ataladi: sovuq qarash, istarasi issiq, ... o'zi pok, ham so'zi pok (Uyg'un, I. Sulton) kabi. Tulki, xo'roz, dum so'zlari ma'nolarining ko'chishi ham (yuqorida izohlangan) metaforik usuldur.

Soʻzlar asli nomlar hisoblanadi. Koʻchma maʼnolar soʻzning mana shu maʼnosi negizida paydo boʻladi. Bir xil narsa yoki hodisani ifodalayotgan soʻz boshqa xil narsa yoki hodisa ifodasi uchun qoʻllana boshlaydi.

Bir narsa nomining ikkinchisiga koʻchirilishi ular oʻrtasidagi haqiqiy aloqaning mavjudligiga asoslansa, u metonimiya (grekcha *metonimia* — “qayta nomlash”) deyiladi. Masalan, ikki piyola ichdi (“choy ichdi” maʼnosida), Lermontovni oʻqidim (“Lermontov asarlarini oʻqidim” maʼnosida). Kelgusi uchra-shuvga atlas kiy, atlas (Yu.Shomansur) “atlas koylak” maʼnosida ishlatilgan). Inglizcha iron — dazmol soʻzi temir soʻzidan *glass* — stakan soʻzi shisha soʻzidan olingan metonimiyalardir. Baʼzan ixtirochining nomi yoki biror joyning nomi ham narsaga koʻchirilishi mumkin. Masalan, ford, dizel, volt, gers, lavsan (uni kashf etgan laboratoriyaning nomi), boston, shotlandka kabi.

Bir butun narsani uning biror qismi bilan atash yoki qism nomini butun uchun qoʻllash keng tarqalgan. Bu hodisa sinekdoxa (grekcha *synekdoche* — “odatdagi tushunish” maʼnosida) deyiladi: Besh qoʻlingni ogʻzingga tiqma. Uzoqdan kalla (laqab) koʻrindi gaplarida qoʻl (butun) barmoq (qism) maʼnosini; kalla (qism) kishi (butun) maʼnosini ifoda etayapti. Oqsoqol (qism) soʻzining erkak kishi, tuyoq, bosh (qism) soʻzlarining mol, qoʻy, echki (butun) maʼnolarida qoʻllanishi ham sinekdoxaga misol boʻladi. Sinekdoxa hodisasi koʻproq oʻsimlik va sabzavot nomlarida uchraydi: shaftoli soʻzi daraxtni ham, uning mevasini ham bildiradi. Olma, oʻrik, gilos, yongʻoq, qovun kabi soʻzlar ham shu xususiyatga ega.

Maʼnoning funksional koʻchishi narsalarning bajaradigan vazifasining oʻxshashligi, yaqinligiga asoslanadi. Qadimda xatni gʻoz pati bilan yozar edilar. Keyinchalik poʻlat qalamlar vujudga keldi. Gʻoz pati vazifasini bajara boshlagan bu qalamlar pero deb atala boshlandi. Oʻzbekcha siyoh, oʻq soʻzlarining maʼnosidagi oʻzgarish ham shu usulda yuz bergan. Ilgari xat qora suyuqlik bilan yozilar va bu modda siyoh deb atalgan. Hozir esa qizil, koʻk va boshqa rangdagi siyohlar maʼnosida qoʻllanadi. Ilgari oʻq soʻzi yoyning oʻqi maʼnosida ishlatilgan.



Hozir esa miltiq o'qi, pulemyot o'qi, avtomat o'qi, to'p o'qi ma'nolarida qo'llanadi.

So'z ma'nolarining kengayishi yoki torayishi ham so'zlar-ning semantik taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'zbek tilidagi yasatmoq fe'li odamni, ko'chani, binoni, uyni, xonani yasatmoq kabi keng ma'nolarda ishlatiladi. Yurak so'zi kishi a'zosining biri ma'nosidan tashqari — keng ma'no — ko'krak qafasi ma'nosida ham qo'llanadi. Mashina so'zi avtomobil ma'nosida, osh so'zi palov ma'nosida qo'llanganda, ularning ma'nolari torayadi.

### OMONIMLAR, ULARNING TURLARI VA MANBALARI

Odatda, so'zlar aytilishi, yozilishi va ma'nolarini qiyoslash natijasida turli guruhlariga bo'linadi.

Bir xil aytilib yoki yozilib, turli ma'nolarni ifoda qiluvchi so'zlar omonimlar deyiladi (grekcha *homog* — “bir xil”, *onyma* — “nom”). Omonimlar quyidagi turlarga bo'linadi: a) haqiqiy omonimlar: ot — hayvon, ot — nom. Ot — biror narsani ulotqirmoq, ot — miltiq bilan otmoq; b) aytilishi bir xil, lekin ma'nolari va yozilishi har xil bo'lgan omofonlar: qurt — hasharot, qurt — sut — qatiqdan qilingan ozuqa; ruscha *лук-пйоз*, *луг* — o'tloq; v) omograflar, ya'ni yozilishi bir xil, lekin talaffuzi va ma'nolari har xil bo'lgan so'zlar: son — raqam, son — odam jismidagi a'zo: inglizcha *tear* — ko'z yoshi, *tear* — yirtilmoq; g) omofoma yoki leksik-grammatik omonimlar, ya'ni grammatik shakli to'g'ri keluvchi, biroq ma'nolari farqlanuvchi so'zlar: qarg'a — qushning turi, qarg'a — qarg'amoq fe'lining buyruq shakli, o't — o'simlik turi, o't — olov, o't — o'tmoq fe'lining buyruq shakli, ruscha *мой* — olmosh, *мой* — buyruq fe'li. Ingliz tilida *hour* — soat, *our* — bizning, *light* — yoriq, *light* — yengil. Ba'zan bir xil yoziluvchi, biroq talaffuzida urg'uning o'rni bilan farqlanuvchi qarg'a (qush) — qarg'a (“qarg'amoq” fe'lining buyruq shakli) omofomalar bir yo'la omograflar bo'la oladi.

Ba'zi omonimlar ona tilidagi so'zning yozilishi yoki aytilishiga boshqa tildan kirgan so'zning yozilishi yoki aytilishining mos kelib qolishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, tok —

elektr quvvati, tok — uzum daraxti, to‘rt — son, tort — ozuqa (ko‘pincha o‘zbek tilida to‘rt deb talaffuz etiladi). Ko‘pincha omonimlar tildagi tovush o‘zgarishlari natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida *piece* — bo‘lak, *peace* — tinchlik, *weak* — kuchsiz, *week* — hafta, *tear* — ko‘z yoshi, *tear* — yirtmoq kabi omonimlar tarkibidagi unli tovushlarning o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan. Ingliz tilida so‘zlarning yozilishi va talaffuzi o‘rtasida katta farq mavjud. Unda har xil yoziluvchi so‘zlar ham bir xil talaffuz qilinishi mumkin: *knight* — farzin, *night* — kechasi, *die* — o‘lmoq, *dye* — bo‘yamoq kabi. Shu sababli bu tilda omonimlarning har xil turlari juda ko‘p uchraydi. Ma’no jihatdan farqlanuvchi, biroq aytilishi va yozilishi bir xil bo‘lgan so‘zlar to‘liq omonimlar deb ataladi. Agar so‘zlarning faqat yozilishi yoki talaffuzi bir xil bo‘lsa, ular to‘liq bo‘lmagan omonimlar deyiladi.

Omonimlarning kelib chiqishini so‘zlarning ko‘p ma’noli xususiyatlarining kamayishi bilan izohlash ham mumkin. Bosmoq fe‘lining polisemantik, ya’ni ko‘p ma’noli xususiyati kuchsizdir. Shu sababli bu fe‘lning buyruq shakli “bosma”, boshqa shu o‘zakdan hosil bo‘lgan “bosma” (qog‘oz) oti bilan omonim bo‘lib qolgan. Omonimlarni farqlashda ularning tarixiy kelib chiqishini ham hisobga olish zarur. Masalan, tug‘ilmoq (chaqaloq tug‘ildi) va tug‘ilmoq (fikir tug‘ildi, hosil bo‘ldi). Har ikkisi bir o‘zakdan kelib chiqqan. Omonimlarning kelib chiqishida tildagi tovush o‘zgarishlari, yozuv qoidalari va semantik siljishlar muhim manba bo‘ladi. Omonimlarning ma’nolari nutq situatsiyasida, kontekstda aniqlanadi.

## SINONIMLAR VA ANTONIMLAR

So‘zlarning turlari va ma’nolari ularni qiyoslash orqali oydinlashadi. So‘z ma’nolarining o‘xshashligi sinonimiyani, qarama-qarshiligi esa antonimlarni aniqlash uchun asosiy mezon hisoblanadi. Bir tushuncha, hodisa, narsa yoki belgini ifodalovchi, ma’nolari o‘xshash yoki yaqin bo‘lgan, turli ma’no sifatlarini va ekspressiv-stilistik bo‘yoqlarni farqlash uchun xizmat qiluvchi so‘zlar sinonimlar deyiladi (grekcha *synonima* — “bir xil ma’nodagi nom”).

Odatda, bunday soʻzlar sinonimik qatorga birlashtiriladi: botir, qoʻrqmas, dadil, mard, jasur yoki baland, yuqori soʻzlari alohida sinonimik qatorni tashkil etadi. Ingliz tilida earth, ground, land, soil soʻzlari bir sinonimik qatorga kiradi. Biroq sinonimik qatorga kirgan har bir soʻz oʻzining, qoʻllanishi bilan farq qiladi. Bir sinonimik qatorga kirgan soʻzlar bir xil soʻz turkumiga oid boʻladi, biroq ularning oʻzagi, morfemik tarkibi, fonologik strukturasi, maʼno sifatlari va ekspressiv maʼnosi turlicha boʻladi. Masalan, aft, bashara, istara, chehra, yuz, nusxa, turq soʻzlarining maʼnolari juda yaqin, biroq ulardan nusxa, turq, bashara soʻzlari bu sinonimik guruhda stilistik jihatdan kishining salbiy va chehra, istara soʻzlari esa ijobiy emotsional-ekspressiv hissiyot uygʻotish uchun qoʻllanadi (qiyoslang: chehrasi ochiq, turqi sovuq, basharasi qora, nusxasi qursin kabi). Demak, bu sinonimik guruhga kiruvchi soʻzlar konnotativ (ekspressiv) maʼnolari bilan ajralib turadi. Biroq bu sinonimik guruhga kiruvchi soʻzlar yuz soʻzining asosiy maʼnosi (sememasi) bilan birlashgan. Yuz soʻzi mazkur sinonimik qatorning yetakchisi yoki dominanti hisoblanadi.

Sinonimlar, asosan, toʻrt turga boʻlinadi:

1. Maʼno sifatiga putur yetkazmay, bir-birining oʻrnida bimalol ishlatila oluvchi soʻzlar toʻliq sinonimlar deb ataladi: tilshunoslik — lingvistika.

2. Maʼnolari jihatdan farqlanuvchi sinonimlar semantik turga kiradi: botir, jasur, qoʻrqmas, dadil.

3. Nutq situatsiyasi yoki kontekstda maʼnolari jihatdan bir-birining oʻrnida ishlatila oluvchi sinonimlar kontekstual sinonimlar deb ataladi: shoir, yozuvchi, adib.

4. Maʼno sifatlarida emotsional-ekspressiv hissiyotni ifodalovchi sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi: yuz, bashara, aft, chehra, nusxa, turq kabi.

Sinonimik qatorga kiruvchi har bir soʻz boshqa soʻzlar bilan maʼlum aloqada boʻladi. Baʼzan chet tildan kirgan soʻz ona tilidagi soʻz bilan bir maʼnoni ifodalash uchun qoʻllanib, sinonim boʻlib qoladi: prokuror — qoralovchi, taftish komissiyasi — reviziya komissiyasi, advokat — oqlovchi kabi.

Tildagi sinonimlar yigʻindisi sinonimika deb yuritiladi. Sinonimika — til boyligi. Ularni bilish, qoʻllash sanʼatini egal-

lash yuqori nutq madaniyatining belgisidir: sinonimlar fikrni aniq va ravshan, rang-barang ifoda qilishga yordam beradi.

Qarama-qarshi ma'nolari bilan guruhlanuvchi so'zlar antonimlar deyiladi (grekcha anti — "zid", onyma — "nom"). Antonimlar leksik (so'z ma'nolari zidligi) va grammatik (grammatik shakllarning zidligi) turlarga bo'linadi. Leksik antonimlar: yaxshi — yomon, uzun — kalta, cho'ziq — qisqa, qora — oq, chiroyli — xunuk kabi. Grammatik antonimlar: tuzli — tuzsiz, shirin — bemaza, ishli — ishsiz, bekor kabi. Bulardan tashqari antonimlar yana quyidagi uch turga bo'linadi:

1. Gradual va koordinatsiya qilingan qarama-qarshiliklar antonimlari: oq-qora, uzoq-yaqin, boy-kambag'al, kun-tun va boshqalar.

2. Konversiya qarama-qarshiliklar antonimlari: urush — tinchlik, er — xotin, sotmoq — sotib olmoq.

3. Tushunchalarning dixotomik bo'linishlari antonimlari: ataka — kontrataka, qonuniy — noqonuniy.

Antonimlar — bir-birini inkor etuvchi ma'nodagi so'zlar o'rtasida vujudga keladi. Ular o'zining sinonimlariga ega bo'lishi mumkin. Masalan: kalta (pakana) — novcha (uzun), ta'mli (shirin) — ta'msiz (bemaza, beta'm) kabi. Demak, antonimlar sinonimlar bilan ham bog'lana oladi. Antonimlar zid ma'nodagi so'zlarni qiyoslash natijasida kelib chiqqan bo'lib, og'zaki va yozma nutqda ko'p qo'llanadi.

Antonimlar tilning tasviriy vositalaridir. Badiiy adabiyotda antonimlar yorlamida sintaktik birikmalardan antiteza hosil qilinadi:

Zulm ila elligu yuzni olur.

Boz tanobini duchandon solur.

Dog'i bular yaxshiyu, bizlar yomon...

(Muqimiy).

Antiteza maqollarda ham ko'p qo'llanadi: Nodon do'stdan ziyrak dushman yaxshi.

Tabu soʻzi polineziya tilidan (Tinch okeandagi orollarda yashovchi koʻchmanchi elatlar tili) olingan boʻlib, shaxsiy va diniy odatlar jihatdan biror narsani man etish, jumladan, maʼlum hayvonni ov qilish yoki oʻsimlikni sindirishni man etish bilan bogʻliqdir.

Baʼzi olmoshlar ham evfemizm sifatida qoʻllanadi. Masalan, U qilding, bu qilding, ishni rasvo qilding; Unday dedi, bunday dedi, aytganni qilmadi kabi. Bu misollarda u, bu, bunday olmoshlari evfemizmlar sifatida ishlatilgan.

Oʻtmishda biron kishi oʻlganda, qabiladan oʻlim sharpasini yoʻqotish uchun marhumning nomini aytish man etilgan. Tabu etnik tushuncha boʻlib, qandaydir narsaning, harakatning nomini aytishni man qilishdir. Bunday odatning tilga tatbiq qilinishi bilan lingvistik tabu yuzaga kelgan. Oʻzbek tilida chayonning nomi tabulanib, uning oʻrnida eshak, benom, nomi yoʻq soʻzlari ishlatiladi.

Odamning nutq faoliyati axloqiy normalarga rioya qiladi. Axloqiy va madaniy jihatdan qoʻllanishi taqiqlangan yoki noqulay deb topilgan soʻzlar oʻrniga boshqa soʻz va iboralarning qoʻllanilishi evfemizmlar (grekcha *euphemeo* — “yax-shi”, “mayin gapiraman” maʼnosida) deb ataladi. Misol: oʻldi soʻzi oʻrnida dunyodan oʻtdi, koʻz yumdi, yuragi toʻxtadi; yolgʻon gapirmoq oʻrnida xato gapirmoq, xato qilmoq iboralari qoʻllaniladi. Evfemizmlarning maʼno va xususiyatlari turlichadir. Ular qoʻllanish maqsadlariga koʻra ham turlicha qiymatga ega boʻladilar.

Evfemizmlarning maʼlum qismi tabu bilan bogʻliq boʻladi. Evfemizmlarning koʻpchilik qismi axloqiy va madaniy jihatdan aytilishi noqulay deb topilgan soʻzlar oʻrnida qoʻllanuvchi soʻz va iboralardir. Masalan, qizamiq oʻrnida oynoma (Samarqand viloyatning ayrim tumanlarida): chechak oʻrnida gul; sil (tuberkuloz) oʻrnida uzun ogʻriq; pes oʻrnida oq; kal oʻrnida siyqabosh, xotin oʻrnida umr yoʻldoshi, rafiqa, qalliq, oila; xotin olmoq oʻrnida uylanmoq; qizimni erga beraman oʻrnida qizimni uzataman, qizimni turmushga chiqaraman kabi soʻz va iboralarning qoʻllanilishi evfemizmdir.

Tabu va evfemizmlar adabiy-badiiy asarlarda ishlatiladi. Ularni qoʻllash soʻzlovchidan katta sanʼatni talab qiladi.

## TERMINOLOGIYA

Soʻzlar koʻpincha koʻp maʼnoli boʻladi. Biroq shunday soʻzlar ham borki, ular fan, texnika, sanʼat va madaniyatga oid tushunchalarni ifoda qilib, bir maʼnoda ishlatiladi. Bunday soʻzlar terminlar deyiladi (lotincha terminus — “chegara, oxirgi nuqta” maʼnosida). Har bir fan, texnika, sanʼat va madaniyatga oid boʻlgan terminlar birlashtirilib terminologiya deb ataladi. Masalan, tilshunoslik fani oʻz terminlariga ega, masalan, unli, undosh, reduksiya, omonim, sinonim, ega, kesim, leksema, semema kabilar. Geografiyaga oid terminlar: pasttekislik, koʻrfaz, orol, yarim orol, sharq, gʻarb, janub kabi. Terminlar fandagi tushunchalar bilan bogʻliq boʻlib, ularning maʼnosi qaysi fan va texnika sohasida qoʻllanishi orqali aniqlanadi. Terminlarning koʻp maʼnoda qoʻllanishi fan uchun ijobiy xususiyat hisoblanmaydi. Chunki bir terminning turli fanlarda har xil maʼnolarda qoʻllanishi baʼzi noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Terminlarning asosiy belgilari ularning bir maʼnoliligi (monosemantik ekanligi), neytral, alohida emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega emasligi, biror fan va texnika sohasiga tegishli ekanligi bilan izohlanadi. Baʼzan terminlar badiiy asarlarda stilistik talabga koʻra ishlatilishi mumkin. Bunday terminlarning ishlatilishi kontekst bilan bogʻlanadi. Masalan, astronomiyaga tegishli ikar termini badiiy jihatdan odam bilan tenglashtiriladi:

Fazoga ilk bora qanot qoqqanni  
Ikar deb atamish hayolan inson.

(A. Oripov)

Termin uchun kontekstning boʻlishi shart emas. U kontekstsiz ham alohida bir tushunchani ifoda qila oladi. Masalan, vint, lokator, kislota, fosfor, kislorod, vodorod kabi.

Baʼzi terminlar bir qancha fanlar uchun umumiy boʻlib qolgan. Masalan, avtomat soʻzi. Biroq avtomat mashinalarning har bir turi oʻz nomiga ega. Koʻpincha, avtomat mashinalarning uzundan-uzoq nomi aytilmay, avtomat termini qoʻllaniladi. Har bir fanning oʻz terminlar sistemasi mavjud. Terminlar narsalarning nomini, baʼzi jarayon yoki holatlarni (kimyoviy yoki fizik) belgi, oʻlchov, ishlash tartibi, fan va texnikaning sohalari va

shohobchalari hamda kasb va mashg'ulotini ifodalaydi. Terminlar ham so'zlar kabi o'zining tovush strukturasi (ifoda jihati) va ma'no jihatiga egadir. Ko'pgina terminlarning talaffuzi bilan ularning qaysi fanga tegishli ekanligini bilish mumkin. Chunki terminlarning ifoda va mazmun jihatlari o'rtasidagi bog'lanish ancha uzviy hisoblanadi. Terminlar bir, ikki so'zdan tashkil topgan va so'zlar birikmasi tarzida bo'lishi mumkin. Masalan, son, kasr son, g'ildirak aylantiruvchi dvigatel, kimyoviy jarayon, vodorod bomba kabi. Kelib chiqishi jihatdan terminlar har bir tilning ichki zahiralari xos va boshqa tillardan o'zlashgan bo'lishi mumkin. O'zbek tilining ichki zaxiralari manbayida paydo bo'lgan terminlarga tilshunoslikdagi to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi, kesim, qo'shma gap kabilarni ko'rsatish mumkin.

O'zbek tilida chet tillardan o'zlashgan terminlar juda ko'p. Masalan, tibbiyot, biologiya, tilshunoslik, fizika, kimyo, astronomiya va boshqa fanlarda lotin, grek, arab va boshqa tillardan kirgan so'zlar juda ko'p ishlatiladi. Ba'zi terminlar tilda bor bo'lgan so'zlarni turli shakllarda, jumladan, kichraytirish ma'nosida qo'llash orqali yasaladi: tilcha, oyoqcha kabi. Ko'pgina terminlar ular ifodalaydigan tushuncha yoki jismning nomi bilan butunlay bog'lanmaydi. Bunday terminlar biror mashhur kishi yoki voqea sha'niga qo'yilgan bo'lishi mumkin. Masalan, Sibirda topilgan jism Y.A. Gagarinning birinchi bor koinotga parvozi sha'niga gagarinit deb nomlangan. Terminlarning hosil bo'lishida fonetik, leksik va grammatik vositalar ishtirok etadi.

Har bir fan va texnika sohasiga tegishli alohida terminologik lug'atlar mavjud. (Bu haqda darslikning leksikografiya bo'limiga qarang.)

## FRAZEOLOGIYA

Tilning lug'at tarkibiga faqat so'zlar emas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi **frazeologiya** (grekcha *phrasis* — ibora, *logos* — ta'limot ma'nosida) deyiladi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga

tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi.

Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so'zlarning turg'un birikmasidir. Masalan, boshiga ko'tarmoq, tilini bir qarich qilmoq, kovushini to'g'rilamoq, juftakni rostlamoq, olam guliston, katta og'iz kabi.

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emosional-ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llanadi:

Hushyor boq, to foniy umr kechadi,  
Tegrangda turfa xil toshlar uchadi.  
Biri qora hasad yo g'araz toshi,  
Biri yovuz tuhmat yo maraz toshi...  
Ular sabr kosang to'ldirmoq bo'lar,  
Ular umr gulin so'ldirmoq bo'lar.

(A. Oripov)

Frazeologizmlar uch turli bo'ladi: frazeologik qo'shilmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar.

Tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib birikkan iboralar *frazeologik qo'shilmalar* deyiladi: hordiq (to'g'ri ma'noda) chiqarmoq (ko'chma ma'noda), holdan (to'g'ri ma'noda) toymoq (ko'chma ma'noda), so'zida (to'g'ri ma'noda) turmoq (ko'chma ma'noda) kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko'chma ma'no beruvchi iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi: ko'kka ko'tarmoq (maqtamoq), eti suyakka yopishgan (ozg'in), yuragi orqasiga tortmoq (qo'rqmoq) kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi: sichqonning inini ijaraga olmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, temirni qizig'ida bosmoq, oyog'ini tirab olmoq kabi.

Frazeologik qo'shilma yoki butunliklar so'zlarni o'zaro birliktirish yo'li bilan yasalgan yaxlit iboralar bo'lib, ularning



tarkibidagi ba'zi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarning komponentlarini almashtirish mumkin bo'lmaydi. Oyog'ini tirab turmoq yoki oyog'ini tirab turib olmoq bir ma'noni ifodalashi sababli frazeologik sinonimlar hisoblanadi, biroq ularning komponentlarini almashtirish mumkin emas. Shuningdek, bag'ri tosh va mehri tosh iboralari frazeologik sinonimlar bo'lib, ularga o'z ma'nosi bilan qarama-qarshi bo'lgan ko'ngli bo'sh va mehri bo'sh iboralari frazeologik antonimlardir. Ba'zan frazeologizmlar shaklan to'g'ri kelib, turli ma'nolarni ifodalaydi. Bunday hodisa **frazeologik omonimiya** deyiladi: javobini bermoq — 1) biror savolga javob qaytarmoq; 2) biror xizmatchini ishdan bo'shatmoq kabi.

Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin so'z birikmalari asosida hosil bo'ladi. Biroq ular ko'chma ma'no kasb etib, komponentlari o'zaro birikib yaxlit holda qo'llanishi natijasida singib ketadi. Masalan, joyiga keltirmoq, o'rniga qo'ymoq iboralari erkin birikmalarni eslatadi. Lekin ular ko'chma ma'noda qo'llanib, "ishni (vazifani) yaxshi bajarmoq", "biror ishni tartibli bajarmoq" ma'nolariga ega bo'lgan. Frazeologizmlarning ba'zi turlari milliy urf-odatlarni aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini so'zma-so'z ag'darmay, to'g'ri keluvchi iboralardan — muqobillardan foydalaniladi.

Frazeologizmlar grammatik (sintaktik va morfologik) tuzilishi bilan farq qiladi. Ularning tarkibida ot, sifat, fe'l va boshqa so'z turkumlari ishtirok etadi hamda komponentlarining sintaktik birikuvi ham turlicha bo'ladi: olam guliston, ta'bi xira, kayfi buzuq, tepsa-tebranmas, qorasi o'chmoq, yuragi qora, o'ziga kelmoq, o'rtaga tashlamoq, katta gapirmoq kabilar.

Tarkibida taqlid so'zlar bo'lgan frazeologizmlar alohida ko'chma ma'nolari bilan ajralib turadi: yuragi duk-duk qilmoq, piq-piq qilmoq, taq-taq etmoq kabi.

Ba'zi frazeologizmlarning tarkibida boshqa tillardan kirgan so'zlar ham ishtirok etishi mumkin: infarkt qilmoq, gapning indollisini aytmq kabi.

Frazeologizmlar semantik tomondan umumlashgan ko'chma ma'no ifodalasa, grammatik tomondan ularning

butunligi komponentlarining o‘zaro birikuv va gapda ham shu tartibini saqlab qolishi bilan izohlanadi.

## ETIMOLOGIYA

So‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganuvchi soha etimologiya (grekcha *etymon* — haqiqiy, *logos* — ta’limot) deyiladi. Etimologiya tilshunoslikning juda qadimiy sohasi bo‘lib, eramizdan avvalgi faylasuf va filologlar ham so‘zlarning dastlabki kelib chiqish tarixi bilan shug‘ullanganlar. “Etimologiya” termini qadimiy Rumoli olimlari Xrizipp va Varron nomlari bilan bog‘liq ekanligi ehtimol qilinadi. So‘zlarning haqiqiy va birinchi asl ma’nolari va shakllari til tarixi, boshqa tillar va dialektlardagi shu so‘z to‘g‘ri kelgan o‘zakka ega bo‘lgan so‘zlar bilan qiyoslash asosida aniqlanadi. Bunda so‘zlarning avvalgi ma’nosi va shakllari chuqur o‘rganiladi. So‘zlarning kelib chiqish tarixi tarix, arxeologiya, geografiya, antropologiya, madaniyat va san’at kabi qator fanlar yordamida aniqlanadi. So‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganish tamoyillari va metodlari ancha murakkab bo‘lib, boshqa fanlarga murojaat etishni taqozo etadi. “Etimologiya” termini tilshunoslikda ikki ma’noda ishlatiladi: leksikologiyaning ma’lum tilda so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganuvchi sohasi ma’nosida hamda biror so‘zning birinchi asl ma’nosi va shakli ma’nosida.

Yangi so‘zning kelib chiqishini aniqlash oson, lekin eski so‘zning qachon paydo bo‘lgani va qaysi tildan yoki shevadani olinganini bilish ancha qiyin. Biror so‘zning kelib chiqishini aniqlashda shu so‘z qardosh tillardagi so‘zlarning tovush strukturasi va ma’nolari bilan qiyoslanadi. Biroq doim ham shunday ilmiy izlanish aniq natijaga olib kelavermaydi. Chunki ba’zan so‘zlarning tashqi shakli, ya’ni tovush tarkibi bir-biriga yaqin bo‘lsa ham, ularning ma’nolari turlicha bo‘ladi. Masalan, ba’zi tilshunoslar “daftar” so‘zini grek tilidagi devter — “ikkinchi teri” so‘zidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Biroq ko‘pchilik tilshunoslar bu so‘zni fors tilidagi daftar so‘zidan kelib chiqqanligi va XI asr qadimiy uyg‘ur tilida ba’zi o‘zgarishlar bilan “tepter” shaklida ishlatilganini ko‘rsatadilar. Bu so‘z defter “тетрадь”, “реестр” ma’nosida XV asr qo‘l yozmalarida ham uchraydi. Biroq bu so‘z rus tiliga дафтер, девтер, деотерь

shakllarida o'zlashgan. Bu so'z qipchoq va bulg'or tillari orqali tatar va boshqird tillariga daftar shaklida o'zlashgan<sup>1</sup>. Ko'rinadiki, daftar so'zining grekcha TOVUSH tarkibiga yaqin bo'lgan "teri" ma'nosidagi so'zga deyarli aloqasi yo'q. Arxitektor so'zi esa ko'pchilik tillarda bor. U grekcha *architecton* — "quruvchi" so'zidan olingan. Biroq bu so'z har qanday quruvchini emas, balki faqat "haykal quruvchi yoki binoning loyihasini chizuvchi" ma'nosini bildiradi, ya'ni uning ma'nosi ancha toraygan.

Rus tilidan o'zbek tiliga qabul qilingan va kelib chiqishi ham ruscha bo'lgan samovar so'zi "choyxona" ma'nosida va shu so'zga sinonim bo'lib ishlatiladi. Demak, samovar so'zi o'z ma'nosini kengaytirgan, ya'ni u, birinchidan, choy qaynatadigan idishni, ikkinchidan, choy ichadigan joy ma'nosini ifodalaydi. So'zlarning etimologiyasini o'rganish jarayonida ularning tor va keng ma'noda qo'llanilishiga doir ko'plab ma'lumotlar ma'lum bo'ladi.

So'zlarning kelib chiqishini aniqlashga to'sqinlik qiluvchi, ularning bir o'zakdan kelib chiqishini bilish uchun qiyinchilik tug'diruvchi jarayon *deetimologizatsiya* (lotincha *-de* — "uzoqlashuv" prefiksi) deb yuritiladi. Ba'zi so'zlar dastlabki kelib chiqish davridagi ma'nolarini yo'qotadi. Masalan, akvarel (*aqua-relle* — italyan tilidan olingan) va akvarium (lotincha *aquarium*) so'zlari o'zbek va rus tillarida ma'nolari jihatdan bog'lanmaydi. Biroq aslida ularning birinchi qismi lotincha *aqua* — "suv", "вода" ma'nosini ifoda qilgan. Hozir ularning birinchisi "bo'yoq", ikkinchisi "suvga solingan jonivor" (baliq) ma'nosida qo'llanadi.

Boshqa tildan o'zlashgan so'zni tushunarsiz talaffuz etish va ona tilidagi biror so'zga o'xshash talaffuz qilish jarayoni xalq etimologiyasi deyiladi. Masalan, mramor so'zi qaynar, kamar so'zining talaffuziga yaqinlashtirilib marmar deb aytiladi. Asli gollandcha bo'lgan zontik so'zi uning tarkibidagi ikk element kichraytish (domik) affiksi deb faraz qilinib, zont shaklida ham talaffuz qilinadi. Barometr so'zining burimetr, mikroskop so'zining melkoskop deb talaffuz etilishi ham shu hodisaga kira-

---

<sup>1</sup> Аракин В.Д. Тюркские лексические элементы в памятниках русского языка монгольского периода. В книге "Тюркизмы в восточно-славянских языках". Изд. "Наука", М., 1974, стр. 126.

di. Xalq etimologiyasiga doir soʻzlar badiiy adabiyotda nutqni jonlantirish maqsadida ham qoʻllanadi.

### TILNING LUGʻAT TARKIBI

Tilning leksikasi tildagi barcha soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Tilda bor boʻlgan barcha soʻzlar uning lugʻat tarkibini tashkil etadi. Tilda bor boʻlgan soʻzlarning hisobi aniq emas. Har bir til oʻzining lugʻat tarkibiga ega boʻlib, yuz minglab soʻzlarni oʻz ichiga olgan. Eng mukammal tuzilgan lugʻat ham barcha soʻzlarni qamrab ololmaydi. Chunki tilning asta-sekin rivojlantirish jarayonida uning lugʻat tarkibi ham takomillashib boradi. Barcha yangi soʻzlar yoki eski soʻzlar lugʻatdan oʻrin olmagan boʻlishi mumkin.

Odatda lugʻat tarkibidagi soʻzlar ishlatilishiga koʻra ikki guruhga boʻlinadi: koʻp ishlatiluvchi soʻzlar yoki faol lugʻat va kam ishlatiluvchi soʻzlar yoki nafaol lugʻat. Koʻp ishlatiluvchi soʻzlar barcha uchun tushunarli boʻlishi bilan ajralib turadi. Masalan, choy, non, ovqat, kelmoq, ketmoq, chiroyli, xunuk, gul, yoʻl kabi. Bundan tashqari, xalqning turli guruhlari ham oʻz faol lugʻatiga ega boʻlishi mumkin. Jumladan, tilshunoslar affiks, fonema, morfema, sintaksis, sinonim, omonim kabi soʻz-terminlarni koʻp qoʻllaydilar. Faylasuflar esa zamon, makon, obyektiv borliq, bazis, ustqurma kabi terminlardan koʻproq foydalanadilar. Bu esa har bir guruhdagi kasb egalarning oʻz faol lugʻati borligini koʻrsatadi.

Kam ishlatiluvchi soʻzlar (nafaol lugʻat)ga tilda mavjud boʻlgan, lekin doim ham qoʻllanmaydigan soʻzlar kiradi. Masalan, yuho, poʻrtana, moʻndi kabi soʻzlar oʻzbek tilida nafaol lugʻatni tashkil etadi.

Faol va nafaol lugʻat oʻrtasida aniq chegara yoʻq. Baʼzan faol soʻzlar yangi soʻzlar bilan almashtirilib, kamroq ishlatilishi natijasida nafaol lugʻatga oʻtadi. Masalan, bir vaqtlar faol lugʻatga mansub boʻlgan omoch, qozi, ellikboshi kabi soʻzlar keyingi paytda nafaol lugʻatga oʻtdi. Aksincha, nafaol lugʻatdagi soʻzlarning ishlatilishi faollashadi. Masalan, jamiyat taraqqiyotida paydo boʻlib turadigan yangi soʻzlar dastlab nafaol

lugʻatga kiradi. Ularning maʼlum qismi keyinchalik qoʻllanish doirasi kengayib, hammaga tushunarli boʻlib, faol lugʻatgʻa oʻtishi mumkin: traktor, gektar, investitsiya va boshqalar. Bu hol jamiyatning rivojlanish jarayonida kishilar nutq madaniyatining ham oʻsib borishi bilan bogʻliq.

Faol va nafaol lugʻat tushunchalari chet tiliga oʻrgatishda koʻp qoʻllanadi.

Leksikologiya tilning lugʻat tarkibini turli qatorlarga yoki guruhlariga ajratib oʻrganadi. Lugʻat tarkibini bunday tasnif qilishda ularning tarixiy kelib chiqishi va ishlatilishiga eʼtibor beriladi. Jumladan, barcha kishilar tomonidan keng qoʻllanuvchi soʻzlar alohida guruhni tashkil etadi. Ular kundalik turmushda eng koʻp ishlatiluvchi soʻzlardir. Qoʻllanishi maʼlum bir hudud bilan chegaralangan soʻzlar dialektizmlar deb ataladi va ular ham alohida guruhni tashkil etadi. Masalan, shoti soʻzi Toshkent shevasida arava qismining nomi; Fargʻona shevalarida: a) narvon, b) arava qismi; pashsha soʻzi Toshkent shevasida pashsha (муха), Fargʻona shevasida chivin; tuxum soʻzi Toshkent shevasida tuxum (яйцо), j-lovchi shevalarda mayak, qipchoq shevalarida urugʻ<sup>1</sup> deb ishlatiladi.

Lugʻat tarkibidagi fan va texnika sohalarida ishlatiluvchi soʻzlar terminlar deb, ularni oʻrganuvchi soha esa **terminologiya** deyiladi. Bunday soʻz-terminlar nutqda koʻpincha ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlmaydi. Ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlishi va boʻlmasligiga koʻra soʻzlar tasnif qilinadi. Ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlmagan soʻzlar neytral soʻzlar deyiladi. Bunday soʻzlarga kelmoq, istamoq, kitob, qalam kabi kundalik hayotda qoʻllanuvchi soʻzlar kiradi. Ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlgan soʻzlar stilistik maʼnoda qoʻllangan soʻzlar deb ham ataladi. Bunday soʻzlarga oy, kun, chashma, qosh, yer, nazar tashlamoq, chehra kabi soʻzlar kiradi.

Tilning lugʻat tarkibidagi soʻzlar, asosan, toʻrt guruhga boʻlinadi:

- 1) umumsoʻzlashuv nutqiga xos leksika;
- 2) mahalliy soʻzlashuv nutqi leksikasi (dialektizmlar);

---

<sup>1</sup> Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. Oʻzbek dialektologiyasi. "Oʻqituvchi", Toshkent, 1978, 165-bet.

- 3) adabiy-kitobiy leksika;
- 4) umumadabiy til leksikasi (og‘zaki va yozma nutqda ishlatiluvchi so‘zlar).

Albatta, bu guruhlarga oid so‘zlarning ishlatilishi aniq chegaraga ega emas. Umumso‘zlashuv nutqiga xos so‘zlar barcha stillarda ishlatiladi.

Odatda, adabiy tillarda quyidagi stillar farqlanadi:

- 1) badiiy stil;
- 2) publitsistik stil;
- 3) ilmiy stil;
- 4) rasmiy ish qog‘ozlari stili;
- 5) so‘zlashuv stili.

So‘zlar ham bu stillarda ishlatilishiga ko‘ra tasnif qilinadi. Neytral so‘zlar barcha stillarda qo‘llanaveradi. Terminlar esa fan va texnikaga oid ilmiy asarlarda ishlatiladi. Terminlar badiiy uslubda ham ba‘zan uslub talabiga ko‘ra qo‘llaniladi. Masalan, urush mavzusida yozilgan asarlarda harbiy terminlar qo‘llaniladi. Asqad Muxtorning “Daryolar tutashgan joyda” asarida sanoat va ishlab chiqarishga oid terminlarning keng qo‘llanilganligi kuzatiladi. Dialektizmlar ilmiy va rasmiy nutqda, badiiy (muallif nutqida) va publitsistik asarlarda qo‘llanmaydi. So‘zlashuv uslubida, badiiy asar qahramonlari nutqini aynan berishda dialektizmlardan foydalaniladi: Eshitdigu moro bo‘singa kelaverdik (Rahmat Fayziy). Eskirgan so‘zlar ham, asosan, badiiy nutqda shu maqsadda qo‘llanadi:

Ey bizning birinchi rais jumhur,  
Ismingdan o‘zbekning sha’niga g‘urur.

*(G‘afur G‘ulom)*

Umumso‘zlashuv stilida ishlatiluvchi so‘zlar barcha kishilar nutqida qo‘llanuvchi odatiy so‘zlardir: daraxt, tog‘, o‘rmon, suv, kiyim, ovqat kabilar. Umumso‘zlashuv stilida ishlatiluvchi so‘zlar ba‘zan poeziyada ham qo‘llanadi. Masalan, O‘zbekiston vatanim manim (A.Oripov). Bu o‘rinda mening so‘zi jonli so‘zlashuv nutqi shaklida (manim) ishlatilgan.

Ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlar ko‘proq badiiy va

publitsistik stillarda ishlatiladi. Bunda badiiy tasvirlar o'xshatish, jonlantirish, sifatlash, mubolag'a, ko'chma ma'nodagi so'zlar yordamida voqea-hodisalarga stilistik bo'yoq berib, o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Har bir tilning lug'at tarkibi nutq madaniyati xazinasini tashkil etadi va turli stillarga xos bo'lgan ifoda vositalarini boyitishga xizmat qiladi.

## TIL LUG'AT TARKIBINING O'ZGARISHI

Jamiyat va xalq hayotidagi turli o'zgarishlar natijasida til ham takomillashib, rivojlanib boradi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, madaniyat va texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, birinchi navbatda tilning lug'at tarkibiga ta'sir qiladi. Tilning lug'at tarkibida yangi so'zlar, iboralar paydo bo'ladi, ayrim so'zlarning semantikasida o'zgarishlar yuz beradi, ayrim so'zlar esa eskirib qoladi. Bu barcha tillarning umumiy qonuniyatlaridir. Buni o'zbek tili materiallari asosida izohlaymiz.

Tilda hosil bo'lgan yangi so'zlar **neologizmlar** (grekcha *neos* — yangi, *logos* — so'z) deyiladi. Lug'at tarkibi neologizmlar hisobiga boyib boradi. Neologizmlar quyidagi xususiyatlari bilan lug'at tarkibida ajralib turadi:

- 1) yangi tushuncha, narsa yoki hodisaning nomini ataydi;
- 2) avval mavjud bo'lgan narsa yoki hodisaning belgilarini farqlaydi;
- 3) tildagi vositalarni tejaydi;
- 4) fikrni aniqroq ifodalash uchun xizmat qiladi.

Neologizmlar tilning ichki zahiralari va boshqa tillardan so'z qabul qilish, ya'ni tashqi ta'sir natijasida hosil bo'ladi.

Neologizmlar tildagi xususiyatlariga ko'ra avvalo ikki turga bo'linadi: leksik-semantik va leksik-grammatik. Leksik-semantik neologizmlar o'z navbatida leksik (unga boshqa tildan o'zlashgan so'zlar ham kiradi) va semantik (unga mavjud so'zlarning yangi ma'noda ishlatilishi kiradi) bo'ladi. Masalan, o'zbek tili lug'at tarkibida keyingi davrlarda paydo bo'lgan fazogir (kosmonavt), kosmodrom, kosmik kema kabilar leksik neologizmlar hisoblanadi.

Neologizmlar tarixiydir. Bir davr uchun neologizm bo'lgan so'zlar keyinchalik neologizmlik belgisini yo'qotib, faol leksik qatlamga o'tishi mumkin. Masalan, muzyorar, traktor kabi

soʻzlar tilda paydo boʻlganda neologizm boʻlgan. Lekin bugungi tilimizda bular yangi soʻzlik belgisini yoʻqotib, xalq tilida keng qoʻllanadigan soʻzlarga aylanib qoldi.

Semantik neologizm yangi maʼnoli soʻzdir. Masalan, yoʻldosh soʻzi bugungi tilimizda yangi maʼnoda (yer yoʻldoshi) qoʻllanyapti. Bu hodisa ham tarixiydir. Bogʻcha dastlab “детсад” maʼnosida qoʻllanganda semantik neologizm boʻlgan. Hozir esa neologizmlik belgisini yoʻqotgan. Leksik-grammatik neologizmlar tilning oʻzidagi soʻz yasash vositalari yordamida hosil qilinadi. Leksik-grammatik neologizmlar ham, tarixiydir. Traktorchi (traktorist) kabi soʻzlar bugungi tilimizda faol leksik qatlamdan oʻrin olgan.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibida ayrim soʻzlar eskirdi. Bunday soʻzlar ikki turga ajratiladi: istorizm va arxaizm.

Istorizmlar (grekcha *historia* — tarix) oʻtmishda mavjud boʻlgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Masalan, qozi, ellikboshi, mingboshi, yuzboshi, taxt, kanizak, omoch, sovut kabilar. Bunday soʻzlar tarixiy asarlarda oʻtmishni tasvirlash uchun sharoit taqozosi bilan ishlatiladi. Baʼzan frazeologik istorizmlar ham uchrab turadi (qozilik qilmoq kabi). Istorizmlardan arxaizmlarni farqlamoq zarur.

Arxaizmlar (grekcha *arhaios* — “qadimgi”) bugungi kunda mavjud boʻlgan narsa-hodisalarning eski nomlaridir. Masalan, taʼtil (kanikul), dudoq (lab), muhr (pechat), oʻmiz (koʻkrak) va boshqalar. Bular badiiy nutqda ayrim stilistik talablarga koʻra ishlatiladi. Istorizmlar va arxaizmlar tilning takomillashuvi, uning lugʻat sistemasining rivojlanish jarayoni bilan bogʻliqdir.

## TIL LUGʻAT TARKIBI TARAQQIYOTINING ASOSIY YOʻLLARI

Tilning lugʻat tarkibi jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq holda doim rivojlanishdadir. Bu har bir tilning ichki zahiralari hamda boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish hisobiga boʻladi. Odatda, yangi soʻzlar, soʻzlarning yangi maʼnolari eskirib qolayotgan soʻzlarga nisbatan ancha koʻp paydo boʻladi. Bu yangi soʻz va maʼnolar maʼlum qonun-qoidalar asosida yuzaga keladi. Lekin, shu bilan birga, tilda biror qoida bilan bogʻliq boʻlmay, sunʼiy hosil qilingan soʻzlar oz boʻlsada mavjud. Bunga adabiyotlarda



liliput, neylon, gnom, kodik kabi soʻzlar misol qilib keltiriladi. BMT kabi qoʻshma qisqartma soʻzlar esa analitik nomlash va soʻzlarni qisqartirish qoidalari asosida hosil boʻlgan.

Til lugʻat tarkibi taraqqiyotining, asosan, toʻrt usuli mavjud: grammatik usul, fonetik usul, semantik usul, soʻz oʻzlashtirish usuli.

**Grammatik usul.** Til lugʻat tarkibi taraqqiyotining grammatik usuli tilning soʻz yasash modellari va soʻz yasash usullariga asoslanadi. Har bir tilning oʻziga xos soʻz yasash modellari va usullari bor.

Grammatik soʻz yasash usullari soʻz yasash asosi va yasalgan soʻz hamda soʻz yasovchi vositalarga koʻra oʻzaro farq qiladi. Soʻz yasash asosi va yasalgan soʻzga koʻra bir soʻz turkumi doirasida hamda turli soʻz turkumi doirasida boʻladi: xizmat — xizmatchi — xizmatchilik, son — sana — sanoq.

Soʻz yasash vositalariga koʻra soʻz qoʻshish va affiksial (morfologik) usul bilan soʻz yasash farq qilinadi. Soʻz qoʻshish usulida yangi tushuncha ifoda qilish uchun ikki yoki undan ortiq soʻz birlashtirilib, bir soʻz holiga keltiriladi. Bu usul bilan qoʻshma soʻzlar hosil qilinadi: muzyorar, temiryoʻl, soʻz boshi va boshqalar. Soʻzlarni qisqartirish va qoʻshma qisqartma soʻzlar (*abbreviatura* — lotincha *abbrevio* — qisqartirish) hosil qilish qoidalari ham shunga kiradi: OʻzMU — Oʻzbekiston Milliy universiteti.

Soʻz qoʻshish yoʻli bilan soʻz yasash barcha tillar uchun xosdir. Bu usul ayniqsa qoʻshimchasiz, masalan, xitoy, indonez tillarida keng rivojlangan.

Oʻzbek tilida morfologik (affiksial) usul bilan soʻz yasashning quyidagi koʻrinishlari mavjud: 1) **suffiksial usul:** temir — temirchi, bosh — boshliq; 2) **prefiksli usul:** davlat — badavlat, tashvish — betashvish, gap — sergap; 3) **suffiksial-prefiksial usul:** sergaplik, baquvvatlik.

**Fonetik usul.** Bunda soʻz tarkibidagi tovush oʻzgarishi hamda urgʻuning oʻrnini oʻzgartirish yoʻli bilan yangi soʻz hosil qilinadi: aka-uka, yangi (yangi kitob) — yangi (hozir keldi).

**Semantik usul.** Til lugʻat tarkibi taraqqiyotining bu usulida soʻz maʼnolari oʻzgarib boradi. Faqat soʻzlar emas, ularning maʼnolari ham oʻz tarixiga ega. Soʻz maʼnolari semantik jara-

yonlar va soʻz maʼnolarining koʻchish qonuniyatlari asosida oʻzgaradi. Soʻz maʼnolarining oʻzgarishi ularning nutqda qoʻllanishiga bogʻliqdir.

Soʻz maʼnolarining oʻzgarish usuli uch xil: soʻz maʼnolarining koʻchishi, soʻz maʼnolarining kengayishi, soʻz maʼnolarining torayishi.

Til lugʻat tarkibining taraqqiyotida semantik usul yana quyidagi koʻrinishlarga ega:

1) omonimlarning hosil boʻlishi: batareya (texnik termin — elektr batareyasi), batareya (harbiy termin — minomyot batareyasi), dasta (biror narsaning ushlagichi) — dasta (ansambl maʼnosida);

2) turdosh va atoqli otlar munosabati. Bunda turdosh otlar oʻz maʼnosini toraytirib, atoqli otlarga aylanadi. Oʻzbek tilidagi Anor, Raʼno, Muhabbat, Bolta, Tessa, Temir kabi atoqli otlar mana shundaydir. Viktor (lotincha victor — gʻolib), Volga (ruscha волга — влага), Novgorod (ruscha новъ-город) kabi atoqli otlar ham turdosh otlardan hosil boʻlgan. Atoqli otlar oʻz maʼnosini kengaytirib, turdosh otlarga aylanadi. Masalan, iprit (zaharlovchi modda) Belgiyadagi Ipr shahri nomi bilan bogʻliq. Golife, donjuan, donkixot soʻzlari ham ana shu tipdadir.

3) **Konversiya** (lotincha *conversio* — aylanish) — soʻz yasashning semantik-grammatik usulining alohida koʻrinishini tashkil qiladi. Bunda bir turkumdagi soʻz ikkinchi bir turkumga oʻtadi: uning leksik va grammatik maʼnosi oʻzgaradi.

Konversiyaning asosiy koʻrinishlari: **subyektivatsiya**, **adverbializatsiya** va **adverbializatsiya**. Bunda boshqa soʻz turkumlaridagi soʻzlar ot, sifat va ravishlarga koʻchadi. Masalan, ot turkumiga kiruvchi aniqlanmish soʻzi aslida feʼning sifatdosh shakli, urush, oʻqish, kirish, qurilish, tergov kabilar esa aslida feʼning harakat nomi shaklidir.

Ravish turkumiga kiruvchi qoʻrqmasdan soʻzi aslida sifatdoshning boʻlishsiz shakli, birdan soʻzi bir sonining chiqish kelishidagi shaklidir. Endi ravishning yuklama vazifasida kelishi (nega endi men beraman), qahramon, kasal kabi sifatning otlashuvi ham konversiya hodisasidir. Rus tilidagi “столовая” soʻzi ham sifat (столовая мебель), ham ot (oshxona) boʻlib

keladi. Bu soʻz ot vazifasida kelganda sifat shakli (женский род)ni saqlasa ham, rod kategoriyasi boʻyicha oʻzgarmaydi.

Konversiya hodisasi qoʻshimchasiz tillar hamda barcha soʻz turkumlari taraqqiy etgan soʻz shakllariga ega boʻlmagan tillarda keng rivojlangan. Bu hodisa ayniqsa ingliz tilida taraqqiy etgan.

**Soʻz oʻzlashtirish.** Turli qabila va xalqlar qadimdan oʻzaro iqtisodiy va madaniy aloqada boʻlib kelganlar. Buning natijasida bir tildan ikkinchi bir tilga ayrim soʻzlar kirib oʻzlashib ketgan. Dunyoda boshqa til vositalarini oʻzlashtirmagan birorta “sof” til yoʻq. Rus tilining lugʻat tarkibidagi soʻzlarning taxminan 10 foizi boshqa tillardan oʻzlashtirilgan deb taxmin qilinadi. Oʻzbek tili lugʻat tarkibida arabcha, forscha, tojikcha va internatsional soʻzlarning salmogʻi kattaginadir.

Boshqa tillardan qabul qilingan soʻzlar tilning grammatik-lugʻaviy tarkibiga hech qanday taʼsir qilmasdan oʻzlashtiriladi. Ular odatda, koʻproq narsalik tushunchasini ifoda qiluvchi soʻzlar boʻladi: yangi narsalar oʻzlariga xos nomlar bilan oʻzlashtiriladi.

Masalan, Futbol oʻyini Angliyada koʻproq tarqalgani uchun bunga xos nomlar ham inglizchadir: futbol (“oyoq oʻyini” degan maʼnoda), golkipr (darvozabon maʼnosida) va boshqalar. Rus tilidagi kemachilikka xos terminlarning koʻpchiligi gollandchadir: крейсер (harbiy kema maʼnosida), гавань (kemalar toʻxtaydigan joy maʼnosida), гротмарсел (katta tikka turuvchi yelkan maʼnosida) va boshqalar.

Boshqa tillardan ehtiyoj natijasida qabul qilingan soʻzlar tilning lugʻat boyligini kengaytirib, nutq vositalarini boyitadi. Masalan, rus tilidagi велвет soʻzi inglizchadan olinib, baxmalning bir turini ifoda qiladi. Inglizchada esa — bu soʻz barxit (baxmal) maʼnosini bildiradi. Lekin barxit soʻzi asli arabcha boʻlib, bamazin maʼnosini ifoda qiladi. “Boti” soʻzi fransuz tilida etik maʼnosida ishlatilsa, fransuzchadan olingan bu soʻz rus tilida ayollar kiyadigan qoʻnjlil “etik” maʼnosini anglatadi.

Odatda, boshqa tillardan zaruriyat tufayli oʻzlashtirilgan soʻzlar “begona soʻzlar” deb ajratilmasdan nutqda qoʻllanaveradi. Masalan, paxta soʻzining asli forscha-tojikcha, kanal soʻzining asli lotincha ekanligini faqat tilshunoslarga tadqiqot

ishlarida ajratadilar. Boshqa vaqtlarda bu soʻzlar oʻz soʻzidek ishlatilaveradi.

Xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari fan va texnika sohasida umumiylik yuzaga kelishi natijasida tillarning lugʻat boyligida internatsional elementlar vujudga kela boshladi. Keyingi davrlarda, ayniqsa XIX asrda fan va texnikaga oid terminlar qadimgi grek va lotin tillaridan oʻzlashtirildi. Masalan, botanika, zoologiya, geografiya, akvarium va boshqalar.

Internatsional soʻzlar boshqa tillardan ham olindi. Masalan, algebra, arsenal, almanax soʻzlari arab tilidan; artist, ansambl, armiya, artilleriya soʻzlari fransuz tilidan; ariya, gazeta, bank, valyuta, gvardiya soʻzlari italyan tilidan; boks, miting soʻzlari ingliz tilidan olingandir. Bu soʻzlar hozirgi zamon tillarining hammasida umumiy internatsional fond sifatida qoʻllanmoqda.

Internatsional soʻzlarning baʼzilari turli tillardan olingan soʻzlardan iborat. Masalan, byurokrat soʻzi fransuzcha *bureau* (muassasa) va grekcha *kratos* (hokimiyat) soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan. Shu yoʻl bilan trolleybus soʻzi ham yuzaga kelgan. Inglizcha *trolley* — kontaktli sim va yuqoridagi *bus* elementining qoʻshilishidan hosil boʻlib, elektr toki bilan yuradigan shahar transporti maʼnosida qoʻllanadi.

Internatsional soʻzlarning bir qismi ular ifoda qilgan narsani ixtiro qilgan odamlar nomi bilan bogʻliq. Masalan, amper soʻzi (elektr tokining quvvatini oʻlchaydigan birlik maʼnosida) italyan olimi Volt nomi bilan bogʻlangan.

Dunyodagi tillarning deyarli hammasida umumiy morfologik belgilari ham mavjud. Bular grekcha, lotincha *-ist*, *-izm* kabi suffikslar va *arxi-*, *kontr-*, *inter-* kabi prefikslardir.

Chet soʻzlarning ishlatilishi bilan bogʻlik hodisa **purizm** (lotincha *purus* — sof) deyiladi va bunday gʻoya tashviqotchilari puristlar deb ataladi. Purizm progressiv va reaksiyon boʻladi.

Progressiv purizm chet soʻzlarni, ayniqsa internatsional soʻzlarni toʻgʻri va oʻz oʻrnida ishlatish gʻoyasi bilan tilning leksik tarkibini boyitishga yordam beradi. Reaksiyon purizm chet soʻzlarni zoʻrma-zoʻraki, ona tilida shu soʻzga toʻgʻri keluvchi soʻz topilgan taqdirda ham ishlatishga undovchi gʻoyaga asoslanadi. Progressiv purizmni har tomonlama quvvatlash,

reaksion purizmga qarshi kurashish tilshunoslrimiz va boshqa fan vakillarining burchi hisoblanadi.

Fonetik o'zlashtirish mumkin bo'lmaganda, boshqa tildagi so'z va iboralar tarjima qilish yo'li bilan o'zlashtiriladi. Bu hodisa **kalkalab so'z o'zlashtirish** deb ataladi (fransuzcha *caique* — "nusxa", taqlid qilish, nusxa ko'chirishda ishlatiluvchi yuqori "qog'oz" ma'nosida).

Kalkalab so'z o'zlashtirish, asosan, ikki turli bo'ladi:

1) **to'liq kalkalash** — bunda bir tildagi so'z yoki ibora ikkinchi bir tilga to'liq tarjima qilinadi: полупроводник — yarim o'tkazgich, радиопередача — radio eshittirish, ледокол — muzuorar, взаимодействие — o'zaro harakat;

2) **yarim kalkalash** — bunda kalkalanayotgan so'z yoki ibora har ikki til elementlari orqali ifoda qilinadi: машиностроение — mashinasozlik, автоматчик — avtomatchi, электронно-вычислительная машина — elektron-hisoblash mashinasi, штормовая авиация — shturmchi aviatsiya kabi.

Ba'zi terminlarni o'zlashtirishda so'zning yasovchi elementlari o'zbekcha qo'shimchalar bilan almashtiriladi. Bu jarayon o'zlashtirilayotgan so'zning o'zagini so'z yasovchi qo'shimchalardan ajratish mumkin bo'lganda, bu o'zbek tilida mustaqil holda ma'lum tushuncha ifoda qila olganda yuz beradi: гвардеец — gvardiyachi, автоматчик — avtomatchi.

Kalkalash yo'li bilan paydo bo'ladigan konstruksiyalarning ko'pchiligi birikma atamalardir: наблюдательный пункт — kuzatish punkti, химическая война — kimyoviy urush va boshqalar.

## LEKSIKOGRAFIYA

So'zlarning biror maqsadda to'planib, tartibga solingan yig'indisi **lug'at** deyiladi. Lug'at tuzishning nazariy va amaliy tamoyillari haqidagi soha **leksikografiya** (grekcha *lexicon* — lug'at va *grapho* — yozaman) deyiladi. Lug'at tuzuvchi mutaxassislar leksikograflar deyiladi. Lug'at tuzish tamoyillari va metodikasini ishlab chiqish, leksikograflar ishini tashkil qilish, lug'at tuzish uchun asos bo'ladigan kartotekalar tuzish, ularni sistemalashtirish va saqlash leksikografiyaning vazifasidir.

Lugʻatlarning soʻzlar va iboralarning qoʻllanishini nazariy tadqiq etishda hamda tilga amaliy oʻrgatishda ahamiyati katta.

Turli turdagi lugʻatlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lugʻat alfavit tartibida tuzilib, qulay qoʻllanma sifatida xalq ommasiga bilim beradi, madaniy-oqartuv funksiya bajaradi. Shuning uchun ham bu masalaga katta ahamiyat berilmoqda. Maxsus nashriyotlar, leksikografik muassasalarning tashkil etilganligini shu bilan izohlash mumkin.

Lugʻat turlari, soʻzlik (lugʻatdan izohlanayotgan yoki tarjima qilinayotgan soʻz) tarkibi, lugʻaviy maqolalar strukturasi kabi masalalar leksikografik nazariyada asosiy masala hisoblanadi.

Lugʻatlar, asosan, ikki turga boʻlinadi: *qomusiy* (ensiklopedik) va *filologik*. Qomusiy lugʻatlarda fan, texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid tushunchalar izohlanadi. Ularda tabiat hodisalari, ijtimoiy hayotdagi voqealar, mashhur kishilar haqida maʼlumotlar beriladi.

Soʻzning oʻzi haqida faqat uning kelib chiqishini koʻrsatish bilan chegaralaniladi. Shuning uchun bunday lugʻatlar tushuncha lugʻat deb yuritiladi. Odatda, bunday lugʻatlarda rasmlar, karta va sxemalar ham keltiriladi. Qomusiy lugʻatlarda soʻz va iboralar alfavit tartibida maqolaning sarlavhasi sifatida qoʻyiladi.

Qomusiy lugʻatlar maqsad va vazifasiga koʻra ikki xil boʻladi: umumiy qomusiy (ensiklopedik) lugʻat va biror sohaning (qomusiy) lugʻati. Umumiy qomusiy lugʻatlarga “Britaniya lugʻati”, “Oʻzbekiston qomusi” misol boʻladi. Biror sohaning qomusiy lugʻatlariga “Adabiyot qomusi”. “Pedagogik qomus”. “Texnik qomus”. “Qishloq xoʻjalik qomusi” kabilar kiradi. Qomusiy lugʻat Sharqda “*Qomus*”, Gʻarbda esa “*Thesaurus*” deb ham yuritiladi.

Filologik lugʻatlarda asosiy eʼtibor soʻzga yoki soʻz birikmasiga beriladi va ular har tomonlama izohlanadi. Bunday lugʻatlar ham alfavit tartibida tuziladi va izohlanadigan soʻz yoki soʻz birikmasi sarlavha sifatida keltiriladi.

Filologik lugʻatlar ikki xil boʻladi: *umumiy* va *maxsus filologik lugʻatlar*. Umumiy filologik lugʻatlarda hamma qoʻllaydigan soʻzlarning izohi beriladi. Bular bir tilli, ikki tilli, koʻp tilli boʻladi.

Qo'yilgan maqsadga ko'ra bir tilli filologik lug'atlar bir qancha turlarga bo'linadi. Masalan, izohli lug'atlar, maxsus lingvistik lug'atlar: etimologik lug'at, morfem lug'at, frazeologik lug'at, sinonim so'zlar lug'ati, orfoepik lug'at, chappa lug'at, atoqli otlar lug'ati, joy nomlari lug'ati, mashhur yozuvchilar asarlari lug'ati kabilar.

Masalan, izohli lug'atda so'zlarning barcha leksik ma'nolari keng izohlanadi. Har bir so'z izohi kichik maqola shaklida beriladi va izohlanayotgan so'z sarlavha qilib ko'rsatiladi. Bunga "O'zbek tilining izohli lug'ati", 5 jildli, "Ingliz tilining Oksford izohli lug'ati", 17 jildli "Словарь современного русского литературного языка", S.I.Ojegovning bir jildli "Словарь русского языка" kabilar misol bo'ladi. Olim Usmonov va Renat Doniyorovlarning "Ruscha — internatsional so'zlar izohli lug'ati" shular qatoriga kiritiladi.

Sinonim so'zlar lug'atida sinonimik qatorga kiruvchi har bir so'zning ma'no ottenkalari, stilistik funksiyalari bayon qilinadi. Bunga A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" misol bo'ladi. Etimologik lug'atlarda so'zlarning kelib chiqishi, ularning dastlabki shakli va ma'nosi, til taraqqiyoti davomida ularda yuz bergan o'zgarishlar izohlanadi. M.Fasmerning "Этимологический словарь русского языка", E.V. Sevortyaning "Этимологический словарь тюркских языков", Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" ana shunday lug'atlardir.

Morfemik lug'at so'zlarning qanday morfemalardan tuzilganini alfavit tartibida izohlovchi lug'atdir. Jumladan, mukofotlanmoq so'zi mukofot (lan) moq morfemalaridan tuzilgan. (Qarang: A.G'ulomov, A.N.Tixonov, R.Qo'ng'urov. O'zbek tili morfem lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi", 1977). Frazeologik lug'atda tildagi frazeologik birliklarning (iboralarning) semantik va grammatik xususiyatlari misollar yordamida izohlanadi. Unda frazeologik omonimlar, sinonimlar va antonimlarni yonma-yon keltirish bir frazeologik iboraning turli variantlarini berish juda foydalidir. Misol: Ko'ngli qattiq-qattiq ko'ngil. Rahm-shafqati yo'q. Varianti: toshko'ngil; toshko'ngilli; toshko'ngil (ekan)ligi Sinonimi: tosh yurak-yuragi tosh. Antonimi:

ko'ngl (i) bo'sh; ko'ngl(i) yumshoq-yumshoq ko'ngil. O'xshashi: bag'ritosh; mehritosh...<sup>1</sup>

So'zlarning qanday harf bilan tugaganiga qarab alfavit tartibida tuzilgan lug'at **chappa lug'at** deyiladi. Masalan, a harfi bilan tugagan so'zlar quyidagicha beriladi: arfa, bola, dona, so'na, pona, to'nka, shona kabi. Bunday lug'at so'z yasalishi, morfologiya va leksikologiya bo'yicha olib boriladigan turli ilmiy-tadqiqotlar uchun manba bo'lishi mumkin. Bulardan tashqari, chappa lug'atlar tilning fonetik qonuniyatlarini, she'riyat sirlari (qofiya bo'yicha)ni o'rganishda yordam beradi. (R.Qo'ng'urov va A.Tixonovlarning "Обратный словарь узбекского языка" kitobi).

Izohli lug'atlar tuzilishiga ko'ra ikki xil: alfavit tartibidagi lug'atlar va uya tartibidagi lug'atlar.

Birinchi turdagi lug'atlarda so'zlar alfavit tartibida berilib izohlanadi. Yuqorida ko'rsatilgan izohli lug'atlar mana shu tartibda tuzilgan.

Ikkinchi turdagi lug'atlarda faqat o'zaklarga alfavit tartibida joylashtiriladi. Yasama so'zlar esa o'zak maqolachasining ichida (uyasida) izohlanadi. Bunday lug'atlar bir uyada keltirilgan so'zlarning ma'no va shakl jihatdan boglanishlari haqida ma'lumot beradi. Ikki til doirasidagi tarjima lug'atlarida bir tildagi so'z yoki so'z birikmasi boshqa tilga tarjima qilib beriladi. Bunga ruscha-o'zbekcha, inglizcha-o'zbekcha, fransuzcha-o'zbekcha, nemischa-o'zbekcha lug'atlar kiradi. Chet tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan qisqa tarjima lug'atlari ham mavjud. Ba'zan tarjima lug'atlari bir necha tillar doirasida bo'ladi. Masalan, "Словарь наиболее употребительных слов английского, немецкого, французского и русского языков" kabi.

Filologik lug'atlarga turli sohalarga oid lug'atlar ham kiradi. Bularda fan, texnika, ishlab chiqarishning ma'lum sohasiga oid so'z-terminlar izohlanadi. Soha lug'atlari ichida eng keng tarqalgani terminologik lug'atlardir. Bunday lug'atlar bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli bo'ladi. Bir tilli terminologik lug'atlarda bir

<sup>1</sup> *Rahmatullayev Sh.* O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent. "O'qituvchi", 1978, 21-bet.



tilning ma'lum sohaga oid terminlari izohlanadi. Bunga O.S.Axmanovning “Словарь лингвистических терминов” (1966) va D.E.Rozental, M.A.Telenkovalarning “Справочник лингвистических терминов” (1972) nomli kitoblari, H.Nasanoovning “Geografiya terminlari lug‘ati” (1964). H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimovalarning “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” (1967), Olim Usmon tahriri ostida nashr qilingan “Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug‘ati” (1976) kabilarni kiritish mumkin. Ikki tilli terminologik lug‘atlarga N.T. Hotamovning “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at”i (1969). Sh. Bayburov va N. Takanayevning “Pedagogikadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at”i (1963) kabilar kiradi. Ko‘p tilli terminologik lug‘atlarga A.A.Asqarov va H.Zohidovlarning “Lotincha-o‘zbekcha-ruscha normal anatomiya lug‘ati” (1964) ni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Chet so‘zlar lug‘ati ham terminologik lug‘atlarga o‘xshab ketadi. Bunda ham, asosan, chet tillardan o‘zlashgan so‘zlar izohlanadi.

Lug‘atlarning turi yuqoridagilari bilan cheklanmaydi. Tematik, differensial, yangi so‘zlar, qisqartma so‘zlar, chastota, qofiya lug‘atlari ham mavjud. Masalan, tematik lug‘atlarda so‘zlar ma’nolariga ko‘ra guruhlanadi. Bunday lug‘atlar biror fikrni ifodalash uchun eng qulay so‘zlarni topish imkoniyatini beradi. Bunga ingliz tili asosida tuzilgan Roje (Roget) lug‘ati, Muhammad Yoqub Chingi tomonidan tuzilgan “Kelurnoma” nomli (XVIII asr) lug‘atning oxirgi XV bobi misol bo‘ladi.

Xalqning o‘z-o‘z borayotgan talablarini qondirish maqsadida lug‘atning yangi-yangi turlari yaratilishi tabiiydir.

Hozirgi tilshunoslikda tezaurus lug‘at (grekcha thesayros — manba) yoki ideografik lug‘at tuzish masalasi ustida ish olib borilmoqda. Tezaurus lug‘at ma’lum so‘z bilan ma’nolari bog‘lanuvchi barcha so‘zlarni qamrab oladi.

**Lug‘at** — so‘z xazinasi, undan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish inson bilimini kengaytirish, lug‘at boyligini oshirishda hamda fikrni to‘g‘ri va ravon ifodalashda muhim omildir.

### III b o b

## GRAMMATIKA. MORFOLOGIYA VA SINTAKSIS

### GRAMMATIKANING TA'RIFI

Soʻzlarni turli qismlarga boʻlish va soʻz shakllarini yasash va ularni biriktirish tartibi va gaplarni tuzish qoidalari haqidagi tilshunoslik fanining muhim boʻlimi *grammatika* (grekcha *gramma* — harf, *tike* — fan) deb ataladi. Grammatika haqida qadimiy Sharq va Gʻarb olimlari yaratgan asarlar mavjud boʻlib, ular asosan soʻz shaklini oʻzgartirish uchun xizmat qiladigan vositalarni (turli qoʻshimchalar, affikslarni) va gap tuzish tartib-qoidalarini bu boʻlimga kiritganlar. Oʻrta asrlarda jahon tillariga taalluqli boʻlgan umumiy (universal) grammatika yaratish gʻoyasi paydo boʻldi. Jumladan, 1660-yilda Por Royalda (Parij yaqinida) Lanselo va Arno “Ongli asosda tuzilgan umumiy grammatika”ni taklif etdilar. U qadimiy grek, lotin, oʻrta asr fransuz va qadimiy yahudiy tillari materiallari asosida tuzilgan edi. Lekin bu umumiy grammatika va boshqa falsafiy grammatika kitoblari jahondagi turli tillarda mavjud boʻlgan barcha xususiyatlarni qamrab olmadi. XIX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning vujudga kelishi natijasida turli tillardagi koʻpgina grammatik xususiyatlarni chuqurroq oʻrganish mumkin boʻldi. Endilikda grammatika tushunchasi va termini kengroq maʼnoga ega boʻlib, u tildagi barcha grammatik vositalarni, soʻzlarni kichik maʼnodor boʻlamlarga morfemalarga boʻlish va soʻz yasovchi hamda soʻz oʻzgartiruvchi turli qoʻshimchalar, affikslar (prefiks, infiks va postfikslar) va soʻzlarni biriktirish tartibi, gap qurilishida soʻz tartibi va gapning mazmun va maqsadiga hamda tarkibiga koʻra turlarga ajratish yoʻllarini ilmiy tadqiq qiluvchi tilshunoslik fanining boʻlimi boʻlib, amalda nutqimizda soʻzlarni biriktirish qoidalarining majmuidir. Grammatika ikki qismdan iborat: morfologiya va sintaksis. *Morfologiya* (grekcha *marphe* — shakl, *logos* — taʼminot) — soʻzlarning grammatik guruhlari, soʻz shaklining xususiyatlari, grammatik shakl, grammatik maʼno va grammatik kategoriyalarni oʻrganadi. Sintaksis (grekcha *syn* — birga,

*taxis* — qurilish) soʻzlarni birlashtirish yoʻli bilan gap tuzish va binobarin, gap ifodalagan fikrni toʻgʻri va aniq mazmunda yetkazish yoʻllarini oʻrganadi. Morfologiya sintaksisga boʻysunadi. Chunki morfologiya alohida soʻzlarning shakllari, tilning eng kichik maʼnodor birligi hisoblanuvchi morfemalarning turlarini oʻrgansa, sintaksis soʻz birikmalari va gap tuzishda ularning shakl va mazmun jihatlarini mutanosib ravishda qaraydi.

Grammatika qoʻyilgan maqsadiga koʻra **nazariy** va **amaliy** boʻladi. Biror tilning grammatikasini ilmiy tadqiq etish — nazariy grammatika, xalqni savodga oʻrgatish uchun oliy, oʻrta va boshlangʻich maktablarda va umuman barchaga moʻljallangan amaliy grammatika farqlanadi.

Jahon tillaridagi grammatik xususiyatlarni ilmiy oʻrganuvchi — **umumiy grammatika** va turli qarindosh yoki qarindosh boʻlmagan tillardagi grammatik alomatlarini chogʻishtirib oʻrganuvchi **qiyosiy-tipologik grammatika** farqlanadi.

Ilmiy jihatdan grammatika falsafaning tafakkur, mantiqning hukm boblari bilan bogʻlanadi.

**Tilning grammatik sistemasi** undagi barcha grammatik vositalarning maʼjmui hisoblanadi. Tilning grammatikasiga oid barcha vositalarning ichki bogʻlanishlari qanday tarzda ekanligi uning **strukturasini** tashkil etadi.

Tilni alohida sistema tarzida qarab, uning grammatik sistemasi va strukturasini chuqur oʻrganish uchun har bir grammatik xususiyatning shakl va mazmun jihatini chuqur tadqiq etish lozim.

## GRAMMATIK MA'NO VA GRAMMATIK VOSITA

**Soʻz** — umumlashtiruvchi maʼnoga ega. Masalan, “paxta” soʻzi ham koʻchat, ham undan olingan mahsulotni ifodalaydi. Bu uning aniq maʼnolari. Lekin “paxta” soʻzi “koʻchat” va “mahsulot”larning barcha turlarini atashi uning umumlashtiruvchi maʼnosidir. Biroq bu soʻzga -kor yasovchi suffiksini qoʻshilsa — “paxtakor”, yaʼni paxta ekish va uni yigʻib-terib oluvchi shaxsning kasbini koʻrsatadi. “Paxtakor” soʻziga yana beshta qoʻshimcha va suffikslar qoʻshish mumkin: paxtakor-lar-i-miz-da-gi. Bunda -lar — koʻplik shaklini koʻrsatuvchi

qo‘shimcha, -i — egalik shaklini ifodalovchi qo‘shimcha, -miz — shaxs-son qo‘shimchasi, -da — o‘rin-payt va -gi — chiqish kelishiklari qo‘shimchalari hisoblanadi.

“Paxtakor” so‘zidagidek -kor suffiksi yordamida yasalgan bunyodkop, lavlagikor kabi shaxsning kasbini ifodalovchi so‘zlar mavjud.

Binobarin, -kor suffiksi yordamida yasalgan so‘zlar guruhi va ularni har biridagi umumiy ma‘no grammatik ma‘no hisoblanadi. So‘zlarning grammatik ma‘nosini ifodalay oluvchi maxsus til vositalari qatoriga otlarda qo‘llanuvchi kelishik, son, egalik, shaxs, son, mayl kabilarni ifodalovchi qo‘shimchalar kiradi.

Grammatik ma‘no o‘z mazmuniga ega bo‘lib, bir guruhda-gi barcha so‘zlarning biror belgisini ko‘rsatadi va binobarin, umumiylik xususiyatiga ega.

Grammatik ma‘no leksik ma‘noga qaraganda ancha mavhumroq ekanligi uning biror guruhdagi so‘zlarning umumiy belgisini ifodalashi bilan izohlanadi.

Grammatik ma‘noni grammatik vositalarsiz aniqlab bo‘lmaydi. Masalan, maktabni, maktabga, maktabda kabi so‘z shakllarini qiyoslaganda, ulardagi kelishik qo‘shimchalari yoki bordi, boradi, bormoqchi kabi fe‘l shakllarini qiyoslasak, ulardagi zamonga tegishli qo‘shimchalar grammatik ma‘noni ifodalovchi vositalar hisoblanadi.

Bir so‘zning turli shakllari o‘z grammatik ma‘nosiga ega. Odatda bir so‘z doirasidagi turli shakllar, masalan, kitobda, kitobga, kitobni kabilar, shu *so‘zning paradigmasi* (grekcha *paradigma* — andoza, nusxa, model) deyiladi.

Grammatik ma‘noni izohlashda so‘z paradigmasidagi shu so‘z shakllarini ifodalovchi grammatik vositalarni hisobga olinadi.

## GRAMMATIK KATEGORIYA

Grammatik ma‘no va grammatik shaklning birikuvidan vujudga kelgan umumiy tushunchalarni ifodalovchi tildagi xususiyatlar grammatik kategoriya deb yuritiladi. Kategoriya tushunchasi (grekcha kategoria) narsalarga tegishli xususiyatlar ma‘nosini ifodalaydi. Grammatik kategoriya bir yo‘la gram-

matik ma'no va grammatik shaklni qamrab oluvchi tushuncha bo'lib, turli tillarda soni va xususiyatlari bilan farq qiladi.

So'zlarning shakli va ma'no jihatiga ko'ra tildagi sintaktik funksiyasi belgilanadi. Grammatik kategoriya tushunchasi grammatik ma'nolarning butun bir guruhini qamrab oladi.

Grammatik kategoriya loaqal ikkita grammatik ma'noni o'z ichiga oladi. Masalan, otlarga tegishli birlik va ko'plik shakllarini qiyoslash mumkin. Bitta grammatik ma'no hech vaqt grammatik kategoriyaga ega bo'la olmaydi.

Otlarga tegishli bo'lgan kelishik, son, rod (rus tilida), aniqlik-noaniqlik (yordamchi so'z turkumi hisoblanuvchi artikl bo'lgan tillarda) grammatik kategoriyalari turli tillarda mavjud. Jumladan, turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida otlarga tegishli son, kelishik, egalik kategoriyalari bor, biroq rod va aniqlik-noaniqlik; kategoriyalari yo'q. Ingliz tilida son, kelishik va aniqlik-noaniqlik kategoriyalari mavjud, lekin rod va egalik kategoriyalari yo'q.

Rus tilida esa, rod, son, kelishik kategoriyalari bor, egalik va aniqlik-noaniqlik kategoriyalari yo'q. Bular barchasi otlarga tegishli grammatik kategoriyalardir. Rod kategoriyasi hind-ovrupo tillari oilasi german va roman guruhlaridagi tillarning ko'pchiligida yo'qolgan, lekin ba'zilarida, xususan, nemis tilida uchta rod, fransuz tilida ikkita rod saqlanib qolgan, ingliz tilida esa yo'q.

Grammatik kategoriyalar fe'llar va sifatlarga ham tegishlidir. Fe'llarga tegishli grammatik kategoriyalarga zamon, mayl, aspekt, tus (vid) kabilar kiradi. Sifatlarga tegishli grammatik kategoriya ularning oddiy, chog'ishtirma va orttirma darajasida ifodalangan: oq, oqroq, oppoq (juda oq yoki oppoq) kabi.

### GRAMMATIK KATEGORIYALARNING IFODALANISH USULLARI

Grammatik kategoriyalar asosan ikki turli bo'ladi: sintetik va analitik.

**Sintetik usul** (grekcha synthesis — qo'shish, birga yig'ish) bilan grammatik kategoriyaning ifodalash aynan so'zning grammatik shaklida aks etadi. Masalan, so'zga kelishik, son va ega-

lik qo'shimchalarini qo'shish yordamida shu so'zning shakli o'zgaradi.

Bu qo'shimchalarni, odatda, affiksial morfemalar sifatida qaraladi. So'zning ko'plik shaklini -lar affiksial morfemasi yordamida (kitoblar, gullar, qalamlar kabi) egalik kategoriyasini -im, -i, -ing qo'shimchasi orqali (uning kitobi, sening kitobing, ularning kitobi kabi), kelishik qo'shimchalarining (-ni, -ning, -ga, -da kabilar) yig'indisi shu kategoriyani bildiradi. Bu kategoriyalarning ifodalanish usuli faqat so'zlarga turli qo'shimchalarni, ya'ni affiksial morfemalarni qo'shish yordamida amalga oshirilgan, ularda boshqa yordamchi vositalar yoki so'zlar ishtirok etmagan. Shu sababli ularni sintetik usul bilan ifodalangan **grammatik kategoriyalar** deb ataladi.

Analitik usul bilan ifodalangan grammatik kategoriyalarda yordamchi vositalar yoki so'zlar ishtirok etadi. Masalan, o'zbek tilida sifat darajalarining orttirma darajasi juda so'zi yordamida yasaladi: kuchli (oddiy daraja), kuchliroq (solishtirma daraja) — sintetik usul bilan juda kuchli (orttirma daraja) — analitik usul bilan ifodalangan. Fe'ning o'tgan zamon kategoriyasi o'zbek tilida sintetik (U keldi. Men bordim kabi) va analitik (U borib keldi. Men yozib oldim kabi) usulda ifodalanishi mumkin.

Ingliz va nemis tillarida fe'llarning majhul nisbatini va turli o'tgan va kelasi zamon shakllarini ifodalash uchun analitik usuldagi grammatik kategoriyalar juda ko'p qo'llanadi:

I have gone — Men bordim.

I have been given — Menga berishdi.

She will go — U boradi.

We shall be studying — Biz o'qiyotgan bo'lamiz.

Grammatik kategoriyalarda sintetik va analitik usullardan qaysisini ko'proq ifodalanishiga ko'ra morfologik jihatdan sintetik va analitik tillar farqlanadi. Lekin bunday usullar o'rtasida aniq chegara yo'q.

Sintetik va analitik usullar bir tilda mavjud bo'lsa ham, ulardan qaysi biri ko'proq qo'llanishiga qarab bir tilni analitik, boshqa birini sintetik til deb tasnif qilamiz. Shu jihatdan xitoy, koreys, vyetnam tillari sintetik, ingliz, fransuz, grek, bolgar tillari analitik tillar hisoblanadi.

## SO‘ZNING MORFOLOGIK TARKIBI. MORFEMA

So‘zlarning ma’no jihatini hisobga olib ularning tarkibida o‘zak, ya’ni asosiy leksik ma’nosini ifodalovchi qismi va shu so‘z ma’nosini aniqlashtirib beruvchi affikslarni ajratamiz. Masalan, paxtakorlar — paxta shu so‘zning o‘zagi, -kor kasbni ko‘rsatuvchi, undan boshqa so‘z yasovchi affiks va -lar ko‘plik shaklini ifodalovchi affiks. Affiks (lotincha *affix* — qo‘shiluvchi) so‘zni yasash va uning shaklini o‘zgartirishda qo‘llanuvchi barcha vositalarning majmuidir. Affikslar so‘zdagi o‘rni va tildagi bajaradigan vazifasiga ko‘ra tasnif etiladi. So‘zdagi o‘rniga ko‘ra affikslar uch turli bo‘ladi:

1) so‘zning o‘zagidan oldin qo‘shiluvchi — prefiks (bemalol, bama’ni kabi);

2) so‘zning oxiriga qo‘shiluvchi postfiks (ko‘payish, kelmoq, sezgir kabi);

3) so‘z o‘zagi va boshqa qismini ulash uchun uning o‘rtasiga qo‘shiluvchi -infiks (ishqiboz, gultojixo‘roz kabi).

O‘zbek tilida asosan postfikslar ko‘proq qo‘llanadi, unda prefiks va infikslar faqat chet tillardan olingan so‘zlardagina qo‘llanadi. Postfikslarni odatda suffiks (lotincha postfix -orqaga qo‘shilgan) yoki qo‘shimcha deb ataladi. Tildagi bajaradigan vazifasiga ko‘ra affikslar so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi turlarga bo‘linadi. Masalan, -kor, -chi suffikslari kasbni ko‘rsatuvchi so‘zlarni yasaydi: paxtakor, shifokor, xizmatchi, to‘qimachi, baliqchi kabi.

So‘z o‘zgartiruvchi affikslar tilda so‘zlarni bir-biriga birlashtirish uchun, ya’ni so‘z birikmalari va gap tuzishda xizmat qiladi: kitob javoni, uning daftari, qishloqdagi hovlimiz. Universitetimiz talabalarining barchasi xorijiy tillarni chuqur o‘rganmoqdalar.

Affikslar tilda ko‘p yoki kam qo‘llanishiga ko‘ra mahsuldor va nomahsuldor bo‘lishi mumkin.

So‘zni ma’nodor qismlarga bo‘lish mumkin. So‘zning o‘zagi va affikslari uning ana shunday ma’nodor qismlaridir. So‘zning o‘zagi va undagi barcha turdagi affikslarni umumiy tushuncha bilan ifodalab, uni morfema (grekcha morphe — shakl) deb ataymiz. Morfema — tilning eng kichik ma’nodor birligidir.

*Soʻzning oʻzagi* — oʻzak morfema va undagi barcha affiksalar, yaʼni prefiks, infiks, postfiks — *suffikslar*, turli qoʻshimchalar *affiksial morfemalar* deb ataladi. Hech qanday qoʻshimchaga ega boʻlmagan alohida soʻz, masalan, gul, koʻz, yoz, kitob soʻzlari *bir morfemali soʻzlardir*. Kitobxon, kutubxona, fidokor kabi soʻzlar ikki morfemali hisoblanadi. Shuningdek, tala-balarimizdan, bogʻlarimizdagi soʻzlari koʻp morfemali, yaʼni bir oʻzak morfema va bir necha affiksial morfemalardan tashkil top-gan.

Turli tillarda bir morfema har xil variantiga ega boʻlishi mumkin. Oʻzbek adabiy tilida bu xususiyat yoʻq.

### TILNING GRAMMATIK VOSITALARI

Soʻz oʻzgartirish va soʻz yasash qoidalari va grammatik kon-struksiyalarni tuzishda qoʻllanadigan usullari majmuini *tilning grammatik vositalari* deb yuritiladi. Bu tartib-qoidalar yigʻindisi tilning grammatik (aniqrogʻi morfologik) turini aniqlashda yor-dam beradi. Jahondagi tillar grammatik vositalarning qaysi biri-ni koʻproq qoʻllashi va bu vositalardan qaysinisi shu tilda borli-gi bilan farqlanadi. Turkiy tillari affiksatsiyaning koʻp qoʻllanishi bilan ajralib tursa, vyetnam tilida affiksatsiya deyarli yoʻq, xitoy tilida juda kam uchraydi.

Grammatik maʼnolarni ifodalashda ishtirok etuvchi vosita-lar barcha tillarda bor, lekin ularning miqdori chegaralangan, bu vositalar qatoriga affiksatsiya, ichki fleksiya, reduplikatsiya, soʻzlarni qoʻshish, urgʻu, intonatsiya, yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi va suppletivizm kiradi. Ularning har birini alohida koʻrib chiqamiz.

1) *Affiksatsiya* — soʻzning oʻzagiga yoki asosiga turli affiks-larni (prefiks, infiks, suffiks, fleksiya yoki qoʻshimchalar) qoʻshish yordamida grammatik maʼnoni ifoda qilish vositasidir. Turkiy tillarda, xususan oʻzbek tilida prefiks faqat boshqa tillar-dan oʻtgan soʻzlarda uchraydi. Masalan, oʻzbek tilida tojik tili-dan olingan be- (bemalol, beminnat kabi), bo- (boadab), baʼzan ba- shaklida (badavlat) prefikslari koʻp qoʻllanadi. Oʻzbek tilida -gina suffiksi erkalash va kichraytirish maʼnolarini ifodalaydi: yaxshigina, kichkinagina, shiringina kabi. Kelishik qoʻshim-chalari, koʻplik qoʻshimchasi va feʼl shakli, zamoni va hokazo



qo‘shimchalar grammatik ma‘noni ifodalashda keng qo‘llanadi. Affiksatsiya ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillarda ko‘p tarqalgan.

2) **Ichki fleksiya** — so‘zning o‘zagi ichida unlilarning o‘zgarishi yoki tovushning yo‘qolishi. Turli grammatik vositalarni hosil qilishda va yangi so‘zlar yasashda ichki fleksiya ishtirok etadi. Ichki fleksiya tashqi fleksiyadan, ya‘ni so‘z o‘zagining oxiridagi grammatik ko‘rsatkichlardan, masalan, son va kelishik kategoriyalari qo‘shimchalaridan farq qiladi. Ichki fleksiya semit tillariga, xususan, arab tiliga xosdir. Masalan, k-t-b o‘zagidan (“yozmoq”) ichki fleksiya vositasida kataba (“u yozdi”), kutuba (“u yozilgan”), kotibun (“yozuvchi”, “xattot”), kitabun (“yozilgan”). Ichki fleksiya yordamida kelishik shakllari yasaladi. Rus tili ichki fleksiyaga boy bo‘lib, unda unlilarning almashinuvi ko‘p uchraydi. Masalan, лежать, лёжа, ложиться, ходить, хождение, ход, ходячий kabi.

3) **Reduplikatsiya** (lotin tilidagi *reduplicare* — “ikkilantirmoq”) — so‘z, uning o‘zagi yoki boshlang‘ich bo‘g‘inini qaytarish vositasida grammatik ma‘noni ifodalashdir. U juda ko‘p tillarda mavjud. Qaytarish yo‘li bilan so‘zlarning ma‘nosi kuchayishi mumkin: ko‘m-ko‘k, qop-qora, sap-sariq kabi. Indonez tilida so‘zlarni qaytarish vositasida ko‘plik ifoda etiladi: sudara — “o‘rtoq”, sudara-sudara (sudara2) — “o‘rtoqlar”, malaya tilida orang — “inson, kishi”, orang-orang — “insonlar, kishilar” kabi.

4) **Qo‘shish** — so‘zlarni va ularning elementlarini yangi so‘z yasash uchun birlashtirishdir. Masalan, o‘zbek tilida gultojixo‘roz, karnaygul, ishlab chiqarish, ishyoqmas kabi so‘zlar ikki yoki uch so‘zning qo‘shilishidan yasalgan. Odatda bunday so‘zlarni **qo‘shma so‘zlar** deb ataladi. Ba‘zi qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismi turli affikslarni qabul qiladi va o‘zgarishlarga uchraydi: hokimiyat, saryog‘ (sarig‘ yog‘ birikmasining qisqargani), bugun — bul kun birikmasining qisqargani) va h.k. Ko‘pgina qo‘shma so‘zlar va so‘z birikmalari qisqartma so‘zlar shaklida qo‘llanadi: AQSH, mexmat (Mexanika-matematika fakulteti), O‘zMU, OAK (Oliy Attestatsiya Komissiyasi) kabi.

5) **Yordamchi so‘zlar** — sirasiga shunday so‘zlar kiradiki,

ular gapda biror bo'lak vazifasini bajarmaydi, lekin gapning mustaqil bo'laklari bo'lib kelgan so'zlarning grammatik ma'noni ifodalashiga yordam beradi. Yordamchi so'zlar biror narsani atamaydi, ya'ni nominativ funksiyani bajarmaydi. Yordamchi so'zlarga artikl, predlog (rus, ingliz, nemis va boshqa tillarda), yuklama, yordamchi fe'llar va bog'lovchilar kiradi. Artikl otning belgisi bo'lib, uning turlanishi, qaysi rodga tegishli ekanini ko'rsatadi. Masalan, nemis tilida *der, das, die* artikllarining qo'llanishi otlarning rodiga bog'liq. Otning turlanishiga ko'ra nemis tilida artiklning shakli o'zgarishi mumkin:

bosh kelishik — *der Mensch* (odam)

qaratqich kelishigi — *des menschen*

tushum kelishigi — *dem menschen*

chiqish kelishigi — *den Menschen*

Predloglar gap bo'laklari o'rtasidagi aloqalarni aniqlashtirib turuvchi yordamchi so'zlardir. Masalan ingliz tilida *to school* — maktabga, *at school* — maktabda, *from school* — maktabdan, shuningdek rus tilida *в школе, из школы, по школам* kabi. Bog'lovchilar gap va so'zlarni bog'lash uchun xizmat qiladi: kitob va daftar, aka bilan uka, bahor keldi va gullar ochildi kabi. Ing'liz, nemis, fransuz va rus tillarida ham bog'lovchilar so'z va gaplarni bog'lashda qo'llanadi. Yordamchi fe'llar o'z ma'nosini yo'qotgan, lekin fe'ning boshqa zamon, aspekt va darajasini ko'rsatuvchi vosita sifatida qo'llanadi. Rus tilidagi *быть* ingliz tilidagi *be, have, shall, will, — should, would* yordamchi fe'llari ko'p qo'llanadi.

6) **So'z tartibi** so'zlarga yangi ma'no beruvchi va gapning mazmunini o'zgartiruvchi vositadir. Gaplarda so'z tartibi ayniqsa affiksatsiya kuchsiz bo'lgan tillarda, jumladan, ingliz va fransuz tillarida katta ahamiyatga egadir. Ingliz tilida ot va sifatlardagi affikslar unchalik farqlanmasligi tufayli ularning gapdagi o'rniga ko'ra farqlash mumkin. Masalan, *the arrived people* — kelgan odamlar (sifat), *the people arrived* — Odamlar keldi(fe'l). *The arrived are the tourists* — Kelganlar turistlardir (ot).

Gapda so'zlarning tartibiga ko'ra gap bo'laklari va bu so'zlarning o'zaro aloqasi aniqlanadi. Hind-ovrupo tillarida so'z tartibi erkin hisoblanadi, ya'ni ko'pincha gapdagi so'zlarning

oʻrnini almashtirish mumkin. Masalan, The boys walked slowly up the hill — Bolalar vodiy tepasiga sekin chiqdilar. Slowly the boys walked up the hill — Sekin bolalar vodiy tepasiga chiqdilar. Up the hill slowly walked the boys! — Vodiy tepasiga sekin bolalar chiqdilar. Bu misolni oʻzbek tiliga tarjimasidan koʻrinib turibdiki, bu tilda ham soʻz tartibi erkin hisoblanadi. Bu, ayniqsa, sheʼrlarda yaqqol namoyon boʻladi.

Baʼzi tillarda, xususan, hind, xitoy, vyetnam, indonez tillarida gapda soʻz tartibini oʻzgartirish katta ahamiyatga ega boʻlib, bu tillarda affiksatsiya grammatik maʼnoni ifodalash vositasi sifatida qoʻllanilmaydi. Affiksatsiya kuchli boʻlgan tillarda gapda soʻzlar tartibi unchalik ahamiyatli emas. Gapda soʻz tartibining oʻzgarishi stilistik va mantiqiy jihatdan ahamiyatli boʻlishi mumkin.

*Urgʻu* soʻzlarning grammatik maʼnosyni farqlay oluvchi vosita boʻlib xizmat qilishi mumkin. Hind-ovrupo tillarida soʻzlar va soʻz shakllari urgʻuning oʻrniga koʻra grammatik maʼnolari bilan farqlanadi. Masalan, rus tilida мука́-ун, му́ка — azob, рукá (род.п.ед.ч.) qoʻl — ру́ки (имен.п. множ.ч.). Ingliz tilida present — sovgʻa, present — hozir boʻlmoq, import — import (ot), to import — import qilmoq. German, turkiy, hind tillarida urgʻu soʻzlarning grammatik maʼnolarini ifoda qilishda kamroq qoʻllanadi. Masalan, oʻzbek tilida olma (meva) — olma (feʼlning buyruq shakli), atlas (mato) — atlas (xarita kitob) kabi urgʻuning oʻrniga koʻra farqlanuvchi soʻzlar juda kam.

*Intonatsiya*, ayniqsa, uning asosiy komponenti boʻlgan melodiya (ohang) grammatik maʼnoni ifodalashda xizmat qiladi. Masalan, U keldi (tushuvchi ohang — darak gapda), U keldi? (koʻtariluvchi ohang — soʻroq gapda), U keldi!(ancha baland ohang — undov gapda) va soʻzlovchining his-hayajon, ehtirosini ifodalovchi past yoki baland ohang qoʻllanishi mumkin. Musiqiy ohangga ega boʻlgan tillarda (xitoy, tay, vyetnam, koreys) ohang grammatik maʼnoni farqlashda koʻproq xizmat qiladi. Masalan, Alyaskadagi takelama qabilasi tilida “hi1a” soʻzi tushuvchi ohang bilan aytilsa “qoʻshiq”, koʻtariluvchi

---

<sup>1</sup> Misol quyidagi kitobdan olindi: Лайонз Джон. Введение в теоретическую лингвистику. М., “Прогресс”, 1978, с. 216.

ohangda talaffuz etilsa, “qo‘shiq aytmoq” (fe‘l) ma‘nosini ifodalaydi.

### GRAMMATIK MA‘NOLARNI IFODALOVCHI SINTETIK VA ANALITIK VOSITALAR SINTETIK VA ANALITIK TILLAR

Tillardagi grammatik ma‘nolar sintetik va analitik vositalar yordamida ifodalanadi. *Sintetik* (grekcha *synthesis* — birga yig‘moq) usul grammatik ma‘noning so‘zning tarkibida ifodalanishi va bir yo‘la so‘z o‘zining leksik ma‘nosi va grammatik ma‘nosini qamrab olishi bilan izohlanadi. Grammatik ma‘nolarni ifodalovchi sintetik vositalarga reduplikatsiya (takror), urg‘u, affiksatsiya, ichki fleksiya kabilar kiradi. Masalan, xizmat-chi-lar-i-miz-da-gi so‘z shaklida *-chi* — so‘z yasovchi affiks, *-lar* — ko‘plik qo‘shimchasi, *-i* — egalik affiksi, *-miz* — 1-shaxs ko‘plik shakli, *-da* — o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi, *-gi* — shaxsga tegishli affiks mavjud. Bu so‘z shaklida bir yo‘la uning leksik ma‘nosi (xizmat) va grammatik ma‘nolari (turli affikslar yordamida) o‘z ifodasini topgan.

Grammatik ma‘noni analitik yo‘l bilan ifodalashda (grekcha *analysis* — bo‘lakka bo‘lish, qismlarga ajratish) so‘zning leksik ma‘nosi bir so‘z bilan ifodalansa, uning grammatik ma‘nosi boshqa so‘z orqali beriladi va har ikki so‘z bir grammatik shaklga tegishli bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida ko‘plik shaklini ifodalovchi shall go, will do fe‘l shakllarida shall/will kelasi zamonni ifodalashda qo‘llanuvchi yordamchi fe‘llar hisoblanadi, go, do fe‘llari mustaqil ma‘noga ega bo‘lgan fe‘llardir. Lekin ularning har ikkisi bir grammatik ma‘no, ya‘ni kelasi zamon shakliga tegishlidir. Sifatlarning qiyosiy darajalarini ifodalashda yaxshi — oddiy darajani va yaxshiroq — ortirma darajani sintetik yo‘l bilan ifodalaydi, lekin bu sifatning kuchaytirma darajasi juda kuchli shaklida analitik yo‘l bilan ifodalangan. Turli tillarda bir yo‘la sintetik va analitik yo‘l bilan grammatik ma‘noni ifodalash mumkin. Lekin ularning qaysinisi ko‘proq qo‘llanishiga ko‘ra, ya‘ni sintetik vositalar ko‘proq ishlatilsa bu tilni sintetik, analitik vositalar ko‘proq qo‘llansa, analitik til deb ataladi. Shu jihatdan qadimiy tillardan bo‘lgan lotin, sanskrit, qadimiy slavyan, qadimiy grek tillari sintetik tillar hisoblanadi.

Ingliz, fransuz, bolgar, hozirgi grek va hind tillari analitik tillardir.

## SO‘Z TURKUMLARINING TASNIFI

So‘zlarni yirik alohida grammatik guruhlariga ajratish yordamida so‘z turkumlari aniqlangan. So‘zlar grammatik jihatdan leksemalar yoki so‘z shakllari sifatida qarama-qarshi qo‘yiladi. So‘zlarni grammatik jihatdan leksemalar sifatida qarama-qarshi qo‘yilganda, ularni tasnifiy yoki leksik-grammatik kategoriyalar sifatida qaraladi. Biroq so‘zlarni so‘z shakllari sifatida qarama-qarshi qo‘yilganda, ularning so‘z o‘zgartiruvchi yoki shakl yasovchi kategoriyalari aniqlanadi. Tasnifiy kategoriyalarga so‘z turkumlari kirsam, shakl yasovchi kategoriyalarga son, kelishik, egalik kategoriyalari kiradi. Grammatik kategoriya na faqat tasnifiy, balki shakl yasovchi kategoriya sifatida grammatik ma‘no bilan grammatik shaklni birga mujassam etadi.

So‘z turkumlari o‘zining mazkur tildagi grammatik belgilari bilan ajratiluvchi so‘zlarning yirik guruhlari hisoblanadi. Turli so‘z turkumlariga kiruvchi so‘zlar o‘zlarining paradigmasi yoki sintaktik vazifasi bilan ajralib turadi va bu tasnifning asosini tashkil etadi. So‘z turkumlarini aniqlash tildagi turli birliklarni tahlil etishda yordam beradi. So‘zlarni tasnif etish — tildagi lug‘atni grammatik jihatdan yirik guruhlariga ajratishdir. Lug‘atdagi so‘zlarning grammatik xususiyatlarini hisobga olib, so‘z turkumlari tasnif etiladi. Biroq tasnifda bir guruhdagi so‘zlarni boshqa guruhga kiritish mumkin emas. Har bir so‘z faqat bir guruhga tegishli bo‘lib, boshqa ikkinchi guruhga yoki bir necha guruhlariga kiritilishi mumkin emas. Agar biror so‘z ikki guruhga (so‘z turkumiga) tegishli bo‘lgan belgilarga ega bo‘lsa, unda uchinchi boshqa bir guruh borligidan darak beradi. Masalan, ot bilan sifat bir turdagi belgiga ega emas. Lekin sifat va ravish bir xil belgiga ega bo‘lishi mumkin. Sifat otning belgisi bo‘lsa, ravish harakatning belgisi hisoblanadi. Turli ish-harakatlarni ifodalovchi so‘zlar alohida grammatik guruhni, ya‘ni fe‘lni tashkil etadi. So‘zlarni tasnif etish leksemalarni leksik-grammatik guruhlariga ajratish natijasidir. Lekin bu tasnif

soʻz shakllarining tasnifini oʻz ichiga olmaydi. Shu sababli tasnifga asos qilib olingan belgilarning soʻzning barcha shakllari uchun umumiy yoki uning ayrim shakllariga xos ekanligini hisobga olmoq zarur. Xususan, koʻpgina tillarda otlar turlanadi, feʼllar esa tuslanadi. Lekin sifatdosh soʻzning bir shakli sifatida bir yoʻla feʼl va sifat belgisiga ega ekanligi natijasida alohida soʻz turkumi ajratilmaydi, balki feʼlning bir shakliga xos paradigma hisoblanadi.

Har bir tasnif grammatik — morfologik, sintaktik va boshqa belgilarga asoslanadi. Masalan, xitoy, koreys, vyetnam, kxmer, tay va boshqa tillarda feʼl va sifat ancha yaqin. Shu sababli xitoy tilida sifat va feʼl alohida predikativ guruhini tashkil etadi va ularning har ikkisi sintaktik jihatdan kesim vazifasini bajaradi va feʼlga tegishli qoʻshimchalarni qabul qiladi. Shu sababli predikativ xitoy tilida alohida soʻz turkumi hisoblanadi.

Soʻzlarning guruhlarini ularning turli sintaktik oʻrinlarida qoʻllanishi jihatdan qarash mumkin. Har bir mustaqil soʻzga boʻysunuvchi boshqa soʻzlar qoʻllanish oʻrnini izohlaydi. Masalan, juda katta soʻz birikmasida katta asosiy soʻz, juda unga boʻysunuvchi soʻz boʻlsa, maktabga bormoq soʻz birikmasida bormoq asosiy soʻz, maktab unga tegishli soʻzdir. Soʻzlarning belgilari ularning matnda qoʻllanishini chuqur oʻrganish natijasida oydinlashadi. Binobarin, har bir soʻz turkumiga xos soʻzlarning boshqa — qaysi guruhdagi soʻzlar bilan birika olishi va ularning qoʻllanish qoidalarini aniqlash zarur. Har bir soʻz turkumi oʻziga xos semantik belgilari bilan ajralib turadi, lekin soʻz turkumlarining tasnifida semantik belgilar asosiy emas. Chunki shunday soʻzlar borki, ular ikki-uch soʻz turkumiga xos belgilari bilan ajralib turadi. Masalan, sargʻaygan, yugurish soʻzlari semantik jihatdan alohida jarayonga tegishli boʻlib, ayni vaqtda grammatik maʼnosi bilan ajralib turadi, yaʼni sargʻaygan soʻzi sifatdosh — narsaning belgisini bildiradi, yugurish — harakat nomini (feʼlning bir shakli) ifodalaydi.

Soʻz turkumlari morfologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, har bir soʻz turkumi oʻziga xos affikslari va soʻz yasovchi vositalariga egadir.

Soʻz turkumlari oʻziga tegishli grammatik kategoriyalari

bilan farq qiladi. Masalan, otlar kelishik, shaxs, son, egalik, aniqlik, mavhumlik kabi turli kategoriyalarga ega. Fe'llar zamon, mayl, nisbat, shaxs va boshqa kategoriyalarga egadir.

## ASOSIY SINTAKTIK XUSUSIYATLAR

### GAP

Siktaksis soʻzlar va ularning guruhlarini oʻrtasidagi sintagmatik munosabatlarni oʻrganadi. Bu munosabatlar sintaktik jihatdan, avvalo, soʻz tartibi, morfologik jihatdan (masalan, kelishik qoʻshimchalari) va fonologik jihatdan intonatsiya yordamida ifodalaniishi mumkin. Barcha tillarda soʻzlar oʻzaro birikadi va bu alohida tartib-qoida asosida roʻy beradi. Sintaksis eng kichik soʻz birikmalaridan tortib, kattaroq boʻlgan turli oʻlchovdagi gaplar (sodda va qoʻshma gaplar) va eng kattasi boʻlgan matnni ham oʻrganadi. Nazariy jihatdan sintaksisga turli qarashlar matn, soʻz birikmasi va gaplarning tarkibi va ayniqsa, mazmun tomoniga katta eʼtibor berish hozirgi tilshunoslikda ancha rivojlangan. Sintaktik tahlil uchun zarur boʻlgan umumiy tushuncha va metodlarni koʻrsatib oʻtamiz.

Avvalo konstruktsiya tushunchasiga izoh beramiz. Konstruktsiya oʻzaro bogʻlangan soʻz yoki soʻzlar guruhlarini oʻrtasidagi birikuvdir. Masalan, Biz yangi koʻrgazmaga bordik — gapining oʻzi bir konstruktsiya. Biz bordik — alohida konstruktsiya, koʻrgazmaga bordik — yana bir konstruktsiya hisoblanadi. Lekin bu konstruktsiyalarda soʻzlarning bogʻlanishi turlicha boʻlishi mumkin. Bu bogʻlanish valentlik tushunchasi bilan bogʻlanadi. Valentlik tildagi bir elementning boshqa element bilan bir til bosqichida birika olishini izohlaydi. Soʻzlarning oʻzaro birikishi ularning semantik jihatiga ham bogʻliqdir. Masalan, talabalar xorijiy tillarni chuqur oʻrgʻanmoqdalar gapida talabalar oʻrganmoqdalar birikmasi otning koʻplik shakli va feʼning hozirgi zamon koʻplik shakli bilan ifodalangan, xorijiy tillarni birikmasi tushum kelishigidagi ot va sifatning bogʻlanishi boshqa turdagi aniqlanuvchi + aniqlanmish valentligiga ega, chuqur oʻrganmoqdalar birikmasi holat ravishi va feʼning bogʻlanishi bilan ifodalangan. Nihoyat, bu gapdagi soʻzlarning

bogʻlanishi uch turli valentlik bilan ifodalangan. Bu bogʻlanishlarni boshqa bir tushuncha bevosita boʻlaklarga boʻlish metodi bilan tahlil qilamiz. Undagi talabalar chuqur oʻrganmoqdalar va xorijiy tillarni ikkita bevosita boʻlaklarni tashkil etadi. Oʻz navbatida boshqa bevosita boʻlaklar Talabalar oʻrganmoqdalar, chuqur va xorijiy tillarni boʻlishi mumkin. Ulardan birinchisini N+V (ot + feʼl), ikkinchisini Adj + N (sifat + ot) ravish (Adv) shaklida koʻrsatish mumkin. Odatda gapning tarkibida taksonomik va funksional birliklar farqlanadi. Taksonomik birliklar gapning tarkibida ishtirok etgan barcha soʻzlardan iborat. Funksional birliklar shunday taksonomik birliklar yoki ularning birikmasiga toʻgʻri keladiki, ular gapda aniq sintaktik funktsiya bajara oladi. Masalan, maktabga bordi gapida (u, maktabga, bordi) taksonomik birliklar boʻlsa, (u, maktab + ga, bor + di) funksional birliklardir.

Sintaktik funktsiya gap yoki soʻz birikmasining tarkibiga kirgan birlikning bajarayotgan vazifasini izohlaydi. Masalan, Turnalar baland uchmoqda gapida Turnalar — ega, uchmoqda — kesim, baland — hol vazifasini bajaradi va gapning aʼzolari hisoblanadi. Gapning aʼzolari funksional birliklar boʻlib, ularni grammatik tahlil qilish turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Gapdagi yoki konstruksiyadagi soʻzlarning oʻzaro aloqasini muvofiqlashtirib (koordinatsiya) turish sodda yoki ancha murakkab boʻlishi mumkin. Eng sodda konstruksiya N + V, yani Ahmad keldi (ot + feʼl) shaklida boʻlsa, boshqa turli konstruksiyalar ancha murakkab shakldadir. Bir konstruksiyani boshqasiga aylantirish transformatsiya deyiladi. Masalan, Komil aytdi, bola uxladi konstruksiyasi N + V boʻlsa, uning boshqa koʻrinishi, yaʼni transformatsiyasi V — N (Komilning aytgani, bolaning uyqusi) shaklida boʻladi.

Barcha tillarda sodda konstruksiyalar boʻlib, ular gapning shakliga toʻgʻri kelishi mumkin. Ana shunday oddiy konstruksiyalarni transformatsiya qilish natijasida juda murakkab struktural shakldagi gaplarni hosil qilish mumkin. Oʻzbek, rus va ingliz tillarida eng sodda gaplarning shakli quyidagicha boʻlishi mumkin:



N + V  
bosh moslashuv  
kelishik

Shuhrat keldi.  
Шухрат пришел.  
Shuhrat came.

V buyruq mayli

Kiring (marhamat).  
Заходите, (пожалуйста)  
Come in. (please).  
+ N (yoki A) bosh kelishik

N + V  
bosh moslashuv kelishik

U xursand.  
Он рад.  
He is glad.

U o'qituvchi bo'ldi.  
Она стала учителем.  
She became a teacher.

N bosh kelishik

Yong'in. Пожар. Fire.

Jahon tillarida N + V konstruksiyasi alohida ahamiyatga ega. Unda ot — ega, bajaruvchi shaxsni, fe'l — kesim, ish-harakatni ifodalaydi va u predikativ **konstruksiya** deb ataladi. Boshqa konstruksiyalarda ham ega va kesim shu tartibda aniqlanadi, lekin uning tarkibidagi boshqa bevosita tashkil etuvchilar o'z vazifasiga ko'ra tasnif etiladi. Jahondagi ba'zi tillarda predikativ konstruksiyani hosil qilish fe'lning turiga bog'liq. Xususan, ko'pgina kavkaz tillarida alohida **ergativ konstruksiya** mavjud bo'lib, unda bajaruvchi shaxsni ifodalovchi so'z ergativ kelishikda bo'ladi va ikkinchi o'rinni ish-harakat o'rnini ifodalovchi ot egallaydi. Ya'ni: K (erg) + N (bosh kel.) + V (moslashuv), fe'l o'timli bo'lsa: *nu — ni zuz buc — ul — ra — Men kitob o'qiyman*. Bunday ergativ konstruksiya boshqa tillarda ham mavjud. Umuman, predikativlik aloqasi gap uchun zarur belgidir. So'zlarning o'zaro nopredikativ aloqasi so'z birikmalariga tegishli xususiyatdir.

So'z birikmasi nopredikativ aloqaga asoslangan, teng huquq bo'lmagan mustaqil so'zlarning birikuvidir.

So'z birikmasining eng asosiy belgisi tushunchalarni yaxlit ifodalash, lekin o'zi turli bo'laklardan iborat bo'lishidir. Masalan, maktabimiz bog'i, ishning mazmuni, qiziqarli kitob, tosh ko'prik kabi. So'z birikmalari grammatik jihatdan mazkur tilning qoida-tartibiga asosan shakllangan holda bo'ladi. Undagi so'zlar o'rtasidagi aloqa turlicha ifodalanadi va shunga ko'ra so'z birikmalari tasnif etiladi.

Sodda soʻz birikmalari soʻzlar oʻrtasidagi asosiy aloqa turlari — moslashuv, boshqaruv va ergashuv aloqasi asosida bevosita birikadi. Bunday soʻz birikmalari asosan ikki aʼzodan iborat: qora qalam, osma koʻprik, katta baliq kabi. Murakkab soʻz birikmalari ikkidan ortiq soʻzlarning birikuvidan hosil boʻladi: bir piyola choy, traktor ishlab chiqarish zavodi kabi.

Soʻz birikmalarining aʼzolari oʻrtasidagi munosabatga koʻra, ular attributiv, narsaga tegishli (obyektiv) va aloqaga tegishli (relyativ) boʻladilar. Attributiv soʻz birikmasida asosiy soʻzning sifatini ifodalovchi tobe soʻz qoʻllanadi: qizil olma, qalin qor, qiziq hikoya kabi. Tobe soʻz biror narsani atasa va u asosiy soʻzga tegishli boʻlsa, narsaga tegishli (obyektiv) aloqadagi soʻz birikmasi deyiladi: roman yozmoq, maktabning kutubxonasi, bozorga bormoq kabi. Aloqani ifodalovchi (relyativ) soʻz birikmalarida tobe soʻz asosiy soʻz ifodalagan narsaning belgisini ifodalaydi: sekin gapirmoq, tez uchmoq, aʼlo oʻqimoq kabi.

Soʻz birikmalarida ishtirok etgan asosiy soʻzning xususiyatiga koʻra avvalo otlik va feʼllik soʻz birikmalari farqlanadi. Otlik soʻz birikmalarida asosiy soʻz ot bilan ifodalanadi: qizil olma, chiroyli koʻylak kabi. Feʼllik soʻz birikmalarida asosiy soʻz feʼl bilan beriladi: chiroyli yozmoq, yaxshi soʻzlamoq, baland uchmoq va h.k. Otlik soʻz birikmalarini obyektiv (asosiy soʻz — sifat), substantiv (asosiy soʻz — ot) ravishlik (asosiy soʻz — ravish) va olmoshlik (asosiy soʻz — olmosh) turlarga boʻlinadi: eng chiroyli, juda goʻzal (obyektiv), kechki ovqat, qiziq kitob (substantiv), biroz xira, ancha sunʼiy, (ravishlik), ularning barchasi, bizning hammamiz (olmoshlik) va h.k.

Turli tillarda soʻz birikmalarining umumiy xususiyatlari bilan birga boshqa xususiy jihatlari ham mavjud. Masalan, oʻzbek, rus va ingliz tillarida feʼllik soʻz birikmalari koʻproq uchraydi.

## IV b o b TILLARNING TASNIFI

### TILLARNING GENEOLOGIK QARINDOSHLIGIGA KO‘RA TASNIFI

Jahon tillarining tarixini o‘rganish hech qachon tamom bo‘lmaydi. Chunki hali tarixi o‘rganilmagan tillar juda ko‘p. Tillarning tarixini o‘rganishda asosan ikki turli metodlar qo‘llanadi. Birinchisi, mutlaq xronologiya deb atalib, bunday o‘zgarish qachon, qaysi asrda va qanday amalga oshirilganligi ancha aniq bo‘ladi.

	Lotin <sup>1</sup>	grek	Uels	Ingliz	Island	Dat
Olmoq	unus	oine	Un	one	einn	een
Ikki	duo	duo	Dau	two	tveir	twee
Uch	tres	treis	Tri	three	prir	drie

Tillarda ustivor elementlar va doimiy o‘zgarishlarga uchrab turuvchi elementlar mavjud. Xususan, shaxs va kelishik qo‘shimchalari ancha ustivor, biroq “bilan” bog‘lovchisi o‘zgaruvchan hisoblanadi: bilan — ila-la kabi. Tillardagi “oyoq”, “suv”, “ikki”, “quyosh”, “bermoq”, “yemoq” so‘zlarining o‘zagi juda ustivor, aksincha, “yaxshi”, “yomon”, “gapirmoq”, “yashin” so‘zlarining o‘zagi — ancha o‘zgaruvchan. Bunday farqlanish bu so‘zlarning ko‘p qo‘llanishi yoki zaruriy tushunchalar ekani bilan izohlanmaydi.

Insonning his-hayajoni so‘zlarning ifoda kuchini belgilaydi. Tilda ko‘p qo‘llanuvchi “yaxshi” va “yomon” so‘zlarining noustivorligi bunga misoldir. Ba‘zan semantic jihatdan yaqin bo‘lgan so‘zlar ham turlicha qo‘llanadi. Masalan, “o‘ng” so‘zi “chap” so‘ziga qaraganda ustivorroq, chunki “chap” so‘zi yomon hodisa va odatlar bilan bog‘liq. Bu so‘zlarning ma‘nolari aslida “qo‘l” ma‘nosi bilan bog‘liq: qadimiy fors, dasta “qo‘l”, avesto zasta “qo‘l”, qadimiy hindi daksina-, qadimiy slavyan desnitse

<sup>1</sup> Misol olingan manba: Phyles Th., Algeo F. The Origins and Development of the English language. 4-th edition. Harcourt Brace Jovanovich college publishers. 1993, p. 77.

“o‘ng qo‘l”, got taihsua “o‘ng”, irland dess “o‘ng”, nemis shevalarida tenk “chap”, ingliz left “chap”, qadimiy ingliz lof “qo‘l kafti”, right o‘ng rink, ruscha ruka. Bu sozlarda ramziy ma‘no insonning kelajagini uning qo‘liga qarab bashorat qila bilish mumkinligi bilan bog‘liqidir<sup>1</sup>. Yuqoridagi misollar bir til oilasi bo‘lgan hind-ovrupo tillari doirasidagi qarindoshlikni izohlaydi. Lekin bu o‘rinda ramziy ma‘no qarindosh bo‘lmagan tillarda ham o‘xshash bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilida ham “o‘ng” va “chap” so‘zlari “qo‘l” so‘zi bilan bog‘lanib, yaxshi va yomon, baxt va falokat ma‘nolarini ifodalaydi. Turli tillardagi so‘zlar va qo‘shimchalarni qiyoslash yordamida ulardagi tovushlarning o‘xshashligi va ba‘zi farqlarini aniqlash mumkin. Yuqoridagi misolda buni sezish mumkin. Lekin so‘zlarning ma‘nolari o‘rtasida farqlarni aniqlash ancha qiyin bo‘lib, bu o‘rinda qiyoslanayotgan so‘zlarning kelib chiqishidagi asl ma‘no va undan keyingi rivojlanishida yana qanday ma‘no kashf etganini etimologik jihatdan aniqlash lozim bo‘ladi.

Tillar bir-biriga tashqi ta‘sir o‘tkazadi. Bu ta‘sir ularning qarindoshligiga bog‘liq emas. Tillarning ginetik qarindoshligini aniqlash uchun ulardagi barcha o‘zlashgan elementlarni hisobga olmaslik zarur. Boshqa tillardan o‘zlashgan so‘z o‘zgartiruvchi affikslar juda kam yoki umuman qo‘llanmaydigan sohalar mavjud. Bir-biriga juda yaqin bo‘lgan tillar va shevalardan grammatik elementlar osonroq o‘zlashadi. Shuningdek, moddiy va madaniy sohalarga tegishli so‘zlar ham osonroq o‘zlashadi.

Turli metodlar yordamida tillarning qarindoshligini aniqlashga harakat qilinadi. Qirg‘iz qozoq bilan, rus ukrain yoki belorus bilan, fransuz ispan bilan muloqot qilsa, ularning tili bir-biriga ancha o‘xshash va binobarin qardosh ekanini yaxshi sezish mumkin. Muloqotda birorta so‘zining talaffuzi ham yaqin kela olmasligi mumkin, binobarin, bu tillar qarindosh emasligi sezilarlidir. Tarixiy jihatdan qarindosh tillar bir davomiy lisoniy an‘anaga asoslangan tillarning turli zamon va makondagi variantlaridir<sup>2</sup>. Bunday qarash falsafiy jihatdan

<sup>1</sup> Bu so‘zlarning boshqa ma‘nolari haqida qarang: Маковский М.М. Сравнительный словарь мифологической символики в индоевропейских языках. Образ мира и мир образов. М., “Гуманитарный издательский центр Владос”. 1996, с.207–208.

<sup>2</sup> Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание. Т., “Ўқитувчи” 1989, с.216.

ontologik izohlash hisoblanadi. Til inson faoliyatining mahsulidir. Inson faoliyatidagi barcha moddiy va madaniy xususiyatlar, ijobiy va salbiy xususiyatlar tilda o'z ifodasini topadi. Eng qadimiy til hisoblanuvchi "proto-hind-ovrupo tili" yoki "prototurkiy tili" o'z nomidan qanday tillar guruhini o'z ichiga olishi mumkin ekanligi ma'lum. Bu tillarni ba'zan "bobo til", "eng qadimiy til" iboralari bilan ataymiz. Proto-hind-ovrupo tilidan proto-german, proto-slavyan, proto-eron tillari hosil bo'lgan deb faraz qilinadi. Masalan, proto-german tilidagi p yuqori nemis tilida pf yoki unililardan keyin ff (pepper-pfeffer "гармдори, мурч") shaklida; proto-german tilidagi t ts (yozuvda z) yoki unililardan keyin ss shaklida (tongue,zunge "til", Water-wasser "suv"); proto-german tilidagi k unililardan keyin ch shaklida (break-brechen); proto-german tilidagi d esa t bo'lib (dance-tanzen, slavyan, rus tilida "танцы" ham shundan kelib chiqqan) qo'llanadi.

So'zlarning hozirgi tovush tarkibi va ma'nosini qiyoslash yordamida ularning qadimiy holati, yani "proto til"dagi ko'rinishi tiklanadi. Bu tillarning ichki tiklanishi yoki rekonstruksiyasi deyiladi. Bunday metod ancha eski hisoblanadi, lekin u hozir ham qiyosiy-tarixiy metod yoki komparativistika (grekcha comparative—qiyoslash; tika— fan) nomi bilan mashhurdir. Qiyosiy-tarixiy metod qarindosh tillarning tarixi bilan bog'liq bo'lib, ularni har tomonlama chuqur ilmiy tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Bu metod yordamida qarindosh tillarning tovush tarkibi va semantic structurasi o'rganiladi. Masalan, quyidagi so'zlarda undoshlar tarkibiga e'tibor bering: qadimiy yuqori nemis tili Finf, hozirgi nemis tilida Funf, qadimiy ingliz tilida Fif, hozirgi ingliz tilida five "besh". Bunday tahlilda boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardan foydalanish yaxshi natija bermaydi.

Qiyosiy-tarixiy metod yordamida tillarning qarindoshligi aniqlanadi va eng qadimiy tildagi, yani protil (bobo til)dagi tovushlar tarkibi va so'zlarning ma'nolari tiklanadi. Demak, shunday eng qadimiy til mavjudki, hozirgi tillarning ba'zilari undan hosil bo'lgan va rivojlangan. Bunday ba'zi tillar mavjudligi ma'lum. Jumladan, hozirgi sharqiy slavyan tillari uchun "bobo til" (yoki protil) qadimiy rus tilidir. Hindiy tillari

uchun protil — Sanskrit tili hisoblanadi. Hozirgi turkiy tillari uchun qadimiy proturkiy til ikki guruhga bo‘linadi: g‘arbiy, turkiy tillar. O‘zbek tili sharqiy turkiy tillar guruhidagi qarluq kichik guruhiga kiradi. Ana shunday jahon tillari o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalarini o‘rganish orqali tillarni genetik tasnif qilinadi. Qarindosh tillarning eng katta guruhi til oilasiga birlashadi, bu o‘z navbatida til kichik guruhlarini tashkil etadi. Eng kichik guruh yoki alohida guruhga kirmovchi til yoki sheva o‘zi ham yakka bir til oilasini tashkil etishi mumkin. Masalan, Yenisey daryosi bo‘ylarida 700 kishi so‘zlashadigan ket tili; Saxalinning sharqida Amur daryosi bo‘ylarida 1,3 million kishi so‘zlashadigan nivx tili.

Tillarning geniologik tasnifidagi oila-guruh, kichik guruh va nihoyat til shaklida berish shartli hisoblanadi. Chunki tillar o‘rtasidagi genetic aloqalarni chuqurroq o‘rganish asosida yangicha guruhlash mumkin bo‘ladi. Hozirgi jahon tillari taxminan ikki yuzta til oilalaridan iborat bo‘lsa, ulardan 22 tasi Yevraziyaga (Ovrupo va Osiyoga), taxminan 20 tasi Afrikada, qolganlari Amerika, Avstraliya, Yangi Gvineyaga to‘g‘ri keladi.

Tilshunoslik fanining rivojlanishi borasida til oilalari ham qisqaradi, o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bir necha til oilalarini birlashtirib makrooila deb ataladi. Bunday makrooilaga bir-biri bilan qarindoshligi hali aniqlanmagan tillar ham birlashadi. Ana shunday til makrooilasiga hind-ovrupo, afro-osiyo, o‘rol, oltoy, kartvel, dravid tillarini birlashtirib, nostratik taxmin yoki tilshunoslik nomi bilan mashhur bo‘lgan qiziqarli soha ham mavjud. Bunday nostratik tilshunoslikda daniyalik olim X.Pedersen (1867—1953) va rus olimi V.M.Illich — Svitich (1934—1966) nom qozonganlar. Tillarning nostratik makrooilasiga kirganlari ichida yuzlab o‘xshashliklar aniqlangan: tatar. min, mordvan mon “men”; zan. munes, rus. мне; mariy. тый, mo‘g‘ul. ei (>x ti), rus. ты; udmurd. му, telugu memu, xausa mu, rus. мы, коми тайо, mo‘g‘ul tere, rus. тот; o‘zbek kim, Fin ken, somali kuma, rus кто. Ko‘pgina leksik o‘zaklarda ham o‘xshashliklar bilinadi: turk. quloq, gruzin guri, fin kuule, grek. kluo “eshitmoq”; turk. qaryn “qorin”, arab, qurb, tamil, karuppai, lotin corpus “badan”, rus. чрево.

Nostratik nazariyaga asosan qadim zamonlardan boshlab hind-ovrupo, afroosiyo, o'rol, oltoy, kartvel va dravid tillari o'zaro qarindosh bo'lgan deb taxmin qilinadi. Nostratik nazariya tarafdorlari bu tasnifga kirgan tillardagi so'zlarning lug'atini tuzganlar<sup>1</sup>.

### **I. Hind-ovrupo tillari**

Hind-Ovrupo tillari oilasi eng katta bo'lib, u german (435 million), roman (570 million), boltiq (4,6 million), slavyan (290 million), hind (760 milion), eron (71 million) guruhlaridan iborat. Bu oila tillariga arman (5 million), alban (4,9 million), grek (11 million) va boshqa ko'pgina qadimiy tillar kiradi. Ular ichida lotin, sanskrit, qadimiy grek, xet, tohar, kelt va boshqa qadimiy tillar ham bor.

German tillari guruhiga nemis (100 million), golland (nederland) (22 million), afrikans (5 million), friz (400 ming), ingliz (290 million), ferer (400 ming), dat (5,5 million), shved (8,8 million), norvej (4,6 million) tillari kiradi.

Roman tillari guruhiga fransuz (70 million), ispan (260 million), portugul (140 million), italyan (66 million), rumin (20 million), moldav (2,8 million) tillari kiradi.

Boltiq tillari guruhi litov (3,1 million), latish (1,5 million) tillaridan iborat.

Slavyan tillari guruhiga bolgar (9 million), makedon (1,6 million), serboxorvat (18 million), sloven (2,1 million), slovak (5,4 million), rus (160 million), ukrain (36 million), belorus (7,5 million), polyak (41 million) tillari kiradi.

Hind tillari guruhi assam (13 million), bengal (165 million), oriya (27 million), maythili (9 million), bxodjuri (10 million), hindi (200 million), urdu (45 million), nepali (11 million), panjobi (54 million), sindhi (16 million), gudjoroti (40 million),

---

<sup>1</sup> Hind-ovrupo tillariga german, roman, hind-eron tillari guruhi, afroosiyo tillariga semit-xamit tillari oilasiga kiruvchi ivrit(yahudiy), ibroniy, arab, amhar (Efiopiyada), somali,oromo, xaysa kiradi. O'rol tillari oilasidagi Fin guruhi (fin, saam, perm, mariy, mordov tillari va eston tili) liv, karel, veer, mariy, udmurd, komi-permyak, komi-ziryan tillaridan iborat; ugor tillari guruhiga venger, mansiy, xantiy tillari kiradi. Samodiy tillari guruhiga nenets, selkup, nganasan tillari kiradi. Oltoy tillari turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur guruhlaridan iborat. Kartvel tillari oilasiga gruzin, zan, chan, megrel, svan tillari kiradi. Dravid tillari oilasiga tamil, malayalam, kannada, telugu, gondi, kurukh, brari tillari kiradi.

marathi (57 million), singal (12 million), kashmiri (3 million), lo'lar tilini (500 ming) o'z ichiga oladi. Sanskrit va qadimiy hind tillari ham shu guruhga kiradi.

Eron tillari guruhiga pushtu (pashtu) (24 million), ormuri (5 ming), parachi (5 ming) va pamir tillari deb ataluvchi yazgulum (2 ming), ishkashim (3 ming), vahan (30 ming), mundjan (2 ming), yagnob (2 ming) tillari hamda osetin (300 ming), kurd (12 million), beludj (3 million), fors (forsi) (20 million), tojik, dari (8 million), tat (200 ming) tillari kiradi.

Hind-ovrupo tillari oilasiga kiruvchi tillarda so'zlashuvchilar yer yuzining juda ko'p tomonlarida Ovrupo, Osiyo va Avstraliya qit'alarida tarqalgan.

**II. Semit-xamit tillari** (ba'zan Afroosiyo tillari deyiladi) oilasi quyidagi til guruhlarini o'z ichiga oladi:

1. Semit tillari guruhi (187 mln) arab (140 mln), amxar (Efiopiyaning rasmiy tili,) (17 mln), tigrinya (17 mln), tigre (700 ming) tillarini o'z ichiga oladi.

Kushit tillari guruhi bedayye (yoki bedja, Sudanda tarqalgan 1,2 mln), Somali (6,5 mln), afar yoki danakil (800 ming), oromo (yoki galla 16,7 mln) iraki (Efiopiyada, 350 ming) tillarini o'z ichiga oladi.

Berber tillari guruhiga (taxminan 9 mln) tuareg (yoki tamashek tili, 1 mln dan ortiqroq, Niger daryosi bo'yida, Mali, Nigeriyada tarqalgan), kabil (yoki zuav tili, Jazoir shimolida 1,5 mln aholi so'zlashadi), mazigt (yoki tamazit, braber tili, Marokashdagi Atlas tog'lari etagida), shelx (Marokash janubida, 2,5 mln), zenag (yoki taddungiyax, Mavritaniyada 10 ming) kiradi. Bu guruhga ba'zi o'lik tillar, jumladan, qadimiy berber, numidiy tillari kiradi.

Chad tillari guruhiga (taxminan 28 mln) xausa (24 mln, Sharqiy Kamerun, Sharqiy Nigeriya, Niger va Chad, Gana va Beninda tarqalgan), ngizim, karekere (300 ming Nigeriyada), kotoko (150 ming Chad va Kamerunda), bura (1,5 mln Nigeriya va Kamerunda), mandara (300 ming Kamerunda, 10 ming Nigeriya va Chadda), angas va sura tillari (250 ming Nigeriyada), musgu (200 ming Kamerunda), mubi va sokoro (130 ming Chadda) tillari kiradi. Bu guruh tillari ayniqsa Kamerunda (Afrika) tarqalgani qiziqdir.



### III. O'rol tillari oilasi uch guruhga bo'linadi:

1. Samodiy guruhi selkup (4 ming Rossiya'dagi Tomsk oblasti va Krasnoyarsk o'lkasi, Yamal-Nenets milliy okrugini tarqalgan, 1930-yilda kirillitsa yozuvini qabul qilgan), nenets tili (30 ming Tundrada), enets (200 ming, Yenisey bo'yida tarqalgan), nganasan (800 ming, Taymir shimolida) tillaridan iborat.

2. Fin-ugor tillari guruhiga venger tili kiradi (15 mln, Vengriyadan tashqari Ruminiya, Xorvatiya, Sloveniya, Slovakiyada tarqalgan). Ugor nomi onogur, ongur (grekcha) so'zlaridan kelib chiqib, keyincha Magyar, madyar deb atalgan. Bu guruhda yana Suomi tili (yoki fin tili) 5,3 mln — Finlandiyada, 300 mingga yaqin AQSH da, Kanada (53 ming), Norvegiya (22 ming), Shvetsiya (310 ming) Rossiya (47 ming) da tarqalgan), eston (1.1 mln dan ortiq), vep (100 ming), liv (100 ming Riga ko'rfazi bo'ylarida), karel (80 ming, Kareliyada), ijor (1 ming Fin ko'rfazi bo'yida) tillari kiradi. Bu guruhdan mordov (moksha) (1 mln 300 ming), erzya tillari ham o'rin olgan. Bu guruhga perm tillari deb ataluvchi udmurt (votyats, taxminan 700 ming), komi-ziryan (350 ming, Komida), komi-permyats (150 mingdan ortiq Perm oblastida), komi-yazvin (5 ming, Perm oblastining sharqiy-shimoliy tomonida), yukagir (250 ming, Magadan va Yoqutiya chegarasida) tillari ham kiradi.

**IV. Turkiy tillar oilasi** ba'zan oltoy tillari oilasining bir guruhi deb ataladi va unga mo'g'ul hamda tungus-manchjur tillari guruhlarini ham kiritiladi. Bu til oilasi hind-ovrupo tillari oilasidan keyingi eng katta 100 mln.ga yaqin tillar oilasi hisoblanadi. Ba'zan bu guruhlarining har biri alohida til oilasi deb hisoblanadi. Turkiy tillar oilasi asosiy, sharqiy va g'arbiy til guruhlariga bo'linadi. Ularning kelib chiqishi eng qadimiy asrlarga borib yetadi. Ba'zi turkiy tillar hozir yoq: bulg'or, hazari, xorazmiy tillari ana shunday tillardir. Hazar tilining mahsuli deb hisoblanuvchi chuvash tili (1,7 mln) o'zining turkiy tillarga xos xususiyatlarini yo'qotgani sababli ba'zan bu oilaga kiritilishi ham taxmin qilinadi. Shimoliy-sharqiy turkiy tillarga hozirgi tuva (180 ming), tofalar (1 ming, Rossiyaning Irkutsk oblasti janubiy-g'arbiy tomoni), xaladj (20 ming, Eron, Tehronning janubiy-sharqiy hududi), xakas (70 ming, Rossiyaning

Kransnoyarsk o'lkasida) sharqiy shor (yoki mras tili—6 ming), sariq-uyg'ur (4 ming, g'arbiy Xitoyda) tillari kiradi. Etnik jihatdan qarindosh bo'lgan turklarni o'g'iz, qarliq va qipchoq guruhlariga ajratiladi. O'g'iz va qarliq guruhida turk (45 mln.dan ortiq, Turkiyada, 1,5 mln Germaniyada, 115 ming Kiprda, 940 ming Bolqon mamlakatlarida, 243 ming arab mamlakatlarida va h.k.), ozori (6 mln Kavkazda, Ozarbayjonda, 7 mlndan ortiqroq sharqiy-g'arbiy Eronda va Iroqda, ja'mi 15 mln) kiradi. Bu guruhga janubiy o'g'iz-kashkay tili 5 mln, g'arbiy Erondagi ko'chmanchi qabilalar tili, turkman (taxminan 2,1 mln O'rta Osiyoda, 1 mlndan ko'proq Eronda va Afg'onistonda, mingdan ortiqroq Turkiya va Iroqda, ja'mi 4 mln), salar tili (taxminan 30 ming g'arbiy Xitoyda) kiradi.

Qipchoq tillari guruhi karaim (6 ming), qumiq (3,26 ming), qorachay-bolqor (129 ming), tatar (5,7 mln), boshqirt (1,5 mln) turkiy tillaridan qozoq (6 mln), qirg'iz (3 mln), qoraqalpoq (311 ming), no'g'oy (55 ming), tillarini o'z ichiga oladi.

Janubiy-sharqiy turkiy tillari guruhiga o'zbek (16 mln O'zbekistonda, taxminan 2 mln Afg'onistonda va 7 ming Xitoyda va h.k.), uyg'ur (taxminan 6 mln Xitoyda, 40 ming salar va sariq uyg'ur tillari) kiradi. O'zbek tili so'zlovchilar soniga ko'ra turkiy tillar ichida Turkiya turkchasidan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi.

Turkiy tillari morfologik belgilariga ko'ra agglutinatív tillar guruhiga kiradi. Unda so'z o'zagiga oltitagacha qo'shimchalarni qo'shish mumkin. Fonologik jihatdan ko'proq turkiy tillari vokalizmi sakkizta unli fonema to'rtburchak shaklida bo'lib, unliarning tilning va labning holatiga ko'ra uyg'unlashuvi (singarmonizm) borligi bilan izohlanadi. Ba'zi turkiy tillari (o'zbek tili) bundan mustasnodir. Turkiy tillarini ilmiy tadqiq qilishda nom qozongan olimlar: Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov (1891—1938), Andrey Nikolayevich Kononov (1906—1986), Nikolay Aleksandrovich Baskakov (1905—1996), Vasiliy Vasilyevich Radlov (1837—1918), Aleksandr Nikolayevich Samoylovich (1880—1938), Ayub G'ulomov (1914—1986), Aleksandr Konstantinovich Borovkov (1904—1962), Vladimir Dmitriyevich Arakin (1904—1983) va boshqalardir.

Mo'g'ul tillari guruhiga (6.1 mln) quyidagi tillar kiradi: Halha mo'g'ul tili (5mln) shundan 1,3 mln Mo'g'ulistonda, 1 ming Afg'onistonda, oyrat tili (150 ming), kalmiq (200 ming), buryat tili (320 ming). Xitoyda yana bir qancha yozuvsiz tillar bor: dagur, mongor, basan, dunsyan (taxminan 550 ming).

Tungus — Manchjur guruhiga (100 ming) manchjur (4 mln), nanay (6 mln), ulch (1 ming), orok (400 ming), oroch (480 ming), iudegey (500 ming), negidal (200 ming), evenkiy (19 ming), even (7 ming), koreys (64 mln) tillari kiradi. Ko'pincha koreys tilini alohida til oilasi va guruhiga kiritiladi.

Chukot-Kamchatka tillari oilasiga uchtdan sakkiztagacha tillar kiradi. Ular qatorida chukot (11 ming), alyutor (2 ming), koryak (4 ming), itelmen (300 ming) tillari kiradi.

Yenisey tillari oilasi birgina ket tilidan (700 ming) iborat.

Sibir va Uzoq sharqdagi alohida tillar oilasiga yukagir (300 ming), nivx (1,3 ming), ayn (10 ming), yapon (120 mln) tillari kiradi.

Janubiy va janubiy-sharqiy Osiyo va Okeaniya tillari

Xitoy-tibet oilasi uch guruhga bo'linadi: 1) xitoy tili; 2) tibet-birma tillari va 3) karen tili.

Xitoy tili (taxminan bir milliyard) Xitoy, Gonkong, Makao, Singapur (1,3 mln), Tailand (6 mln), Malayziya (4,5 mln), Indoneziya (5 mln) mamlakatlarida tarqalgan. Bu guruhga O'rta Osiyoda dungan tili (50 ming) ham kiradi.

Tibet-birma guruhi (62 mln) tibet (4,5 mln), nevari (60 mingdan ortiq), tripuri (500 ming), manipuri (1 mln), mizo (350 ming), naga (800 ming), kechin (700 ming), birma (29 mln) tillaridan iborat.

Karen guruhi (3 mln) karen tilidan iborat bo'lib, unda Myanma va Tailand chegarasidagi aholi so'zlashadi.

Myao-yao (8 mln) oilasi myao (6 mln), yao (1,5 mln) tillarini o'z ichiga oladi va ularda Tailandning janubida yashaydigan aholi so'zlashadi. Bu oilaga she (350 ming) tili (Xitoyda) ham kiradi.

Tai-chjuan oilasiga (67 mln) chjuan (14 mln), shan (3 mln), tay (27 mln) tillari kiradi va ularda Laos va Tailand aholisi so'zlashadi.

## **Dravid tillari oilasi (190 mln)**

Tamil (55 mlnga yaqin), malayalam (30 mln), kannada (30 mln), tulu (1,6 mln), telugu (63 mln) tillari kiradi va ular Hindiston, Shri Lankada tarqalgan. Bu oilaga gondi (2,8 mln), kurux (1,5 mln), braui (800 mln) tillari ham kiradi.

## **Avstraosiyo tillari oilasi**

Bu oila bir necha guruhlarga bo'linadi: Munda (taxminan 9 mln) guruhidagi eng ko'p tarqalgan santali (5 mln) tili Hindistonning Bihar va G'arbiy Bengaliya shtatlarida qo'llanadi.

Mon-kxmer guruhi (10 mln) khasi (650 ming), mon (700 ming), nikeobar (20 ming) kxmer (8 mln, Kombodjada) tillarini o'z ichiga oladi. Bu guruhga kirgan kichik tillar Hindi-Xitoy mamlakatlarining tog'lik va o'rmonlik hududlarida tarqalgan.

Malak guruhi (40 ming) tillarida Malayadagi ovchilar va hunarmandlar so'zlashadi.

Vyet-miong guruhiga (53 mln) Vyetnam (53 mln), miong (700 ming) va tog'lardagi aholi so'zlashuvchi ko'pgina shevalar kiradi.

## **Avstraneziya tillari oilasi**

Hind va Tinch okeanlari sohilidagi aholining yarmi bu oila tillariga kiradi. Bu oila to'rt guruhga bo'linadi:

Indonez guruhi (220 mlndan ortiqroq) Yava, Malaya, Indoneziya va Madura, Bali, Lombon orollari, Fillipindagi ba'zi aholisi o'rtasida tarqalgan. Bu tillar guruhiga kiruvchi tillar: ache (2,3 mln), bataq (3,5 mln), minangkabau (6 mln), sundan (20 mln), yavan (75 mln), madur (9 mln), baliy (2,8 mln), bugiy (4 mln), dayak (2,6 mln), visaya (20 mln), va loko (5,5 mln, Fillipinda) tillarini o'z ichiga oladi. Bu guruhga Indoneziya va Malaziyada ko'p tarqalgan 18 mln aholi so'zlashuvchi malaya tili kiradi. Indoneziyada malaya tilini indonez tili deb ataladi. Shuningdek Fillipinda tagal yoki tagalog tili (taxminan 11 mln) rasmiy ravishda Fillipino tili deb ataladi.

Bu guruhga malgash (10 mln, Madagaskarda), cham (550 ming, Vyetnam janubida) tillari ham kiradi.

Mikroneziy guruhi (180 ming) tillarida Marshal va Karolin orollari hamda Mariyan va Gilbert orollarining sharqiy qismida joylashgan aholi so'zlashadi.

Polineziy guruhi (900 ming) tillariga maori (250 ming, Yangi Zelandiyaning shimolidagi aholi tili), samoan (200 ming, Samoa orollarida), tongan (100 ming, Tonga orollarida), taityan (70 ming, Taiti orolida), gavay (20 ming, Gavay orollarida) tillari kiradi.

Melanaziy guruhi (3 mln) tillari Yangi Gvineya, Solomon orollari, Yangi Gibrid va Fidji orollari va Yangi Kaledoniyada tarqalgan. Bu guruhga Yangi Gvineyadagi yuzlab tillar kiradi, biroq bu tillar yaxshi ilmiy o'rganilmagan. Avstraliyadagi aborigenlar tillari (100 ming) ham chuqur ilmiy tadqiq etilmagan.

Andaman orollarida 5 kishi so'zlashuvchi andaman tili 1961-yilda kashf etilgan, biroq bu tilning qaysi til oilasi yoki guruhiga kirishi hali aniq emas.

### **Afrika tillari**

Afrika tillari hali yaxshi o'rganilmagan. Afrika tillari Mande (14 mln), kva (67 mln), Atlantik oilasi (26 mln), gur (15 mln), benue-kongo (170 mln), adamave-ubangi (7 mln), shrinil (27 mln), sahara (5 mln) oilalariga bo'linadi. Bu oilalarning har biri yana o'nlab guruhlariga bo'linadi va ular yuzlab tillarni o'z ichiga oladi.

### **Amerika tillari**

Amerika tillarida 27 mln aholi so'zlashadi, ulardan 900 mingi Sharqiy Amerikada, qolgan qismi Lotin Amerikasidadir. Amerika tillari quyidagi oilalarga bo'linadi va o'z navbatida ular ko'p til oilalariga ajratiladi: eskimos-aleut (70 ming), atapask (180 ming), algonkin (120 ming), irokez (40 ming), maskodji (20 ming), sin (30 ming), yuto-atstek (1,1 mln), mayasoke (3 mlndan ortiq), otomang (1,1 mln). Bu tillarni ko'pchiligida Amerikadagi hinduslar so'zlashadi. Ulardan kechua tilida (13 mln, shundan 7 mln Peruda, 4 mln Ekvadorda, 2 mln Boliviya), guarani tilida (2,3 mln, Amazonka daryosi sohili-da) ko'proq aholi so'zlashadi, qolgan ko'pchiligi juda kam aholi so'zlashuvchi tillar hisoblanadi. Masalan, shoni, shahaptin, tlingit, krou, xidatsa tillarida bir mingtagacha odam so'zlashadi. Chinuk tilida Vashington va Oregon shtatlarida bor-yo'g'i 300 kishi so'zlashadi.

Jahon tilshunosligida salkam ikki asr mobaynida barcha tillarni grammatik xususiyatlariga ko'ra tasnif qilish uchun harakat qilinmoqda. Hatto tillarning kelib chiqishiga ko'ra (geneologik) tasnifda ham ba'zi munozarali masalalar mavjud.

Tillarning grammatik, aniqrogi, morfologik yoki tipologik tasnifi asosida ularning grammatik strukturasiidagi o'xshashliklar aniqlanadi. "Tip" tushunchasi bilan bog'langan "tipologiya" atamasi ham guruhlariga yoki sinflarga ajratish ma'nosini ifodalaydi.

Tillarning tipologik tasnifini birinchi bo'lib nemis olimlari aka-uka Shlegellar taklif etgan. Keyincha u XIX asr oxirida boshqa nemis olimi V. fon Gumboldt tomonidan tuzatilgan. U asosan uch belgiga e'tibor bergan: 1) ma'noga aloqador usullarga, 2) gap tuzilishiga, 3) tovush shakliga. Gumboldt ana shu belgilariga ko'ra tillarni to'rt guruhga ajratadi: 1) izolirlashgan, 2) agglyutinativ, 3) flektiv, 4) inkorporativ tillar. Keyincha bu tasnifga A.Shleyxer, F.F.Fortunatov kabi olimlar o'zgarishlar kiritdilar. A.Shleyxer inkorporativ tillar borligini tan olmadi. F.F.Fortunatov esa, so'zning morfologik tarkibiga asosiy e'tiborini qaratdi. Tillarning morfologik tasnifiga ko'ra izolirlashgan, agglyutinativ, flektiv, inkorporativ yoki polisintetik tillar farqlanadi. Ularning har biriga qisqa izoh beramiz.

**O'zakli (Izolirlashgan) tillarda** ba'zan amorf tillar deyiladi (lotincha "amorphous" —shaklsiz) so'zlar va ularning shakli boshqa so'zlarga va gapga bog'liq bo'lmay, so'zlar o'zgarimay qoladi. Bunday tillarga xitoy, aniqrog'i, qadimgi xitoy, vyetnam, indonez, ba'zi malaya-polineziy va G'arbiy Afrika tillari kiradi. Izolirlashgan tillarda affikslar qo'llanmaydi. Lekin hozirgi xitoy tilida ba'zan affikslarni qo'llash hollari uchraydi.

**Flektiv tillarda** (lotincha "flexio" — o'tish, bukilish) morfemalar fonetik sharoitga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarishlarga uchraydi. Bu tillarda so'zning o'zagi ichki fleksiya natijasida o'zgaradi. Masalan, ingliz tilida sit — sat — o'tirmoq, catch — caught — ushlamoq, man — men — erkak kishilar va h.k. Flektiv tillarda morfemalarni ajratish ancha mushkulroq bo'lib, so'zlarga qo'shilgan affikslar bir yo'la bir necha ma'nolarni ifodalashi mumkin. Flektiv tillarda qaysi vositalar grammatik

ma'noni ifodalashda ko'proq qo'llanishiga ko'ra analitik va sintetik turlarga bo'linadi.

**Agglyutinativ** (lotincha *agglutinare* — ulamoq) tillarda so'zlarning o'zaro munosibati so'z yasash va so'z o'zgartirish affikslari orqali ifodalanadi. So'zlar ko'p morfemali bo'lib, so'zni tashkil etgan morfemalar o'rtasidagi chegara aniq bo'ladi. Agglyutinativ tillarga turkiy, mo'g'ul, fin, bantu tillari kiradi. O'zbek tili agglyutinativ tillarga yorqin misoldir. Masalan, kelmadi — so'zida kel — o'zak affiksi, *-ma* — inkor affiksi *-di* — o'tgan zamon, 3-shaxsni ifodalovchi affiks mavjud. O'zbek tilida so'zlarga oltitagacha affikslarni qo'shish mumkin. Agglyutinativ tillarda so'zning o'zagi — o'zak morfemada kamroq o'zgarishlar ro'y beradi, biroq affiksial morfemalar ulangan o'rinda turli o'zgarishlar ko'proq uchraydi. Masalan, tara — taroq — taramoq, sez — seskanmoq, so'ra — so'roq — so'ramoq, kurak — kuragi, bog' — boqqa. ko'ngil — ko'ngli kabi.

**Polisintetik** (grekcha *polys* — ko'p, *synthesis* — qo'shish) yoki inkorporativ tillarda harakat va holatning obyektini, ba'zan subyektini ifodalash uchun fe'lning tarkibiga alohida so'z — affikslar qo'shiladi.

**Inkorporatsiya** (lotincha *incorporare* — qo'shmoq) qo'shma fe'l yasashning bir usuli hisoblanadi. Masalan, naua yoki antek tilida *ni-k-qwa in naka — tl* — “Men (hozir) go'sht yemoq-daman” gapida *ni* — fe'l prefiksi, 1-shaxs birlikda, *k* — jonsiz narsa bilan moslashuvda qo'llanuvchi prefiks, *qwa* — “yemoq”, o'zak, *in* — aniq artikl, *naka* — “go'sht”, o'zak, *tl* — asosiy kelishik affiksi. Bu fe'lning shakli, ya'ni so'z “Men go'sht yeyman” degan gapga teng keladi va bu o'ziga xos inkorporatsiya hodisasidir.

Polisintetik tillarda alohida qo'llanuvchi so'zlar ham borki, ular so'z — affikslardan farq qiladi. Polisintetik tillarga Sibir va Amerika tillari kiradi.

---

<sup>1</sup> Misol quyidagi kitobdan olindi: Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиёва Е.А. Введение в языкознание. Т., 1989, с. 150.

## V b o b TILNING TASHQI VA ICHKI JIHATI

### TILNING TASHQI SHAROITI

Jamiyat tilsiz bo'lmaydi va aksincha til ham jamiyatsiz bo'la olmaydi. Til kichik bir qabila yoki kamroq sonli millat bo'ladimi yoki xalq bo'ladimi, barchasi uchun zarur bo'lgan muhim muloqot vositasidir. Tildagi turli hodisa va vositalar, belgilar va xususiyatlar o'zgaradi, biri yo'qoladi, boshqasi hosil bo'ladi. Asta-sekin til rivojlanadi. Agar biror tilda jamiyat a'zolari so'zlashmay qo'ysa, uni o'lik til deb yuritiladi. Masalan, lotin, xet, shumer, akkad, got, prus, xurrit tillari ana shunday o'lik tillar sirasiga kiradi. Lekin bu o'lik tillar boshqa tillarga katta ta'sir o'tkazib, hozir ham boshqa tillarda o'lik tillaridan o'zlashgan so'z va iboralar, turli grammatik vositalar bor. Tillarning saqlanishi va o'lik tilga aylanishi tashqi shart-sharoitlarga bog'liqdir. Tillar o'rtasidagi aloqalar unda so'zlashuvchi aholining joylanishi yani geografiyasi va jamoaning madaniyati, iqtisodi, urf-odati, psixologiyasi bilan bog'liqdir. Ba'zi tillarda juda kam odam so'zlashsa, boshqa ba'zisida millionlab xalq so'zlashadi. Tillarning hududiy tarqalishi ham juda rang-barang. Masalan, ingliz va ispan tillari turli qit'a va mamlakatlarda tarqalgan hududiy variantlariga egadir. Tillarning mahalliy farqlari aks etgan varianti uning sheva va dialektlari deb yuritiladi. Jahondagi ba'zi tillar va ularning dialektlari o'rtasidagi farqlar hali aniqlanmagan.

Tillar o'z qo'llanish sohasi bilan ham farqlanadi. Masalan, lotin tili fanlarning turli sohalarida, ayniqsa tibbiyot, biologiya, kimyo, geologiya, fizika va boshqalarda qo'llanadi. Qadimiy grek tili ham fanlarning turli sohalarida qo'llanadi. Italyan tilidagi so'zlar san'at sohasida ko'proq qo'llanadi.

### TILNING ICHKI TUZILISHI

Tilshunoslikning eng asosiy vazifalaridan biri tilning ichki tuzilishidir. Nutq a'zolarining harakati bilan havo titrashi va uni quloq bilan eshitib, miya bilan his etish natijasida insonlar bir-



birlari bilan muloqot qiladilar. Inson talaffuz qiluvchi tovushlar boshqa turli tirdagi tovushlardan (masalan, ko'chadagi, musiqa asboblari chalgandagi va h.k. tovushlardan) tubdan farq qiladi. Bu tovushlar fizik va eshutilish xususiyatlari hamda nutqda birikib aniq ma'no va mazmunga ega bo'lishlari bilan farq qiladilar.

Tilning tovush tomoni uning ifoda jihatini tashkil etadi. Tovushlar va ularning birikmalari inson ongida biror psixik tushuncha bilan bog'lanadi va bu tilning mazmun jihat deb yuritiladi. Masalan, [ daryo] beshta tovush birikmasidan iborat bo'lib, so'zlovchilar ongida "katta suv havzasi" tushunchasini keltirib chiqaradi. Daryo so'zi tildagi belgi sifatida o'zining ifoda va mazmun jihatlariga egadir. Binobarin, til — belgilar tizimi (sistemi) bo'lib, insonlarning muhim aloqa vositasidir. Biroq bir tovush alohida holda ma'no anglatmasa belgi bo'la olmaydi. Har bir belgi ifoda va mazmun jihatiga egadir. Biroq tildagi belgilar ko'p bosqichli murakkab tarkibi bilan boshqa belgilardan farq qiladi. Masalan, undov belgisi shartli ravishda yo'lda ehtiyot bo'ling ma'nosini anglatadi. Insonlarning ovozsiz turli imoishoralari ham biror tushuncha bilan bog'lanadi. Biroq bu imoishora va mimikalarning ifoda jhati yo'q. Tildagi belgilar murakkab tuzilishi, ifoda va mazmun jhati bilan farqlanadi. Har bir til bosqichi o'zining birligiga egadir. Quyi bosqich birliklari bir-birlari bilan birikib yuqori bosqich birliklarini hosil qiladi. Tilning eng quyi bosqichi — fonologiya bo'lib, uning birligi — fonema hisoblanadi. Demak, tilning eng kichik ma'nosiz birligi fonemadir. Fonema biryoqlama (yoki faqat ifoda jhatiga ega) birlik bo'lgani uchun belgi bo'la olmaydi. Tilning quyi belgilariga ega bo'lgan bosqichi — morfema bosqichidir. Morfema — tilning ifoda va mazmun jhatlariga ega bo'lgan eng kichik belgidir. Morfemalar ketma-ket birikib tilning kattaroq birliklarini hosil qiladilar. Morfemalar birikib so'zlarni va ularning turli shakllarini hosil qilishi mumkin. Masalan: kuch-li sozida kuch—so'zning asosi bo'lib, o'zak morfemani hosil qiladi, unga -li affiksi qo'shilib (uni "affiksial morfema" deb yuritiladi), yangi so'z yasaydi. So'zlar — tilning markaziy birligi bo'lib, ularni biriktirib yana kattaroq til birliklarini hosil qilish mumkin. Bunday birliklar — so'z birikmasi va gap (jumla) hisoblanadi. Tilning so'z bosqichi ham ikkitomonlama — ifoda va mazmun

jihati ega bo'lgan eng asosiy bosqichdir. Tilning morfema va so'z bosqichlari yuqori bosqichlar hisoblanadi va o'z strukturasi-ga egadir. Tilning ifoda jihatida morfemalardan quyi bosqich fonema bosqichidir. Fonemalar ketma-ket birikib tilning yuqori bosqichlari birliklarini — morfema, so'z, so'z birikmasi va gapni tashkil etadi. Biroq barcha fonemalar bir-biri bilan tartibsiz birikmaydi. Fonemalarning birikishi har bir tilda o'z tartib va qoidalariga ega. Fonemalarni yana ham kichik hosil qiluvchi bo'laklarga bo'lish natijasida fonologik farqlanish belgilari bosqichi tashkil bo'ladi. Fonemalarni bir-biridan artikulatsion — akustik belgilari bilan farqlashga xizmat qiluvchi belgilar farqlanish belgilari deb yuritiladi. (Bu haqda kitobning “Fonetika va fonologiya” bo'limiga qarang). Fonologik farqlanish belgilari tilning ifoda jihati uchun xizmat qiladi. Tilning mazmun jihati ham o'zining quyi bosqichi — semantik (ma'no) farqlash belgilari bosqichiga ega. Masalan, “boshliq” so'zi mazmun jihatidan “bosh” so'zi bilan bog'lanib, “-liq” boshqa so'z yasovchi qo'shimchadir. Binobarin, bu so'z odamlarga yoki bir guruh jamoaga boshliq ma'nosini ifodalaydi va bu uning semantik farqlash belgisidir. Tilning barcha bosqichlarida ulardagi birliklar ma'lum tartibda bir-birlari bilan birikadilar. Har bir til o'z birikuv qonuniyatlariga ega. Bu qonuniyatlar ma'lum andozani (model) tashkil etadi. Biroq bu andoza doim ham o'zgarmas bo'la olmaydi. Masalan, ma'lum gapning andozasi turli sharoitda, nutq holatida boshqacha berilishi mumkin. Tillarni ilmiy o'rganish vazifalariga ko'ra tavsifiy tilshunoslik (uni ba'zan “sinxron tilshunoslik” deyiladi) va tarixiy tilshunoslik (ba'zan “diaxron tilshunoslik” deyiladi) farqlanadi. Ba'zan tilshunoslik tarixi va tilning tarixiy shakllanishi, o'zgarishi va rivojlanishi — diaxron tilshunoslik farqlanadi. Qarindosh va qarindosh bo'lmagan, turli tizim va strukturaga ega bo'lgan tillarning o'xshash va farqli alomatlarini aniqlash qiyosiy tilshunoslikning aniqrog'i, qiyosiy-tipologik tilshunoslikning vazifasidir. Tilshunoslik aslida uyg'onish davrida filologiya fani tarkibiga kiritilgan edi. Lekin keyincha XIX asr boshlarida tilshunoslik alohida fan sifatida filologiyadan butunlay ajralib chiqdi. Natijada filologiya ikkita bir-biriga bog'liq bo'lgan fan — adabiyotshunoslik va tilshunoslikdan iborat bo'lib qoldi.

Tilshunoslik birinchi navbatda nazariy fan bo'lib, uning tat-

biqiy — amaliy jihati turli o‘quv lug‘atlari tuzish, savod o‘rgatish kabilar bilan ham bog‘liqdir. Grammatika termini kelib chiqishi jihatdan “yozuv haqidagi fan”ni bildiradi. Yozuv esa aslida tilni amaliy o‘rganish vositasidir.

### TILLAR TARAQQIYOTIDAGI FARQLANISH VA O‘XSHASHLIKLAR

Tillar taraqqiyotidagi o‘zgarishlar turli yo‘nalishda bo‘lib har xil natijalarga olib keladi. Ba‘zan shunday ham bo‘ladiki, tildagi qandaydir kichik o‘zgarishlar kuchayib, ularda so‘zlashuvchilarning muloqotida quyinchiliklarni keltirib chiqaradi va ba‘zan bir tilning ikki variantida so‘zlashuvchilar bir-birlarini tushunmay qolishlari mumkin. Tilning taraqqiyotidagi bunday jarayon farqlanish deb ataladi. Buning aksi bo‘lgan jarayon, yani bir tilning ikki varianti o‘rtasidagi farqlanish yo‘qolishi natijasida ularning qo‘shilib ketishi integratsiya deb ataladi. Bu ikki jarayon tillarning rivojlanish davrida turlicha kechadi. Qadim zamonlarda til qabila bilan bog‘liq bo‘lgan. Qabilalarning bo‘linib ketishi natijasida tillar ham bo‘linib ketgan va farqlangan. Biroq bu farqlanish jarayoni tez kechmagan. Tillarning o‘xshashligi esa o‘tmishda ko‘chmanchilik bilan hayot kechirgan xalqlarning tillarida ko‘proq ro‘y bergan. Odatda qishloq xo‘jaligi, tog‘da va o‘rmonda hayot kechirish tillarning farqlanishini tezlatuvchi shartlardan hisoblanadi. Masalan, Afrika qit‘asidagi Kamerun mamlakatida 180 dan ortiq til bor. Tojikistonning Pomir tog‘laridagi aholining bir necha tillarda so‘zlashuvi, hatto ular yashayotgan joy 5—6 km uzoqlikda bo‘lsa ham turli bir-biriga o‘xshamagan tillarda so‘zlashuvi qiziqdir.

Bir tilning ikki tilga ajralish jarayonida avval bu tilning shevalahjalarga bo‘linib ketishi ro‘y beradi. Kelgusida bu shevalar alohida til bo‘lib qolishlari mumkin. Masalan, sanskrit tili boshqa hind guruhi tillari uchun shunday yo‘lni bosib o‘tgan.

### SHEVA VA LAHJALAR

Tilning ma‘lum hududdagi og‘zaki qo‘llanishidagi xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan shakli sheva yoki dialekt (grekcha dialektas — til, nutq, sheva) deb ataladi. Katta sheva va dialekt-

larni lahja deb yuritiladi. Til va sheva o'rtasidagi tafovut shartli bo'lib, go'yo milliy til va adabiy til o'rtasidagi farqqa o'xshashdir. Bu farqlanish turli hududlardagi bir tilning turli ko'rinishidek tuyuladi. Til va dialektlarning tafovuti unda so'zlashuvchilarning madaniyati, psixologiyasi, urf-odati va milliy xususiyatlarining o'zgachaligi bilan izohlanadi. Bir-biriga hududiy yaqin bo'lgan shevalar o'sha tilga o'xshash alomatlari bilan ajralib turadi. Bir-biridan juda uzoq hududda tarqalgan shevalar esa boshqa tilga o'xshash alomatlarga ega bo'ladi. Masalan, oltoy tilining janubiy shevalari qirg'iz tiliga juda o'xshash bo'lsa, shimoliy shevalari shor tiliga yaqinroqdir<sup>1</sup>. Bir tilning turli shevalari avvalo talaffuz xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, Toshkent shevasida "keldi" deb talaffuz qilin-sa, xorazm shevalarida "galdi", o'zbek tilining qarluq shevalarida "yomon", o'zbek tilining qarluq shevalarida "jomon" deb talaffuz qilinadi. Shevalar o'z lug'ati yani so'zlari bilan farqlanadi. Masalan, Buxoro shevasida "taxlamoq" fe'li biror ishni bajarmoq ma'nosida qo'llanadi. Bu so'z boshqa o'zbek shevalarida "biror narsani ustma-ust tartibda qo'ymoq" ma'nosini beradi. Tilning shevalari o'z grammatik alomatlari bilan ham farqlanadilar. Ko'pgina o'zbek shevalarida qaratqich kelishigi qo'shimchasi -ning tushum kelishigi qo'shimchasi -ni bilan aytiladi. Tilning sheva va lahjalarni o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi dialektologiya (lotincha—dialekt — nutq va — fan) deb ataladi. Tilning turli hududlardagi tarqalgan sheva va lahjalari shu xalqning tarixi, urf-odati, madaniyat va san'ati bilan bog'liqdir. Odatda dialektologiya regional, yani hududiy, biror region yoki mahalliy joy bilan bog'liqdir. Dialektologiya lingvistik geografiya bilan bog'lanadi. Turli shevalardagi xususiyatlar jamlanib lingvistik atlaslar tuziladi. Sheva va lahjalarning hududiy joylanishiga doir xaritalar tuziladi. Endilikda turli tillardagi ayrim xususiyatlarning tarqalishiga doir xarita va atlaslar tuzilmoqda.

Bunday lingvistik xarita va atlaslarni tuzish maqsadida aniq dastur va anketalar, ya'ni qanday masalalar, so'z va gaplar kiritib, ularni tahlil qilishda uchraydigan fonetik, grammatik va lek-

---

<sup>1</sup> Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание. Т., 1989, с.192.

sik xususiyatlarga ahamiyat beriladi. Bunday vazifalarni bajarish uchun maxsus dialektologik ekspeditsiya uyushtiriladi. Til va uning shevalaridagi tarqalgan turli xususiyatlarning dialektologik xaritada ko'rsatilish chegarasi izoglosslar (lotincha izo— o'zaro, gloss—til) deb yuritiladi. Bunday izoglosslarni aniqlash shevalar tarixini o'rganishda yordam beradi. Lingvistik geografiya metodlarini qo'llash natijasida turli tillar va shevalardagi izoglosslarning tarqalishi aniqlanadi. Jamiyatning turli sinflariga mansub bo'lgan til xususiyatlarini ijtimoiy dialektlarga xos deb hisoblanadi.

## ADABIY TIL VA UNING MEZONI

Adabiy til biror millatning tarixiy jihatdan shakllangan umumxalq tiliga asoslanadi. O'zbek adabiy tilining asoschisi buyuk shoirimiz Mir Alisher Navoiydir. Adabiy til u tarqalgan hududda barcha xalq uchun tushunarli bo'ladi. Bu umumxalq tilida shevalarga va kasb-hunarga xos so'zlar ham bo'ladi. Adabiy tilda boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham bo'lishi mumkin. Adabiy tilni yozma tildan farqlash zarur. Adabiy til og'zaki va yozma shaklda bo'ladi. Adabiy tilning og'zaki shaklida uning talaffuz normasi o'z ifodasini topadi. Adabiy tilning o'z grammatikasi va leksikasi mavjud. Bular ham o'z adabiy normasiga ega. Adabiy tilda turli sohalarga doir terminlar, dialektizmlar (shevalarga xos so'zlar), kasb-hunar, madaniy-maishiy va boshqa sohalarga tegishli so'zlar mavjud bo'ladi. Adabiy tilning og'zaki shakli yozma shaklidan avval hosil bo'lishi mumkin. Adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishida buyuk shoir va adiblarning xizmati juda kattadir. Ular qo'llagan so'z va iboralar va maxsus uslub (stil) adabiy tilning nufuzini ta'minlaydi. Adabiy til milliy tilning asosida shakllanadi. Milliy tilning yozma va og'zaki shakllari unda so'zlovchi xalq uchun tushunarli va umumiy bo'lgan mezonlarga egadir. Shu sababli uni davlat tili yoki rasmiy til sifatida qabul qilinadi. Davlat tili ommaviy axborotda, matbuotda, sud va prokuraturada, barcha davlat tashkilotlari, o'quv maskanlari va boshqa muassasalarda qo'llanadi. Tilni xalq yaratgan va uning adabiy va davlat tili sifatida qo'llovchi ham xalqdir. Davlat tilining erkin rivojlanishini va uning xalq xo'jaligining

turli sohalarida qo'llanishini ta'minlash til siyosatining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Adabiy tilning ma'lum situatsiyada qo'llanuvchi varianti uning funksional stili deb ataladi. Funksional stillar tilshunoslikning ifodali vositalarini o'rganuvchi bo'limi bo'lmish stilistikada o'rganiladi. Tilning funksional stillari: rasmiy-ish stili, kundalik og'zaki nutq stili, ilmiy-texnik stil, diniy stil, badiiy stil (u poetik (nazmiy) stil, nasriy stilni o'z ichiga oladi). Ba'zan badiiy stilga nisbatan neytral stil farqlanadi.

### TILLARNING O'ZARO TA'SIRI

Odatda ma'lum hududda yashovchi ko'pchilik xalqning tili umumiy til deb ataladi. Tarixda yunon tilining Afina attik dialekti umumxalq tili sifatida qabul qilingan. Bunda Afina shahri Gretsiyaning madaniy, siyosiy va iqtisodiy markazi ekani ham hisobga olingan. Bunday umumiy tilni koyne (grekcha koine — dialektos — “umumiy nutq”) deb ataladi. O'zbek tilining Toshkent va Farg'ona shevalari “tayanch shevalar” deb ataladi va bu “umumiy til” tushunchasiga ancha yaqin turadi.

Kishilar ikki va undan ortiq tillarda so'zlasha oladilar. Shunga ko'ra ikki tilliylik bilingvizm (grekcha bi — ikki, lingua — til) va ko'p tilda so'zlashish — polilingvizm (grekcha poly — ko'p, lingua — til) farqlanadi.

Ikki tilda so'zlovchilar ayniqsa ko'p. Masalan, O'zbekistonning Namangan viloyatida 9% aholi, O'rta Osiyo xalqlarining 30% (1970-yil aholi ro'yxati natijalariga ko'ra) ikki tilda so'zlashadilar.

Tillarning o'zaro ta'siri natijasida ulardan biri, odatda madaniy va iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangan xalqning tili ta'sirida ikkinchi tilda ko'pgina so'zlar o'zlashadi. Masalan, Afrika tillarida arab tilidan o'zlashgan so'zlar juda ko'p. Lekin, aksincha, Afrika tillaridan arab tiliga o'tgan so'zlar juda kam topiladi. Bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatgan tillarning har ikkisi ham so'zlarning o'zlashishi natijasida boyiydi. Masalan, qadimiy g'arbiy german tillarining lotin tili bilan aloqasi natijasida german tillariga hayotning turli sohalariga tegishli so'zlar kirib keldi: ingliz. street, nemis. Strasse — “ko'cha”, ingliz. cheese, nemis. Kase — “pishloq”, ingliz. toll, nemis pfund- “boj haqqi”, pound,

Pfund “funt” kabi. O‘z navbatida german tillaridan ham lotin tiliga qator so‘zlar o‘zlashgan va ulardan ba‘zilari ispan tilida saqlanib qolgan: ispan, espiar “ortidan bormoq”, tregua “kelishuv”, guardar “qo‘riqlamoq”, orgullo “faxr”<sup>1</sup> kabi.

Tillarning o‘zaro ta‘siri ularda so‘zlashuvchi xalqlarning yonma-yon yoki yaqin hududda yashashiga bog‘liq emas. Ba‘zi baynalmilal so‘z va terminlarning bir yo‘la bir necha tillarda qo‘llanilishi bunga misoldir.

Ko‘pincha tillarning o‘zaro ta‘siri leksika sohasida, xususan, so‘z qabul qilish bilan boshlanadi va keyincha u fonetika va grammatikada kuzatiladi. O‘zbek tilida arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar ko‘pgina topiladi. Arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan ba‘zi so‘zlarda fonetik hodisalar ham mavjud: toat, tal‘at, soat, sur‘at kabi. Bu so‘zlarda arabcha “ayn”ning cho‘ziqroq talaffuzi kuzatiladi. O‘zbek tilida /ts/ (tsirk, tsirkul), /j/ (jyuri, jurnal) fonemalari grek tilidan kirib kelgan so‘zlar bilan birga o‘zlashgan.

Bir tildan ikkinchi tilga so‘z o‘zlashuvi natijasida ulardan birining tarkibida katta o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bunday ta‘sir tillardan birining yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Saqlanib qolgan tilda yoqolgan til unsurlarining bo‘lishi substrat (lotincha sub — “yuqori”, stratum — “qatlamlam”) deb ataladi. Substratning ta‘siri ko‘proq fonetika sohasida bo‘ladi. Masalan, german tillaridagi “yuz” va “ming” sonlari qadimiy ingliz, qadimiy sakson tillarida **hund**, qadimiy yuqori nemis tilida **hunt**, boshqa german tillarida **hunda** shaklida o‘zlashgan. **Ming** so‘zi thusundi shaklida (qadimiy ingliz tilida thusend, qadimiy friz tilida thusend, qadimiy sakson tilida thusundig, thusint kabi) o‘zlashgan. Bu so‘zlarda fonemalar almashuvi kuzatiladi. Qrimdagi gotlar tilida bu so‘zlarga sada “yuz” o‘rta osetin tilida sada, fin-ugor tillardan o‘zlashgan **sada** va **hazar** “ming” (o‘rta fors tilida hazar, venger tilida o‘zlashgan **ezer** shakli mavjud<sup>2</sup>). Sintaksisda uchrovchi substratlarga turkiy tillarida gapda so‘z tartibining ancha erkin bo‘lib qolgani

<sup>1</sup> Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание. Т., “Ўқитувчи”, 1989, с. 200—201.

<sup>2</sup> Misollar olingan manba: Топоров В.Н. Древние германцы в Причерноморье. Результаты и перспективы.//Балто-славянские исследования. 1982. М., Наука, 1983, с. 239.

va teskari soʻz tartibi ham qoʻllanayotgani misol boʻladi:  
Masalan:

Ozor tilida: Danisyr Baky! Bokudan gapiramiz!  
Yashasyn sulh! Yashasin tinchlik!

Qirgʻiz tilida: Berilet usul spravke — Berildi ushbu  
maʼlumotnoma

Oʻzbek tilida: Ashulani ijro etadi Oʻlmas Saidjonov

Turkman tilida: Mikrofon onunde joldas Choriyev —  
Mikrofon oldida oʻrtoq Choriyev.<sup>1</sup>

Substrat hodisalarini tilning semantikasida koʻproq  
uchratish mumkin. Masalan, grek tilidagi **“marble”** soʻzi **“mar-  
mar”** shaklida oʻz maʼnosida oʻzbek tiliga oʻzlashgan. Bu soʻz  
boshqa tillarda ham mavjud.

---

<sup>1</sup> Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. Toshkent,  
Oʻqituvchi, 1979, 170-bet.



## VI b o b

### YOZUV. YOZUVNING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY BOSQICHLAR

Insoniyat bundan besh ming yil avval ixtiro qilgan yozuv jamiyatning rivojlanishi, unung tarixi, madaniyati, urf-odati va umumanjahon sivilizatsiyasidan darak beruvchi eng nodir kashfiyotdir. Tilshunoslikning yozuvni o'rganuvchi sohasi "grammatalogiya" (grekcha — grammat — to'g'ri yozaman, logos — fan) deyiladi. Eramizdan tahminan 120 asr oldin turli rasmlar, skulptura va grafikaga tegishli belgilar shartli ravishda narsalar, tushunchalar va biror jumlani ifodalash uchun qo'llangan va bu piktografik (loticha pictum — rasm, pingo— chizaman) yozuvning hosil bo'lishiga asos bo'lgan.

Turli chizma grafik vositalar yordamida axborot yetkazib berish bundan bir necha yuz yil avval ham keng qo'llangan. Afrikadagi Togo mamlakatidagi eve elati piktogrammalar yordamida maqollarni ifodalaganlar. Ignaga ip taqilgan 1-rasm (piktogramma) "Igna qayerga borsa, ip ham o'sha joyga boradi" degan maqolni ifodalaydi. Boshqa maqol: "Kichik narsalar buyuk ishlarni bajara oladi" yoki "Igna katta yirtiqni yamay oladi" 2-rasmda ifodalangan. Ikkita odamning rasmi (3) "Ikkita dushmanga uzoq bas kelish qiyin" maqolini ifodalaydi. Ikki kishining birining qo'lida yoy (o'ngda) va ikkinchisida kamon (chapda) bor. O'ngdagi kishining qo'li ko'ksida — "meniki") ma'nosini bildiradi. Ikkinchisida qo'lida o'ljasini ushlab turibdi. "Dunyo bepayon va keng" maqolini ifodalash uchun daraxt va aylana o'rtasidagi odamning qo'lini ochib turgani (5) chizilgan. Buning asl mazmuni: "O'limdan qochib qutulib bo'lmaydi" maqolini (6) eslatadi. Uzun bo'lyli kishi — to'g'ri chiziq va qanotli hayvon — o'limni<sup>1</sup> anglatadi.(Rasmga qarang).


Piktogrammalar o'zlarining axborot berish vazifasini to'la bajarmay, ba'zi g'oyalarni ifodalasa, ular ideogrammalar deyila-

---

























<sup>1</sup> Mazkur piktogramma va uning ifodasi quyidagi kitobdan olindi: Гельб И.Е. Опыт изучения письма (Основы грамматологии). М., Радуга., 1986. — С.56. Boshqa rasmlar ham shu kitobdan olindi.

di (grekcha idea — g'oya) va ularni birlashtirish vositasida biror axborot berish mumkin bo'ladi. Xitoy yozuvidagi bir necha yuzta ideogrammalar aslida narsalarni ifodalovchi rasmlardan kelib chiqqan. Bunday ideografik yozuvga shumer (keyincha akkad) yozuvi (eramizdan avval IV—I asrlar), elam yozuvi (eramizdan avval XXIII—IV asrlar), misr yozuvi (eramizdan avval XXX—V asrlar), xet yozuvi (asrimizdan avval XV—XII asr), maya yozuvi (IV—XVI asrlar) va atstek yozuvi (XVI asr-gacha) ham kiradi.

Xitoy yozuvidagi ideogrammalardan ba'zilari narsalarning tasviriga o'xshash alomatlariga ega: -quyosh, -maydon, -oy, -yoy va nishon va h.k.



Эвс элатининг мақоллари битилган белгилар

Куш				
Балиқ				
Эшак				
Буқа				
Күёш				
Бугдой				
Бог				
Омоч				
Ёй				
Оёқ				

Расмли белгиларнинг михсимон ёзувга айланиш тараққиёти

Piktrogramma va ideogramma O'rtayer dengizining janubiy-sharqiy qirg'og'ida va Fors ko'rfazi hududlarida qo'llanmay qoldi va ular o'rniga aniq so'zlarni ifodalovchi belgilar — logogrammalar (grekcha logos — so'z, nutq) kashf etildi. Bu yozuv grafik vositalar yordamida so'zlarning ma'nolarini ifodalagan. Qadimiy shumer piktrogrammalari va ideogrammalarining rivojlanishi natijasida mixsimon logogrammalar hosil bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan ba'zi grafik belgilar so'zlarning ma'nosini emas, balki ularning ma'nosiz qismlarini, ya'ni bo'g'inlarni ham

ifoda qilgan. Mixsimon yozuvni shumerlardan Mesopotamiyaga kelgan akkadlar, ya'ni vavilonlilar va assiriylarning vorislari qo'llaganlar. Tovush elementlarining grafik belgilari (ularni fonogrammalar deyiladi — grekcha fon — tovush, nutq) assiriya-vavilon mixsimon yozuvida qo'llaniladi va uni sillabogrammalar (grekcha syllabal — bo'g'in) deb ataladi. Fonografik va sillabografik yozuvlarda qo'llangan grafemalar unli va undosh tovushlarni ham ifodalagan. Bu keyincha (grekcha konsonant “undosh”) yozuvining paydo bo'lishiga olib keladi. Keyincha konsonant yozuvning rivojlanishi natijasida grek yozuvi va undan keyin lotin (Rim) yozuvi paydo bo'ldi. Grek va lotin yozuvlari Bolqon va O'rtayer dengizi bo'yidagi xalqlarga tarqaldi va eramizdan avval II asrdan boshlab xristian dini tarqalishi natijasida IV asrda gotlar (sharqiy germanlar), VI—V asrlarda efioplar, armanilar va gruzinlarga yetib keldi. Qadimiy Vizantiya davlatidagi Saloniki shahrida yashovchi aka-uka Konstantin Kiril va Mefodiy grek yozuvi asosida slavyan yozuvini (863—869-yillar) kashf etdilar. Bundan yuz yil keyin slavyan xristian madaniyati yozuvi Rossiyaga tarqaldi. Hozirgi rus tilida qo'llanayotgan kirillitsa yozuvi aslida o'sha aka-uka Kiril va Mefodiyar taklif etgan alifboning qayta ishlangan nusxasidir.

Shunday qilib, yozuvlarni asosan ikki turga bo'lish mumkin: 1) ideografik (piktogramma, logogramma, sillabogramma) va 2) fonetik (grek, lotin, kirillitsa va h.k.). Bu fonetik yozuvlar tarixiga nazar solsak, finikiy (eramizdan avval XX asrdan boshlab Suriya va Falastinda tarqalgan), aramey (Yaqin Sharqda eramizdan oldin VIII asr) va undan kelib chiqqan qadimgi hind yozuvlari brahmi (eramizdan avval III asr) va devanagari (eramizdan avval VII asrdan boshlab) yozuvlari mavjud. Devanagari yozuvi qadimiy sanskrit tilida qo'llangan va keyincha boshqa hindiy tillarida, jumladan, hindi, marathi, nepali, gondi, munda tillarida ishlatilgan. Hind alifbosi boshqa mamlakatlardagi tibet, kxmer, mon, birma, tai, loas, yaran va h.k. tillarda qo'llanadi.

Finikiy, grek, lotin va kirillitsa yozuvlari rivojlanishidagi alomatlarini quyidagi qiyoslashdan bilish mumkin:<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Широков О.С. Языковедение. Введение в науку о языках. “Студия Академика”. М., Добросвет, 2003, с. 49.

		Grek alifbosi		Lotin alifbosi		Kirillitsa alifbosi	
A	A	A	A	A	K	M	M
B	B	B	B	Б	N	N	H
↑	C	Γ	C	Г			C
Δ	D	Δ	D	Д	O		O
E	E	E	E	E	Γ	Π	Π
Y	V		F	V	K		K
I		Z	Z	Z	P		P
⊖	H	H	H	N	Σ		C
⊕	⊙	θ			T		T
I		I	I		Φ	Φ	Φ
K		K	K	K	X	T	X
L		Λ	L	Λ			

## VII b o b

### TILSHUNOSLIK NAZARIYALARI VA TILNI ILMIY TADQIQ QILISH METODLARI

Hozirgi davr tilshunosligida ko'pgina ilmiy ta'limot va nazariyalar hamda tillarni ilmiy tadqiq qilish metodlari va tillarni amaliy o'rganish metodikalari mavjud. Ularni asta-sekin tilning har sathini o'rganish jarayonida o'rganiladi. Shu sababli tilshunoslik nazariyalariga doir eng zarur ma'lumotlarni keltirib, uning ilmiy tadqiq qilish metodlarini izohlab beramiz.

#### TILSHUNOSLIK NAZARIYALARI UCHUN ZARUR TUSHUNCHALAR

Tilshunoslik nazariyalari uchun eng zarur tushunchalar tilning sistemasi va strukturasi. Tilning sistemasi undagi barcha birliklar va bosqichlar (sathlar) o'rtasidagi o'zaro ichki bog'lanishlar va munosabatlarning majmui sifatida izohlanadi. Tilning strukturasini esa shu bog'lanish va munosabatlarning qay tarzda ekanligini ifodalaydi. Ba'zan sistema va struktura tushunchalari farqlanmaydi. Aslida til sistemasi boshqa fanlar sistemasi kabi o'z strukturasi ega. Ko'pincha "struktura" tushunchasini "tarkib" sifatida qaraladi. Lekin aslida tarkib tildagi bosqichlar, hodisa va jarayonlar tarkibi bilan chegaralanib qoladi. Struktura tushunchasi tarkibni ham qamrab oladi va fonemalar, morfemalar, gap tarkibi kabilarni o'z ichiga olib, ularning o'rtasidagi bog'lanishlarni va shu jumladan til bosqichlarining (sathlari) o'zaro munosabatlari qanday tarzda tuzilganini izohlaydi. Sistema va struktura tushunchalari bir mavzuga — tilga qaratilgani birisiz ikkinchisi bo'lmasligini ko'rsatadi. Shu sababli til — sistemaviy — strukturaviy tuzilma sifatida qaraladi. Tilning har bir bosqichi (fonologiya, morfologiya, sintaksis, leksika, stilistika) ham o'z sistemasiga, to'g'rirog'i "kichik sistema"ga ega. Shu sababli til butun bir sistemalar sistemasi sifatida izohlanadi.

Tilshunoslikda ko'p qo'llanadigan yana bir tushuncha "ramziy belgi"dir. Tilshunoslikda strukturalizm oqimining poy-

devorini yaratgan shvetsariyalik buyuk olim Ferdinand de Sossyur: "Til — tushunchalarni ifodalovchi belgilar sistema-sidir" — deb ta'rif bergan edi. Chunki tildagi tushunchalarni ifodalovchi belgilar undagi barcha birliklarni (fonema, morfema, soʻz, soʻz birikmasi, gap) qamrab oladi. Belgilar sistemasini va shu jumladan tildagi belgilarning umumiy va xususiy xususiyatlarini oʻrganuvchi fan — semiotika (grekcha semi — belgi, tika — fan) deb ataladi (Baʼzan uni "semiologiya" deyiladi). Tildagi belgilar oʻzining ikki jihati bilan ajralib turadi: a) eshitalish (ogʻzaki nutq) yoki koʻrish mumkinligi (yozma nutq belgilari) va b) maʼno jihati. Soʻz tilning markaziy birligi sifatida eshitalishi — akustik tomoni, yozuvda alohida belgilar — harflar bilan yozilishi bilan ajralib turadi. Tildagi bu sunʼiy belgilarni hayotimizdagi tabiiy belgilardan farqlash zarur. Turli sohalarga tegishli shartli belgilar, xususan koʻcha qoidalarini ifodalovchi belgilar, matematikadagi turli funksional va differensial hodisalarni ifodalovchi belgilar va h.k. Tilshunoslikda til belgilari sistemasi oʻziga xos murakkabligi bilan izohlanadi. Tildagi belgilarni sodda va murakkab, erkin va ramziy, toʻgʻri va yordamchi, tematik va notematik, statik (tinch) va dinamik (rivojlanishda), sharoitga bogʻliq va bogʻliq emas, ochiq va yopiq kabi turlarga boʻlinadi. Koʻrinadiki, til murakkab belgilar sistemasi hisoblanadi.

Hozirgi davr tilshunosligida anʼanaviy va struktural hamda bularning har ikkisidan foydalanib alohida tilshunoslik nazariyalari ishlab chiqilgan.

Struktural tilshunoslik oqimlari jahondagi turli mamlakatlarda oʻziga xos koʻrinishda mavjud. Ular qatorida Praga tilshunoslik taʼlimoti (V.Matezius, N.S. Trubetskoy, V.Vaxek va boshqalar), Amerika Qoʻshma Shtatlaridagi deskriptiv (L.Blumfeld, Z.Harris, G. Glison va boshqalar), tagmemika (K.Payk), stratifikatsion (S.M.Lamb), generativ tilshunoslik (N.Chomskiy, S.Shein, M.Xalle va boshqalar) oqimlari bor. Bulardan tashqari Fransiya, Germaniya, Angliya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda ham nom qozongan ilmiy tilshunoslik taʼlimotlari bor. Bu tilshunoslik yoʻnalishlarini keyincha "Umumiy tilshunoslik" kursida oʻrganiladi.

Hozirgi davr tilshunosligidagi eng dolzarb yoʻnalishlar qatorida sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika,

lingvokulturologiya, paralingvistika, etnolingvistika, antropolingvistika kabilarni ko'rsatish mumkin.

**Sotsiolingvistika.** Til va jamiyat, til va tafakkur (ong) o'rtasidagi bog'lanish eng murakkab va doimo dolzarb hisoblanadi. Tilning jamiyatdagi xizmatini o'rganish sohasi **sotsiolingvistika** (lotincha sotsio — jamiyat, tika — fan) deb ataladi. Sotsiolingvistika tilning jamiyatdagi o'rni va xizmati, uning jamiyatning turli tabaqalari va kasb egalari tomonidan qo'llanishidagi xususiyatlarni ilmiy tadqiq qiladi. Sotsiolingvistika tillarning jamiyatda qo'llanishiga ko'ra rasmiy, davlat, elat, qabila tillarini farqlaydi. Odatda umummilliy tillar davlat va rasmiy tillar sifatida qabul qilinadi. Ba'zi davlatlarda ikki, uch va undan ortiq tillar rasmiy til deb e'lon qilingan. Hindistonda tillar ko'pligi tufayli 14 ta til rasmiy deb e'lon qilingan va ikkinchi rasmiy til sifatida ingliz tili qabul qilingan.

O'zbekistonda **o'zbek tili davlat tili** maqomiga ega va bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida ko'rsatib qo'yilgan.

**Kognitiv tilshunoslik** (inglizcha cognize — bilmoq, anglamoq, tushunmoq) falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur (ong) bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslik psixologiyadagi tushuncha va konsept birliklari bilan ish ko'radi. Konsept tushunchasi asosida ma'no va obraz yotadi va ular bilim ummumlashmasi sifatida "kvant" deb ataladi. Konsept — ong — belgi o'rtasidagi bog'lanish miya faoliyati orqali boshqariladi. Masalan, yaxshilik konsepti barcha yaxshi narsa, belgi, xislat, odat va boshqalarni ifodalab, o'z "tushunchalar maydoni" ni tashkil etsa, "yomonlik" konsepti buning aksini ifodalaydi.

**Psixolingvistika** — psixologiya va tilshunoslik o'rtasidagi bog'lanishlar asosida hosil bo'lgan sohadir. "Psixolingvistika" termini 1946-yilda birinchi marta AQSHda N.Pronko tomonidan uning maqolasida qo'llangan va keyincha 1953-yilda Indiana Universitetida o'tkazilgan ilmiy anjumanda keng qo'llangan. Hozirgi davrda psixolingvistika sohasida jahonning turli mamlakatlarida qo'llanilayotgan nazariya va metodlar mavjud.



**Psixolingvistika** nutqning hosil bo'lish va eshitib his etish jihatlari nutq faoliyatining jamiyat va shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda murakkab sistema va struktura sifatida ilmiy tadqiq etadi. Psixolingvistikaning asosiy o'rganish mavzusi nutqning hosil bo'lishi, uning ongli eshitib his qilinishi va bolalar nutqining shakllanishidir<sup>1</sup>. Psixolingvistikaning xorijdagi ta'limotiga ko'ra boshqacha ta'rif ham mavjud. "Psixolingvistika til va nutqning inson ongidagi tabiati va strukturasiga ko'ra ko'zgusi" deb ta'rif beradi T.Skovel<sup>2</sup>. Psixolingvistika so'zlovchi va eshituvchining psixologiyasi, uning sharoitga bog'liqligi oddiy va ehtirosga berilgan holati, matnning strukturasiga bilan munosibati, turli nutq buzilishi bilan bog'liq kasalliklar (afaziya)ni ilmiy o'rganadi.

**Lingvokulturologiya** — til va madaniyat, o'zaro madaniy aloqa masalalarini ilmiy tadqiq etadi, chunki: "Til madaniyat bilan juda zich bog'langan, u madaniyatga yetib boradi, unda rivojlanadi va uni ifodalaydi"<sup>3</sup>. Bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf-odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoning til orqali ongli his qilish vositalarini o'rganadi. Dunyoning til xaritasi umuman ularning insonlar ongidagi mantiqiy ifodasi bilan mos keladi. Bu masalani keng va chuqur ilmiy o'rganish lingvokulturologiya va lingvokognitologiya bilan bog'liqdir.

**Etnolingvistika** — tilshunoslik, etnografiya va sotsiologiya bilan bog'liq bo'lib, tilning etnos (xalqning kelib chiqishi) bilan aloqasi va uning jamiyatdagi o'rnini o'rganadi. Etnolingvistikada til vositalari va kategoriyalarining etnik va ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda qo'llanishi o'rganiladi. Bu soha: — xalq va elatlarning kelib chiqishi (etnogenez va etnik tarix); — xalqlarning moddiy va madaniy tarixini (narsalar, odatlar, tushunchalar, belgilar, ramzlar va h.k.); — xalq tafakkuri tarixining shakllanishi; — til siyosati; — tilning tarqalish jarayoni va boshqalarni o'rganadi<sup>4</sup>.

**Antropolingvistika** — yozuviga ega bo'lmagan tillarni o'rganish sohasidir. Shu bilan birga u etnolingvistika va so-

<sup>1</sup> *Белянин В.П.* Психоллингвистика. М.: Флинта, 2003, с. 11.

<sup>2</sup> *Scovel Th.* Psycholinguistics. Oxford Univ. Press, 1998, p.4.

<sup>3</sup> *Маслова В.А.* Лингвокультурология. 2 издание. М.: Академия, 2004, с. 9.

<sup>4</sup> *Герд А.С.* Введение в этнолингвистику. Изд. Санкт-Петербургского Университета. 2005, с. 7.

tsiologvistik bilan bog‘liq bo‘lib, tilning inson madaniyati va ishonchiga doir andozalar (modellar) yordamida o‘rganadi. Antropolingvistika nutq jamoasini ijtimoiy, diniy, hududiy va qarindoshlik guruhlari sifatida farqlashda lisoniy xususiyatlarining o‘zgarishlarini o‘rganadi. Bunda turli ijtimoliy sharoit, kundalik muloqot, urf-odat, nutq madaniyati va savod kabilar e‘tiborga olinadi.

**Paralingvistika** — (grekcha para — atrof, lingvistika — fan, ya’ni “lingvistika tevaragidagi fan” ma’nosini anglatadi) tilni boshqarib borishda qo‘llanuvchi vositalarni o‘rganadi. U uchga bo‘linadi: 1) Kinesika, ya’ni imo-ishora, mimika, inson organizmidagi biror muruvatni qimirlatish vositasida biror tushunchani ifodalash; 2) Fonatsiya — inson ovoqidagi o‘zgarishlar, masalan, bo‘g‘izni qisish, “oh”, “uh”, “voh” kabi turli ehtirolarni ovoz yordamida ifodalash;

3) **Paragrafemika** — yozuvda shaxsiy belgilar yordamida turli tushunchalarni bildirish.

Paralingvistik vositalar turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar tomonidan har xil ifodalanadi. Og‘zaki va yozma nutqda ifodalanadigan turli paralingvistik vositalar doim bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Masalan, qosh va ko‘zning vositasida ifodalanadigan tushunchalar tildagi so‘zlar va gaplardan ko‘ra kuchliroq mazmuni bera olishi mumkin. Paralingvistik vositalar milliy, shaxsiy, diniy, psixologik, etnik, urf-odat va madaniyat bilan bog‘liq.

## TILSHUNOSLIK METODLARI

Tilshunoslikda metodologiya, metod va metodika tushuncha va terminlari farqlanadi. **Metodologiya** — (grekcha methodos — bilish yo‘llari, ilmi) qanday nazariya va prinsiplar asosida ilmiy tadqiq qilish poydevorini yaratishdir.

**Metod** — har bir fan uchun xususiy va barcha fanlar uchun umumiy bo‘lgan (masalan, qiyoslash metodi), manba’larni to‘plash va tasnif qilish, ulardagi eng asosiy xususiyatlarni o‘rganish uchun tildagi barcha birliklar, sathlar va rivojlanish jarayonlarini, o‘zgarishlarni bilish va aniqlash uchun qo‘llanadigan uslub va yo‘llar majmuidir. **Metodika** — ilmiy metod natijasida aniqlanganlarni amalda tadbiq etishdir. Shu maz-

munda xorijiy tillarga o'rgatish ham o'z metodikasiga ega. Ularni interaktiv metodika, tarjima vositasida tilga o'rgatish metodikasi va hakoza deb ataladi.

Endi tilning turli bosqichlarini o'rganishda qo'llanadigan metodlarni izohlab chiqamiz.

**Qiyosiy — tarixiy metod** — XIX asr boshida taklif etilgan bu metodning vazifasi qarindosh bo'lgan tillardagi qonuniyatlarni aniqlashdan iborat. Bu metod yordamida eng qadimiy qarindosh tillardagi so'zlar va ularning shakllarini tiklash uchun harakat qilingan (Tillarning geneologik tasnifiga qarang). Masalan, "ikki" so'zi lotincha duo, grekcha duo, uels tilida dau, inglizcha two, islandcha tveir, datcha twee shaklida bo'ladi.

**Tarixiy metodni** ko'pincha qiyosiy tarixiy metoddan farqlaydilar. Bizningcha bu ikki metodni birlashtirish mumkin. Chunki tarixiy metod ham tilning har bir sathidagi o'zgarishlarni o'rganadi. Bu ayniqsa so'zlar va ularning shakllarini ichki tiklashda ko'rinadi. Tarixiy tilshunoslikda **ichki tiklash metodi** yordamida so'z va ularning shakllaridagi fonetik va semantik o'xshashliklari aniqlanadi va ular bir o'zakdan paydo bo'lganligi taxmin qilinadi.

**Tavsif qilish metodi** tildagi turli hodisa va ma'lumotlarni, uning sathi va birliklarini izohlab beradi. Bu metod yordamida turli tillarning fonetika va stilistikasi sharhlab beriladi.

**Qiyosiy metod** — tillarning qarindoshligini hisobga olmay, ulardagi o'xshashlik (uni "izomorfizm" deyiladi) va farqlanishlarni (uni "allomorfizm" deyiladi) aniqlaydi. Bu metodning asosiy vazifasi ikki va undan ortiq tillarning sistema va strukturasini turli til bosqichlari bo'yicha qiyoslashdir. Ba'zan bu metodni qiyosiy-tipologik, chog'ishtirma, kontrastiv, konfrontativ nomlari bilan ataydilar. Aslida qiyosiy metod tillarni tipologik o'rganish metodining bir qismi hisoblanadi. Tillar tipologiyasi o'nlab va yuzlab tillarni qiyoslaydi, qiyosiy-tipologik metod ikki yoki uch tilni qiyoslash bilan chegaralanadi.

Qiyosiy tilshunoslik tillarni tipologik o'rganishdan farqlanib, bir yo'la nazariy va amaliy (lingvodidaktik) vazifalarni qamrab oladi<sup>1</sup>. Tillarni qiyoslashda ulardagi kichik sistemada qanday o'xshashlik va farqlar borligini tashqi jihatdan (unli va undosh-

<sup>1</sup> Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. Ташкент, Фан, 2007, с. 13.

lar soni, kelishiklar soni kabi) farqlarini topib, soʻngra ulardagi ichki oʻxshash va farqli belgilar aniqlanadi. Odatda ikki tilni qiyoslashni mantiqiy jihatdan **binar qiyoslash** deb ham yuritiladi. Tillarni qiyoslashda yaxshiroq oʻrganilgan tilni **etalon (andoza)** qilib olib, unga toʻgʻri keluvchi xususiyatlarni ikkinchi tilda topib tahlil qilinadi. Baʼzan esa biror tipologik belgini qiyoslanayotgan tillarda aniqlashga harakat qilinadi<sup>1</sup>. Qiyoslash metodi nazariy va amaliy jihatdan juda foydali boʻlib, u xorijiy tillarni oʻrganishning lisoniy asoslarini yaratishda katta ahamiyatga ega.

**Oppozitsiya** — qarama-qarshi qoʻyish, zidlov metodi tildagi birliklarning paradigmatic tasnifi uchun qoʻllaniladi. Tildagi barcha birliklar bir-birlariga qarama-qarshi boʻlib, oʻzaro soʻz, morfema, soʻz birliklari, turli grammatik konstruksiyalarni va gaplarni farqlaydi. Oppozitsiya metodi yordamida tildagi birliklar oʻrtasidagi turli qarama-qarshiliklarning umumiy turlarini aniqlash mumkin (bir oʻlchovli — a: b; koʻp oʻlchovli — a: b:c:d: kabi). Bu zidlovlarning aʼzolari oʻrtasidagi munosabatlarni proporsional va yakkalangan, privativ (+, — belgisi boʻyicha), pogʻonali (gradual) (masalan, |i-a|oʻrtada |e|ni “sakrab” oʻtiladi, yoki qaratqich kelishigi bilan chiqish kelishigi oppozitsiyasi oʻrtasidagi boshqa kelishiklarni tushirib qoldirishga asoslangan), teng huquqli (ekvipolent) oppozitsiya (masalan, |p-t||t-k|bir hil belgisi: portlovchi, jarangsiz) sifatida qaraladi<sup>2</sup>.

Distributiv metodi (inglizcha distributsiya — taqsimot) yordamida tildagi birlik va elementlarning qoʻllanish oʻrinlari va holati tushuniladi. Tildagi biror unli tovushning distributsiyasi uning soʻzning boshi, oʻrtasi va oxirida, urgʻuli yoki urgʻusiz holatda, ochiq yoki yopiq boʻgʻinda boʻlishini koʻrsatadi. Biror elementning umumiy distributsiyasi deganda, uning barcha qoʻllanish holatlari va boshqa elementlar bilan birikib kelishi tushuniladi.

Odatda toʻrt turli distributsiya farqlanadi:

1. Ikki elementdan biri uchragan oʻrinda ikkinchisi uchramasa, ular bir-birlariga nisbatan **toʻldiruvchi distribu-**

<sup>1</sup> Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. Л.: 1979, с. 62—65.

<sup>2</sup> Bu oppozitsiyalar lisoniy va mantiqiy jihatdan asoslangan. Qarang: Трубецкой Н.С. Основы фонологии. М.: 1960, с. 31—84.

**tsiyada** bo'ladi. Masalan, [p,t,k] undosh tovushlari unilardan oldin, ikki unli o'rtasida so'z oxirida kelganda, aspiratsiyali, boshqa o'rinlarda, undoshlar bilan yonma-yon kelsa, aspiratsiyasiz tovushlar hisoblanadi. Demak, aspiratsiyali [ph,th,kh] tovushlar uchragan o'rinda aspiratsiyasiz [p,t,k] tovushlari uchramaydi. Shu sababli bu tovushlar [p,t,k] fonemalarining ikki turli allofonlari hisoblanadi.

**2. Kontrast distributsiya** go'yo zidlovni eslatadi. Bir o'rinda qo'llanib, ma'noni farqlashga xizmat qiluvchi elementlar kontrast distributsiya deyiladi: tok-pok-nok so'zlari boshidagi undoshlar kontrast distributsiya bo'lib, shu so'zlarni farqlaydi. Bunday so'zlar minimal juftlikdagi so'zlar deyiladi. So'z boshidagi [p,t,k] tovushlari fonemalarning allofonlaridir.

**3. Erkin variatsiya.** Bir xil o'rinda uchrasa ham ma'noni farqlay olmaydigan elementlar erkin variatsiyada bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida [e] unlisi so'z boshida ochiq (eshik, echki kabi) va boshqa holatlarda yarim ochiq talaffuz etilishi uning turli variatsiyalarini ko'rsatadi. Bu distributsiya ba'zan ekvivalent (muqobil) distributsiya deb ataladi.

**4. Qisman ekvivalent distributsiya** ikki turli element bir o'rinda ba'zan ishlatilishi, lekin ma'noni farqlay olmasligi bilan izohlanadi. Masalan, "taroq" so'zi [taroq] va [tarog'], "cholg'u" so'zi [cholg'u] va [chalg'u] kabi talaffuz etilishi shu so'zlarning ma'nolarini farqlamaydi. Aslida esa, talaffuzda almashilgan tovushlarning har biri turli fonemalarning allofonlaridir.

**Transformatsiya metodi** tildagi elementlar va birliklarning turli gaplarda boshqacha yo'l bilan qayta tuzishda qo'llaniladi. Transformatsiyaning sintaksisdagi elementlarni o'zgartirishda qo'llanuvchi oddiy turlari: o'rin almashtirish, qo'shish, qisqartirish va tushirib qoldirishdir. Bu metodni AQSH olimi Z.Xarris taklif etgan va keyincha uni shogirdi N.Chomskiy alohida ilmiy tadqiq etgan. Bu metod matematika va mantiqdagi ba'zi tushuncha va tamoyillardan foydalanadi<sup>1</sup>.

Agar bir turdagi elementlarga ega bo'lgan ikki va undan ortiq konstruktsiyalar bir xil o'rinda uchrasalar, ularni transformalar deyiladi. Masalan, quruvchilar Toshkentda juda ko'p chiroyli binolar qurdilar — gapida transformalar quyidagicha

<sup>1</sup> Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику. М.: 1974, с. 252.

bo'lishi mumkin: Toshkentdagi juda ko'p chiroyli binolar quruvchilar tomonidan qurildi (passiv konstruktsiya). Juda ko'p Toshkentdagi chiroyli binolarni quruvchilar qurdilar. Juda ko'p chiroyli binolarni Toshkentda quruvchilar qurdilar va h.k.

Yuqoridagi tranformalar gapning biror ma'nosini o'zgartirishga ham xizmat qiladilar. Agar shu gap asosida dialog tuzsak, undagi elementlar o'z o'rnini o'zgartiradi, tushib qoladi va to'ldiradi.

- Binolarni kim qurgan?

- Toshkentdami?

- Ha, ularni quruvchilar qurgan.

- Ha, o'sha chiroyli binolarni...

Tranformatsiya metodi faqat sintaksisda emas, balki stilistik transformatsiya shaklida ham qo'llanmoqda. Unda sintaktik stilistika uchun eng zaruriy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

**Komponent tahlili metodi** ko'proq semantikada so'zlarning ma'nolarini chuqurroq o'rganishda qo'llanadi. Bunda so'zlarning ma'nolari ularning farqlanuvchi semantik belgilari — semalar yordamida tahlil qilinadi. Masalan, chelak va butilka so'zlarining sema tarkibini tahlil qilsak, chelak — aylana shaklda, qo'l ushlagichi bor, oyog'i yo'q, qopqog'i bor yoki yo'q, bo'yni yo'q idish bo'lsa, butilka — oynadan qilingan, suyuqlik solinuvchi, chuqur, qo'l ushlagichi va oyog'i yo'q idish hisoblanadi. Komponent tahlil asosida tildagi so'z turkumlarining va hatto gap tarkibida ishtirok etgan bo'laklarning semantik belgilari aniqlanishi mumkin.

**Maydon metodi.** Bu metodni leksik-semantik maydon yoki grammatik-leksik maydon<sup>1</sup> va ba'zan maydon nazariyasi<sup>2</sup> deb yuritishadi. Albatta, uning qo'llanishiga ko'ra nomini atash mumkin. Jumladan, so'zning barcha ma'nolarini aniqlashda semantik maydon metodi qo'llanadi. Grammatikada turli so'z turkumlarining ma'nolari o'rganilsa, ularni grammatik-leksik maydon metodi yordamida o'rganiladi. Bunda eng ko'p qo'llanuvchi leksik-grammatik birlikning ma'nosi uning, yadrosi, kam qo'llanuvchilari perefriyasi deb nomlanadi.

Tilshunoslikda hali noma'lum bo'lgan tillarni ilmiy

<sup>1</sup> Гулыга Е.В., Шендель Е.Н. Грамматико-лексические поля в немецком языке. М., 1968, — с. 5—17.

<sup>2</sup> Щур Г.С. Теории поля в лингвистике. М., 1974.

o'rganishda qo'llanuvchi "maydon tilshunosligi"ni maydon metodi bilan aralastirmaslik kerak. Maydon tilshunosligi o'rganilayotgan til ona tili bo'lgan shaxsni (uni odatda "informant" deyiladi) turli anketa va testlar yordamida savollarga javob olish yo'li bilan material to'playdi, fonetik transkripsiya qo'llaydi, tildagi asosiy fonologik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarni to'plab tahlil qiladi, ba'zi taxminiy fikrlarini keltiradi va zarur bo'lsa tarjimadan foydalanadi.

Maydon tilshunosligida qo'llanuvchi tamoyil va vositalar tillarni qadimiy o'rganish yo'llarini eslatadi. Bu usullar qalam va qog'oz yordamida tilni biluvchi shaxslarning talaffuziga quloq solib, ulardagi xususiyatlarni aniqlashni yodga soladi. Tilni o'rganishda, umuman, kuzatish, tavsif qilish, qiyoslash, tajriba (eksperiment) o'tkazish, distributsiya, transformatsiya, ma'no maydonini aniqlash, xarita tuzish (til yoki shevaning tarqalgani haqida — uni **lingvogeografiya deyiladi**), turli til birliklari, elementlari va vositalarini statistik tekshirish yordamida qancha va qayerda uchrashi metod va tamoyillari qo'llanadi.

---

<sup>1</sup> *Кибрик А.Е. Методика полевых исследований (к постановке проблемы). Изд. МГУ, 1972, с.179.*

# TILSHUNOSLIK TERMINLARINING QISQACHA IZOHLI LUG'ATI<sup>1</sup>

## 1. UMUMIY TERMINLAR

**Tilshunoslik** (lingvistika) — til haqidagi fan.

**Tilshunos** (lingvist) — tilshunoslik fani bo'yicha mutaxassis.

**Tilshunoslikka kirish** — tilshunoslik fani bo'yicha boshlang'ich saboqlar majmui.

**Umumiy tilshunoslik** — tilshunoslikning turli tillarga oid umumiy masalalarini o'rganuvchi sohasi.

**Xususiy tilshunoslik** — (masalan, o'zbek tilshunosligi) — tilshunoslikning alohida tillarni (jumladan, o'zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis, ispan va h.k.), ularning xususiyatlarini o'rganuvchi sohasi. Muayyan tilni o'rganuvchi mutaxassislar ilmiy tadqiq etuvchi tilning nomi bilan rusist, turkolog, germanist, afrikanist va h.k. deb ataladi.

**Til falsafasi** — Tilshunoslikning til va nutqning umumfalsafiy asoslarini o'rganuvchi sohasi.

**Antropolingvistika** (antropologik tilshunoslik) — tilshunoslikning til lug'ati, grammatikasi va boshqa xususiyatlarini o'rganuvchi sohasi.

**Paleolingvistika** (lingvistik paleontologiya) — tilshunoslikning til lug'ati, grammatikasi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, unda dastlabki so'zlagan xalqning hayoti va ma'lum hududda tarqalishi hamda tafakkur jihatini ilmiy tadqiq etuvchi sohasi.

**Sotsiolingvistika** 1) (til sotsiologiyasi) — tilshunoslikning til va ijtimoiy hayot o'rtasidagi bog'lanishning sabablarini ilmiy o'rganuvchi bo'limi; 2) Tillarni ijtimoiy farqlashni, ya'ni uning turli ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishini ilmiy o'rganuvchi sohasi.

**Etnolingvistika** — tilshunoslikning til va xalq o'rtasidagi

---

<sup>1</sup> Ushbu lug' atga tilshunoslikning boshlang' ich kursiga doir terminlar kirdi. Terminlar alfa-vit tartibida emas, balki mavzular bo'yicha berildi. Lug'atni tuzishda, asosan, quyidagi adabiyotlardan foydalanildi: A.A. Акишина. Пособие по курсу "Введение в языкознание": М., 1969. О.С.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. "Энциклопедия", М.: 1966; Хojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Т., Ensiklopediya. 2002. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Black well Publishing, 2003.



bog'lanishning urf-odat bilan bog'liq xususiyatlarning qo'llanishi va rivojlanishida o'zaro ta'sirini ilmiy o'rganuvchi sohasi.

**Psixolingvistika** — tilshunoslikning odam nutqi faoliyatini ruhiy jihatdan o'rganuvchi bo'limi.

**Lingvistik geografiya** (ba'zan dialektografiya, tilshunoslik geografiyasi deyiladi) — tilshunoslikning turli lahja va shevalarini aniqlashda undagi xususiyatlarning hududiy tarqalishini ilmiy o'rganuvchi sohasi

**Riyoziy** (matematik) tilshunoslik — tilni ilmiy tadqiq etishda riyoziy (matematik) metodlarning qo'llanishini o'rganadigan sohasi.

**Kognitiv tilshunoslik** — bilish nazariyasi asosida tilni ongli his qilishni o'rganish sohasi.

**Matn tilshunosligi** — tildagi turli sohalarga tegishli matnlarni (badiiy, ilmiy, texnik, hujjatlar va h.k.) ilmiy tadqiq qilish sohasi

**Amaliy tilshunoslik** — tilshunoslikning 1. Mashina yordamida tarjima va yozuvi bo'lmagan tillarni yaratishni tadqiq etuvchi sohasi. 2. Kishilarga xat-savod o'rgatish sohasi.

**Intralingvistika** — faqat tilga tegishli ma'lumotlarni o'rganish.

**Ekstralingvistika** — urf-odat, ijtimoiy-tarixiy, jug'rofiy, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarning tilning qo'llanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini o'rganish.

**Tilning ifoda jihati** — tilning tashqi tomoni, strukturasi, undagi birliklar (tovushlar, morfemalar, so'zlar, so'z birikmalari, gaplar).

**Tilning mazmun jihati** — tildagi birliklarning ma'no-mazmun tomoni.

**Paradigmatika** — tildagi birliklarni uning sistemasida birlashgan sinflar, guruhlar va h.k. tartibida qarab, ularni o'zaro qarama-qarshi qo'yish, masalan: x-u.

**Sintagmatika** — tildagi birliklarni bir yo'nalishda birlashtirish, masalan:  $A_1, A_2, \dots = A_x$ .

**Sinxroniya** — tilning hozirgi tuzilishini, holatini o'rganish.

**Diaxroniya** — tilning tarixiy tuzilishi, uning holati, rivojlanishi va o'zgarishlarini aniqlash.

**Makrolingvistika** — kishilik jamiyatidagi barcha belgi sistemalarini va ularning o'zaro bog'lanishlarini o'rganish.

**Mikrolingvistika** — bir til sistemasidagi aloqalar va qarama-qarshiliklarni o'rganish.

**Til** — 1) ma'lum jamiyat a'zolari o'rtasida muloqot qilish sistemasi bo'lib, tafakkurning rivojlanish vositasi sifatida madaniy-tarixiy an'analarni bir avloddan ikkinchisiga yetkazish uchun xizmat qiluvchi vosita; 2) tildagi birliklar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish — til sistemasi va undagi birliklar o'rtasidagi bog'lanishlarning qay tarzda ekanligi — til strukturasi. Ana shu ma'noda "til" "nutq" terminiga qarama-qarshi qo'yiladi.

**Nutq** — gapirish, so'zlashish, muloqot jarayoni; tilning muloqotda namoyon bo'lishi.

## 2. TILSHUNOSLIK OQIMLARI (MAKTABLARI)

**Yosh grammatikachilar** — tildagi alohida xususiyatlarni faqat tarixiy jihatdan qarab, fonetik qonuniyatlarning barcha tillar uchun umumiy, o'zgarmas tarzda ekanligini taklif etgan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi tilshunoslik oqimi. Bu maktabning namoyandalari: rus tilshunoslari — F.F.Fortunatov, A.Shaxmatov, nemis tilshunoslari — I.Shmidt, G.Ostgof, K.Brugman, G.Paul, fransuz tilshunosi — M.Breal va boshqalar.

**Naturalistik oqim** — tilni tabiiy organizm sifatida qaragan XIX asrdagi tilshunoslik oqimi (nemis tilshunoslari — A.Shleyxer, M.Moller bu oqim namoyandalari).

**Psixologizm** — tilni psixologik faoliyat natijasi deb qaraydigan tilshunoslik oqimi.

**Strukturalizm** — tildagi ichki aloqalarni va tildagi bosqichlar o'rtasidagi bog'lanishlarni hozirgi asr tilshunosligida turli maktab namoyandalari tomonidan ilmiy o'rganuvchi oqim (AQSH, Daniya, Praga, fransuz strukturalizm maktablari mavjud).

**Tasviriy (deskriptiv) tilshunoslik oqimi** — tilni formal usullar yordamida o'rganish oqimi. Bu oqimning turli ko'rinishlari mavjud. Ulardan biri Amerika deskriptiv tilshunosligi bo'lib, uning ko'zga ko'ringan namoyandlari: L.Blumfild, Z.Xarris, G.Glisson va boshqalar.

**Kopengagen maktabi (Glossematika struktural oqimi** — datcha "glossema" — "til" ma'nosidan) — Daniya tilshunosligidagi struktural oqim. Bu maktab tilning ichki qurilishidagi umumiy xususiyatlarni tekshiruvchi metodlarni taklif etgan.

**Jeneva maktabi** — tilning hozirgi ijtimoiy xizmatini o'rganish

bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini o'rganuvchi oqim. Uning namoyandalari: Sh.Balli, Sh.Seshe, S.Karsevskiy kabilar.

**Praga maktabi** — struktural-funksional oqim bo'lib, tilning ifoda va mazmun hamda boshqa tomonlarini o'rganuvchi oqim. Bu maktab namoyandalari: V.Matezius, V.Skalichka, B.Trnka, Y.Vaxek, N.S.Trubeskoy va boshqalar.

### 3. TILNI ILMYIY TADQIQ ETISH USULLARI

**Lingvistik usul** — tilni ilmiy tadqiq etish usullarining yig'indisi.

**Eksperimental-fonetik usul** — nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u va intonatsiyani alohida apparatlar yordamida (kimograf, spektograf, ossillograf, rentgen va h.k.) o'rganuvchi usul.

**Qiyosiy-tarixiy usul (Komparativistika)** — qarindosh tillardagi eski manbalar va ularning hozirgi xususiyatlarini qiyoslash natijasida tillarning qadimiy alomatlarini aniqlash usuli.

**Qiyosiy-tipologik usul (ba'zan kontrastiv yoki konfrantativ usul deyiladi)** — tillarning qarindoshligidan qat'i nazar, ulardagi o'xshash va farqli alomatlarni aniqlash metodi. Ba'zan qiyosiy usul nomi bilan ikki yoki undan ortiq tillarning fonetik, grammatik, leksik va uslubiy (stilistik) xususiyatlarini chog'ishtirib o'rganish tushuniladi. Masalan: rus va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi.

**Distributiv usul** — tildagi birliklarning (fonema, morfema kabi) turli o'rinlarda ishlatilishini o'rganuvchi usul.

**Struktural usul** — til sistemasidagi aloqalar, bog'lanishlar va qarama-qarshiliklar asosida ulardagi birliklar va turli xususiyatlarni aniqlash usuli.

**Transformatsion usul** — tildagi ma'lum sintaktik qurilishni (strukturani) uning boshqa ko'rinishlari bilan almashtirish usuli.

### 4. TILSHUNOSLIKNING BO'LIMLARI

**Fonetika** — tilning tovush tomoni bo'g'in, urg'u va intonatsiyaning artikulyasion, akustik va eshitib his qilish tomonlarini o'rganuvchi bo'lim.

**Fonologiya** — tilning tovush (fonema), bo'g'in, urg'u va intonatsiyasidagi funksional, farqlanish va farqlanmaslik alomatlarini o'rganuvchi bo'lim.

**Orfoepiya** — fonetikaning to‘g‘ri talaffuz (og‘zaki nutq) normalari haqidagi bo‘limi.

**Orfografiya** — yozma nutqning imlo qoidalari majmui.

**Grafika** — yozuv belgilari yoki harflar haqidagi bo‘lim.

**Punktuatsiya** — tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bo‘lim.

**Morfonologiya** — fonologiya va morfologiya oraliq‘idagi til bosqichi bo‘lib grammatik (morfologik) jihatdan bog‘liq bo‘lgan fonemalar almashinuvlarini o‘rganadi.

**Grammatika** — so‘z shakllari, so‘z birikmalari va gap haqidagi bo‘lim (grammatika — morfologiya va sintaksis bosqichlaridan iborat).

**Morfologiya** — grammatikaning so‘z tarkibi va so‘z o‘zgartirish yo‘llarini o‘rganuvchi bo‘lim.

**Sintaksis** — grammatikaning so‘z birikmalari va gap tuzilishini o‘rganuvchi bo‘limi.

**So‘z yasash** — grammatikaning so‘zlarning yasalishi haqidagi bo‘limi.

**Leksikologiya** — tilning lug‘at tarkibini o‘rganuvchi bo‘limi.

**Toponimika (toponimiya, toponomastika)** — jug‘rofiy nomlarni o‘rganuvchi bo‘lim.

**Onomastika (onomatologiya)** — shaxsiy nomlarni o‘rganuvchi bo‘lim.

**Antroponimika** — odam nomlarini o‘rganuvchi bo‘lim.

**Etimologiya** — so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganuvchi bo‘lim.

**Frazeologiya** — tildagi turg‘un so‘z birikmalarini o‘rganuvchi bo‘lim.

**Semasiologiya (semantika)** — tildagi birliklarning ma‘nolarini o‘rganuvchi bo‘lim.

**Stilistika** — tilshunoslikning tildagi funksional uslublar va tildagi birliklarning ekspressiv his-hayajon uyg‘otish bilan bog‘liq tomonlarini o‘rganuvchi bo‘limi. Ba‘zan uni adabiyotshunoslik stilistikasi (adabiy uslublarni tekshirganda) va lingvostilistika — lingvistik stilistika (tilshunoslik bilan bog‘liq bo‘lganda) deb ikkiga ajratadilar.

**Sintaktik semantika** — sintaktik birliklarning (so‘z birikmalari va gap) ma‘no-mazmun tomonlarini o‘rganuvchi bo‘limi.

**Morfemika** — tilning eng kichik ma'noli birliklari bo'lgan morfemalarning strukturasi, ularning turlari va tuzilishini o'rganuvchi bo'lim.

**Morfonema** — morfemalardagi fonemalar almashinuvini ifodalovchi atama.

## 5. FONETIKA VA FONOLOGIYA

**Artikulyasiya** — nutq a'zolarining tovush talaffuzidagi xizmati.

**Unli tovushlar (vokalizm)** — havo oqimi to'siqqa uchramay hosil bo'luvchi tovushlar.

**Undosh tovushlar** — havo oqimi biror to'siqqa uchrab hosil bo'luvchi tovushlar.

**Ekskursiya** (talaffuzning boshlanishi) — tovushlarning talaffuzida nutq a'zolarining xizmat qilishidagi boshlang'ich holat.

**O'rta holat**(выдержка) — nutq a'zolarining talaffuzidagi asosiy holati.

**Rekursiya** (talaffuzning oxiri) — nutq a'zolarining talaffuzdan keyingi bevosita holatga qaytishi.

### UNLI TOVUSHLARNING TASNIFI

**Ochiq unli** — og'izning katta ochilishi va tilning ancha pastga tushishi natijasida hosil bo'luvchi unli. Masalan: a, o.

**Yopiq unli** — og'izning kichik ochilishi va tilning ancha yuqoriga ko'tarilishi natijasida hosil bo'luvchi unli tovush. Masalan: i, u.

**Yarim ochiq yoki yarim yopiq unli** — og'izning ochiq unlining talaffuzidagidan ko'ra kichikroq ochilishi va tilning pastroq tushishi natijasida hosil bo'luvchi unli. Masalan: e, o'.

**Cho'ziq unli** — cho'ziq talaffuz etiluvchi unli tovush. Masalan: inglizcha, i:, u:, fransuzcha ε kabi.

**Qisqa unli** — qisqa talaffuz etiluvchi unli tovush. Masalan: inglizcha, I, e, kabi.

**Yarim cho'ziq unli til oldi qator unlisi** — uncha cho'ziq bo'lmagan unli tovush.

**Old qator unlisi** — til oldiga harakat qiluvchi unli : i, e, a.

**Til o'rtta qator unlisi** — talaffuzida til og'izning o'rtta qismiga qarab harakat qiluvchi tovush. Masalan: rus tilidagi ы, а.

**Aralash qator unlisi** (yoki indifferent inglizcha “indifferent”) — til yassi holatda bo'lib, tilning oldinga yoki orqaga harakati muayyan bo'lmagan unli. Masalan: ingliz tilida ə: ə.

**Til orqa qator unlisi** — talaffuzida til orqaga qarab harakat qiluvchi unli tovush. Masalan: u, o', o.

**Lablangan unli** — talaffuzida lablar harakat qiluvchi unli tovush. Masalan: u, o', o.

**Lablanmagan unli** — talaffuzida lablar harakat etmaydigan unli tovush. Masalan: i, e, a.

### UNDOSH TOVUSHLARNING TASNIFI

**Shovqinli undoshlar** — talaffuzida shovqinning kuchi tonga nisbatan ortiq bo'lgan undoshlar. Masalan: d, t, s, z, k, g kabilar.

**Sonor tovushlar** (yoki sanantlar) — talaffuzida shovqindan ton kuchli bo'lgan tovushlar. Masalan: l, r, m, n kabilar.

**Jaranglilar** — talaffuzida tovush paychalari titraydigan undoshlar. Masalan: b, d, g, z, v kabilar.

**Jarangsizlar** — talaffuzida tovush paychalari titramaydigan undoshlar. Masalan: p, t, k, s, f kabilar.

### UNDOSH TOVUSHLARNING TALAFFUZ O'RNIGA KO'RA TASNIFI

**Lab** (labial) **undoshlar** — talaffuzda lablar ishtirok etuvchi undoshlar. Masalan: b, f, v, m kabi.

**Lab-lab** (bilabial) **undoshlar** — yuqori va pastki lablarning jipslashuvi natijasida hosil bo'luvchi undoshlar. Masalan: b, p, inglizcha m, w.

**Lab-tish** (labiodental) **undoshlar** — talaffuzida yuqori lab va pastki old tishlar ishtirok etuvchi undoshlar. Masalan: f, v, inglizcha f, v.

**Til undoshlari** — talaffuzida til ma'lum harakatni bajaruvchi undoshlar. Masalan: t, d, s, z, sh, k, g kabi. Tilning qaysi qismi harakat qilishiga ko'ra, ular asosan uchga bo'linadi: til oldi — t, d, s, z, sh, k kabi. Til o'rtta — y, til orqa — k, g, x, g', q kabilar.

**Til o'rtta** (interdental) **undoshlari** — til uchi va tishlar oralig'idagi

havo oqimi sirg'alib o'tuvchi undoshlar. Masalan, turkman tilida  $\theta$ , inglizcha  $\theta$   $\delta$ .

**Tish** (dental) **undoshlari** — til uchi pastki tishlarga tekizilisi natijasida hosil bo'luvchi undoshlar. Masalan: o'zbek tilida t, d kabi.

**Tanglay** (alveolyar) **undoshlari** — tilni qattiq tanglayga bosish orqali hosil bo'luvchi undoshlar. Masalan, ingliz tilida t, d kabi.

**Yumshoq** (palatal) **undoshlar** — til uchi pastki tishlarga tekizilishi natijasida hosil bo'luvchi undoshlar. Masalan: rus tilida t, d, s, z kabi.

**Tanglay orqa** (veliyar) **undoshlari** (yoki chuqur til orqa undoshlar) — til orqa qismining tanglayning orqa qismiga tomon ko'tarilishi bilan talaffuz etiluvchi tovushlar. Masalan: k, g, x, q, g'.

**Bo'g'iz** (faringal) **undoshlar** — havo oqimining bo'g'izda hosil bo'lishi bilan talaffuz etiluvchi undoshlar. Masalan: h.

**Uvulyar undoshlar** — kichik til yordamida hosil bo'luvchi tovushlar. Masalan: g', fransuz tilida g.

**Palatalizatsiya** — undoshlarning yumshatilishi hodisasi. Masalan: yumshoq l.

**Velyarizatsiya** — undoshlarning yumshatilishi hodisasi. Masalan: qattiq t.

#### HOSIL BO'LISH USULIGA KO'RA

**Sirg'aluvchi** (firikativ, spirant) **undoshlar** — havo oqimining to'siqdan sirg'alib o'tishi natijasida hosil bo'luvchi tovushlar. Masalan: s, z, v, x, sh kabi.

**Portlovchi undoshlar** — havo oqimining qattiq to'siqqa uchrashi bilan hosil bo'luvchi tovushlar. Masalan: p, b, t, d, k, g kabi.

**Affrikatlar** — birinchi tovush portlovchi va ikkinchi tovush sirg'aluvchi bo'lgan murakkab tovushlar. Masalan: ch (tsh), j (dj), s (ts).

**Burun** (nazal) **undoshlar** — talaffuzida havo oqimi burundan o'tuvchi tovushlar. Masalan: m, n, ng.

**Yon** (sonor) **tovushi** — talaffuzida havo oqimi til yonidan o'tuvchi tovushlar. Masalan: l.

**Titroq** (sonor) **tovushi** — talaffuzida nutq a'zolarining davomiy titrashi natijasida hosil bo'luvchi undoshlar. Masalan, r.

**Kombinator o'zgarishlar** — akkomodatsiya, assimilatsiya, dissimilatsiya, diyereza, epenteza, gaplogiya hodisalarining majmui.

**Pozitsion o'zgarishlar** — reduksiya, proteza hodisalari pozitsion o'zgarishga kiradi.

**Reduksiya** — urg'usiz bo'g'inlarning kuchsizlashuvi va talaffuzining o'zgarishi.

**Miqdor reduksiyasi** — urg'usiz bo'g'inlarda unlilar cho'ziqligining o'zgarishi.

**Sifat reduksiyasi** — urg'usiz bo'g'inlarda unlilar sifatining o'zgarishi.

**Akkomodatsiya** — yondosh tovushlar artikulatsiyasining moslashuvi. U uch turli bo'ladi: progressiv — oldingi tovush artikulatsiyasining keyingi tovush talaffuziga moslashuvi; regressiv — keyingi tovush artikulatsiyasining oldingi tovush artikulatsiyasiga moslashuvi. O'zaro har ikki tovush artikulatsiyalarining moslashuvi. Masalan: traktor so'zida t va r undoshlari o'zaro moslashib, t ta'sirida r jarangsizroq, r ta'sirida t biroz shovqinliroq (sonorlik) belgilariga ega bo'ladi.

**Assimilatsiya** — tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida ulardan birining artikulatsion-akustik xususiyatlari o'zgarishi.

**Progressiv assimilatsiya** — oldingi tovush talaffuzining keyingi tovush talaffuziga ta'siri.

**Regressiv assimilatsiya** — keyingi tovush talaffuzining oldingi tovush talaffuziga ta'siri.

**To'liq assimilatsiya** — tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida ulardan birining artikulatsion-akustik xususiyatlari o'zgarishi.

**To'liq bo'lmagan assimilatsiya** — tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida ulardan ba'zi belgilarning o'zgarishi.

**Kontakt assimilatsiya** — yondosh tovushlarning o'zaro ta'siri.

**Distant assimilatsiya** — so'z yoki so'z birikmasi tarkibida bir-biridan uzoqroq joylashgan tovushlarning o'zaro ta'siri.

**Dissimilatsiya** — bir tipdagi tovushlarning o'zgarishi.

**Gaplogiya** — bir yoki ikki bir xil bo'g'inlarning tushirib qoldirishi. Masalan: morfologiya — morfonologiya.

**Epenteza** — zarur bo'lmagan tovushni qo'shib aytish: turanboy — tramvay.



**Proteza** — soʻzning boshida tovushni qoʻshib aytmoq. Masalan: stakan — istakon.

**Metateza** — tovushlar va boʻgʻinlarning oʻrin almashinuvi. Masalan: talerka — tarelka, turpoq — tuproq.

**Prokliza** — urgʻusiz soʻzni urgʻuli soʻzdan keyin qoʻshib aytish.

**Enkliza** — urgʻusiz soʻzni urgʻuli soʻzdan keyin qoʻshib aytish.

**Boʻgʻin** — bir yoki bir necha tovushlarning birikuvidan hosil boʻlgan nutq boʻlagi.

**Boʻgʻin chizigʻi** — boʻgʻinlarni ikkiga boʻlish chegarasi.

**Segment** — talaffuzdagi nutq boʻlagi. Katta nutq boʻlagi — fraza makrosegment, kichik nutq boʻlagi — takt, boʻgʻin, tovush mikrosegment deyiladi.

**Ochiq boʻgʻin** — unli tovush bilan tugagan boʻgʻin.

**Yopiq boʻgʻin** — undosh tovush bilan tugagan boʻgʻin.

**Yarim ochiq boʻgʻin** — sonor tovush bilan tugagan boʻgʻin.

**Boʻgʻin tovush** — boʻgʻin hosil qiluvchi tovush, yaʼni katta kuch bilan talaffuz etiluvchi va boʻgʻin choʻqqisini hosil qiluvchi tovush. Odatda, unli va sonor tovushlar boʻgʻin tovushlari hisoblanadi.

**Fonema** — fonologik birlik; soʻzlar va morfemalarni tashkil etuvchi va oʻzaro farqlashga xizmat qiluvchi mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan eng kichik til birligi. Masalan: kon — non, bir — kir kabi.

**Fonemaning varianti** (yoki allofoni) — fonemaning bir koʻrinishi yoki uning muayyan tovushda namoyon boʻlishi.

**Fonemaning fonologik boʻlmagan** (farqlanmagan) **belgisi** — bir fonemani ikkinchisidan farqlashga xizmat qiluvchi artikulyatsion-akustik belgilar. Masalan: tur — qur da t-q fonemalarining jarangsizlik, portlovchilik belgilari fonologik emas.

**Fonologik oppozitsiya** (yoki fonemalar oppozitsiyasi) — fonemalarni fonologik belgilari asosida qarama-qarshi qoʻyish. Masalan: bir — sir kabi.

**Minimal juftlikdagi soʻzlar** (kvaziomonimlar) — fonemalarni oʻzaro qarama-qarshi qoʻyish uchun ishlatiluvchi soʻzlar. Masalan: kel — sel, ber — ter, xol — hol kabi.

**Fonemalar** (pozitsiyasi) **holati** — fonemalarning oʻrni; fonemalarni namoyon etuvchi tovushlarning talaffuz qilinish sharoiti.

**Fonemalarning kuchli holati** (pozitsiyasi) — fonemalar variantining talaffuzda o'zgarib qolgan holat. Masalan, unlihar urg'uli bo'g'ida kuchli holatda (pozitsiyada) hisoblanadi.

**Fonemalarning kuchsiz holati** (pozitsiyasi) — fonema o'z aytishini o'zgartira oluvchi o'rin.

**Diftong** — bir bo'g'indagi ikki unli tovushning birikmasi.

**Urg'u** — bo'g'in yoki so'z birikmalarini fonetik vositalar (ovozning ko'tarilishi, cho'zib yoki ovoz tonini baland ko'tarish, ton intensivlik) yordamida ajratib ko'rsatish.

**So'z urg'usi** — so'zdagi bo'g'inga tushgan urg'u.

**Ibora** (fraz) **urg'usi** (ba'zan gap urg'usi deyiladi) — nutqda iboralarga (frazalarga), so'z birikmalariga tushuvchi urg'u.

**Mantiqiy** (logik) **urg'u** — nutqda biror so'zni ajratib ko'rsatish uchun qo'llanuvchi urg'u.

**Dinamik** (kuch, eksplikator) **urg'u** — talaffuz kuchi bilan bo'g'in ajratish. O'zbek, rus, ingliz, fors tillari shunday urg'uga ega.

**Musiqiy** (ton, melodik) **urg'u** — ovoz tonining harakati yordamida bo'g'in ajratish. Xitoy, yapon, tay, koreys, yapon tillari shunday urg'uga ega.

**Cho'ziqlik** (kvantitativ) **urg'usi** — bo'g'inni cho'zib aytish orqali ajratish. Chex va grek tillari shunday urg'uga ega.

**Ibora** (fraz) — nutqning eng katta fonetik bo'lagi.

**Intonatsiya** — frazaga tegishli bo'lgan ovoz sur'ati (tempo), sifati (tembri), nutq ritmi, melodika, iboraviy urg'u, pauza kabi fonetik vositalarning murakkab birligi.

**Intonologiya** — fonetikaning intonatsiyani o'rganish bo'limi.

**Prosodika** (prosodiya) — fonetikaning bo'g'in, urg'u va intonatsiyani ilmiy tadqiq etuvchi bo'limi.

**Prosodik element** — bo'g'in, urg'u va intonatsiyani tashkil etuvchi elementlar: ohang (melodika), iboraviy urg'u, pauza, ritm, nutqning sur'ati va sifati, ovozning ko'tarilishi, kuch va cho'ziqlikka tegishli fonetik vositalar.

**Pauza** — nutqni bo'lib aytish.

**Ritm** — nutqda urg'uli va urg'usiz hamda cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning munosabati.

**Nutq sur'ati** (tempo) — nutqning aytilish sur'ati (sokin, normal, tez talaffuz qilish).

**Ovozning sifati** (tembri) — ovozning sifati: neytral va turli his-hayajonni ifodalovchi ovoz.

**Ohang** (melodika) — talaffuzda ovozning pasayishi va ko'tarilishi.

## 6. LEKSIKOLOGIYA VA SEMANTIKA

### UMUMIY TERMINLAR

**Leksika** (yoki leksikon) — ma'lum tildagi so'zlarning yig'indisi.

**So'z** — muayyan borliq bilan bog'liq bo'lgan mustaqil ma'noga ega bo'lgan va alohida qo'llana oluvchi tilning markaziy birligi.

**Leksema** — so'zning barcha grammatik shakllarining yig'indisi. Masalan: kitob, kitobga, kitoblar, kitoblarda va hokazo.

**So'zning tashqi shakli** — so'zning tovush tomoni.

**So'zning ichki jihati** — so'zning ma'no-mazmun tomoni.

**Polisemiya** — bir so'zning bir necha ma'nolari. Masalan: bosh — 1) odam organizmining bir qismi; 2) ishboshi; 3) guruhboshi kabi.

**Omonimiya** — ikki yoki undan ortiq so'zlarning tashqi jihatdan to'g'ri kelishi. Masalan: tok — uzum, tok — elektr kabi.

**Atama** (termin) — fan va texnikadagi tushunchalarni ifodalash uchun qo'llanuvchi maxsus so'z yoki so'z birikmasi. Masalan, aviator, transkripsiya, televizor kabi.

**Kontekst** — nutq sharoiti (situatsiyasi); so'z yoki so'z birikmasining matndagi ma'lum o'rin yoki ularning boshqa so'z va so'z birikmalari bilan yondosh kelishi.

**So'zning ma'nosi** — so'zning u ifodalaydigan predmet va hodisa bilan aloqasi.

### SO'ZLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI BO'YICHA TASNIFI

**So'zning asosi** — so'zning o'zagiga mos kelgan qism. Masalan: tosh, bir, somon kabi.

**Yasama so'z** — affikslar qo'shish yordamida hosil bo'lgan so'z. Masalan: toshloq, ishchi, bormoq, qurish kabi.

**Qo'shma so'z** — kamida ikki o'zak morfemadan hosil bo'lgan so'z. Masalan: gultojixo'roz, moshxo'rda kabi.

**Abbreviatura** — qisqartma so'zlar. Masalan, O'zMU kabi.

#### SO'ZLARNING SEMANTIK BELGILARI BO'YICHA TASNIFI

**Bir ma'noli so'z** — bir ma'noga ega bo'lgan so'z.

**Ko'p ma'noli so'z** — bir necha ma'nolarga ega bo'lgan so'z. Masalan: bosh — 1) odam organizmining tepa qismi; 2) miya, aql; 3) biror narsaning boshlanish qismi; 4) boshliq — ishning boshi kabilar. Aynan polisemiya.

**Omonimlar** — bir xil talaffuzga, lekin turli ma'nolarga yoki yozi-lishga ega bo'lgan so'zlar. Masalan: o't — qirdagi maysa, o't — yong'in, o't — biror yerdan o'tmoq fe'lining buyruq mayli shakli.

**Omofonlar** — bir xil talaffuzga, lekin har xil yozilishga ega bo'lgan so'zlar. Masalan: bod (bot) — revmatizm kasalligi; bot— botmoq fe'lining buyruq mayli shakli.

**Omograflar** — bir xil yozilishga, lekin har xil talaffuzga va ma'noga ega bo'lgan so'zlar. Masalan: To'xta — odam ismi (urg'u oxirgi bo'g'inda); to'xta — to'xtamoq fe'lining buyruq mayli shakli (urg'u birinchi bo'g'inda).

**Sinonimlar** — yaqin ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar. Masalan: aft, bashara, nusxa, yuz, turq kabi.

**Antonimlar** — qarama-qarshi ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar. Masalan: yomon-yaxshi, chiroyli-xunuk, uzun-qisqa kabi.

#### MA'NOLARNING TURLARI

**Asl (asosiy) ma'no** — boshqa ma'nolariga bog'liq bo'lmagan asl ma'no. Masalan: bosh — odam organizmining yuqori qismi.

**Ko'chma ma'no** — asl ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ma'no. Masalan: tulki — ayyor odam.

**Aniq (konkret) ma'no** — ma'lum narsani atovchi ma'no. Masalan: choy, non, shakar kabi.

**Mavhum (abstrakt) ma'no** — mavhum narsani ifodalovchi ma'no. Masalan: tafakkur, kishilik, suyuqlik kabi.

**Atama (terminologik) ma'no** — tushunchaga mos keladigan ma'no. Masalan: morfema, teorema, algebra kabi.

**Umumiy ma'no** — kundalik turmushda qo'llanuvchi, atama bo'lmagan ma'no. Masalan: Yulduz — hayotiy tushuncha, biroq astronomiyaga tegishli emas.

**Obrazli ma'no** — biror narsani yuksak tuyg'u bilan ifodalovchi ma'no. Masalan: kamonqosh, ohuko'z kabi.

**Emotsional ma'no** — his-hayajon tuyg'usini ifodalovchi ma'no. Masalan: do'ndiq, mitti (juda kichik ma'nosida).

**Stilistik ma'no** — obrazli, his-hayajon tuyg'usini ifodalovchi ma'no.

## FRAZELOGIYA

**Frazeologizm** — tildagi turg'un birikmalar. Frazeologik birikmalarining umumiy nomi.

**Frazeologik qo'shilma** — tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchisi ko'chma ma'noda bo'lib birikkan ibora. Masalan: hordiq (to'g'ri ma'noda) chiqarmoq (ko'chma ma'noda) kabi.

**Frazeologik butunlik** — tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik jihati birikib, umumiy ko'chma ma'no beruvchi turg'un birikma. Masalan: eti suyakka yopishgan (ozg'in), yuragi orqasiga tortmoq(qo'rqmoq).

**Frazeologik chatishma** — tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmaydigan frazeologizm. Masalan: sichqonning inini ijaraga olmoq, temirni qizig'ida bosmoq kabi.

**Frazeologik sinonimlar** — ma'nolari yaqin bo'lgan frazeologizmlar. Masalan: bag'ri tosh — toshmehr.

**Frazeologik antonimlar** — ma'nolari qarama-qarshi bo'lgan frazeologizmlar. Masalan: bag'ri tosh — ko'ngli bo'sh.

**Frazeologik omonimlar** — shakli to'g'ri kelib, turli ma'nolarni ifodalovchi frazeologizmlar. Masalan: javobini bermoq — 1) biror savolga javob bermoq; 2) biror xizmatchini ishdan bo'shatmoq kabi.

## SO'ZLARNING SINTAKTIK FUNKSIYASIGA KO'RA

**Mustaqil so'zlar** — mustaqil ma'noga ega bo'lib, gap bo'laklari vazifasini bajaruvchi so'zlar. Masalan: uy, kitob, daftar, shakar kabi.

**Yordamchi so'zlar** — mustaqil ma'noga ega bo'lmagan, gap

bo'laklari vazifasida kelmaydigan so'zlar. Masalan: va, ham, xuddi kabi.

### SO'ZLARNING KELIB CHIQISHIGA KO'RA

**Haqiqiy leksika** — shu tilning o'zidagi so'zlar.

**O'zlashgan so'zlar** — boshqa tillardan kirib kelgan (o'zlashgan) so'zlar.

**Kalkalash** — boshqa tildagi so'zning tuzilishidan nusxa olib ko'chirish yordamida kirib kelgan so'zlar. Masalan: poluprovodnik — yarimo'tkazgich kabi.

**Xalq etimologiyasi** — boshqa tildan kirgan so'zni ma'lum tildagi aytilishi yaqin bo'lgan so'zga o'xshatib talaffuz qilish hodisasi. Masalan: mramor — marmar.

**Dietimologizatsiya** — so'zlarning bir o'zakdan kelib chiqqanligini aniqlash uchun to'siq bo'lgan jarayon. Masalan: "akvarel" so'zining "akva" qismi bo'yoq, ikkinchi qismi — "jonivor" (baliq) ma'nosida qo'llangan. Aslida bu so'z italyan tilidan olingan.

**Internatsionalizm** (baynalmilal so'zlar) — ko'pchilik tillar tomonidan biror manbadan qabul qilingan so'z yoki so'z birikmasi. Masalan: evolutsiya, filologiya kabi.

**Purizm** — chet tiliga oid so'zlarni qabul qilishga qarshi oqim. Uning namoyandalari "puristlar" deb ataladi.

### SO'ZLARNING ISHLATILISHIGA KO'RA TASNIFI

**Umumiy leksika** — tilda keng qo'llaniluvchi, ishlatilishi chegranalanmagan so'zlar.

**Dialektizm** — lahja va shevalarda ishlatiluvchi so'z yoki ibora. Masalan: shoti (narvon), likop (tarelka).

**Professionalizm** — ma'lum kasb-hunarga tegishli so'zlar.

**Aktiv lug'at** (aktiv leksika) — keng qo'llanuvchi, ko'pchilikka tushunarli bo'lgan so'zlar yig'indisi. Masalan: mashina, suv kabi.

**Passiv lug'at** (passiv leksika) — nutqda kam qo'llanuvchi so'zlar yig'indisi. Masalan, zotan, po'rtana kabi.

**Neologizm** — tilda yangi paydo bo'lgan so'zlar.

**Istorizm** — tilda eskirib qolgan so'zlar. Masalan: ellikboshi, yuzboshi, qozi kabi.

**Arxaizm** — tilda bor bo‘lib hozir boshqa shaklda qo‘llanuvchi so‘zlar. Masalan: ta‘til — kanikul, farmon — buyruq kabi.

#### SO‘ZLARNING USLUBIY (STILISTIK) QO‘LLANISHIGA KO‘RA

**Neytral leksika** — ekspressiv xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlar.

**Kitobiy leksika** — yozma nutqda qo‘llanuvchi so‘zlar.

**Umumso‘zlashuv leksikasi** — kundalik og‘zaki nutqqa oid so‘zlar.

**Tabu** — ishlatilishi chegaralangan so‘zlar

**Evfemizm** — tabu o‘rnida qo‘llanuvchi so‘zlar. Masalan: nomi yo‘q (chayon o‘rnida).

#### LEKSIKOGRAFIYA

**Lug‘at** — so‘z, so‘z birikmalari va atamalar yig‘indisi.

**Ensiklopedik lug‘at**(qomusiy lug‘at) — turli sohalarga tegishli tushunchalar, hodisalar va boshqalarni izohlab beruvchi lug‘at. O‘zbek milliy ensiklopediyasi (qomusiy) ana shunday lug‘at hisoblanadi.

**Izohli lug‘at** — 1. Ma‘lum sohaga tegishli so‘z va atamalarni tushuntirib beruvchi lug‘at. Masalan: fizika atamaları lug‘ati, tilshunoslik atamaları lug‘ati. 2. Biror tilga tegishli so‘zlarni tushuntirib beruvchi lug‘at: o‘zbek tilining izohli lug‘ati.

**Ikki tildagi tarjima lug‘ati** — bir tildagi so‘z yoki so‘z birikmalarining boshqa tilda berilishini izohlovchi lug‘at: inglizcha-o‘zbekcha lug‘at kabi.

**Atamalar** (terminologik) **lug‘ati** — biror sohaga tegishli so‘z va atamalarni izohlab beruvchi lug‘at: tilshunoslik terminlari lug‘ati kabi.

**Tezaurus lug‘at** — ma‘nolari bog‘lanuvchi so‘zlarni izohlab beruvchi lug‘at.

**Chastotali lug‘at** — so‘zlarning tilda yoki matnda qancha marta ishlatilishini izohlovchi lug‘at.

**Teskari lug‘at** — so‘zlarning tuzilishini o‘ng tomondagi vositalari bo‘yicha tushuntirib beruvchi lug‘at.

## 7. GRAMMATIKA MORFOLOGIYA

**Soʻz turkumi** — soʻzlarning leksik-grammatik belgilariga koʻra guruhlari.

**Grammatik maʼno** — 1. Alohida soʻzda ifodalanmagan, biroq uning asosiy qismiga aloqador boʻlgan tashqi belgilarning maʼnosi. Masalan: kitob-lar (soʻzning oʻzagi — kitob va tashqi belgisi boʻlgan koʻplik qoʻshimchasi (-lar) oʻrtasidagi bogʻlanish. 2. Soʻz birikmalari va gaplarni tuzishda ularning ketma-ketligidan kelib chiquvchi maʼno.

**Grammatik usul** — grammatik maʼnoning material jihatdan ifodalanishi: affiksatsiya, ichki fleksiya, soʻz tartibi, urgʻu, intonatsiya, qaytariqlar, suppletivizm, yordamchi soʻzlar.

**Grammatik shakl** — grammatik maʼno va grammatik usulning birligi.

**Grammatik kategoriya** — umumiy maʼno va ifoda usullarini birliktiruvchi vositalar yigʻindisi; soʻz turkumlari va ular ichidagi turli kategoriyalar: kelishik, son, zamon kategoriyalari kabi.

### SOʻZNING TARKIBI

**Soʻzning tarkibi** — soʻzning morfologik tuzilishi.

**Morfema** — mustaqil maʼnoga ega boʻlgan eng kichik til birligi.

**Allomorf** (morf) — morfemaning varianti, uning bir koʻrinishi (shakli).

**Soʻzning asosi** — leksik maʼnoga ega boʻlgan soʻzning forma yasovchi affiksarsiz qismi.

**Soʻzning oʻzagi** — soʻzning sodda, boshqa asosga boʻlinmaydigan, affikslarga ega boʻlmagan qismi. Masalan: uy, ish kabi.

**Sodda asos** — tarkibida hech qanday affikslar boʻlmagan soʻz asosi.

**Murakkab asos** — boshqa asosdan turli oʻzgarishlar natijasida hosil boʻlgan asos.

**Affiks** (qoʻshimcha) — soʻzdagi boshqa qismlarning maʼnosini oʻzgartira oluvchi morfema.

**Soʻz yasovchi qoʻshimcha** — yangi soʻz yasash uchun xizmat qiluvchi affiks. Masalan: ishchi, odamiylik kabi.



**Soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimcha** — soʻzning formalarini hosil qiluvchi affiks. Masalan, kitobni, maktabga, koʻchada kabi.

#### AFFIKSLARNING TURLARI

**Prefiks** — soʻz oʻzagi oldidan qoʻshiluvchi affiks: beminnat, antifashist kabi.

**Postfiks** — soʻz oʻzagidan keyin qoʻshiluvchi affiks: uying, daftarga kabi.

**Suffiks** — aynan postfiks.

**Infiks** (oʻzaro ulovchi) — qoʻshma soʻzlarning oʻrtasida ularning qismlarini ulovchi suffiks; soʻz oʻzagi oʻrtasiga qoʻyiluvchi affiks ishq-i-boz kabi.

**Nol affiks** — soʻz formasidagi affiksning yoʻqligi: kitob, daftar kabi.

**Paradigma** — soʻz shakllarining qatori: kitob, kitobga, kitobda, kitobi, kitobning kabi.

**Paradigmatik shakl** — paradigmaning har bir shakli.

#### AFFIKSATSIYA TURLARI

**Affiksatsiya** — soʻz oʻzagi va asosiga qoʻshiluvchi affikslarni ifodalovchi jarayon.

**Agglutinatsiya** — soʻzning asosiga turli affikslarni ketma-ket qoʻshilish jarayoni: maktab-lar-imiz-ga.

**Fuziya** — soʻzning asosi ichiga qoʻshimchalar qoʻshish jarayoni: burun — burni, qorin — qorni, opkel (ol:b kel), keptur (kelip tur) kabi.

#### SOʻZ YASOVCHI VA OʻZGARTIRUVCHI USULLAR

**Takror** (reduplikatsiya) — soʻz, uning asosi yoki oʻzagining toʻla yoki qisman qaytarilishi: paqpaq (oʻrik), chumchuq kabi.

**Supletivizm** — turli oʻzaklardan grammatik shakllar yasash: kishi — odamlar, odam — kishilar kabi.

**Yordamchi soʻzlar usuli** — grammatik maʼnoning soʻzdan tashqarida yordamchi vositalar (bogʻlovchi, artikl, predlog, yuklama kabilar) yordamida ifodalanishi.

**Artikl** — yordamchi soʻz boʻlib, otning belgisi (arab tilida), aniq-lik-noaniqlik (hind-yevropa tillarida), jinsning (rodning) farqi (nemis, fransuz tillarida) va sonning farqini ifodalaydi.

### TILNING GRAMMATIK QURILISHI

**Sintetik qurilish** — grammatik maʼnoning soʻz ichida ifodalanishi. Unga ichki fleksiya, affiksatsiya, takror, urgʻu, suppletivizm kabilar kiradi.

**Analitik qurilish** — grammatik maʼnoning soʻzdan tashqarida ifodalanishi. Unga yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi va intonatsiya kiradi.

### SINTAKSIS

**Soʻz birikmasi** — ikki yoki unadan ortiq mustaqil soʻzlarning birikmasi: ishchilar shaharchasi, maktab hovlisi kabi.

**GAP** (jumla) — 1. Yirik til birligi; 2. Tugal fikrni ifodalovchi sintaktik birlik.

**Sintaktik aloqa** — soʻz birikmalari va gaplarda soʻzlarni oʻzaro bogʻlash uchun xizmat qiluvchi aloqa.

**Moslashuv aloqasi** — soʻzlarni biriktirishda ularning turli shakllarini moslashtirishi: Ahmadning kitobi kabi.

**Ergashtiruv aloqasi** — bir soʻzning ikkinchi soʻzga bogʻliqligini koʻrsatuvchi aloqa. Bunda hokim soʻz va tobe soʻz farqlanadi: quvnoq (tobe) qoʻshiq (hokim) kabi.

**Boshqaruv aloqasi** — hokim soʻz tobe soʻzning maʼlum shaklda boʻlishini talab qiluvchi aloqa: kitob oʻqimoq, dars tayyorlamoq.

**Sintagma** — maʼnosi jihatdan bogʻlangan ikki yoki undan ortiq soʻzlarning ohang vositasida bogʻlanishi.

**Sodda gap** — faqat bosh boʻlakdan iborat boʻlgan gap: Bahor keldi.

**Bir tarkibli (sostavli) gap** — tarkibida bir bosh boʻlagi boʻlgan gap. Maktabga kelishdi.

**Ikki tarkibli (sostavli) gap** — ega va kesimi boʻlgan gap: Komil oʻqidi.

**Atov gap (nominativ gap)** — bosh boʻlagi otning bosh kelishigi bilan ifodalangan bir tarkibli gap: Ertalab. Sovuq. Soat olti kabi.

**Shaxssiz gap** — egasi bo'lmagan bir tarkibli gap: O'qish kerak.

**Shaxsi noaniq gap** — kesimi fe'lining 3-shaxsi bilan ifodalangan, shaxsi (egasi) noma'lum bir tarkibli gap: Aytishlaricha, ... So'ziga qaraganda, ... kabi.

**Yig'iq gap** — bir ega va bir kesimga ega bo'lgan gap: Shokir keldi.

**Yoyiq gap** — bosh bo'laklari bilan birga ikkinchi darajali bo'laklari (aniqlovchi, hol, to'ldiruvchi) bo'lgan gap: Mirza chiroyli she'r yozdi.

**Qo'shma gap** — tarkibida bir necha gap bo'laklari bo'lgan gap: Ahmad menga kecha bergan kitobni o'qidim va kitob menda juda yaxshi taassurot qoldirdi.

**Bog'langan qo'shma gap** — bog'lanish aloqasi bilan birikkan qo'shma gap: O'qituvchi keldi va biz darsimizni boshladik.

**Ergashgan qo'shma gap** — qismlarda ergashish yo'li bilan bog'langan qo'shma gap: Agar sen kelsang, ertaga kinoga boramiz.

**Bosh gap** — sintaktik jihatdan mustaqil bo'lgan ergashgan qo'shma gap tarkibidagi gap: Dars tamom bo'lgach, laboratoriyaga boramiz (bosh gap).

**Ergash gap** — ergashgan qo'shma gap tarkibidagi sitaktik jihatdan mustaqil bo'lmagan gap: Quyosh chiqsa (ergash gap), qorlar eriydi (bosh gap).

**Gap bo'laklari** — gapda sintaktik aloqa yordamida birikkan so'zlar (ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol).

**Gapning bosh bo'laklari** — ega va kesim.

**Gapning ikkinchi darajali bo'laklari** — to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol.

**Bevosita tashkil etuvchi bo'laklarga bo'lish** — ma'lum yirik birlikni hosil qilishda ishtirok etgan bo'laklar: Men birinchi kursda o'qiyman.

**Transformatsiya** — gapning asosiy tarkibini o'zgartirish metodi: Olimning do'stlari bor. — Olim do'stlarga ega kabi.

**Gapni aktual bo'laklarga bo'lish** — gapning aniq ma'noni ifodalashga ko'ra bo'laklarga bo'lish.

## 8. YOZUV

**Grafika** — ma'lum yozuvning barcha vositalari.

**Alfavit** — yozuvda qo'llanuvchi barcha grafik belgilar yig'indisi.

**Orfografiya** — yozuvda nutqni ifodalash uchun qo'llanuvchi imlo qoidalari yig'indisi.

**Fonetik yozuv** — har bir harf bir tovushni ifodalovchi yozuv: shahar, qurt, qator kabi.

**Fonematik yozuv** — har bir harf bir fonemani ifodalovchi yozuv: tovuq, bino kabi.

**Morfologik yozuv** — morfologik qurilishni aks ettiruvchi yozuv: maktabga (maktapka) kabi.

**Simvolik yozuv** — fonetik omonimlarni farqlovchi yozuv: uch (son) — uch (uchmoq).

**Transkripsiya** — og'zaki nutqni maxsus belgilar orqali yozib olish usuli.

**Fonetik transkripsiya** — og'zaki nutqni aniq yozib olish belgilari: kitob (kitop) kabi.

**Fonologik (fonematik) transkripsiya** — og'zaki nutqni tildagi fonemalar sostaviga mos holda yozib olish: suv (suv) kabi.

**Piktografiya (piktografik yozuv)** — rasmlar yordamidagi yozuv (rasm piktogramma deyiladi).

**Ideografiya (ideografik yozuv)** — grafik belgilar so'zlarni emas, balki ma'nolarni ifodalovchi yozuv.

**Fonografiya (fonografik yozuv)** — so'zning fonetik jihatini ifodalovchi yozuv.

**Sillabik yozuv (bo'g'in yozuvi)** — grafik belgi yordamida bo'g'inni ko'rsatuvchi yozuv.

**Iyeroglif** — so'zning ma'nosini shartli belgi bilan ko'rsatish.

**Sillabema yozuvi** — bo'g'inni ifodalovchi belgilar yig'indisi.

**Harf yozuvi** — grafik belgisi fonemani ko'rsatuvchi yozuv.

**Stenografiya (stenografik yozuv)** — og'zaki nutqni shartli belgilar yordamida tez va qisqa yozib olish.

## 9. TILLARNING TIPOLOGIK (MORFOLOGIK) TASNIFI

**Flektiv tillar** — flektiv o'zgarishlarga ega bo'lgan tillar. Masalan: ko'pgina hind-evropa tillari, semit tillari. Qarang: fleksiya.

**Agglutinativ tillar** — so'z o'zgarishi agglutinatsiya yo'li bilan bo'luvchi tillar. Masalan: turkiy, fin, bantu tillari. Qarang: agglutinatsiya.

**O'zakli tillar** — affikslarga ega bo'lmagan tillar; bir necha so'zlarni birlashtirish orqali yoki mustaqil so'zlarga yordamchi so'zlarni birlashtirish orqali so'z o'zgartirish. Masalan: xitoy, birma, vietnam tillari.

**Polisintetik tillar** — so'z gap sostavida o'ziga xos strukturasi ega bo'luvchi tillar. Masalan: ba'zi hindu tillari.

## 10. TABIIY VA SUN'IY TILLAR

**Tibbiy til** — kishilar o'rtasida aloqa, fikr almashuv vositasi. Inson nutqi tabiiy tilni namoyon etadi.

**Sun'iy til** — insonning tabiiy tilidan farq qiluvchi, biror shaxs tomonidan maxsus ishlab chiqilgan yordamchi til. Masalan: esperanto tili (L.Zamengof, 1887-yil), volapyuk tili (I.Shleyer, 1870-yil). XX asrning birinchi yarmida 400 ga yaqin sun'iy tillar ishlab chiqilgan.

**O'lik til** — hozirgi davrda so'zlashuv vositasi bo'lmagan til. Ular manbalardagina saqlanib qolgan. Masalan: lotin, eski slavyan, sanskrit tillari. Ba'zan hozir ham ma'lum guruh kishilar bunday tillarda so'zlashishi mumkin. Masalan: sanskrit tilida Hindistonda 500 ga yaqin kishi so'zlashadi.

**Jonli til** — hozirgi davrda so'zlashuv vositasi bo'lgan til. Ba'zan jonli so'zlashuv nutqi deb ham ataladi.

**Belgilar tili** — imo-ishora, mimikadan aloqa vositasi sifatida foydalanish. Ularni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi paralingvistika (lotincha — para — yaqin, ya'ni tilshunoslikka yaqin degan ma'noda) deyiladi.

**Millatlararo aloqa tili** — ko'pchilik xalqlar tomonidan o'zaro muloqot sifatida qo'llanuvchi til.

**Ikkitillilik (bilingvizm)** — 1) ikki tilda so'zlashuv 2) ikki tilning o'zaro ta'sir jarayoni.

Aralash (gibrid) til — tillarning aralashib ketishi natijasida hosil bo'lgan sun'iy til. Masalan: pidjin — ingliz (Yaponiya, Tinch Okean orollarida tarqalgan).

**Dunyo tili** — xalqaro kengashlarda, simpoziumlarda ishlatiluvchi, birlashgan Millatlar Tashkilotida rasmiy tan olingan til. Bunga ingliz, ispan, xitoy, fransuz, rus, arab tillari kiradi.

**Davlat tili** — alohida davlat farmoyishlari asosida davlat tili maqomi berilgan, shu davlatning barcha sohalarida qo'llanadigan til.

**Rasmiy til** — alohida davlatda rasmiy tan olingan, barcha sohalarida ishlatiladigan til.

## ADABIYOTLAR

1. *Аракин В.Д.* Сравнительная типология английского и русского языков. М., Просвещение, 1989.
2. *Аракин В.Д.* Типология языков и проблема методического прогнозирования. М., Высшая школа, 1989.
3. *Абдуазизов А.А.* Тилшуносликка кириш. I қисм. Фонетика ва фонология. II қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. Тошкент, Университет, 1999.
4. *Абдуазизов А.А.* Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т., 1992.
5. *Абдуазизов А.А., Шереметьева А.Г., Зализняк А.М.* Общее языкознание. Тошкент, Университет, 2004.
6. *Ашурова Д.У.* Производное слово в свете коммуникативной теории языка. Ташкент, Фан, 1991.
7. *Белянин В.П.* Психоллингвистика. М.: Флинта, 2003.
8. *Бушуй А.М.* Сущность языка как проблема общей лингвистики. Самарканд, 2004.
9. *Бушуй Т.А., Сафаров Ш.* Тил қурилиши: Таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент, Фан, 2007.
10. *Бўронов Ж.Б.* Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
11. *Буранов Д.Ж.* Сравнительная типология английского и турецких языков. М., Высшая школа, 1983.
12. *Гак В.Д.* Сравнительная типология французского и русского языков. Издание 2-е. М., Просвещение, 1983.
13. *Герд А.С.* Введение в этнолингвистику. 2-издание, исправленное. Санкт-Петербург, Университет, 2005.
14. *Зеленецкий А.Л., Монахов П.Ф.* Сравнительная типология немецкого и русского языков. М., Просвещение, 1983.
15. *Ирисқулов М.Т.* Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 2-нашр, 2008.
16. *Касевич В.Б.* Элементы общей лингвистики. М., Наука, 1977.
17. Лингвистический энциклопедический словарь. М., Энциклопедия, 1990.
18. *Маслова В.А.* Лингвокультурология. 2-издание. М., Academia, 2004.
19. *Мечковская Н.Б.* Общее языкознание. Структурная и социальная типология языков. М., Наука, 2001.
20. *Поливанов Е.Д.* Введение в языкознание для

востоковедных вузов. Издание второе, стереотипное. М., УРСС, 2002.

21. *Попова З.Д., Стернин М.* Когнитивная лингвистика. М.: АСТ Восток-Запад, 2007.

22. *Расулова М.И.* Основы лексической категоризации в лингвистике. Ташкент, Фан, 2005.

23. *Реформатский А.А.* Введение в языковедение, 3-издание. М., 2004.

24. *Фуломов Ф., Тихонов Ф.Н., Қўнғиров Р.* Ўзбек тили морфем лугати. Тошкент, Ўқитувчи, 1977.

25. *Сафаров Ш.* Когнитив тилшунослик. Жиззах, Сангзор, 2006.

26. *Содиқов А.С., Абдуазизов А.А., Ирисқулов М.Т.* Тилшуносликка кириш. Тошкент, Ўқитувчи, 1979.

27. *Степанов Ю.С.* Методы и принципы современной лингвистики. М., УРСС, 2004.

28. *Трубецкой Н.С.* Основы фонологии. М., 1960.

29. *Ҳожиёв А.П.* Тилшунослик терминларнинг изоҳли лугати. Тошкент, Энциклопедия, 2004.

30. *Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А.* Введение в языковедение. Т., Ўқитувчи, 1989.

31. *Широков О.С.* Языковедение. Введение в науку о языках. «Studia academica». — М.: Добросвет, 2003.

32. *Юсупов У.К.* Теоретические основы сопоставительной лингвистики. Ташкент, Фан, 2007.

33. *Abduazizov A.A.* English Phonetics. A Theoretical Course. Tashkent. Musiq, 2007.

34. *Clark J., Yellop C. and Fletcher J.* An Introduction to Phonetics and Phonology. Third edition. Blackwell publishing. 2007.

35. *Croft W.* Typology and Universals. Second edition. Third printing. Cambridge University Press, 2006.

36. *Crystal David.* A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Fifth edition. Blackwell Publishing, 2003.

37. *Davis John F.* Phonetics and Phonology. Ernst. Klett. Verlag. Leipzig, 2004.

38. *Eggins S.* An Introduction to Systemic Functional Linguistics. London: Continuum. 2005.

39. *Haspelmath M.* Understanding Morphology. London: Arnold, 2002.

40. *Radford A.* Syntax. A Minimalist Introduction. Cambridge University Press, 2002.

41. *Scovel Th.* Psycholinguistics. Oxford University Prass, 1998.



**A. A. ABDUAZIZOV**

**TILSHUNOSLIK NAZARIYASIGA  
KIRISH**

*Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari  
talabalari uchun darslik*

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent — 2010

Muharrir *Ulug'bek Rahimov*  
Badiiy muharrir *Tolib Qanoatov*  
Texnik muharrir *Diana Gabdraxmanova*  
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*  
Musahhihlar: *Nodira Oxunjonova, Ma'mura Ziyamuhamedova*

Terishga berildi 02.12.2009. Bosishga ruxsat etildi 20.01.2010. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>. «TimesUZ» garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 11,0. Nashriyot-hisob tabog'i 12,0. Adadi 2000 dona. Buyurtma № 827. Bahosi shartnoma asosida.

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy.

# TILSHUNOSLIK NAZARIYASIGA KIRISH

---



ISBN 978-9943-00-540-2



9 789943 005402

---